

RAQAMLI IQTISODIYOT

ILMIY-ELEKTRON JURNALI

OAV №0237

ISSN 2181-4430



“

Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat
iqtisodiyotining kelajagi yo'q.

”

Shavkat Mirziyoyev

RITM RAQAMLI
IQTISODIYOT
TADQIQOTLARI
MARKAZI

6-SON

www.infocom.uz

“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali

“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi davriy nashri bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sohasida yangiliklar, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt sohalarida ilmiy-amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonlarini yoritadi.

Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

Jurnal har chorakda bir marta elektron shaklda nashr qilinadi va www.infocom.uz saytiga yuklanadi.

“Digital economy” scientific-electronic journal

Scientific and electronic journal “Digital economy” is a periodical publication of the “Digital Economy Research Center” government entity under the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. Scientific and electronic journal illuminates the processes of increasing the efficiency of applied research and increasing economic efficiency through the introduction of digital technologies.

The journal is included in the list of recommended national scientific publications for publication of the main scientific results of dissertations on economic sciences of the Supreme attestation commission.

The journal publishes quarterly in electronic form and uploads to the website www.infocom.uz.

RAQAMLI IQTISODIYOT

ILMIY-ELEKTRON JURNALI

MUASSIS

“Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi

TAHRIR KENGASHI RAISI

Kravchenko Vladimir Vladimirovich

BOSH MUHARRIR

Axmedov Bexruz Ibroxim o‘g‘li

MAS‘UL KOTIB

Yusupov Akim Konstantinovich

TAHRIRIYAT A‘ZOLARI

Abdurahmonov Q.X.	- i.f.d., akademik	Muxitdinov A.X.	- i.f.n., dotsent
Jo‘rayev A.S.	- i.f.d., professor	Bazarov F.O.	- i.f.d., dotsent
Teshabayev T.Z.	- i.f.d., professor	Ismailov X.M.	- PhD, dotsent
Begalov B.A.	- i.f.d., professor	Xolmuxammedov M.M.	- i.f.d., dotsent
Qodirov A.M.	- i.f.d., professor	Iminova N.A.	- i.f.n., dotsent
G‘oyibnazarov B.K.	- i.f.d., professor	Raxmonov R.N.	- i.f.n., dotsent
Ataniyozov J.X.	- i.f.d., professor	Ismoilova G.F.	- i.f.n., dotsent
Xaydarov N.H.	- i.f.d., professor	Mamadiyarov Z.T.	- i.f.d., dotsent.
Kenjaboev A.T.	- i.f.d., professor	Muxitdinov X.A.	- i.f.n., dotsent
Bazarova S.D.	- p.f.d., professor		

DIGITAL ECONOMY

SCIENTIFIC-ELECTRONIC JOURNAL

FOUNDER

“Digital economy research center” government entity

CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Kravchenko Vladimir Vladimirovich

EDITOR-IN-CHIEF

Akhmedov Bekhruz Ibrokhim ugli

EXECUTIVE SECRETARY

Yusupov Akim Konstantinovich

EDITORIAL BOARD

Abdurakhmonov K.Kh.	- DSc, academician	Mukhitdinov A.Kh.	- PhD, docent
Juraev A.S.	- DSc, professor	Bazarov F.O.	- PhD, docent
Teshabayev T.Z.	- DSc, professor	Ismailov Kh.M.	- PhD, docent
Begalov B.A.	- DSc, professor	Kholmuxammedov M.M.	- PhD, docent
Kodirov A.M.	- DSc, professor	Iminova N.A.	- PhD, docent
Goyibnazarov B.K.	- DSc, professor	Rakhmonov R.N.	- PhD, docent
Ataniyozov J.X.	- DSc, professor	Ismoilova G.F.	- PhD, docent
Khaydarov N.H.	- DSc, professor	Mamadiyarov Z.T.	- DSc, docent
Kenjaboev A.T.	- DSc, professor	Mukhitdinov Kh.A.	- PhD, docent
Bazarova S.D.	- DSc, professor		

MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOT

1	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTI RIVOJLANISH BOSQICHLARI <i>Razzaqova Durdona Adashboy qizi</i>	10
2	IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI <i>Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li</i>	20
3	RAQAMLASHGAN ASRDA BANKLARNING BARQAROR RIVOJLANISHI: INTEGRATSIYA VA TA‘SIRLAR TAHLILI <i>Xasanboyeva Muxlisabonu Rasuljon qizi</i>	26
4	INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI VAHOLASH <i>Saloxitdinov Sherzod Farxodovich</i>	36
5	НАПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ <i>Дадабаева Рано Акрамовна</i>	46
6	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR RAQOBAT BARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI <i>Ravzatov Jonibek Baxromovich</i>	55
7	SANOAT TARMOG‘IDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O‘RNI <i>Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li</i>	67
8	SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH MODELI <i>Meliyev Vohidjon Pulatovich</i>	73
9	DIGITAL ECONOMY AND HUMAN RIGHTS <i>Rahmonov Jaloliddin</i>	81
10	RAQAMLI IQTISODIYOTNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI <i>Ravzatov Jonibek Baxromovich</i>	87
11	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR O‘RTASIDA IJARA (LIZING) MUNOSABATLARI <i>Qudbiyev Nodir Tohirovich</i>	98
12	POCHTA ALOQASI KORXONALARIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Kenjabaev Aman Turgunovich, Nosirov Sardor Xolmirzayevich</i>	108

13	O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUAMOLLARI <i>Shadmanov Zuhridin Zokirxodjayevich, Axmedov Bexruz Ibroxim o‘g‘li, Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o‘g‘li</i>	116
14	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH <i>Saidaxmedova Dilafruz Saidbaxromovna</i>	125
15	SMART TEXNOLOGIYALARNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI <i>Umarov Omonjon Muxammad o‘g‘li</i>	132
16	O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI <i>Bababekova Nargiza Baxtiyarovna</i>	142
17	ACTIVE PARTICIPATION AND EFFECTIVENESS OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY <i>Iminova Nargiza Akramovna</i>	153
<hr/> ELEKTRON TIJORAT <hr/>		
18	РАЗВИТИЕ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЁ ПЕРСПЕКТИВЫ <i>Махмудова Гулжахон Нематджоновна, Каримов Диёр Мухтарович, Холматов Сирожиддин Исломжон угли</i>	166
19	ELEKTRON TIJORATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITALARI VA USULLARI <i>Boltaboeva Go‘zal Ravshanovna</i>	177
20	XORIJIY DAVLATLARDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI <i>Xakimdjanova Dildora Kamilevna</i>	191
<hr/> LOGISTIKA <hr/>		
21	MILLIY MAHSULOTLARNING TASHQI BOZORGA CHIQISHIDA TRANSPORT LOGISTIKASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Axmedov Zoxid Sobirovich</i>	201
22	TRANSPORT LOGISTIKASIDA “TIR” KARNET KITOBCHASI QO‘LLANILISHINING XALQARO YUK TASHUVLARDAGI AHAMIYATI <i>Israilov Fazil Ismailovich</i>	208

23	DIGITAL LOGISTICS: POSSIBILITIES OF SMART CONTRACTS IN THE ORGANIZATION OF INTELLECTUAL TRANSPORT SYSTEMS <i>Ekhsanov Jasur Rustamovich</i>	219
24	LOGISTIK TIZIMDA XALQARO YUKLARNI TASHISHDA TRANSPORT-YUK KOMPLEKSINING TERMINAL TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI OSHIRISH <i>Qosimov Sunnat Hatamovich</i>	229

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA, RAQAMLASHTIRISH

25	PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE DIGITAL ECONOMY <i>Mamanov Mukhammadamin</i>	238
26	CUSTOMER RELATIONSHIP MANAGEMENT BASED ON THE LATEST INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES <i>Okhunov Dilshod Mamatjonovich</i>	246
27	ТАДБИРКОРЛИК КОРХОНАЛАРИДА ЭКСПОРТ КЎЛАМИНИ ОШИРИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ <i>Расулов Шавкат Шароф ўғли</i>	255
28	MEHNATNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELKTNI QO'LLASH <i>Muradov Sirojiddin Husan o'g'li</i>	262
29	MEHNAT MUHOFAZASI VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI BO'YICHA O'QITISH VA YO'RIQNOMALARNI RAQAMLASHTIRISH ASOSLARI <i>Muradov Sirojiddin Husan o'g'li</i>	271
30	THE SIGNIFICANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN STUDYING SECURITY ISSUES IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION <i>Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich</i>	280
31	ВНЕДРЕНИЕ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ <i>Ахмедов Бехруз Иброхим угли, Холматов Сирожиддин Исломжон угли</i>	287
32	ТЕХНОЛОГИЯ PARTISIA BLOCKCHAIN <i>Салаев Расул Шавкатович</i>	296
33	RAQAMLI VALYUTALAR BILAN AMALGA OSHIRILGAN OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Salayev Rasul Shavkatovich</i>	305

- 34** O‘QUV BINOLARI VA O‘QUV MARKAZLARINI RANG YECHIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR HAMDA SUN‘IY INTELLEKT ORQALI LOYIHALASH
Siddiqova Madinabonu Asatillo qizi, Karimov Bahodir O‘ktam o‘g‘li 325
- 35** JAMOAT BINOLARI VA O‘QUV MARKAZLARI UCHUN TASVIRIY SAN‘AT VA RANG YECHIMINI LOYIHALASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI
Siddiqova Madinabonu Asatillo qizi, Sultonova Dilshoda Namazovna 333

RAQAMLI TA‘LIM

- 36** TARIX FANINI O‘QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI
Userbayeva Feruza Inoyat qizi 341
- 37** ОБЗОР НАУЧНОЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННОСТИ ПО ВОПРОСАМ ЦИФРОВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ В ОБЩЕДОСТУПНЫХ НАУЧНЫХ ПЛАТФОРМАХ
Мурадова Наргиза Улжаевна 349
- 38** TEXNOLOGIK TA‘LIM YO‘NALISHIDA MUTAXASISLIK FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI
Umarova Fotima Abduraximovna, Mirobidova Nafosat O‘ktam qizi 357
- 39** INFORMATION SYSTEMS AS A TOOL FOR PHILOLOGICAL RESEARCH
Rahmanova Sayyora Rajabovna 364
- 40** TA‘LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI
Islamova Qunduz Ikromboy qizi 369

SUN‘IY INTELLEKT

- 41** LEVERAGING ARTIFICIAL INTELLIGENCE FOR SOLVING BUSINESS CHALLENGES
Ziyodinova Nilufar Zarif kizi 376
- 42** GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMI VA GEOGRAFIK TADQIQOTLARDA SUN‘IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN EKSPERT TIZIMLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI
Mirislomov Mirdavlat 385
- 43** СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ У ЧЕЛОВЕКА НА ПРИМЕРЕ РОБОТОТЕХНИКИ
Жамолова Гулбанбегим Музаффар кизи, Хамрақулова Ситора Ойбек кизи, Уралова Нигора Бобояр кизи 395

44	ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ	<i>Султанов Руслан Рустамович</i>	403
-----------	---	-----------------------------------	-----

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT

45	ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	<i>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</i>	415
46	ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФИНАНСИРОВАНИЯ ОХРАНЫ ТРУДА	<i>Мурадов Сирожиддин Хусан ўғли</i>	424
47	FAVQULODDA VAZIYATLAR TA'SIRLI OQIBATLARINI IQTISODIY ZARARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH	<i>Maxmatqulov Nurilla Imomovich</i>	431
48	ISHLAB CHIQRISH BILAN BOG'LIQ BAXTSIZ XODISALARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY YO'QOTISHLARNI HISOBLASH USULLARI	<i>Maxmatqulov Nurilla Imomovich</i>	439
49	BAND BO'LMAGAN AHOLINI MUNOSIB ISH O'RINLARIGA JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	<i>Maxmatqulov Nurilla Imomovich, Maxmatqulova Zarina Nurilla qizi</i>	448
50	SANOAT OBYEKTLARIDA SODIR BO'LGAN AVARIYALAR OQIBATIDA BEVOSITA KO'RILGAN ZARARNI HISOBLASH USULLARI	<i>Mamatov Nurbek Ziyodullayevich</i>	456
51	NARX KATEGORIYASIGA BO'LGAN NAZARIY QARASHLAR	<i>Bababekova Gulchehra Baxtiyarovna, Bababekova Nargiza Baxtiyarovna</i>	465
52	СУВЕРЕН ФОНДЛАРНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ	<i>Сатторов Комилжон Орипович</i>	475
53	DAVLAT ISHTIROKI MAVJUD KORXONALARDA QIMMATLI QOG'OZLAR AMALIYOTI TAHLILI	<i>Axmedov Xasan</i>	485

TURIZM

54	АКТУАЛЬНОСТЬ РАЗВИТИЯ АГРОТУРИЗМА В САМАРКАНДЕ	<i>Назарова Раъно Рустамовна</i>	493
-----------	---	----------------------------------	-----

**O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining №0237 raqamli
guvohnomasi bilan OAV sifatida davlat tomonidan tasdiqlangan**

**Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga
kiritilgan**

RAQAMLI IQTISODIYOT

Ilmiy-elektron jurnali

DIGITAL ECONOMY

Scientific-electronic journal

Telefon: +998 55 501 03 02

E-mail: info@infocom.uz

Website: <https://infocom.uz>

<https://derc.uz>

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mahtumquli ko‘chasi, 1-a uy.

ISSN 2181-4430

“RITM” DM

2024

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Razzaqova Durdona Adashboy qizi

Farg‘ona politexnika instituti tayanch doktoranti

d.razzoqova@ferpi.uz

Annotatsiya: Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davrida ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va hisoboti rivojlanish bosqichlari tahlil etish o‘rganish dolzarb mavzulardan sanaladi, zero har qanday iqtisodiy va boshqaruv qarorlar aynan buxgalteriya hisobi va hisobotlari asosida qabul qilinadi. Ushbu sharoit ushbu maqolaning metodologik va ilmiy muvofiqlashtirishga zamin yaratdi hamda asosiy maqsad sifatida buxgalteriya hisobi va hisoboti rivojlanish bosqichlari o‘rganishga qaratildi.

Kalit so‘zlar: *rivojlanish strategiyasi, raqamli iqtisodiyot, axborot tizimlari, milliy iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy axborotlarni qayd etish, buxgalteriya axborotlari, moliyaviy axborotlar.*

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Раззақова Дурдона Адашбой қизи

Базовый докторант Ферганского политехнического института

d.razzoqova@ferpi.uz

Аннотация: Сегодня, в период экономических реформ, проводимых в нашей республике, особенно в условиях цифровой экономики, анализ этапов развития бухгалтерского учета и отчетности является одной из актуальных тем для изучения, ведь любые экономические и управленческие решения принимаются именно на основе бухгалтерского учета и отчетности. Эти условия заложили основу для методологической и научной координации настоящей статьи и были направлены на изучение этапов развития бухгалтерского учета и отчетности в качестве основной цели.

Ключевые слова: *стратегия развития, цифровая экономика, информационные системы, народное хозяйство, цифровые технологии, учет экономической информации, бухгалтерская информация, финансовая информация.*

STAGES OF DEVELOPMENT OF ACCOUNTING AND REPORTING IN THE DIGITAL ECONOMY

Razzaqova Durдона Adashboy kizi

Basic doctoral student at Fergana Polytechnic Institute

d.razzoqova@ferpi.uz

Abstract: Today, during the period of economic reforms carried out in our republic, especially in the conditions of the digital economy, the analysis of the stages of development of accounting and reporting is one of the relevant topics for study, because any economic and managerial decisions are made on the basis of accounting and reporting. These conditions laid the foundation for the methodological and scientific coordination of this article and were aimed at studying the stages of development of accounting and reporting as the main goal.

Keywords: *development strategy, digital economy, information systems, national economy, digital technologies, accounting of economic information, accounting information, financial information.*

KIRISH

O‘zbekiston ham xalqaro hamjamiyatning va global iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, mintaqada va jahon iqtisodiyotidagi ijobiy yoki salbiy o‘zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Pandemiya davrida va undan keyingi davrlarda O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish hozirgi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarishda raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlariga kirib borishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada boshqa davlatlardagi singari mamlakatimizda ham bir qancha qaror va farmonlar, shuningdek, rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan Prezidentimizning 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [2], “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28.04.2020 yildagi PQ-4699-sonli [1], “Raqamli iqtisodiyot – 2030” [3] dasturi hamda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning eng yangi taraqqiyot strategiyasi”[4] da raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan bandlarning mavjudligi davlatimiz taraqqiyotining zamon bilan hamnafas borayotganligining ayni isbotidir.

Raqamli texnologiyalarni milliy iqtisodiyotning barcha jabhalariga faol joriy etish sharoitida har qanday korxonaning moddiy va moliyaviy oqimlarini boshqarishni

avtomatlashtirishning asosiy vazifasi sifatida buxgalteriya hisobi axborot tizimini ishlab chiqish va yaratish katta ahamiyatga ega.

Buxgalteriya axborotlarini raqamli texnologiyalarga transformatsiya qilish, ya'ni buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish — bu tadbirkorlik va boshqa tashkilotlar faoliyati to'g'risida miqdoriy iqtisodiy ma'lumotlarni olish uchun ma'lumotlarni doimiy ravishda qayd etish va tahlil qilish imkonini beruvchi dasturiy vositalar to'plami yordamida hisob ishlarini amalga oshirish va hisobotlarni tayyorlash jarayonidir

Bu esa oddiy buxgalteriya hisobini “yangicha buxgalteriya hisobi” yoki “raqamli buxgalteriya hisobi”ga o'zgartirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bir hisobdan yangicha qarashlar, kelajak talablariga javob bera oladigan moliyaviy axborotlar tizimini yaratish buxgalteriya hisobi va hisoboti evolyutsiyasini chuqur o'rganishga olib kelsa, ularni avtomatlashtirishni davrlashtirish esa raqamli texnologiyalar yordamida kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko'ra bilish, yangi hisob obyektlarini aniqlash va hisobotlarning yangicha modellarini taklif qilish imkoniyatlarini ochib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buxgalteriya hisobini paydo bo'lishidan tortib to hozirgi kungacha rivojlanishi evolyutsiyasini tahlil etish bu sohaning bugungi va kelajakdagi holatini tahlil etishga urinish natijasida yaqin bir necha yillar mobaynida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan buxgalteriya hisobining tarixiy rivojlanishini chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishlar ortib borishiga turtki bo'lmoqda.

Olimlarning joylashuvi, tadqiqot olib borgan davrlariga ko'ra buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixi turli omillarga, jumladan insonning paydo bo'lishi va uning ongi rivojlanishiga, davlatlarning shakllanishiga, fan-texnikaning rivojlanishi kabilarga bog'lab o'rganilgan.

Professor V.T. Chaya va O.V.Latipovalar fikriga ko'ra buxgalteriya hisobi ibtidoiy jamoa davrida vujudga kelgan. Buning asosiy sababi, ushbu davrda mehnat qurollarining takomillashmaganligi, turli xildagi ekologik muammolarga insonlarning tayyor emasligi va oziq-ovqat yetishmasligi natijasida zaxiralar yasharish hamda ularning hisob-kitobini yuritish bo'lgan [5].

Professor K.Karderi va N.Toshmamtovlar o'z tadqiqotlarida buxgalteriya hisobi tarixini dinning paydo bo'lishi va rivojlanishiga bog'laydilar. Ularning nazariyalari diniy ilmlarda buxgalteriya hisobining tamoyillari, maqsadlari va moliyaviy axborotlarni taqdim etish usullari yorilganligini asoslaydi [6], [7].

Professor A.Ch.Litterlon esa buxgalteriya hisobini vujudga kelishi hamda takomillashuvini olamning tabiiy o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq deb qaraydi [8].

Professor Ya.V.Sokolov buxgalteriya hisobining tarixiy shakllanish evolyutsiyasini ilmiy qarashlar va amaliy sabablar asosida tasniflaydi [9].

Buxgalteriya hisobi paydo bo'lish tarixiga bo'lgan yondashuvlar turfa xil bo'lganligi kabi hisob ishlarining takomillashishi va ularni davriylashtirishga bo'lgan qarashlar ham bir biridan farq qiladi. Bu borada mamlakatimiz olimlaridan N.Toshmamatov va boshqa bir necha olimlar, shuningdek, xorij olimlaridan Ya.V.Sokolov, A.M.Galagan, J.Sharar Russo [10], L.Gelbert [11], B.T.Bakster [12], M.I.Sidorova va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida va ilmiy nashrlarida keng yoritib berganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola har bir ilmiy izlanish kabi olimlarning fikrlari va mulohazalarini tahlil etishni o'z ichiga olib asosiy maqsadga erishish uchun ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, tizimli yondashish, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan fikrlar va tahlil qilingan adabiyotlardan olingan xulosalarga ko'ra shuni aytishimiz mumkinki, buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi hali hal etilmagan savollardan biri bo'lib qolmoqda. Raqamli texnologiyalarning hayotimizda keng jalb etilishi global axborot makonini yaratganligiga qaramasdan buxgalteriya hisobi tarixini o'rganish uni tadqiq etishda hali hamon turfa xil qarashlar va nomunatonisibliklar mavjud bo'lib, buxgalteriya hisobi va hisobotining tarixiy evolyutsiyasini tadqiq etish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Buxgalteriya hisobi turli xil va ko'plab biznes operatsiyalarining tizimli va dolzarb yozuvlarini taqdim yetishda muhim rol o'ynaydi. Uning maqsadi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda tahlil qilish, ularni tartibli ravishda qayd yetish, ma'lumotlarni foydali va tushunarli moliyaviy hisobot (balans, daromadlar to'g'risidagi hisobot) bo'yicha guruhlash va tartibga solish va talqin qilish jarayonida yordam berishdir.

Buxgalteriya-bu xizmat faoliyati. Uning vazifasi iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda, muqobil harakatlar yo'nalishi bo'yicha oqilona tanlov qilishda foydali bo'lgan iqtisodiy subyektlar to'g'risida miqdoriy ma'lumotlarni, birinchi navbatda moliyaviy xarakterdagi ma'lumotlarni taqdim etishdir [14].

Buxgalteriya hisobi-bu barcha iqtisodiy o'zaro ta'sirlarni uzluksiz, hujjatli va uzluksiz hisobga olish usuli bilan mavjud mulk, tashkilotning majburiyatlari va pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni pul ko'rinishida to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning yagona tizimidir.


Buxgalteriya hisobi yanada foydali bo'lishi uchun ajralmas axborot tizimida turli xil ma'lumotlarni taqdim etishi kerak. Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi turli xil

moliyaviy hisobotlar orqali taqdim yetilgan buxgalteriya ma'lumotlari asosida turli masalalar bo'yicha qaror qabul qilishdir [15].

Birinchi tomondan xorijiy olimlarning buxgalteriya hisobi paydo bo'lishini tarixi doir qarashlarini tizimlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, hisob ishlari ilk bor Qadimgi Misrda vujudga kelganligini asoslovchi dalillar mavjud. Olimlar ushbu davrdagi odamlar tomonidan yozilgan papirus qog'ozlaridagi yozuvlarni topishgan va ularning bir qanchasida fir'avning xazinasini hisob kitobi yuritilganligi aniqlangan. Qadimgi Mesopotamiya esa iqtisodiy xatti harakatlar ikkiyoqlama yozuvning yaratilishidan 5 ming yil avval yuzaga kelganligini asoslovchi nazariyalar mavjud [16]. Shuningdek, dastlabki hisob kartalarining yuritilishi Qadimgi Babil davlati tarixi bilan bog'liq bo'lgan dalillarga asoslansa, birinchi hisoblash texnikasi "Abakus"ning ixtiro qilinishi Qadimgi Gretsiya mamlakati haqida axborot beruvchi tarixiy ashyolarga borib taqaladi. Bu yerlarda qiymatning o'lchov birligi hisoblangan pul tanga shaklida vujudga kelgan bo'lib, uning funksiyalari takomillashuvi buxgalteriya hisobini rivojlanishiga katta turtki bo'lgan.

Ikkinchi tomondan esa mahalliy olimlarimizning tadqiqotlarini inobatga olgan holda buxgalteriya hisobining vujudga kelish tarixiga fikr bildiradigan bo'lsak, mamlakatimiz, xususan O'rta Osiyo davlatlarida hisob ishlari haqidagi ilk faktlar Islom dinining paydo bo'lish davriga bo'lib taqalishini, Qur'oni Karim "Baqara" surasining 282-oyati nozil bo'lishi bilan ifodalanadi [17]. Shuningdek, hisob kitoblarning rivojlanishi hamda takomillashuvini asoslovchi manbalar tarkibida "Temur tuzuklari"ning ahamiyatini ham ko'rsatib o'tishimiz zarur deb hisoblayman. Sababi undagi yozuvlar hisob kitoblarning yozib borilishi hamda kirim va chiqimlar uchun alohida kitoblar yuritilishi kerakligini ta'kidlanganligini ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobining vujudga kelishi tarixi va uning rivojlanish tendensiyalarining o'rganishning yana bir asosiy yondashuv rivojlanishni davriylashtirish hisoblanadi. Xorij va mahalliy olimlarning hisobchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha qarashlarini tizimlashtirgan holda o'z nazariyalarimizni quyidagi chizmalarda aks ettiramiz.



1-rasm. Buxgalteriya hisobi paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir etgan omillarning davrlar bo'yicha tasnifi¹

Buxgalteriya hisobining paydo bo'lganligiga bir necha ming yillar bo'lganligiga qaramasdan hisob ishlarining rivojlanishi asosan so'nggi 500 yillikka to'g'ri kelmoqda. Yaqin besh asr davomida buxgalteriya hisobining maqsadi, metodologiyasi va hisob yuritish usullari keng qamrovda takomillashtirildi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda faoliyatining kengayishi, davlatlararo savdo munosabatlarining takomillashuvi shuningdek, inson hayotiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi sanoatda inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu esa buxgalteriya hisobi shakllari va metodologiyasiga ta'sir etmasdan qolmadi. Sanoat inqilobining davrlashtirilishi va ushbu davrlarda buxgalteriya hisobida sodir bo'lgan o'zgarishlar abzas boshida keltirilgan fikrlarning ayni isbotidir.

¹ Chizma muallif tomonidan tayyorlandi

1-jadval

Buxgalteriya hisobi va hisoboti metodologiyasi rivojlanishining sanoat inqilobiga asoslangan holda davriylashtirilishi ²

Rivojlanish bosqichi	Rivojlanish davri	Mazmuni
1- bosqich	XVIII asr oxiri-XIX asr boshlari	a) buxgalteriya hisobi metodologiyasining shakllanishi b) hisobchilik ishlarini o'rgatuvchi birinchi qo'llanmalar va darsliklarning paydo bo'lishi
2- bosqich	XIX asrdan XX asr boshlariga qadar	c) buxgalteriya hisobi bo'yicha qonunchilik manbalarining shakllanishi d) buxgalteriya hisobini funksiyalariga ko'ra moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'linishi e) buxgalteriya hisobining fan sifatida shakllanishi f) professional buxgalteriya maktablarining vujudga kelishi
3- bosqich	XX asr oxiriga qadar	g) iqtisodiy axborotlarni qayta ishlashda qog'oz formatidan informatsion texnologiyalardan foydalanish darajasiga o'tish h) barcha iqtisodiy subyektlar uchun buxgalteriya hisobini qo'llash doirasini kengaytirish i) buxgalteriya hisobi obyektlarini hisobga olishni barcha subyektlar uchun birxillashtirilishi va hisoblar rejasining ishlab chiqilishi j) buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lumotlarni tizimlashtirish, ya'ni buxgalteriya hisobotlari shakllarining ishlab chiqilishi k) butun dunyo bo'ylab buxgalteriya hisobi doirasidagi me'yoriy hujjatlarining takomillashuvi
4- bosqich	hozirgi davr	l) barcha davlatlarda yagona buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarining qo'llanilishi m) hisob ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalardan keng foydalanish n) boshqa iqtisodiy faktlarni aks ettiruvchi hisobotlar bilan buxgalteriya moliyaviy) hisobotning yaqinlashishi o) raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida yangi hisob obyektlarining paydo bo'lishi p) buxgalteriya hisobida bulutli texnologiyalardan foydalanish q) moliyaviy hisobot axborotlarini foydalanuvchilarga taqdim etishning yangi formatlarini shakllantirishga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi

XULOSA

Shunday qilib soha olimlarining fikrlari hamda iqtisodiy adabiyotlar va huquqiy hujjatlar tahlil qilish natijalariga ko'ra, bizningcha raqamli iqtisodiyotning zamonaviy sharoitida buxgalterlar hisobi va hisobotlari ko'plab talablar qo'yiladi, qolaversa ushbu

² Jadval muallif tomonidan tayyorlandi

faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar ko'plab funksiyalar va ko'nikmalarni bilishlari talab etiladi shuni hisobga olib quyidagi fikrlar o'rinli deb hisoblaymiz:

- buxgalterlar bu iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, jamiyat faoliyatining huquqiy va ijtimoiy jihatlari bo'yicha professional fikrlarning umumiy konsepsiyasiga asoslanadi;

- ko'plab buxgalterlar hisobi va hisobotlari asosiy foydalanuvchilari soliq idoralari hisoblanadi bu o'z navbatida ko'proq boshqaruv qarorlarining soliq to'lash va uning hisobotlarini shakllantirishga sabab bo'ladi;

- buxgalteriya hisobotlari bu biznesni rivojlantirish masalalari, shuningdek, ayrim boshqaruv qarorlarining potensial natijalari bo'yicha tahlil va ekspert xulosalari uchun manbadir;

- buxgalterlar hisobi va hisobotlari bu korxonaning joriy va kelajakdagi faoliyatini tahlil qilishga imkon yaratadi;

- raqamli iqtisodiyot sharoitida har bir buxgalteriya hisobotlari albatta elektron shaklda shakllantirilari va taqdim etiladi;

- raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalterlar hisobi va hisobotlarini shakllantirish va taqdim etishda eng ilg'or mahalliy va xorijiy axborot texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi;

- raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi nazariy izlanishlarni, buxgalteriya hisobini rivojlantirishni va takomillashtirish usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, bugungi kundagi sharoit ayniqsa raqamli iqtisodiyot buxgalterlarning faoliyati hamda buxgalteriya siyosatini shakllantirishga yangicha voqe'larni olib keladi va kompaniyaning iqtisodiy faoliyati faktlarini tasniflash ta'sir etadi ish faoliyatini soddalashtiradi qisqartiradi. Ushbu jarayonlar zamonaviy ma'lumotlarni qayta ishlash usullari mohiyatining algoritmi va iqtisodiy mazmunini tushunadigan mutaxassislar tomonidan professional fikrlash orqali amalga oshiriladi. Bizning odatiy ma'noda "buxgalter" kasbi o'tmishda qoladi, uning o'rnini moliyaviy tahlilchi, nazoratchi funksiyalariga ega bo'lgan malakali mutaxassislar egallaydi. Bunday mutaxassislar biznes uchun strategik yechimlarni tavsiya qilishlari mumkin bo'ladi. Yangi kasb egasi Moliyachi, buxgalter, tahlilchi va auditor funksiyalarini birlashtirishi kerak bu kelajak talabidir.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotning yangi ehtiyojlariga javoban buxgalteriya hisobi o'zgartirilmoqda va buxgalteriya hisobini raqamlashtirish uning rivojlanishidagi zaruriy qadamdir. Umumjahon raqamlashtirish davri buxgalteriya tizimi va usullarining o'zgarishiga (ya'ni yaxshilanishiga) olib keladi, ularning ahamiyati yo'qolmaydi.

Kasbning kelajagini biz buxgalteriya ishchilarining past darajadagi malakadan yuqori darajaga o'tishida ko'ramiz. Bu har qanday kasbda bo'lgani kabi buxgalterlarni o'zi bilimlarning saqlash, balki kasbni rivojlantirish uchun ham ijobiy tendensiyadir.

Evolyutsiya zarurati bilan bog'liq paydo bo'layotgan insoniy muammolarni hal qilish uchun eng yangi texnologiyalar yaratilmoqda. Ammo texnologiyaning o'zi ba'zi muammolarni yanada kuchaytirishi va hatto yangilarini yaratishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari bilan bir qatorda, juda ahamiyatsiz muammolar bo'lishi mumkin. Bu eng yangi aloqa tizimlarini yaratishda muqarrar bo'lgan yuqori xarajatlardir.

O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan raqamli formatga o'tishga bog'liq. Bizning fikrimizcha, kelajak texnologiyalari faqat inson imkoniyatlarini kengaytirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 28.04.2020 yil PQ-4699-sonli.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 19.02.2018 yil PF-5349-sonli.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 05.10.2020 yil PF-6079-sonli.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yil PF-60-sonli.

5. Чая, В. Т., & Латыпова, О. В. (2011). Бухгалтерский учет для экономических специальностей.

6. Carder, K.R., & Weston, W.L. (2002). Rofecoxib-Induced Instant Aquagenic Wrinkling of the Palms. *Pediatric Dermatology*, 19.

7. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn] : darslik. T.Toshmamatov. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. - 376 bet.

8. Кутер М.И., & Делиболтоян А.Э. (2013). Об исторических исследованиях А. Ч. Литтлтона в части формирования теории и практики амортизации (Окончание следует). *Международный бухгалтерский учет*, (12), 47-55.

9. Sokolov, Y. V., & Sokolov, V. Y. (2004). *History of accounting: Textbook*. YV Sokolov-M.: Finance and Statistics. 2003. 272 p.

10. Maroney, C. L., Litke, A., Fischberg, D., Moore, C., & Morrison, R. S. (2004). Acceptability of severe pain among hospitalized adults. *Journal of palliative medicine*, 7(3), 443-450.

11. Sánchez-Martínez, C., Gelbert, L. M., Lallena, M. J., & de Dios, A. (2015). Cyclin dependent kinase (CDK) inhibitors as anticancer drugs. *Bioorganic & medicinal chemistry letters*, 25(17), 3420-3435.

12. Бакстер, Н., Бэррел, Т., Вэйнс, Г., Воропаев, Ю., Евстафьев, Д., Ермилов, В., ... & Эвод, Э. (2001). *Банковское дело: стратегическое руководство*.

13. Раззакова, Д. (2022). Системы Автоматизации Бухгалтерского Учета-Основа Эффективного Управления Экономикой. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(5), 62-67.

14. Razaqova, D. A. Q. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 2(8), 243-249.

15. Qudbiyev, N. T., No, D. M. O. G. L., Raximjonov, U. R. O. G. L., & Razaqova, D. A. Q. (2022). SOLIQ ORGANLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLINI OSHIRISH AHAMIYATI. *Scientific progress*, 3(1), 927-933.

16. Kudbiev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 107-112.

17. Nabievich, I. I., & Jaloliddinovich, M. E. (2022). Accounting of fixed assets according to ifrs-tasks and solutions for the organization of accounting by component parts. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(8), 53-60.

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI

Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li

Jizzax Politexnika instituti assistenti

baytanovorol@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Buning natijasida esa iqtisodiyotda elektron tijoratning ulushi ortib bormoqda. Shu sababli, iqtisodiyotimiz iqtisodiyotning raqamlashuvi, mobillashuvi, sohaga sun‘iy intellektning joriy etilishi bilan bog‘liq muhim davrni boshdan kechirmoqda.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, raqamli texnologiya, YaIM, intensiv rivojlanish, kompyuter savodxonligi.

ВАЖНОСТЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ

Байтанов Уралбой Миракул угли

Ассистент Джизакского политехнического института

baytanovorol@gmail.com

Аннотация: В статье дается определение возможностей, преимуществ и недостатков развития цифровой экономики, изучаются этапы исторического развития данной сферы в масштабах развитых стран мира. В нем проанализирован уровень развития цифровой экономики в Узбекистане и на основе опыта развитых стран изложены пути дальнейшего развития этой сферы, устранения имеющихся недостатков.

Ключевые слова: цифровая экономика, электронная коммерция, цифровая технолгия, ВВП, интенсивное развитие, компьютерная грамотность.

THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY

Baytanov Uralboy Mirakul ugli

Assistant of the Jizzakh Polytechnic Institute

baytanovorol@gmail.com

Abstract: Today, a lot of attention is being paid to the development of the digital economy in our country. As a result, the share of e-commerce in the economy is increasing. Therefore, our economy is experiencing an important period related to digitization, mobilization of the economy, introduction of artificial intelligence in the field.

Keywords: *digital economy, e-commerce, digital technology, GDP, intensive development, computer literacy.*

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot - raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog‘liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig‘indisidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi [1].

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi” [2]. Raqamli iqtisodiyot - bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar - deyarli barcha qo‘llamoqda. 2016-yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma’ruza e’lon qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon “Yangi raqamli iqtisodiyot” turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, “postindustrial iqtisodiyot” (D.Bell), “Axborotlashgan iqtisodiyot” (O.Toftler), “Megaiqtisodiyot” (V.Kuvaldin), “axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I. Niiniluto), “texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B. Geyts), “bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D. Tapskott). Ushbu tushunchalarni bog‘lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashuv jarayonida axborot texnologiyalarning birlamchi o‘rinni egallashi bo‘lib hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot - bu innovatsion g‘oya. Ushbu fikr Jahon banki tomonidan 2016-yil “Jahon taraqqiyoti haqida ma’ruza – 2016: raqamli dividendlar” ma’ruzasida ma’lum qilingan. Ushbu tadqiqot xulosalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko‘rsatadi.

Xususan, internet tezligining 10 foizga o‘shishi mamlakat YaIM o‘shishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 1,21 foizni tashkil etsa, riojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizga teng. Demak, internet tezligi 2 barobar oshadigan bo‘lsa, YaIM hajmi 13-14 foiz ortishiga erishish mumkin [3].

Hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish biznesida barqarorlikka erishish ilgarigidan ko‘ra, misli ko‘rilmagan darajada juda qiyin bo‘lib ketgan. Mustahkam raqobatli ustunlikka erishish, eng yuqori cho‘qqiga chiqish hamda bu maqomni saqlab qolish oson ish emas. Xususan, Amerika statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, 2000 yil Fortune – 500 dan o‘rin olgan kompaniyalarning 52 foizdan ko‘prog‘i hozirgi kunga kelib mavjud emas. Yana bir muhim ko‘rsatkich: Standart & Pyurs 500 ga kiradigan kompaniyalarning o‘rtacha umr uzunligi 1960-yilda 60 yilni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib 15 yilga qisqargan. Yetakchilik muddatining bunday besh karra qisqarishining sababi – butun biznesning, jumladan, servis biznesining raqamli asoslarga o‘tishi sanalib, biz hozirgi kunda bu hodisaning guvohi va qatnashchisi bo‘lib turibmiz. Yuz minglab va hatto millionlab odamlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni talab qiladigan yirik tashkilotlar majmui va ishlab chiqarish tizimlarini boshqarish qobiliyatining yangi sifat bosqichiga o‘tildi. Alohida tashkiliy muammolar bilan bog‘liq bo‘lgan axborot nazariyasi, informatika, kibernetika, qarorlar nazariyasi, o‘yinlar nazariyasi va boshqalar kabi yangi ilmiy yo‘nalishlarning jadal rivojlanishi davom etmoqda.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlangan davlatlarning iqtisodiy hayotiga raqamli iqtisodiyotni joriy etish allaqachon boshlangan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli

iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo‘lmaydi.

Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni “yangi iqtisodiyot”ni vujudga keltirmoqda. Kam o‘rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kompaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste‘molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi. Bu vaqtingiz tig‘iz paytida internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqiningizga pul jo‘natishdan ko‘ra kengroq imkoniyatlar bo‘lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog‘langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir.

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi [4].

Aql-zakovat va ilm – taraqqiyot qanotidir. Zamonaviy ilm-fanning cho'qqisi yuqori texnologiyalarda, raqamli olmda ko'zga tashlanadi. To'rtinchi sanoat inqilobi taraqqiyotning yangi ko'rinishi – “raqamli iqtisodiyot” boshlanganini anglatadi. Bugungi kunga kelib jahonda raqamli iqtisodiyot taraqqiy etgan 20 mamlakatda 2 trillion AQSH dollarini tashkil etayotgani hisoblab chiqilgan. Mamlakatimizda 2020-yildan boshlab transport, geologiya, ta'lim, arxiv kabi sohalarni to'liq raqamlashtirish belgilangan va bu boradagi ishlar jadal olib borilmoqda. Zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan “IT-park”lar ham fikrimiz dalilidir.

Aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi “business.gov.uz” portali ishga tushirilgani raqamli iqtisodiyot rivoji yo'lidagi muhim qadamlardir.

Mamlakatimizda zamonaviy dasturlash texnologiyalarini o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlash maqsadida “Bir million dasturchi” loyihasi ishlab chiqilib, loyiha doirasidagi mashg'ulotlarni tashkil etish uchun uzbekcoders.uz o'quv portali ishga tushirildi.

2020-yil mamlakatimizda “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e'lon qilindi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko'tarilib, Prezident Farmoni bilan mamlakatning “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda avvalo telekommunikatsiya va elektron infratuzilmani takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Albatta, aholini internet tarmog'idan foydalanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa raqamli iqtisodiyot, shu jumladan elektron hukumat tizimi ham shuncha samarali faoliyat yuritadi. Yurtimiz bo'yicha internet foydalanuvchilari soni jami aholiga nisbatan 2018-yilda 46 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 60 foizdan yuqorini tashkil etmoqda.

Reallik bilan bog'laganda raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YaIM hajmi ham, YaIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizda mazkur masalaga e'tibor qaratish yagona maqsadni ko'zlaydi, u ham bo'lsa, aholining yashash sharoitini yaxshilash, aholini real daromadini oshirish, qolaversa tadbirkorlikni va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdir.

“Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham samarali vositadir” – Prezidentimizning mazkur so‘zlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta‘minlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun samarali vosita sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to‘liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni soddalashtirish, yangi innovatsion g‘oyalar realizatsiyasiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzaqul o‘g, B. O. R. (2023). Hududlarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni rag‘batlantirish usullari.
2. Baytanov, O. R. (2017). O‘zbekistonda soliq tizimini takomillashtirish orqali oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6, 62-68.
3. Baytanov. O‘. Mamlakat eksport salohiyatini soliq imtiyozlari vositasida rag‘batlantirish. Volume: 03 Issue: 03 | Mar - 2023 ISSN: 2181-2624
4. Baytanov. O‘. O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining hozirgi holati. Volume: 03 Issue: 03 | Mar - 2023 ISSN: 2181-2608.
5. Rasulova D.V. Tadbirkorlik sub’ektlari eksportini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish// Biznes va iqtisodiyotda raqamli transformatsiya// Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari // 2023-yil 21-iyun.
6. Rasulova, S., & Jabborova, Z. (2019). PRINCIPAL DIRECTIONSON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 18.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi

bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-sonli farmoni
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti <https://stat.uz>

RAQAMLASHGAN ASRDA BANKLARNING BARQAROR RIVOJLANISHI: INTEGRATSIYA VA TA'SIRLAR TAHLILI

Xasanboyeva Muxlisabonu Rasuljon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

khasanboevamukhlisabonu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola barqaror bank va raqamli texnologiyalarning o'zaro bog'liqligini o'rganadi, bu ikki kuchning integratsiyasi moliya sanoatining kelajagini qanday shakllantirayotgani tahlillar orqali ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu integratsiya uchun qo'llaniladigan usullar, erishilgan aniq natijalar ko'rib chiqiladi va bank sektorining barqarorligi va raqamli transformatsiyasiga ta'siri muhokama qilinadi. Banklarning barqaror rivojlanishida axborot texnologiyalar asrining ahamiyati ham ushbu tadqiqot ishida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: *Yashil bank ishi, ESG (ekologik, ijtimoiy, boshqaruv) integratsiyasi, raqamli transformatsiya, qog'ozsiz bank ishi, qayta tiklanadigan energiya manbalarini moliyalashtirish, barqaror investitsiya mahsulotlar, yashil kreditlar, shaffoflik uchun blokcheyn, ESG ishlashi uchun ma'lumotlar tahlili.*

SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF BANKS IN THE DIGITAL AGE: INTEGRATION AND IMPACT ANALYSIS

Khasanboyeva Mukhlisabonu Rasuljon kizi

Master student of Tashkent State University of Economics

khasanboevamukhlisabonu@gmail.com

Abstract: This article examines the relationship between sustainable banking and digital technology, examining how the integration of these two forces is shaping the future of the financial industry. It also examines the methods used for this integration, the concrete results achieved, and discusses the implications for the sustainability and digital transformation of the banking sector. The importance of the age of information technology in the sustainable development of banks is also highlighted in this research work.

Keywords: *Green Banking, ESG (Environmental, Social, Governance) Integration, Transformation, Paperless Banking, Renewable Energy Financing, Economic Investment, Green Loans, Transparency Blockchain, Data Analytics for ESG Company.*

УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВ В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ И АНАЛИЗ ВОЗДЕЙСТВИЯ

Хасанбоева Мухлисабону Расулжон кизи

Магистрант Ташкентского государственного экономического университета

khasanboevamukhlisabonu@gmail.com

Аннотация: В этой статье рассматривается взаимосвязь между устойчивым банкингом и цифровыми технологиями, а также то, как интеграция этих двух сил формирует будущее финансовой индустрии. В нем также рассматриваются методы, используемые для этой интеграции, конкретные достигнутые результаты и обсуждаются последствия для устойчивости и цифровой трансформации банковского сектора. В данной исследовательской работе также подчеркивается важность века информационных технологий для устойчивого развития банков.

Ключевые слова: *зеленый банкинг, интеграция ESG (экологическая, социальная, управленческая), цифровая трансформация, безбумажный банкинг, финансирование возобновляемых источников энергии, устойчивые инвестиционные продукты, зеленые кредиты, блокчейн, анализ данных показателей эффективности ESG.*

KIRISH

So‘nggi yillarda moliya sanoati barqaror bank ishi va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi transformativ sinergiyaga guvoh bo‘ldi. Barqarorlikning ortib borayotganining ahamiyati va bank ishida raqamlashtirishning bir vaqtda yuksalishini ta’kidlagan holda bir qancha izlanishlar amalga oshirilmoqda. Unda ushbu ikki tendensiya bank amaliyotini tubdan isloh qilish, atrof-muhitga mas’uliyat, ijtimoiy ta’sir, boshqaruv va raqamli texnologiyalarning ahamiyati kabi asosiy mavzularni kiritish uchun qanday birlashishini o‘rganish kabi umumiy maqsadlarni belgilaydi. Moliyaviy industriyada yanada barqaror amaliyotlar tomon sezilarli siljish bo‘layotganligini inobatga olgan holda, atrof-muhit va ijtimoiy muammolar bo‘yicha global sezuvchanlik o‘sishi davom etar ekan, jismoniy shaxslar va korxonalar moliyaviy qarorlarini sayyoramiz va uning aholisi farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yadigan qadriyatlarga muvofiqlashtirish yo‘llarini tobora ko‘proq izlamoqda. Ushbu paradigma o‘zgarishi barqaror bank konsepsiyasini keltirib chiqarmoqda, bu atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv masalalarini an’anaviy bank amaliyotiga birlashtiradigan yaxlit yondashuv hisoblanadi.

Yurtimizda ham barqaror bank tizimi tamoyillarini (ESG) yaratish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga keng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to'laqonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini transformatsiya qilish hamda xususiylashtirishni jadallashtirish, iqtisodiyotda samarasiz ishlayotgan korxonalar ulushini kamaytirish hisobiga sifat jihatidan yangi, xususan, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillariga asoslangan investitsiyalar va ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarning ko'payishini rag'batlantirish davlat tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank sanoati moliyaviy resurslarni barqaror maqsadlar sari safarbar qilish uchun muhim bo'lgan yagona vositachilik vazifasi tufayli zarurdir. Masalan, yashil loyihalarni resurslar bilan ta'minlash, samarali investitsiya fondlarini boshqarish va taqsimlash, barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG) moliyalashtirishni ta'minlashga yordam beradi. 2008-yilgi moliyaviy inqiroz, to'rtinchi sanoat inqilobi va COVID kabi bir qator tashqi zarbalar bank sanoati biznes modelining ustunlariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ushbu zarbalar banklarning raqamli va barqaror transformatsiyasini tezlashtirdi, natijada hozirgi kunda bank sanoati va raqamli asrning o'zaro uyg'unligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Barqaror bank sohasi bo'yicha turli xil qarashlar va olimlarning konsepsiyalari mavjud. Barqaror bank ishi "odamlarning ehtiyojlarini qondirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etish" deb ta'riflaydi o'z ilmiy izlanishlarida A.W. Yip va N.M. Bocken. Barqaror bank ishi, banklarning korporativ ijtimoiy javobgarligi, axloqiy banklar (ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya siyosati va biznes amaliyotini amalga oshiruvchi tashkilot), yashil banklar haqida bir qancha samarali tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Barqaror bank faoliyatining shaxsiy tadqiqot sohasi sifatida ortib borayotgan dolzarbligi mavjud adabiyotlarni keng ko'lamda ko'rib chiqishni talab qiladi. Barqaror bank faoliyati to'g'risidagi mavjud adabiyot sharhlari barqaror bank sohasi haqida to'liq tasavvurni taqdim eta olmaganligi sababli bu sohada ko'p izlanishlar qilinishini talab qiladi. Masalan, Gutiérrez-Nieto va Serrano-Cinca (2019) mikromoliya haqidagi adabiyotlarni ko'rib chiqadi, Fabregat-Aibar va boshqalar (2019) ijtimoiy mas'uliyatli investitsion fondlarni tahlil qiladi, Zhang (2019) va Sarma and Roy (2020) yashil bank

faoliyatini ko'rib chiqadi. Biroq, barqaror bank ishi tadqiqot sohasi sifatida keng qamrovda o'rganilinmagan va ayniqsa bu sohaning IT bilan o'zaro integratsiyasi yangi izlanishlarga doimo ochiq.

Ko'pgina tadqiqotlar barqaror bank faoliyatini ta'minlovchi asosiy tamoyillarga urg'u beradi. Scholtens (2005) fikriga ko'ra, barqaror bank faoliyati ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) mezonlarini bank operatsiyalariga integratsiyalashni o'z ichiga oladi. Ushbu integratsiya uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlab, moliyaviy rentabellikni muvozanatlashtirishga qaratilgan. Bundan tashqari, adabiyotlar barqaror bank faoliyatining asosiy tamoyillari sifatida ekologik mas'uliyat, ijtimoiy ta'sir va axloqiy investitsiyalar muhimligini ta'kidlaydi (Beck va boshq., 2006; Klinkers va Niesten, 2012).

Ko'plab olimlar aynan barqaror bank tashkil qilishda tabiat, korporativ boshqaruv va hukumatlararo bog'liqlikni o'rganib chiqqanlar, lekin aynan barqaror banklarning axborot texnologiyalari ta'sirida rivojlanishi o'rganilishi zarur va quyidagi tadqiqotimiz davomida aynan shunday tahlillar keltirib o'tamiz.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlillardan foydalanilgan. Maqolada, barqaror bank sohasining axborot texnologiyalari bilan birgalikda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish va uning iqtisodiy tizimdagi ahamiyatiga mos ravishda ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Butun dunyo bo'ylab iqtisodiy barqarorlikka intilish, tabiatni asrashga bo'lgan talab moliya sektoriga ham ta'sir qilib kelmoqda. Hozirgi davr talabi ham aynan bank va moliyaviy xizmatlar sanoati barqarorlik tashabbuslari nuqtai nazaridan tabiatni asrovchi maqsadlarga sodiqligini namoyish qilishi kerak.

Barqaror bank faoliyati atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) ta'sirini hisobga olgan holda bank operatsiyalari va tadbirkorlik faoliyatini strategik rejalashtirish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Banklar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (SDG) erishishda katta ro'l o'ynaydi [2]. Banklar va moliya institutlari moliyaviy takliflar, kreditlar va yashil loyihalar uchun investitsiya sxemalarini qo'llab-quvvatlashlari mumkin, bu esa barqaror rivojlanish yo'lidan borayotgan jismoniy shaxslar va kompaniyalarga yordam beradi. Boshqaruv tomondan banklar barqaror bank amaliyotlarini o'z operatsiyalariga, inson resurslariga va jismoniy aktivlarni boshqarishga kiritishlari mumkin. Ichki va tashqi barqarorlik tashabbuslarini olg'a suradigan va harakat qiladigan banklar oxir-oqibat raqobatbardosh ustunlikka ega bo'ladi [3].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining SDG, ya'ni barcha jihatlarni - biosfera, jamiyat va iqtisodiyotni o'z ichiga olgan barqarorlik uchun keng qamrovli strategiyasini taklif qiladi. Barqaror dunyoga erishish uchun ushbu jihatlarning barchasini hisobga olish kerak.

Yuqori daromadli banklar turli sohalarda barqarorlik bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmlariga olishni boshlashlari va ular barqaror biznes strategiya bo'yicha uzoq muddatli istiqbolli ishlar amalga oshirishlari kerakligi juda zarurdir [4]. Masalan, tog'-kon sanoati kabi atrof-muhitga zarar yetkazuvchi sohalarga investitsiyalarni to'xtatishlari yoki qisqartirishi mumkin yoki bu amaliyotlarni zararsiz usulda tashkil etish amaliyotlarini ishlab chiqishlari, shu bilan birga muqobil energiya ishlab chiqaruvchi yoki iste'mol qiluvchi tarmoqlarga bo'lgan majburiyatlarni oshirishlari mumkin. Xodimlar esa ma'lum tartib-qoidalar, siyosatlariga nima uchun amal qilinishini tushunishlari va ularni qabul qilishlari uchun o'qitilishi kerak. Sababi, madaniy tafakkurni o'zgartirish barcha darajalarda talab qilinadi.

Bank va moliya sanoatlarida tartibga soluvchi tashkilotlar banklarning barqarorlik strategiyasini ommaga tanishtirib kelmoqdalar va bu orqali o'rnatilgan yashil qoidalar yaqin kelajakda hayot tarzimizga aylanib qolishi mumkin. Xatarlarni boshqarish, prognozlash va uzoq muddatli startegiyalar joriy etish zaruratga aylanishi ham kutilmoqda. Buning uchun esa banklardan talab etiladiganlar to'g'ri tahlillar amalga oshirish va ESG ma'lumotlari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun smart tahlil platformalarini o'rnatishdir. Yashil moliya qayta tiklanadigan energiya, yashil obligatsiyalar va barqaror infratuzilmani moliyalashtirishga mo'ljallangan investitsiyalarni o'z ichiga oladi. An'anaviy moliya va barqarorlik siyosatidagi nomuvofiqlik muammolarni keltirib chiqarishi tufayli ham banklar o'zlari uchun kerakli strategiya, konsepsiyalarni aniqlab olishlari lozim [5].

Banklarda IT infratuzilmasi barqarorlikni amalga oshirayotgan yana bir sohadir. Bulutli infratuzilmadan foydalanish uglerod izi va emissiyasini kamaytiradi, bundan tashqari, xarajatlarni kamaytirishga sezilarli hissa qo'shadi. Shuningdek, bank sohasidagi raqamli transformatsiya ularni operativ va yuqori samarali ishlarni qilishlariga olib keladi [6].

ESGni bank faoliyatiga tadbiq etish murakkab va shuning uchun u yuqori malaka, ilg'or texnologiyalarni talab qiladi. Tashkilotlar risklarni boshqarish uchun, banklar shuningdek, ish hajmini avtomatlashtirishga, ishonchli ma'lumotlarga tayanish uchun zaruriy platformalarga sarmoya kiritishlari kerak. Uzoq kelajak uchun barqaror bank ishi muqobil strategiya orqali faoliyat yuritishni talab qiladi va shuning uchun ham mijozlar fikrini inobatga olgan holda, biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratilishi yangi texnologik asrimizning talabi hisoblanadi. To'g'ri siyosat, protseduralar va texnologiyaga investitsiyalar bilan banklar o'z xizmat sifatini yaxshilashi va ularning ko'lamini oshirishi mumkin bo'ladi [7].


Raqamli barqarorlik bank sohasida mega-trend sifatida rivojlanmoqda. 2021-yilda BMTning iqlim bo'yicha konferensiyasi (COP26) o'tkazilgach, keng jamoatchilik, investorlar, tartibga soluvchilar va mijozlar sohada atrof-muhitni o'zgartirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirish zarurligidan xabardor bo'lishdi. Natijada, butun dunyo bo'ylab banklar barqaror amaliyotlarga ustunlik berishga, atrof-muhit, barqarorlik va boshqaruv (ESG) maqsadlariga erishishga sekin astalik bilan moslashmoqda [8]. Misol uchun, "Santander" kabi eng yirik global moliyaviy xizmatlar instituti 2050-yilga kelib toza nol chiqindilarni chiqarishga va'da berganligi butun dunyo moliyaviy sohasida ijobiy o'zgarishlar ro'y berishi haqidagi kutilmalarni hosil qiladi. Santander filiallari va korporativ biznes markazlar tarmoqlari va shu bilan bir qatorda raqamli kanallar orqali mijozlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Tashkilot Buyuk Britaniya iqtisodiyotida va o'z mijozlari faoliyatida muhim ro'l o'ynaydi. Odamlarga o'z uylarini sotib olishda, kelajak uchun mablag'lar jamg'arishda va bizneslarini rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda amaliy tavsiyalar berib, o'z mavqeyini yanada rivojlantirmoqda.

Hozirgi kunda bu moliyaviy tashkilotning strategiyasi mijozlari, aksiyadorlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun eng muhim bo'lgan va real ta'sir ko'rsata oladigan ijtimoiy va ekologik mavzularni qamrab oluvchi yo'nalishga qaratilgan va strategiyasi aynan quyidagi to'rtta ustun asosiga qurilgan:

1. Mijozlarning ajoyib tajribasini taqdim etish orqali ularning sodiqligini oshirish.
2. Samaradorlik va daromadni oshirish uchun biznes modelni qayta ko'rib chiqish va raqamlashtirish.
3. Xodimlar bilim olishlari uchun sarmoya kiritish.
4. Tashkilot faoliyati orqali barqarorlikni yaxshilash³.

Shuni ham inobatga olish kerakki, hozirgi kunda bunday moliyaviy tashkilotlar, ya'ni barqarorlik sari intilayotganlar soni kun sayin ortib bormoqda. Shuningdek, har bir tashkilot bir maqsad yo'lida birlashar ekan, ular taklif qilayotgan biznes modellar, strategiyalar ham bir asosga jam bo'ladi. Raqamlashtirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish shu asosni tashkil qiladi va buning uchun maxsus konsepsiyalar ishlab chiqish talab qilinadi [9].

³ <https://www.santander.co.uk/>



1-rasm. Raqamlashtirishning bank faoliyati va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga ta'siri va ta'lim xarakterini aks ettiruvchi kontseptual model⁴

Barqaror rivojlanish maqsadlari:

SDG1 - qashshoqlikka barham berish

SDG5 - gender tengligiga erishish va barcha ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish

SDG8 - ish o'rinlari istiqbollari oshirish bilan bog'liq va shuning uchun banklar uchun juda muhim.

Konseptual model raqamlashtirishning o'qitish tabiatiga bevosita ta'siri bilan ijobiy bog'liqligini aks ettiradi. Raqamlashtirish bank faoliyati bilan ijobiy bog'liq bo'lib, raqamlashtirishning (ya'ni, raqamli madaniyat, raqamli texnologiyalar va raqamli ko'nikmalarning integratsiyasi) bank faoliyatiga bevosita ta'sirini (moliyaviy; mijoz; ichki biznes jarayoni; innovatsiyalar va moyillik istiqbollari orqali o'lchanadi) o'rganishdir. Ta'limning tabiati bank faoliyati bilan ijobiy bog'liq bo'lib, ta'lim

⁴ <https://www.mdpi.com/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

xarakterining bank faoliyatiga bevosita ta'sirini hisobga oladi va bank faoliyati aniq barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'ladi (SDG1, SDG5 va SDG8).

Raqamli madaniyat - bu mijozlar tajribasini yaxshilash, xodimlarning samaradorligini oshirish va risklarni boshqarish mexanizmini ta'minlash uchun innovatsiyalar, texnologik yutuqlarga ochiq raqamli muhitni qo'llash va yaratishdir. Bundan tashqari, ma'lumotlar tahlili, kodlash, veb-dizayn, raqamli marketing va kiberxavfsizlikni o'z ichiga olgan raqamli ko'nikmalar to'plamlari, bank xodimlarini bank sanoatining dinamik muhitini o'lchashga va unga muvofiq javob berishga undashi davr talabi hisoblanadi. Bank ishini raqamlashtirish strategik ta'lim dasturlarini talab qiladi. O'qitishning tabiati (ish joyida, ishdan tashqari va maxsus tayyorgarlik) bank faoliyatiga qanday ta'sir qilishini nazorat qilib borish kerak. Sababi, jamiyatning bir bo'laki bo'lgan banklarning jamiyat oldidagi muayyan majburiyatlari bor. SDGlarni amalga oshirish bank sanoati tomonidan ijtimoiy sohalarga to'lovni kengaytirish sifatida keladi. Bank sanoati moliyaviy inklyuzivlikni rag'batlantirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanishni ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish va uglerodlarni kamaytirish orqali iqtisodiyotning moliyaviy holatini saqlash uchun javobgardir (SDG8), SDG1ni amalga oshirish uchun banklar qashshoqlikdan aziyat chekkan hududlarga moliyaviy yordam ko'rsatishi va ularning rivojlanishiga yordam berishi kerak va SDG5 ayollarga moliyaviy yordam ko'rsatishni va ularni biznesni boshlash va rivojlantirish uchun tegishli resurslar bilan ta'minlashni nazarda tutadi [10].

Demak, har bir soha tabiatni asrash, raqamlashuv va bank o'rtasida o'zaro kuchli bog'lanish mavjud ekan, har bir tashkilot o'z faoliyatini transformatsiya qilish orqali bugungi davr talabiga moslashishi zarurdir. Bu nafaqat davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun, balki ijtimoiy va manaviy rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yuqorida ko'rib o'tkanimizdek, iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash bevosita raqamlashtirish bilan bog'langan. Ya'ni moliyaviy institutlar o'z faoliyatini atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillari bilan muvofiqlashtirish zarurligini tan olishlari sababli, bank sohasida barqarorlik raqamli asrda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi tahlillarimiz orqali raqamli asrda barqarorlikni bank amaliyotiga integratsiya qilishning bir necha usullari mavjudligini keltirib o'tishimiz mumkin:

– Energiya samaradorligini oshirish va qog'ozsiz bank ishini tashkil etishning asosi "yashil bank operatsiyalar"ni joriy etish bilan bog'liqdir. Bank sohasida raqamli transformatsiya texnologiyaga sezilarli tayanishni o'z ichiga oladi. Banklar uglerod

izlarini kamaytirish uchun energiya tejaydigan texnologiyalar va ma'lumotlar bazasini tobora ko'proq o'zlashtirmoqda. Shuningdek, raqamli tranzaksiyalar va onlayn bankingga o'tish qog'ozga asoslangan jarayonlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi orqali, resurslar sarfini va chiqindilarni minimallashtiradi.

– Yashil kredit, obligatsiyalar va barqaror investitsiya portfellari orqali barqaror loyihalarni moliyalashtirish samarali usullardan hisoblanadi. Banklar ekologik toza loyihalarni qo'llab-quvvatlaydigan moliyaviy mahsulotlarni taklif qilmoqdalar va bunda barqarorlikka e'tibor qaratadigan korxonalar uchun yashil kreditlar, atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalar uchun kapital jalb qiluvchi yashil moliyalashtirishni amalga oshiradilar. Shuningdek, raqamli platformalar banklarga mijozlari uchun barqaror investitsiya imkoniyatlarini taklif qilishga yo'l ochib beradi va bu orqali robo-maslahatchilar va onlayn investitsiya platformalari ESG mezonlarini investitsiya strategiyalariga kiritishlari mumkin.

– Ta'minot zanjiri va firibgarlik, korrupsiyani kamaytirish maqsadida blokcheyn texnologiyasidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Banklar blokcheyn yordamida mablag'larning kelib chiqishini kuzatishi mumkin, bu ularning noqonuniy yoki barqaror bo'lmagan amaliyotlar bilan bog'liq emasligiga ishonch hosil qiladi. Shu bilan bir qatorda blokcheynning markazlashtirilmagan va shaffof tabiati firibgarlik va korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi va boshqaruvni yaxshilashga hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli asrda bank faoliyatining barqarorligi ichki operatsiyalarni ham, mijozlar, investorlar va jamoalar bilan tashqi o'zaro munosabatlarni ham qamrab oladigan keng qamrovli yondashuvni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash banklarga o'z amaliyotlarini global barqarorlik maqsadlariga moslashtirish uchun innovatsiyalar kiritish va moslashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni.

2. Yip, A.W.; Bocken, N.M. Sustainable business model archetypes for the banking industry. *J. Clean. Prod.*; 2018; 174, pp. 150-169. [DOI: <https://dx.doi.org/10.1016/j.jclepro.2017.10.190>]

3. Jeucken, M., 2004. Sustainability in finance: Banking On the Planet. Eburon ed.

4. *Journal of Management & Governance*, 2015, vol. 19, issue 2, 303-340. <https://econpapers.repec.org/article>

5. San-Jose, L., Retolaza, J.L. & Gutierrez-Goiria, J. Are Ethical Banks Different? A Comparative Analysis Using the Radical Affinity Index. *J Bus Ethics* 100, 151–173 (2011). <https://doi.org/10.1007/s10551-011-0774-4> *Int. J. Inf. Manage.*, 47 (2019), pp. 183-197
6. Mishra, M., Desul, S., Santos, C.A.G. et al. A bibliometric analysis of sustainable development goals (SDGs): a review of progress, challenges, and opportunities. *Environ Dev Sustain* (2023). <https://doi.org/10.1007/s10668-023-03225-w>
7. Zhang, D., Zhang, Z., & Managi, S. (2019). A bibliometric analysis on green finance: Current status, development, and future directions. *Finance Research Letters*, 29, 425-430. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2019.02.003>
8. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 2021, vol. 11, issue 2, 143-162. <https://econpapers.repec.org/>
9. We're committed to building a better future for the wider world. URL: <https://www.santander.co.uk/corporate/why-santander-corporate/sustainability>
10. Bahl, K.; Kiran, R.; Sharma, A. Scaling Up Banking Performance for the Realisation of Specific Sustainable Development Goals: The Interplay of Digitalisation and Training in the Transformation Journey. *Sustainability* 2023, 15, 13798. <https://doi.org/10.3390/su151813798> <https://www.mdpi.com/>

INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH

Saloxitdinov Sherzod Farxodovich

Jizzax politexnika instituti assistenti

Annotatsiya: Bugungi kunda global rivojlanish iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'yektlar oldiga o'z faoliyatlarini raqamlashtirish vazifasini dolzarb qilib qo'yimoqda. Raqamlashtirish alohida shaxs, mikro, mezo va makro darajada iqtisodiy faoliyat samaradorligin oshirishning muhim manbai hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini rivojlantirish masalalari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: *global rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, inson kapitali, milliy boylik, innovatsion rivojlanish, bilimlarga asoslangan jamiyat, iqtisodiy farovonlik.*

ОЦЕНКА ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Салохитдинов Шерзод Фарходович

Ассистент Джизакского политехнического института

Аннотация: Сегодня глобальное развитие ставит перед экономическими субъектами задачу оцифровки их деятельности. Цифровизация является важным источником повышения эффективности экономической деятельности на индивидуальном, микро, мезо и макроуровне. Исходя из этого, в данной статье будут рассмотрены вопросы развития человеческого капитала в условиях цифровизации.

Ключевые слова: *глобальное развитие, цифровая экономика, цифровые технологии, человеческий капитал, национальное богатство, инновационное развитие, общество, основанное на знаниях, экономическое процветание.*

ASSESSMENT OF DIGITAL DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL

Salokhitdinov Sherzod Farkhodovich

Assistant teacher of the Jizzakh Polytechnic Institute assistant

Abstract: Today, global development sets economic entities the task of digitizing their activities. Digitalization is an important source of increasing the efficiency of economic activity at the individual, micro, meso and macro levels. Based

on this, this article will address the issues of human capital development in the context of digitalization.

Keywords: *global development, digital economy, digital technologies, human capital, national wealth, innovative development, knowledge-based society, economic prosperity.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida nisbat o'zgarayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Jahon banki dunyoning "141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiy qiymatidagi ulushi 64 %ni tashkil etishi va so'nggi 20 yil davomida uning hajmi 55 % ga o'sgani ma'lum bo'lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41 %ga to'g'ri keldi"[1]. Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, "mamlakatlar o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 % aynan inson kapitali bilan izohlanishi"[2] ma'lum bo'lmoqda. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy o'sish omillari o'zgarmoqda. An'anaviy omillar (mehnat, er, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar o'rniga fan va ta'lim, ya'ni umumlashtirib aytilganda millatning intellekti bo'lgan omillar birinchi o'ringa chiqmoqda.

O'zbekistonda milliy boylik tarkibida inson kapitali ko'rsatkichining ulushi 62% ni tashkil qiligani holda, jahon banki mutaxassislarining fikriga ko'ra dunyo mamlakatlari bo'yicha milliy boylik tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o'rtacha 16% ni, tabiiy kapital - 20% ni, inson kapitali - 64% ni tashkil etadi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy boylik tarkibida inson kapitali ulushi 80% ga yetadi).

Bugungi kunda inson kapitalining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash borasidagi jarayonlarga ta'sirini o'rganishga qiziqish kun sayin ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu borada tadqiqotchilar tomonidan ko'p sonli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, "inson kapitali" kategoriyasini aniqlashtirishda muayyan noaniqliklar saqlanib qolmoqda, shu bilan birga, uning tashkil etuvchilariga hanuz to'liq oydinlik kiritilmagan, milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining ta'siri miqdor jihatdan baholanmagan. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning tarkibi topishi sharoitida milliy iqtisodiyotda

inson kapitalidan foydalanish va uning sifatini ta'minlash uslubiyoti borasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining salmog'i yetarlicha emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson kapitali nazariyasiga mustaqil nazariya sifatida XX asrning 50-60-yillarida Chikago maktabi namoyondalari tomonidan asos solingani holda Bekker (1962), Mincer (1958), Polachek (1974) ishlarida uning nazariy va uslubiy asoslari shakllantirildi va yanada rivojlantirildi. Bundan tashqari, inson kapitalining iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borgan g'arb iqtisodchi olimlari sirasiga Agiyon, Meghir (2004) va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Bu tadqiqotlarda, inson kapitalining iqtisodiy o'sish sifatiga ta'sirini zamonaviy fan nuqtai-nazaridan yondashgan va innovatsion faoliyat ko'lamidan o'sib boruvchi samaradorlikni hisobga olib, o'zida endogen iqtisodiy o'sish nazariyalarini mujassamlashtirgan Agiyon (2004)ning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi.

O'z navbatida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq qilishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Jumladan akademiklar Ubaydullaeva (2017), Abduraxmonov (2017) va G'ulomov (2019) inson kapitalining turli jihatlarini tadqiq etganlar. So'nggi yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi xodimi Akramova (2019) tomonidan yaxlit bir tizim sifatida talqin qilinuvchi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga inson kapitalining ta'siri masalalari atroflicha o'rganilgan.

Mazkur tadqiqotlar O'zbekistonda inson kapitali rivojlanishini baholash masalalariga ulkan hissa qo'shgan bo'lsada, yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning zarurati mazkur ilmiy-tadqiqot ishi mavzusini tanlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inson kapitalining raqamli rivojlanishini baholash, raqamlashtirish jarayonlarining korxonalarining inson kapitali sifati va korxonalar yakuniy natijalariga ta'sirini tadqiq qilishda inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi masalalariga katta e'tibor qaratgan olimlar va soha mutaxassislarining ilmiy asarlaridan keng foydalanildi. Maqolada ilgari surilgan fikrlarni asoslash maqsadida tadqiqot ishida guruhlash, taqqoslash, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullariga urg'u beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi korxonalarni qayta tashkil etishga undaydi va inson kapitalining tarkibiy va mazmunan tashkil etuvchilariga yangi talablarni

qo‘ygan holda ish o‘rinlariga tarkibiy talabni shakllantiradi. Zero, mahsuldorlikning yuqori o‘shishini ta‘minlash borasida yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi va uning rivojlanishi asnosida xodimlar va foydalanuvchilar yangi ko‘nikma va qobiliyatlarga muhtojlik sezadilar. Raqamli inson kapitalini rivojlantirishning global chaqiriqlarining asosiy tamoyili -bu raqamli muhitda muvaffaqiyatga erishishda ustuvor bo‘lgan ko‘nikmalar guruhiga bo‘lgan qarashlarni o‘zgartirish hisoblanadi.

IHTTning “Raqamli iqtisodiyot istiqbollari 2017”[3] hisobotida raqamlashtirish biznes innovatsiyalarini rivojlantirishning katalizatori sifatida ko‘rib chiqiladi. Raqamlashtirish keng imkoniyatlar taqdim etishi bilan bir qatorda, u bir qator muammolarni ham paydo qiladi, xususan, kompaniyalar samaradorlikni oshirish borasida raqamlashtirishdan qanday foydalanish va raqamli muhitda xodimlarni qanday rivojlantirishni anglab etishlari lozim bo‘ladi. Biroq, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning o‘shish sur‘ati raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirishning o‘shish sur‘atlaridan orqada qolmoqda. Jumladan, IHTT ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirda 55-65 yoshdagi to‘liq o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lmagan va past malakali insonlar hatto asosiy raqamli ko‘nikmalar va kompyuterda ishlash malakasiga ham ega emaslar.

Ushbu toifadagi katta yoshdagi aholi orasida mazkur ko‘nikmalarning etishmasligi ularni inson kapitalidan foydalanishdagi hozirgi texnologik o‘zgarishlar va yangi tarkibiy talablar bilan bog‘liq bo‘lgan ish joylarini yo‘qotishning risk guruhiga tushib qolish ehtimolini oshiradi. Shunday qilib, mehnat bozoridagi tarkibiy texnologik o‘zgarishlar, birinchi navbatda, raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan va rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda ishlash uchun zarur bo‘lgan malakalarini oshirishga tayyor bo‘lmagan ishchilarga ta‘sir qiladi.

2015-yilda o‘tkazilgan PIAAC tadqiqotining tahliliy natijalari ishsizlik riski va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasiga qarab aholining bandligi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasiga qarab aholini ish bilan ta'minlash [4]

Ko'rinib turibdiki, texnologik jihatdan to'yingan raqamli muhitda professional vazifalarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lgan xodim-largina ishsizlar guruhiga tushib qolish xavfidan yuqori darajada himoyalangan.


Raqamli kompetentsiya, raqamli muhitda muammolarni hal qilish va hamkorlik-bu 2018-yil yanvar oyida kuchga kirgan raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha harakatlar rejasi (DEAP) doirasida Yevropa komissiyasining diqqat markazida bo'lgan korxonalar inson kapitalining tarkibiy va muhim qismlari hisoblanadi[5].

Jahon iqtisodiy forumi materiallari va korporativ tahliliy xizmatlarning hisobotlarida asosiy ko'nikmalar guruhlarini transformatsiya qilish bo'yicha o'xshash vazifalar ta'kidlangan. Korxonalar xodimlarining kompetentsiyalariga bo'lgan talab 2-rasmda keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, IBM Institute for Business Value instituti tomonidan kompaniyalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijasiga ko'ra, barcha respondentlarning 61 foizi xodimlarning eng ko'p talab qilinadigan kompetentsiyalari kompyuterda ishlash ko'nikmalari ekanligini qayd etishgan, ixtisoslashgan tarmoq bilimlari bilan bog'liq kompetentsiyalar esa atigi 20% ni tashkil qiladi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, sun'iy intellektni rivojlantirish, tashkiliy tuzilmalarni o'zgartirish va avvalambor, o'zgarish tezligining oshishi kompaniya xodimlariga yangi talablarini belgilaydi.

Bugungi kunda kompaniyalar uchun ularning o'tgan davrlarda erishgan natijalari unchalik ham muhim emas, ular kelgusida muvaffaqiyatni ta'min etuvchi

tajriba va ko‘nikmalar haqida so‘z yuritishni afzal biladilar. Kelajakda muvaffaqiyatni kafolatlaydigan ko‘nikma va fazilatlariga ega bo‘lish muhimdir. Kerakli fazilatlar ro‘yxati muttasil tarzda yangilanib boradi. Dunyoning etakchi ish beruvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar zaruriy “kelajak ko‘nikmalari” turli-tuman ekanligini ko‘rsatadi.




2-rasm. Korxonada xodimlarining asosiy kompetensiyalariga bo‘lgan talab, % [6]

Kutilmalar ro‘yxatiga dasturlash qobiliyati va hissiy intellekt kabi turli xil jihatlar kiradi (Arntz and other 2016). Qo‘l mehnati bilan bir qatorda moliya va moddiy resurslarni boshqarish qobiliyati o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

McKinsey Global Institute tahliliy tadqiqotiga ko‘ra korxonalar xodimlari uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarga bo‘lgan talabning joriy va istqbol baho-lashlari 3-rasmda keltirib o‘tilgan.

Ko‘rinib turibdiki, kompaniyada turli darajadagi raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lgan yuqori darajadagi xodimlar uni raqobatdosh ustunlik bilan ta‘minlaydi. Yuqorida aytilganlarning barchasi inson kapitalini boshqarishda yangi yo‘nalish – bilim va ko‘nikmalar to‘plami, ijodiy komponent, lateral fikrlash, raqamli iqtisodiyotning VUCA- muhitida ishlash qobiliyati bilan belgilanadigan inson kapitalining raqamli rivojlanishi zarurligi, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning yangi chaqiriqlariga moslashish asosi sifatida xulq-atvorning moslashuvchanligi dolzarb qilib qo‘yadi.



3-rasm. 2030-yilgacha bo'lgan muddatda kompetentsiyalarga bo'lgan talab, %
[7]

Xulq-atvorning moslashuvchanligi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omilidir. Biologik turlarning evolyutsiyasi va omon qolishi yoki zamonaviy inson o'zgaruvchan dunyo sharoitlariga qanday moslashishidan qat'i nazar, u turli darajalarda o'zini namoyon qiladi. Xulq-atvorni o'zgartirish asnosida inson kapitali tashqi muhit chaqiriqlariga moslashib boradi. Xulq-atvor umumiy ma'noda atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarning shakllangan va qat'iy usuli sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, qiyinchiliklarga javoban (masalan, o'zgaruvchan sharoitlar yoki yangi omillarning paydo bo'lishi) harakat rejimi o'zgaradi. Bu atrofda sodir bo'layotgan voqealarga moslashuvchan javob berish va muvaffaqiyatli strategiyalarni tanlash imkonini beradi.

Har bir yangi narsani o'rganish-bu xulq-atvorning o'zgarishi demakdir. Avval mavjud bo'lmagan ko'nikma va malakalarga ega bo'lish uchun siz hatti-harakat tarzini o'zgartirish talab qilinadi. Olingan tajriba (o'qigan, ko'rgan, eshitgan, o'ylagan va qo'llaniluvchi hamma narsa) ta'siri ostida miya tuzilmalari yangi axborot kanallarini yaratadi va o'rganish amalga oshadi.

Xulq-atvor moslashuvchan funktsiyani bajaradi, bu tananing o'zini yo'qotmasligi va kutilmagan omillar ta'siri ostida rivojlanishni to'xtatmasligiga imkon beradi. Moslashish va kompensatsiya jarayonlarini boshlagandan so'ng, organizm yoki tuzilma yanada murakkablashadi va rivojlanadi. Tana qancha ko'p ma'lumotni saqlashi, o'zlashtirishi va qo'llashi mumkin bo'lsa, u shunchalik murakkab bo'ladi. Inson miyasi 100 milliardga yaqin neyronlardan iborat bo'lib, ular

bir-biri bilan bog‘lanib, taxminan 100 trillion aloqadan iborat tarmoq hosil qiladi. Impulslar (ma‘lumotlar)ning uzatilishi sinaps neyronlarning maxsus aloqa nuqtasi yordamida sodir bo‘ladi.

Ushbu birikmalar kompyuterning operativ xotirasi bilan o‘xshash funktsiyalarga ega bo‘lgan miyaning qisqa muddatli xotirani saqlash uchun mas‘ul bo‘lgan qismi gippokamp to‘qimasini hosil qiladi. AQShning Solk biologik tadqiqotlar institutida amerikalik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar inson miyasi petabayt ma‘lumotni saqlashi mumkinligini tasdiqlaydi – bu deyarli butun Internet tarmog‘iga teng demakdir. Axborotni olish va o‘zlashtirishga ongli yondashuv odamga miyasida mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishga va tezroq va samaraliroq o‘rganishga yordam beradi.


Kerakli ko‘nikmalarni rivojlantirish mavzusida global kompaniya-larning 5600 nafar menejerlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra: korxonalarining atigi 49 foizi zarur ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish va saqlash uchun javobgardir; respondentlarning 39 foizi o‘z-o‘zini tarbiyalash yo‘nalishi bo‘yicha xodimlarning o‘zlariga javobgar-likni yuklaydilar; 78% respondentlar kasbiy mahoratni shakllantirish va rivojlantirish borasida davlatning mas‘ul ekanligini ta’kidlashadi.

Shu bois, korxonalar rahbarlari va xodimlarining inson kapitalini raqamli rivojlantirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun javobgarligini tushunib etmasliklari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida inson kapitalini boshqarish sohasida jiddiy muammo hisoblanadi.

Oliy ta‘lim tizimini raqamlashtirish jarayoni sifatiga yangicha o‘qitish mexanizmining asosiy omillaridan samarali foydalanish holatidagina erishish mumkin: 1) ta‘lim dasturlarini diversifikatsiya qilish; 2) o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni qabul qilish va ulardan faol foydalanish borasida xabardorligining o‘zgarishi; 3) inson kapitalining raqamli rivojlanishi sharoitida fan va biznesning integratsiyalashuvi.

Shu tariqa, zamonaviy ta‘limning asosiy vazifasi raqamli muhitdagi o‘zgarishlarga javob beradigan moslashuvchan ta‘lim tizimini shakllantirish va inson kapitalining raqamli rivojlanishining alohida (shaxsiylashtirilgan) traektoriyalarini amalga oshirish uchun sharoit yaratishdan iboratdir.

Raqamli ta‘limning turli tiplari va ko‘rinishlari orqali inson kapitalining shaxsiylashtirilgan va moslashuvchan raqamli rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish mumkin bo‘ladi.



4-rasm. Zarur ko'nikma va bilimlarni qo'llab-quvvatlash uchun mas'ullar [8]

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi yangi axborot-ta'lim muhitini modellashtirishga olib keladi. Bugungi kunda ta'lim tizimi o'qitishda innovatsion usullardan foydalanishga yo'naltirilgan-likni talab qiladi. Faxrutdinova (2014): "yangi axborot texnologiyalari talabning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik vazifalarni hal qilishga imkon beradi". Oliy ta'limdagi axborot texnologiyalari asrida shuni ta'kidlash kerakki, raqamli ta'limdan foydalanish ta'lim davomida hamroh bo'ladigan kommunikativ, ijtimoiy va kognitiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi.

XULOSA

1. Ilmiy jamoatchilikda inson kapitalining qiymati va uning ta'lim tarkibiy qismi to'g'risida munozaralar hanuz davom etmoqda, shu bilan bir qatorda, har bitta tadqiqotchi ushbu nazariyaning shakllanishiga hissa qo'shmoqda. Inson kapitali qiymati nazariyasi haqidagi bilimlarni tadqiq qilish va tizimlashtirish shuni ko'rsatdiki, inson kapitalidagi barcha turdagi xarajatlar tarkibida uni o'lchashda eng muhimi ta'lim xarajatlari hisoblanadi. Shu munosabat bilan ta'limni inson kapitalining muhim hal qiluvchi omili sifatida baholashning kontseptual yondashuvlariga katta e'tibor qaratiladi.

2. Raqamli iqtisodiyotda korxonalar xodimlarining inson kapitalini boshqarish metodologiyasi doirasida unga investitsiyalarning asosiy shakli raqamli ta'lim bo'lib, u barcha professional guruhlar va xodimlar toifalari uchun zarurdir, chunki raqamli iqtisodiyotda aynan raqamli axborotni boshqarish, saqlash, uzatish va qayta ishlash

bo'yicha raqamli bilimlar asosiy ishlab chiqarish resursi hisoblanadi.

3. O'zaro tajriba almashish bugungi kunda boshqaruv nazariyasi va amaliyotida yangi yo'nalish – inson kapitalining raqamli rivojlanishini boshqarish to'g'risida gapirishga imkon beradi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyati VUCA-o'zgaruvchanlik, noaniqlik, murakkablik va ko'p qirralilik hisoblanadi. Shu bois, inson kapitalini raqamli rivojlantirishda boshqarishning an'anaviy strategiyasidan VUCA -strategiyaga o'tish talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018.
- 2 World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, 2018. October, 13
- 3 <https://www.oecd.org/digital/oecd-digital-economy-outlook-2017-9789264276284-en.htm>
- 4 PIAAC. Survey of Adult Skills / OECD. – 2015.
- 5 European Commission. The Digital Economy and Society Index (DESI) / European Commission.; European Union. Digital Education Action Plan / European Commission. – 2018.
- 6 IBM Institute for Business Value «Facing the storm. Navigating the global skills crisis, 2016»
- 7 McKinsey Global Institute «A future that works: automation, employment and productivity, 2017»
- 8 IBM Institute for Business Value «Facing the storm. Navigating the global skills crisis, 2016»

НАПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Дадабаева Рано Акрамовна

*Доцент кафедры «Цифровая экономика и информационные технологии»
Ташкентского Государственного экономического университета*

ranodadabaeva@yandex.ru

Аннотация: В статье анализируются направления интеллектуализации информационных технологий и систем. Рассмотрены современные интеллектуальные технологии и перспективные направления интеллектуализации информационно-аналитических систем.

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, интеллектуальные информационные технологии, интеллектуальные агенты, масштабируемость, мультиагентность, распределенные вычислительные системы, архитектура информационно-аналитических систем.*

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI INTELLEKTUALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Dadabaeva Rano Akramovna

*Toshkent Iqtisodiyot universiteti “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari”
kafedrasi dotsenti*

ranodadabaeva@yandex.ru

Annotatsiya: Maqolada axborot texnologiyalari va tizimlarini intellektuallashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Zamonaviy intellektual texnologiyalar va axborot-tahlil tizimlarini intellektuallashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, intellektual axborot texnologiyalari, intellektual agentlar, masshtablilik, ko‘p agentlik, taqsimlangan hisoblash tizimlari, axborot va tahliliy tizimlar arxitekturasi.*

DIRECTIONS OF INTELLIGENTALIZATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Dadabaeva Rano Akramovna

Associate Professor of the Department "Digital Economy and Information Technologies" of the Tashkent State

ranodadabaeva@yandex.ru

Abstract: The article analyzes the directions of intellectualization of information technologies and systems. Modern intelligent technologies and promising directions for the intellectualization of information and analytical systems are considered.

Key words: *information and communication technologies, intelligent information technologies, intelligent agents, scalability, multi-agent, distributed computing systems, architecture of information and analytical systems.*

ВВЕДЕНИЕ

История развития мировой экономики уже не раз была свидетелем того, что появление новых технологий влечет за собой социально-экономические изменения в обществе, влияет на экономику страны как в ее пределах, так и в международном масштабе. Особое влияние на эти процессы оказывают научно-технологические достижения в области информационно-коммуникационных технологий. Такие явления как трансформация экономики в цифровую и ее глобализация напрямую связаны с отраслью информационных технологий. Качественные сдвиги в развитии большинства отраслей: образования, медицины, финансовой и др. осуществлены на базе информационно-коммуникационных технологий. Развитие информационно-коммуникационных технологий в значительной степени обусловило и рост глобализации мировой экономики так как благодаря им время и пространство перестали существовать. Электронная коммерция, электронный бизнес и электронные банковские услуги заменили старые модели и методы ведения бизнеса новыми онлайн-бизнес-моделями, в которых в полной мере используются информационные технологии; наблюдается резкое падение стоимости международной связи.

Такое влияние информационно-коммуникационных технологий на социально-экономическое развитие связано с тем, что изменилась сама суть технологий, они стали интеллектуальными, знание-ориентированными (когнитивными) информационными технологиями т.е. основанными на теории искусственного интеллекта.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В процессе работы над статьей были рассмотрены научные труды, в которых рассматривался вопрос интеллектуализации информационных технологий. Были изучены работы как зарубежных, так и отечественных ученых

таких как Рутковская Д., Пилиньский М., Рутковский Л., John Wang, Мейер Б., Грэхем И., Бекмуратов Т.Ф., Базаров Д.К., Мухаммадиева Д. и др. Обзор литературы показал важность и своевременность проблемы интеллектуализации информационных технологий, позволил определить важные направления интеллектуализации и практические решения.

МЕТОДОЛОГИЯ

Методология исследования представляет собой совокупность этапов, которые необходимо выполнять в определенной последовательности. Так, первый этап связан с определением проблемы. Затем необходимо было собрать и систематизировать информацию об этой проблеме, создать основу для теоретической и практической базы статьи. Собранный материал позволил на основе анализа и синтеза сделать выводы и создать решения, связанные с проблемой. Далее была предложена практическая реализация для этих решений. Такая методология исследования направлена на предоставление индивидуальных решений для организаций, в плане интеллектуализации информационных технологий и систем, выделения основных и наиболее важных направлений для стабильного и эффективного их развития.

РЕЗУЛЬТАТ И ОБСУЖДЕНИЕ

Концепция интеллектуальных информационных технологий основана на базовых парадигмах теории искусственного интеллекта, экспертных знаниях, природно-биологических механизмах логического вывода, эволюции, обучения и поведения с целью оптимизации и адаптации к изменяющейся среде [4].

Современные интеллектуальные информационные технологии отличаются следующие свойства: универсальность применения для обработки информации и решения различных задач за счет «перепрограммирования» вычислительных систем путем обучения; ослабленные требования к точности, частичной истинности исходной информации и адекватности построения модели; возможность описания сложных систем с помощью переменных логических функций, значения которых определяются на интуитивном уровне и может уточняться в процессе обучения [6].

Использование интеллектуальных информационных технологий является предпосылкой развития и формирования знание-ориентированной цифровой экономики, основанной на обработке как информации, так и знаний неформальной, неструктурированной природы.

Интеллектуализация программного обеспечения и средств автоматизации их разработки осуществляется с использованием современных языков инженерии знаний: объектно-ориентированных и символьных языков программирования, интеллектуальных агентов; алгоритмов логического вывода,

рассуждений и эволюции; моделей представления вербальных, экспертных знаний (продукционных, фреймовых, семантических сетей). Интеллектуальные агенты позволяют принимать слабоструктурированные решения на основе механизмов логического вывода и методов обработки и управления знаниями – совокупности процессов сбора, актуализации, хранения, продуцирования и распространения знаний.

Информационные системы, использующие когнитивные информационные технологии, относятся к классу информационно-аналитических систем. Они позволяют более углубленно осуществлять анализ, прогнозирование и оценку состояний и принимать адекватные анализируемым ситуациям решения на стратегическом и тактическом уровнях. Это обусловило актуальность создания стратегических и корпоративных информационно-аналитических систем в государственных органах и корпорациях.

Для построения интеллектуальных информационно-аналитических систем предлагается использовать методологию, основанную на принципах взаимного соответствия структурно-функциональных характеристик подсистем информационно-аналитических систем и решаемых задач, используемых интеллектуальных информационных технологий, а также параллельности и поэтапной реализации их создания [1-3]. Эта методология определяет следующие требования к архитектуре и структурно-функциональной организации современных информационно-аналитических систем [4]:

1. распределенность, иерархичность, интеллектуальность, мультиагентность и неоднородность программно-технических компонент;
2. интегрированность, единство информационного пространства для осуществления информационного менеджмента;
3. информационно-лингвистическая совместимость, защищенность корпоративной информации;
4. централизованность и децентрализованность управления;
5. масштабируемость задач — возможность решения задач различного функционального назначения и различной сложности;
6. масштабируемость пользователей – возможность работы для пользователей различных типов (менеджеров, администраторов и т.д.) различных уровней, функциональных исполнителей и др.;
7. организация программно-технических средств информационно-аналитических систем в виде распределенных вычислительных систем с перестраиваемой архитектурой с целью адаптации к характеристикам текущего потока задач.

Рассмотрим некоторые направления интеллектуализации информационных технологий.

Интеллектуализация анализа бизнес-процессов.

Сформированные в результате аналитической обработки данные и знания используются для анализа и оценки текущих и прогнозируемых состояний исследуемых процессов. Для решения этих задач используются интеллектуальные технологии анализа бизнес-процессов, такие как Business Intelligence and Analytics – BI/BA), ситуационного и имитационного моделирования, классификации, прогнозирования и оценки ситуаций, а также формирования множества возможных рекомендаций, реализация которых может перевести процесс из заданного состояния в требуемое.

Для анализа бизнес-процессов и управления ими перспективными являются интегрированные интеллектуальные технологии. Примерами таких технологий являются технологии PLM (product lifecycle management) - системы управления жизненным циклом продукта. Они объединяют и координируют функционирование компоненты технологий BPM (business process management) - системы управления бизнес- процессами: САПР, ERP, PDM, SCM, CRM и других автоматизированных систем. Некоторые составляющие PLM - системы трансформируются в самостоятельные дисциплины. Например, САПР (системы автоматического проектирования) наделяются функциями технологии BIM (building information model) - информационной модели проектируемого объекта: здания, сооружения, машины, компьютера и т.д. [1-3].

Интеллектуализация принятия решений.

Интеллектуальные методы поддержки принятия слабоструктурированных решений в условиях неопределенности основаны на следующих положениях [1-4]:

1) Множество альтернатив (решений), которые возможно будет реализовать с целью перевода процесса из текущего состояния в требуемое, из заданного множества состояний, задается конечным на основе результатов анализа процесса и рекомендаций лиц, принимающих решения - менеджеров, аналитиков и экспертов.

2) Множество возможных состояний (исходов), в одно из которых может перейти процесс в результате реализации любой альтернативы, также задается конечным.

3) Множество возможных значений аксиологических вероятностей наступления исходов, формируется заранее на основе экспертных заключений для рассматриваемой предметной области.

4) Множество значений оценок показателей эффективности анализируемых исходов альтернатив формируется также заранее на основе соответствующих расчетов (зависимостей между количественными и/или качественными параметрами состояний, выбранными критериями и

предпочтениями лиц, принимающих решения). В случае отсутствия и/или невозможности, в силу каких-то причин, построения таких моделей и выражений искомое множество оценок показателей эффективности формируется на основе экспертных заключений с нечеткими оценками показателей эффективности.

Эти положения обуславливают использование для задач поддержки принятия слабоструктурированных решений интеллектуальных технологий Soft Computing: нечетких выводов и рассуждений, основанных на знаниях экспертов и оценок, сформированных в результате анализа исследуемых процессов.

Следует отметить, что решение задач ситуационного и имитационного моделирования, прогнозирования, оценки и динамической поддержки принятия стратегических решений в условиях неопределенности в информационно-аналитических системах осуществляется в режиме диалогового взаимодействия лиц, принимающих) с нерегламентированными, неожиданными (ad hoc) запросами к исходным данным. В процессе такого взаимодействия лицо, принимающее решение осуществляет координацию функционирования рассмотренных подсистем стратегических ИС для аналитической обработки поступающих по запросам данных, и анализа сформированных на данной итерации рекомендаций для принятия соответствующих решений. Если эти рекомендации удовлетворяют принятым критериям, то процесс завершается. В противном случае вводятся уточнения в исходные критерии, обусловленные полученными оценками анализируемых ситуаций, и запускает очередную итерацию рассмотренного процесса.

Интеллектуализация программного обеспечения (Soft Ware) и средств автоматизации их разработки.

Развитие языков программирования для интеллектуальных систем. Программное обеспечение функциональных подсистем стратегических информационно-аналитических систем разрабатывают, как правило, на основе современных объектно-ориентированных и символьных языков программирования, предназначенных для задач инженерии знаний (обработки и управления знаниями типа экспертных систем). Диалекты таких языков основаны на технологии интеллектуальных агентов, в виде которых представляются следующие компоненты: слабоструктурированные модели функциональных задач; алгоритмы логического вывода, рассуждений и эволюции; модели представления вербальных, экспертных знаний (продукционных, фреймовых, семантических сетей). Интеллектуальные агенты позволяют принимать слабоструктурированные решения на основе механизмов логического вывода, а также методов обработки и управления знаниями (knowledge work and management methods) – совокупности процессов сбора, актуализации, хранения, продуцирования и распространения знаний [7,8].

Актуальным является также совершенствование технологий автоматизации разработки интеллектуальных агентно-ориентированных программных средств путем развития существующих.

Интеллектуализация систем информационной безопасности.

Важной сферой интеллектуализации рассматриваемых информационно-аналитических систем является обеспечение их информационной безопасности. Одновременно с интенсивным развитием информационных технологий современный этап характеризуется и тенденцией появления новых видов информационных угроз, отличающихся неизвестными характеристиками и динамичностью их изменений. В таких условиях перспективным направлением повышения эффективности систем информационной безопасности является использование в них интеллектуальных информационных технологий.

Перспективными являются гибридные нечетко-нейронные экспертные системы информационной безопасности, объединяющие интеллектуальные технологии экспертных систем, нейронных сетей, нечетких множеств и нечеткого логического вывода, имуннокомпьютинга и эволюционных алгоритмов, предназначенных для идентификации новых появляющихся угроз и определения средств защиты от них

Для построения интеллектуальных систем информационной безопасности целесообразно использовать концепцию распределенных интеллектуальных мультиагентных систем, основанной на принципах иерархичности структуры, распределенности баз данных и знаний, децентрализация функций, координации взаимодействий интеллектуальных агентов различных уровней системы информационной безопасности.

Интеллектуальные системы информационной безопасности такого типа имеют иерархическую структуру, аналогичную биологическим системам. На нижних уровнях иерархии реализуются механизмы иммунной системы, а на верхних - механизмы адаптивной ассоциативной памяти и эволюции, т.е. обучения системы в процессе накопления «жизненного опыта».

Такие системы информационной безопасности используют аналогии механизмов эволюции биологических систем, наделяющих их свойством самоорганизации и эволюции. Это обеспечивает более эффективное решение задач информационной безопасности в условиях динамично изменяющейся внешней среды. Основными из них являются:

- 1) идентификация динамично изменяющихся угроз;
- 2) выявление механизмов защиты для оперативного реагирования и нейтрализации обнаруженных угроз;
- 3) идентификация и аутентификация пользователей;

4) мониторинг (интеллектуальный аудит) состояния информационной безопасности компьютерных систем;

5) настройка параметров нейронных сетей с целью адаптации системы информационной безопасности к текущему состоянию внешней среды. Решение этих задач средствами интеллектуальных технологий сводит до минимума воздействие атак с новыми неизвестными характеристиками за счет реализации механизмов жизнеобеспечения и информационной безопасности компьютерных систем [1, 4-8].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Тенденция роста объема и типов информации о внешней и внутренней среде исследуемых процессов, характеризующейся также труднопредсказуемой изменчивостью и несовершенством (наличием неопределенностей), требуют дальнейшего совершенствования информационно-коммуникационных технологий и функциональных подсистем информационно-аналитических систем, выполняющих базовые функции цифровой экономики, путем интеллектуализации используемых в них информационных технологий. Основным ресурсом цифровой экономики становятся интеллектуальные ресурсы, объединяющие информацию и знания, поэтому актуальным является совершенствование и повсеместное использование интеллектуальных ресурсов и знание-ориентированных технологий во всех сферах общества.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Бекмуратов Т.Ф., Дадабаева Р.А. Методология построения и структурно-функциональной организации корпоративных информационных систем // Современное состояние и перспективы применения информационных систем в управлении: Доклады Республиканской научно-технической конференции. 5-6 сентября 2016. - Джизак, 2016. - С. 224-232.

2. Бекмуратов Т.Ф., Дадабаева Р.А. Концепция построения стратегических систем принятия решений // Проблемы информатики. - Новосибирск, 2016. - № 2. — С. 3-12.

3. Бекмуратов Т.Ф. Теоретико-методологические аспекты построения алгоритмической системы поддержки принятия слабоструктурированных решений (АС СППР-СС). Химическая технология. Контроль и управление. — 2007. - № 2. - С. 51-57

4. Бекмуратов Т.Ф., Брусков ВЛ., Базаров Д.К., Базаров Р.К. Алгоритмы и программные средства - для организации вычислительных экспериментов в распределенных вычислительных системах // Проблемы вычислительной и прикладной математики. Ташкент, 2016. - № 4(6). - С. 106-115.

5. Рутковская Д., Пилиньский М., Рутковский Л. Нейронные сети, генетические алгоритмы и нечеткие системы. — М.: Горячая линия — Телеком, 2004. - 452 с

6. John Wang. Encyclopedia of Data Warehousing and Mining. Second Edition, 2009. Montclair State University, USA. Hershey • New York. Information Science reference.

7. Мейер Бертран. Объектно-ориентированное конструирование программных систем. Пер. с англ.- М.: Изд-во - Торговый дом «Русская редакция», 2005. – 1232с.

8. Грэхем И. Объектно-ориентированные методы. Принципы и практика. 3-е изд.: Пер. с англ. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2004. – 880 с.: ил.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR RAQOBAT BARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Ravzatov Jonibek Baxromovich

TATU tayanch doktoranti

jonibek_tatu@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirish yo‘llari, ularga oid nazariy-amaliy qarashlar, raqamli iqtisodiyot sababli raqobat bardoshlikning turli usullarda shakllanishi haqida so‘z yuritiladi. Korxonalarining raqamli iqtisodiyotdan foydalanish darajasi, raqamli iqtisodiyot tufayli korxonadagi o‘zgarishlar ko‘rsatiladi. Bunda tashqari bugungi kunda zamon talabi hisoblangan raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligining muhim ahamiyatlari va uning insoniyat hamda davlat hayot tarziga qanchalik samarali ekani va bu mamlakat turmush darajasini dunyo rivojlangan mamlakatlari tenglashtirish haqida boradi.

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, sanoat korxonalari, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, korxonalar, foyda, rentabellik, tannarx narxi, moliyaviy nazorat, omillar, raqamli iqtisodiyot, raqamli marketing, internet platformalar, IT, elektron tijorat, raqamli texnologiyalar.*

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Равзатов Джонибек Бахромович

Базовый докторант ТАТУ

jonibek_tatu@mail.ru

Аннотация: В данной статье говорится о путях повышения конкурентной толерантности предприятий в условиях цифровой экономики, теоретических и практических взглядах на них, формировании конкурентной толерантности различными способами за счет цифровой экономики. Показана степень выгоды предприятий от цифровой экономики, изменения на предприятии благодаря цифровой экономике. Кроме того, в условиях цифровой экономики, которая сегодня считается потребностью часа, речь идет о важности конкурентной толерантности предприятий и о том, насколько она эффективна для человечества и образа жизни государства, а также о том, насколько она эффективна для

человечества и образа жизни государства. уровень жизни этой страны равен уровню развитых стран мира.

Ключевые слова: *цифровая экономика, промышленные предприятия, цифровые технологии, инновации, предприятие, прибыль, рентабельность, себестоимость, финансовый контроль, факторы, цифровая экономика, цифровой маркетинг, интернет-платформы, ИТ, электронная коммерция, цифровые технологии.*

WAYS TO INCREASE THE COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY

Ravzatov Jonibek Bakhromovich

Basic doctoral student at TATU

jonibek_tatu@mail.ru

Abstract: This article talks about ways to increase the competitive tolerance of enterprises in the conditions of a digital economy, theoretical-practical views on them, the formation of competitive tolerance in different ways due to a digital economy. The degree of profit of enterprises from the digital economy, changes in the enterprise due to the digital economy are indicated. In addition to this, in the conditions of the digital economy, which today is considered a requirement of the time, enterprises will talk about the importance of competitive tolerance and how effective it is for humanity and the state way of life and how to equalize the standard of living of this country to the developed countries of the world.

Keywords: *digital economy, industrial enterprises, digital technology, innovation, enterprise, profit, profitability, cost price, financial control, factors, digital economy, digital marketing, internet platforms, IT, e-commerce, digital technology.*

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalardan faoydalanish, korxonalar faoliyatini raqamlashtirish, raqobatbardoshlikni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muvofiqligini ta'minlash, raqobat ustunligi strategiyasini ishlab chiqish, korxonalar o'rtasida erkin raqobat muhitini ta'minlash kabi yo'nalishlardagi mavjud muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirish uchun, avvalam bor, korxonalar egalari va mutaxassislari raqamli iqtisodiyot nima ekanligini va undan samarali foydalanish yo'llarini bilishlari kerak.

Raqamli iqtisodiyot bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas, bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari

yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyotning bir qancha afzalliklari hamda ijobiy tomonlari mavjud. Masalan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi inson uchun eng qimmatbaho bo‘lgan vaqtni tejashga, undan unumli foydalanishga ko‘maklashishi mumkin. Masalan, korxonada boshqaruvida, xodimlarni boshqarishda, maketing tadqiqotlarini olib borishda, mijozlar bilan aloqani ta‘minlashda, korxonadagi mahsulotlarni tahlil qilish jarayonlarida va ko‘plab korxonadagi vazifalarni bajarishda raqamli iqtisodiyotdan keng foydalanilmoqda⁵.

Misol tariqasida ko‘radigan bo‘lsak, hozirgi kunda korxonalarda raqamli iqtisodiyotning bir shakli bo‘lgan raqamli texnologiyalardan ko‘proq foydalanilmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin”⁶.

Turli tadqiqotlar natijalari bo‘yicha raqamli iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyotidagi salmog‘i 4,5 foizdan 15,5 foizgachani tashkil etadi. Jahon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatning deyarli 40 foizi va blokcheyn texnologiyalari bilan bog‘liq patentlarning 75 foizi Amerika Qo‘shma Shtatlari va Xitoy Xalq Respublikasi xissasiga to‘g‘ri keladi⁷.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020-yil 13-fevral kuni axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadbirda keltirgan statistik ma‘lumotlariga muvofiq AQShda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2 foizdan ham oshmaydi⁸.

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta‘sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so‘nggi o‘n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko‘rish kifoya.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma‘umotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli texnologiyalarga asoslangan

⁵ Porsaev G‘.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b

⁶ xalq so‘zi gazetasi -40-2020-02-25

⁷ xalq so‘zi gazetasi -40-2020-02-25

⁸ <https://mff.uz/uz/press/news/2020/02/233/45/>

elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog‘liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig‘indisidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi⁹.

Birinchi marta 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “Raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritgan bo‘lsa, hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha kasb egalari qo‘llamoqda¹⁰.

Raqamlashtirish jahon iqtisodiyotining o‘shishiga olib keladi, masalan, nufuzli McKinsey Global Institute konsalting kompaniyasining hisob-kitoblariga ko‘ra, eng yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish 2025-yilga borib yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shishiga olib keladi. Butun dunyo bo‘ylab. 3-6 trillion dollarni tashkil etadi Kompaniyaning hisob-kitoblariga ko‘ra, 12 turdagi yuqori texnologiya (mobil Internet, ilg‘or robototexnika, bulutli texnologiya, qayta tiklanadigan energiya, Internet of Things (IoT) ma’lumotlari) bu o‘shishga hissa qo‘shadi. simsiz uzatish, harakatchanlik va sun’iy intellekt va boshqalar). Ayni paytda butun dunyo bo‘ylab yirik kompaniyalar raqamlashtirish haqiqatidan xabardor va bulutli texnologiyalar va tarmoq infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalarga ega. Raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish iste’molchilar, davlat, umuman, jamiyat uchun katta imkoniyatlar ochib beradi.

Raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatorida Singapur, Xitoy, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Daniya bor. Bu mamlakatlar raqamlashtirish va yuqori texnologiyalarni shakllantirish sohasida salmoqli tashabbuslar bilan chiqdi¹¹.

Korxonalar raqobat bardoshligini oshirish yo‘llarini tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari, rentabellik va uning oshirish yo‘llari kabi masalalar bo‘yicha ko‘plab xorijiy va rossiyalik olimlar izlanishlar olib borishgan jumladan, Saviskaya G.V, Safronova N.A., Volkova O. I., Plaskova N.S. va boshqa ko‘plab mualliflar korxonalarining rentabelligini oshirish, takomilashtirish masalalariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borib, bu muammolarni o‘z asarlarida ko‘rib chiqdilar¹².

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, A.O‘lmasov, Z.Qurbonov, B.Isroilov, B.Xasanov, M.Q.Pardaev va boshqalar o‘z tadqiqotida korxonalarining foydasini, rentabelligini oshirish, takomilashtirish masalalariga katta e’tibor qaratgan.

⁹ Ayupov R.H., Boltaboeva G.R.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.

¹⁰ Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA

¹¹ Porsaev G‘.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b

¹² Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005, -10 bet.

Raqobat kurashi va uni harakatlantiruvchi kuchlar, monopoliyaga qarshi boshqaruv mexanizmlari haqida dastlabki to'laqonli nazariy qoidalar faqat XVIII asrning o'rtalariga kelib paydo bo'lgan. Bunda klassik siyosiy iqtisod vakillari sanalgan A.Smit va D.Rikardoning xizmatlari kattadir. Keyingi davrlarda F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leontev, Y.Shumpeter, P.Sraffa, M.Porter, F.Kotler va boshqalarning mehnatlari tufayli raqobat nazariyasi yanada rivoj topdi. Raqobat mohiyatiga to'xtalar ekanmiz, uni asosan uch xil yondashuvga bo'lish mumkin. Jumladan, xulq-atvor yondashuvi, strukturali yondashuv va funksional yondashuv.

Raqobatning xulq-atvor yondashuviga A.Smitning qarashlarini kiritish mumkin. U raqobatni bozor sub'ektlari o'rtasida tovarlar xarid qilish va sotish borasida qulayroq sharoitlar uchun olib boriladigan, to'g'ri, halol, til biriktirishlarsiz kurash, musobaqa bilan bog'lagan. U raqobat kurashining asosiy usuli deb narx o'zgarishlarini bilgan. Bunda u jamoa irodasi (ixtiyori) bilan boshqarilmaydigan, umumiy mo'ljallarga ega bo'lmagan bozorda qat'iy xulq-atvor qoidalariga amal qilishini qayd etgan. Demak, raqobat – bozor qatnashchilari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi aynan o'sha “ko'rinmas qo'l”dir.

F.Perru raqobatni doimiy tahdidli harakat sifatida tushuntiradi. Inson o'z manfaatini ko'zlab qimmatroq sotib, arzon xarid qilishga intiladi. Shuning uchun raqobat bilan doimiy to'qnashishga to'g'ri keladi.

Strukturali yondashuvda asosiy e'tibor raqobatchilarning o'zaro kurashidan bozor strukturasi, unda hukmronlik qiluvchi shart-sharoitlar tahliliga ko'chib o'tadi. Masalan, K.R. Makkonnell va S.L. Bryuning asarlarida aytib o'tilishicha, raqobat bozorda ko'p sonli mustaqil xaridor va sotuvchilar mavjudligi, xaridor va sotuvchilar uchun bozorga erkin kirish va undan chiqish imkoniyatidir¹³.

Bugungi kunda raqobat tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Jumladan, Sh.Shodmonov, U.G'afurovlar tomonidan tayyorlangan “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida raqobatga berilgan ta'rifda asosan ikki jihat: 1) uning iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvidan iborat ekanligi; 2) yuqori foyda va naflikka ega bo'lish uchun kurash ilgari suriladi, ya'ni: raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlarining har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar uchun, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi¹⁴.

¹³ Горфинкель В.Я., Швандар В.А. Экономика предприятия. Учебное пособие. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008, – 718 стр.

¹⁴ Xodiyev B Y , SHodmonov SH.SH. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: “Barkamol Fayz media”, 2017, 159-b

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida raqamli iqtisodiyotni korxonalarda qo'llash orqali korxonalar raqobat bardoshligini oshirish shakllantirishdagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolada ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, ilmiy mushohada, tasviriy statistik taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot korxonalar tadbirkorlikni rivojlanishida alohida ahamiyatga egadir. Hozirgi raqamli iqtisodiyot asrida korxonani yuritish qoidalari ham o'zgarib borayotganligini kuzatish mumkin. An'anaviy iqtisodiyot sharoitida xaridorlar ishlab chiqaruvchi tomonidan qanday tovar yoki xizmatlar taklif etilsa shunga qanoat qilgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida esa iste'molchi bozorga o'z xohishini, takliflarini bayon etadi. Raqamli transformatsiyalar korxonalariga zamonaviy bozorga bog'lanish uchun o'z korxonasi sharoitini yaxshilashga majbur etadi. Raqamli iqtisodiyotda xarajatlarni qisqarishi natijasida ko'rsatilayotgan xizmatlarning qiymati arzonlashib boradi, daromad topishning yangi yo'nalishlarini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida, tovar va xizmatlar global bozorlarga tezda taklif etiladi, mazkur tovar va xizmatlar xususida esa dunyo- ning istalgan hududiga ma'lumotlar taqdim etiladi. Raqamli tadbirkorlik yangi biznes modellarni ishlab chiqilishini, yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli tadbirkorlar ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni kiritadilar va avtomatlashtirish jarayonini amalga oshiradilar. Raqamlashtirish va globallashtirish bir birlari bilan uzviy bog'liqdir¹⁵.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar ishlab chiqarishni yangidan yangi kombinatsiyalarni yaratadi, o'z faoliyatiga turli xildagi yangi texnologiyalarni tatbiq etadi. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida korxonalarini yangi ko'rinishlari, ya'ni raqamli korxonalar, innovatsion tadbirkorlik, venchur tadbirkorligi kabilar rivojlanmoqda. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning yangi bilimga yo'naltirilgan tarmoqlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotning innovatsion sektorini, shuningdek "raqamli tadbirkorlikni" shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini yaratadi¹⁶.

Iqtisodiyotimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan oqilona iqtisodiy islohotlar natijasida bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga erishilmoqda. Jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlar

¹⁵ Porsaev G.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- sonli farmoni

faoliyatida raqamli iqtisodiyotning asosiy turi bo'lgan raqamli texnologiyalarni samarali yo'lga qo'yish, ularda raqamli transformatsiya jarayonini amalga oshirishda bajarilishi lozim bo'lgan hatti-harakatlar ketma ketligiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Real sektor korxonalarini raqamlashtirish xususiyatlarini, raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyatini o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi¹⁷.

Korxonaning raqamli transformatsiyasidan asosiy maqsad, bizningcha, uning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni taominlashdan iborat. Raqamli transformatsiya vazifasining maqsadiga muvofiq korxonalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;
- yuqori samaradorlikka, ishlab chiqarish va tashkiliy jarayonlarning moslashuviga erishish;
- korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish;
- korxonaning iqtisodiy samaradorligini kafolatlaydigan boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va shaffofligini oshirish va boshqalar¹⁸.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobat bardoshligini oshirishda raqamlashtirish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayoni keltirishi mumkin bo'lgan foyda va zararlar riskini to'g'ri baholashdan so'ng ushbu jarayonni joriy qilish rejasi tuziladi. Umumiy holatda raqamli korxonalar konsepsiyasi va strategiyasini ishlab chiqarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Korxonaning raqamli transformatsiyasi bir necha bosqichlardan o'tadi (1-rasm).


Korxonaning joriy holatida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash va aniq maqsadlarni belgilash. Belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ketma ketligini va strategiyasini tuzib chiqarish. Ishlab chiqarishni raqamligiga o'zgartirishni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish tizimlarining gorizontaal va vertikal integratsiyasi zarur va hozirda foydalanilayotgan axborot tizimlarining muhim qismi ma'lumot almashishi mumkin, ammo ularning muvofiqligi korxonalar ichida ham, o'zaro ta'sir qiluvchi korxonalar o'rtasida ham barcha darajalarda taominlanishi kerak. Yagona axborot makonini yaratish korxonalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari va sanoat uskunalari o'rtasida tezkor va o'z vaqtida axborot almashish imkoniyatini beradi.

Yaqin 10 yillikda ishlab chiqarish, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda "smart" aqlli texnologiyalarning qo'llanilishi hech kimga sir emas

¹⁷ Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollari. // Ilmiy-amaliy anjuman ma'ruza tezislari to'plami. 2020 yil 14 oktyabr. – Toshkent. 2020.

¹⁸Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A., Korxonalarini raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. T: "TURON NASHR" nashriyoti, 2021. -212 b.


albatta. So‘nggi yillarda korxonalarining raqobat muhitida omon qolishiga imkon beradigan raqobatbardoshlikning ahamiyati keskin oshdi.



1-rasm. Korxonalarni raqamli transformatsiyalash bosqichlari¹⁹

Keskin raqobat sharoitida zamonaviy korxonalar bozor holatiga tezda javob berishlari kerak. Buning uchun tashqi muhitning o‘zgaruvchan sharoitlariga o‘z vaqtida javob berishga imkon beradigan va tashkilotning ichki jarayonlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqish kerak²⁰.

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko‘rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo‘ladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:



¹⁹ Qodirov S., Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, 2/2022, mart-aprel

²⁰ Raxmonqulov J.M., Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini va mamlakat innovatsion faoliyatini axborot texnologiyalari a sosida samarali rivojlantirish, “Iqtisod va moliya” jurnali, 2021, 6(142)

2-rasm. Raqobatning quyidagi asosiy vazifalari²¹

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi. Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqdagi mavjud korxonalarining texnika bilan ta'minlanish va mehnat unumdorligi darajalari turlicha bo'lganligi sababli, ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi²².

Korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri bu mahsulotlarni yuqori sifatli qilib ishlab chiqarilishi hisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'z navbatida ishlab chiqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi, buning uchun albatta ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida bir maromda sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib borishga to'g'ri keladi²³.

Agar boshqaruvchi-menejerlar sifatga hayot tarzi sifatida qarashmasa, sifatni yaxshilashga bo'lgan harakatlarni amalga oshirish qiyin bo'ladi. Aynan shuning uchun mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha ishlar boshliqdan tortib ijrochigacha bo'lgan barcha personal-xodimlar uchun eng muhim faoliyat bo'lib hisoblanadi.

Raqamli korxonalar – bu axborot texnologiyalaridan o'z faoliyatining barcha sohalarida: ishlab chiqarish, biznes jarayonlari, marketing va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda raqobatdosh ustunlik sifatida foydalanadigan tashkilot. Bunda an'anaviy tarzda faoliyat yuritib kelayotgan tashkilotlar raqamli transformatsiya yo'lidan o'tib, "raqamli fikrlash" qobiliyatiga ega kompaniyaga aylanmoqda.

Bunday korxonalar tomonidan bozorga taklif etilayotgan mahsulotning o'zi ham "raqamlashtirilgan" bo'ladi. Shunga ko'ra, biznes va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tobora zarur bo'lib bormoqda. Hujjatlar oqimini kuzatish, me'yoriy texnik hujjatlarni boshqarish kabi jarayonlar korxonaning xususiyatlariga va u ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning hayotiy sikliga qarab korxonasi raqamlashtirish jarayonining bir qismiga aylanib boradi. Sifat menejmenti raqamli korxonaning ichki jarayonini o'rganganligi sababli, korxonaning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanish sifat menejmenti tizimini raqamlashtirish jarayonini takomillashtirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi²⁴.

²¹ Qodirov S., Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2/2022, mart-aprel

²² Sotvoldiyev N.J., "Raqobat strategiyasi", O'quv-uslubiy majmua. T: Namangan, 2022

²³ Бойко, И.П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А. Евневич, А.В. Кольшкин // Российское

²⁴ Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollor. // Ilmiyamaliy anjuman ma'ruza tezislari to'plami. 2020 yil 14 oktyabr. – Toshkent. 2020.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot qo'llanilishi natijasida korxonalar raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmi korxonalar raqobatbardoshligini saqlab qoladi va iqtisodiy jihatdan samaradorlikni oshiradi, bundan tashqari zamonaviy, strategik, taktik, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali raqobatbardosh ustunlikka erishadi hamda raqobatbardoshlikni boshqarish modelini, korporativ strategiya vamaqsadlarni, tizimli yondashuvni va boshqaruv metodoloyiasini ishlab chiqadi.

Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining o'sishi birinchi navbatda korxonalarda raqamli iqtisodiyotning to'g'ri tashkil etilishi hamda "raqamli tadbirkorlikni" doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgani bilan bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida Respublikamiz oldida turgan muhim vazifalardan biri jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yishdir. Bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali, narxlarni pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh, eksportbop sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o'rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo'l ochish, "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim.

Iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida qator ustunliklarga ega bo'lib ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi: korxonalar faoliyatini avtomatlashtirilishi va jarayonning to'liq raqamlashtirilishiga erishilishi natijasida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish yo'lga qo'yiladi, korxonalar investitsion jozibadorligi va ishlab chiqarish jarayonining shaffofligi ta'minlanadi.

Sanoat korxonalarida raqamlashtirish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga egaligi, moliyaviy resurslar va shartli infratuzilmaga muhtojligi nuqtai nazaridan ehtimoliy yo'qotishlarga olib kelishi ham mumkinligi ayniqsa O'zbekistondan rivojlanayotgan mamlakatda faoliyatini olib boradigan korxonalarda ushbu jarayonni to'g'ri rejalashtirish, raqamli transformatsiyalash strategiyasini to'g'ri shakllantirish, ushbu jarayonni korxonalar holatiga va faoliyat turiga muvofiq holatda rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-sonli Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi 2023-yil 11-dekabrda PQ-558-II-sonli Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
6. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A., Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. O‘quv qo‘llanma. T: "TURON NASHR" nashriyoti, 2021. -212 b.
7. Jo‘rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. . Darslik..-T.: «Fan va texnologiya» nashr, 2018. – 512 bet.
8. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005, -10 bet.
9. Горфинкель В.Я., Швандар В.А. Экономика предприятия. Учебное пособие. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008, – 718 стр.
10. Raxmonqulov J.M., Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini va mamlakat innovatsion faoliyatini axborot texnologiyalari asosida samarali rivojlantirish, “Iqtisod va moliya” jurnali, 2021, 6(142)
11. Qodirov S., Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, 2/2022, mart-aprel
12. Sotvoldiyev N.J., “Raqobat strategiyasi”, O‘quv-uslubiy majmua. T: Namangan, 2022
13. Ayupov R.H., Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, 554 bet.
14. Porsaev G‘.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b
15. Ayupov R.H., Boltaboeva G.R.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.
16. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA
17. Бойко, И.П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А. Евневич, А.В. Колышкин // Российское предпринимательство. Том 18, – 2017. – №7. – С. 1127-1130

18. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollar. // Ilmiyamaliy anjuman ma'ruza tezislari to'plami. 2020-yil 14 oktyabr. – Toshkent. 2020.

19. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

20. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

21. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti

22. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti

SANOAT TARMOG‘IDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O‘RNI

Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

g.eldorbekov@tsue.uz

Annotatsiya: Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda barqaror ravishda rivojlanmoqda. Bu o‘shida sanoat va raqamli iqtisodiyotning ham o‘rni katta hisoblanadi. Lekin, oxirgi yillarda raqamli iqtisodiyot hajmi ortishi kuzatilsa-da, sanoatlashuvning birmuncha sekinlashgani unda mavjud bo‘lgan tarmoqlar optimizatsiyaga muhtojligidan dalolat beradi. Bunday holat bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy omillar sababli yuzaga kelgan. Maqolada raqamlashtirishning ishlab chiqarishdagi o‘rni, sohada yuzaga keluvchi muammolar va ularga yechimlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, sanoat, texnologik progress, masshtab samarasi, samaradorlik, kapital sig‘imi, mehnat sig‘imi.*

РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ПРОМЫШЛЕННОМ СЕКТОРЕ

Элдарбеков Гафурбек Искандарбек угли

Магистрант Ташкентского государственного экономического университета

g.eldorbekov@tsue.uz

Аннотация: Экономика Нового Узбекистана в последние годы стабильно развивается. Промышленность и цифровая экономика также играют большую роль в этом росте. Однако, хотя размеры цифровой экономики в последние годы увеличиваются, замедление индустриализации указывает на то, что существующие отрасли нуждаются в оптимизации. Это явление вызвано рядом социально-экономических факторов. В статье представлена роль цифровизации в производстве, проблемы, возникающие в сфере и пути их решения.

Ключевые слова: *цифровая экономика, промышленность, технический прогресс, эффект масштаба, эффективность, капиталоемкость, трудоемкость.*

THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE INDUSTRIAL SECTOR

Eldorbekov Gofurbek Iskandarbek ugli

Master of the Tashkent state university of economics

g.eldorbekov@tsue.uz

Abstract: The economy of New Uzbekistan has been developing steadily in recent years. Industry and the digital economy also play a big role in this growth. However, although the size of the digital economy has been increasing in recent years, slowing industrialization indicates that existing industries need to be optimized. This phenomenon is caused by a number of socio-economic factors. The article presents the role of digitalization in production, problems arising in the field and ways to solve them.

Key words: *digital economy, industry, technological progress, economies of scale, efficiency, capital intensity, labor intensity*

KIRISH

Raqamli iqtisod – xo‘jalik yuritishning yangi zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma‘lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an‘anaviy ho‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy tibbiyot xizmatlari ko‘rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirishni va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin [1].

O‘zbekiston miqyosida ushbu soha shiddatli rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uning sanoat tarmog‘idagi o‘rni yetarli darajada emas. Vaholanki, rivojlanayotgan davlatning industrial deb hisoblanishi va kishi boshiga real yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari oshishi uchun sanoat boshqaruvi samarali bo‘lishi kerak. Hozirgi texnologiyalar asrida esa buni raqamlashtirishsiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonaning iqtisodiy faoliyati, raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarning ishlab chiqarishini baholashda avvalo nazariy jihatdan yondashildi. Bunda B.T. Salimovning “Mikroiqtisodiyot” darsligidagi masshtab samarasi modellari tahlil etib chiqildi.

Raqamli iqtisodiyotning asoslari, uning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishini tahlil etishda R.H. Ayupov va G.R. Boltaboevaning “Raqamli iqtisodiyot asoslari” kitoblari tahlil etildi.

Sanoat va raqamlashtirish o‘rtasidagi aloqa, Sanoat 4.0 ga erishishda xorij tajribasini o‘rganishda Fehmi Skender va Ilker Alining “Digitalization and Industry 4.0” maqolasi o‘rganildi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli iqtisodiyotning shiddatli o‘sishi, sanoat tarmog‘ining birmuncha pasayish sabablarini aniqlash va ular orasidagi bog‘liqlikni topish uchun analiz va

sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Tarmoq subyektlarini tahlil etishda kuzatuv va taqqoslash metodlari ishlatildi. Ma’lumotlarni aniqroq ko’rsatish uchun grafik va jadval usullaridan foydalanilgan. 2023-yillardagi ma’lumotlarning to’liq e’lon qilinmaganligi, ularning kelgusi kvartalda o’zgarishga yuz tutishi sababli, so’nggi yil sifatida 2022-yildan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotning o’sish hajmi, uning YIM dagi ulushini aniqlash maqsadida aloqa sohasidagi yo’nalishlar ichidan “Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa axborot xizmatlari” bo’limi alohida tahlil etildi.

1-jadval

“Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa axborot xizmatlari” hajmining 2019–2022-yillardagi tahlili [3]

Yil	O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti, mlrd. so‘m	Raqamli iqtisodiyotning YIMdagi ulushi, foiz	Raqamli iqtisodiyot qiymati, mlrd. so‘m	Raqamli iqtisodiyotning absolyut o‘shishi, foiz
2019	532 712,5	0,2	1087,4	19,8
2020	605 514,9	0,35	2136,9	96,5
2021	738 425,2	0,55	4095,1	91,6
2022	896 617,9	0,8	7168,9	75,06

Jadvaldan ko’rish mumkinki, 2019–2022-yillarda raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlangan bo’lib, YIMdagi ulushi 4 barobarga o’sgan. Bunga ko’plab sabablar mavjud bo’lsa-da, asosiy omil sifatida pandemiya vaqtida raqamli xizmatlarga talabning keskin ortganligi hisoblanadi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning “Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa axborot xizmatlari” tarmog’ida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 2019–2022-yillarda 2052 taga (86 foiz) o’sgan bo’lib, 4437 tani tashkil etgan.

Raqamlashtirish sohasidagi bunday o’sishga qaramay, sanoat tarmog’ining absolyut o’sishida ma’lum bir pasayishlar kuzatilgan.

Sanoat tarmog’i tahlil etilganida esa aksincha aksincha holat yuzaga kelgan. Pandemiya so’ng sanoatning absolyut o’sishi deyarli 3 barobarga kamaygan. Bunga sabab sifatida sanoatda asosan mehnat sig’imi yuqori tovarlar ishlab chiqarilishi va potensial xaridorlar xarid quvvatining keskin pasayishi bilan izohlash mumkin. Moliyaviy holati yomonlashgan korxonalar innovatsiyalar bilan shug’ullanish mablag’ tanqisligiga yuz kelishgan.


2-jadval

O'zbekiston sanoat tarmog'ining 2016–2022-yillardagi tahlili [4]

Yil	O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti, mlrd. so'm	Sanoatning YIMdagi ulushi, foiz	Sanoat qiymati, mlrd. so'm	Sanoatning absolyut o'sishi, foiz
2016	255 421,9	17,77	45 397,9	18,01
2017	317 476,4	18,76	59 570,4	31,21
2018	426 641,0	22,09	94 266,7	58,24
2019	532 712,5	25,18	134 185,8	42,34
2020	605 514,9	24,81	150 275,1	11,99
2021	738 425,2	25,32	186 978,2	24,42
2022	896 617,9	24,61	220 704,3	18,03

AQSh va Xitoy tajribasiga ko'ra, raqamlashuvning keng tarqalganligi, past foiz stavkasi tufayli boshqa sohalarda inflyatsiya darajasi keskin ko'tarilsa-da, yuqori darajada raqamli texnologiyalar dan foydalanuvchi korxonalar tovarlariga bu deyarli ta'sir etmagan. Xitoyda raqamli texnologiyalarning korxonalar faoliyatiga ta'siri o'rganilganida uzoq muddatli oraliqda masshtab samarasi kuzatilgan [5].

O'zbekiston sharoitida ham shunday muhit yaratilishi sanoat tarmog'iga ham ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Buning uchun mamlakatda kapital sig'imi yuqori bo'lgan tovarlar ishlab chiqarilish hajmi ortishi kerak.



1-rasm. Umumiy narxlar indeksi (ko'k rangda) va raqamli iqtisodiyot sohasidagi (olov rang) inflyatsiya hajmi [6]

Xarajatlarning proporsional o'zgarishga ishlab chiqarish masshtabining o'zgarishi deyiladi. Ishlab chiqarishda faqat ikkita omildan - ishchi kuchi (L) va kapitaldan (K) foydalanilganda, ulardan foydalanish ikki barobar oshsa 2L va 2K bo'lsa, ishlab chiqarish masshtabi ikki barobar kengaydi deyiladi [7]. Ushbu samarani ifodalashda Kobb-Duglas funksiyasidan foydalaniladi. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi formulasi ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarish hajmining ikkita ishlab chiqarish omili – mehnat va kapital kombinatsiyasiga bog'liqligini aks ettiradi [8]:

$$Y = AL^{\alpha}K^{\beta} \quad (1)$$

Bu yerda, Y – ishlab chiqarish hajmi, L – ishchi kuchi, K –kapital, A texnologik progress, α – mehnat bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti, β – kapital bo'yicha ishlab elastiklik koeffitsiyenti.

Odatda elastiklik koeffitsiyentlari yig'indisi 1 ga teng yoki undan kichik bo'lishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish birmuncha sekinroq rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Shunday hollarda korxonaning raqamlashtirilganligi muhim hisoblanadi.

$$Y = A * \sqrt{25} * \sqrt{100} \quad (2)$$

Masalan, korxonada 100 ta ishchi va 25 ta stanok bor deb olamiz. Raqamlashtirish darajasi o'rta me'yor darajasida va 1 ga teng. Elastiklik darajalari yig'indisi 1 ga tengligi uchun omillar darajasida 0,5 ya'ni kvadrat ildiz paydo bo'ladi.

Tenglamani yechsak ishlab chiqarish hajmi 50 ta tovarni ishlab chiqarishini ko'ramiz. O'zbekiston sharoitida tovarlarda kapital sig'imidan ko'ra mehnat sig'imi ko'proqligi uchun korxonalar ishchi kuchidan ko'proq foydalanishadi. Lekin, bunday noproportionallik kelgusida malakasi past ishchini ham yollashni, ishlab chiqarish hajmi kutilganidek hajmga yetmasligi va texnologik koeffitsiyentning me'yordan pasayishigacha olib kelishi mumkin. Shu sababli, korxonada ish faoliyatini raqamlashtirish orqali ham, kam sonli malakali xodimlar bilan birga ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin:

$$50 = 1,20 * \sqrt{25} * \sqrt{x} \quad (3)$$

Korxonada o'tkazilgan innovatsiyalar orqali raqamlashtirish darajasi 20 foizga oshdi deb olaylik. Endi, kunlik 50 tovar ishlab chiqarish uchun avvalgiday 100 ta emas, balki 70 ta ishchi kerak bo'ladi. Albatta, kapital va ishchi kuchini o'zgartirmasdan raqamlashtirishning keskin oshirilishi kutilganday samaradorlik bermaydi. Lekin, bunday o'rin bosish orqali korxonada salohiyati yuqori xodimlarni izlash va yollash uchun yetarli muddatga ega bo'ladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, hozirda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bo'lsa-da, u sanoat tarmog'i o'sishida deyarli ishtirok etmayapti. Vaholanki, sanoat va raqamlashtirishning birligi "Sanoat 4.0"ning asosi hisoblanadi. Shu sababli muallif tomonidan quyidagilar takliflar etiladi:

1. Sanoat klasterlari tarkibidagi qo‘shilgan qiymat yaratuvchi korxonalarni erkin bozordagidek foyda bilan ta’minlash. Mamlakatdagi eng past depozit stavkasidan ham past yillik foyda oluvchi (yoki hatto zarar ko‘ruvchi) subyektning faoliyati iqtisodiy samarasiz hisoblanadi. Bundan tashqari, foyda miqdorining oshishi korxonaning ko‘proq mahsulot chiqarishi, pirovardda esa o‘zgarmas xarajatlar (FC) kamayishi hisobiga tannarxni pasaytirishiga sababchi bo‘ladi.

2. Sanoat faoliyatini raqamli tashkil etish xizmatlari uchun subsidiya ajratish.

3. Sanoat korxonalarining erkin bozor faoliyatiga aralashuv holatlarini [9] [10] “Mamlakatning sanoat potensialini kamaytirishga qasddan urinish” deb baholash va tegishli tartibda jazo qo‘llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 17–18 b.

2. Skender, Fehmi & Ali, Ilker. Digitalization and Industry 4.0. Vision International Scientific Journal. 2019. – pp. 49–54.

3. O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>

4. O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

5. Zhilin Wu, Haiming Long, Lei Shi & Hui Song (2023). The Impact of Digital Economy on Firm Performance: Evidence from China. Emerging Markets Finance and Trade, 2023. – pp. 5–6.

6. Michael Mandel. High overall inflation and low digital inflation may spur digitization. URL: <https://www.progressivepolicy.org/blogs/high-overall-inflation-and-low-digital-inflation-may-spur-digitization/>

7. B.T. Salimov, M.S. Yusupov, B.B. Salimov. Mikroiqtisodiyot. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 146–148 b.

8. Akmal I. Sotvoldiyev. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi haqida. Journal of new century innovations. 2023. – №2 – b. 102–105

9. Chigit ishi: Biznes-ombudsman Qashqadaryo hokimligini ogohlantirdi. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/06/qashqadaryo/>

10. Deputatlar “chigit ishi” yuzasidan Qashqadaryo viloyati hokimligi va IIVga so‘rov yubordi. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/14/deputat/>

SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH MODELI

Meliyev Vohidjon Pulatovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktoranti

melievv500@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada, sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya va avtomatlashtirishni amalga oshirish borasida rivojlangan davlatlar tajribasi, bugungi kundagi mavjud iqtisodiy shart-sharoitlar, korxonalarida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari, biznes modellari taxlil qilingan holda, mamlakatimiz sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya va yangi biznes modellarini joriy etish bo'yicha nazariy hamda amaliy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, rakamli transformatsiya, avtomatlashtirish, yangi biznes modeli, foyda, qo'shilgan qiymat, marketing.*

МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ЦИФРОВЫМИ ИННОВАЦИЯМИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Мелиев Вохиджон Пулатович

Докторант Высшей школы бизнеса и предпринимательства

melievv500@gmail.com

Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo’llab-quvvatlash sohasida raqamli ta’limning zamonaviy metodlarini qo’llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o’zlashtirishda ko’maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralarini ko’rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur sohaning rivojlanishi ichki va tashqi bozordagi raqobat kuchayishiga olib keladi bu esa o’z o’rnida maxsulot sifatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shu bilan birga elektron tijorat sohasi menejment, marketing va axborot texnologiyalarining rivojlanishiga hamda mamlakat aholisining raqamli savodxonligini oshirishga ham undaydi.

⁴⁰ А.Н.Захаров, Ю.А.Старовая «Обзор развития электронной торговли в мировой экономике: вызовы и последствия пандемии» // Российский внешнеэкономический вестник, 12-2020. с.21.

Buning uchun birinchi navbatda axborot texnologiyalarini O‘zbekiston Respublikasining nafaqat markaziy shaxarlari balki chekka hududlari bo‘ylab keng tarqalishini ta‘minlash, chakana hamda ulgurji savdoni amalga oshirayotgan tadbirkorlarning internet tarmog‘i orqali erkin savdo amalga oshirishlari uchun mamlakat bo‘ylab online banking tizimini samarali joriy qilish hamda eng asosiysi elektron tijorat sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash va o‘z ustida ishlash mazkur sohadagi kadr yetishmovchiligini oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni

24. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptο-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-sonli Qarori

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

27. Jo‘rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. . Darslik..-T.: «Fan va texnologiya» nashr, 2018. – 512 bet.

28. Qodirov S., Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, 2/2022, mart-aprel

29. Ayupov R.H., Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, 554 bet.

30. Porsaev G‘.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b

31. Ayupov R.H., Boltaboeva G.R.. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020, 575 bet.

32. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massachussetts Institute of Technology, Cambridge, MA

33. Бойко, И.П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А. Евневич, А.В. Кольшкин // Российское предпринимательство. Том 18, – 2017. – №7. – С. 1127-1130

34. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollari. // Ilmiyamaliy anjuman ma’ruza tezislari to’plami. 2020 yil 14 oktyabr. – Toshkent. 2020.

35. А.Н.Захаров, Ю.А.Старовая «Обзор развития электронной торговли в мировой экономике: вызовы и последствия пандемии» // Российский внешнеэкономический вестник, 12-2020. с.21.

36. Сильвестров М. А., Михина Е. В., Жидко Е. А. Электронный бизнес в современных экономических условиях // Информационные технологии в строительных, социальных и экономических системах. 2021. № 1. С. 52–57.

37. Захаров А. Н., Старовая Ю. А. Обзор развития электронной торговли мировой экономики: вызовы и последствия пандемии // Российский внешнеэкономический вестник. 2020. № 5. С. 18–32.

38. Murtazayev I., “Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish sharoitida mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘zgarishlar”. Economics and finance, no. 6, 2011, pp. 22-29.

39. Дмитриев А. В. Цифровые технологии в транспортной логистике / А. В. Дмитриев // РИСК: ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. - 2017. - С. 14-18.

40. Gulyamov, S.S. va b., Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. -Т.: Iqtisod-Moliya, 2019, 396 b.

41. Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R., Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –Т: Fan va texnologiya, 2018, 172 b.

42. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

43. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

44. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti

45. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR O'RTASIDA IJARA (LIZING) MUNOSABATLARI

Qudbiyev Nodir Tohirovich

Farg'ona politexnika instituti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida assistenti

nodir.qudbiyev@ferpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz bugungi iqtisodiyotning rivojlanish bosqichida korxonalarda ijara (lizing) munosabatlarini takomillashning ayrim jihatlari to'xtalib o'tdik. Maqolaning asosiy maqsad sifatida ushbu munosabatlarni iqtisodiy imkoniyatlarini ochib berish iborat. Umuman zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib ijara (lizing) munosabatlarini o'rganish va ularni takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi, zero, mulkiy munosabatlar va ular bo'yicha turli mexanizmlar, nafaqat mulk egasiga balki uni ijara (lizing) oluvchi uchun ham foydani ko'paytirish omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *bozor iqtisodiyoti, moliyaviy imkoniyatlar, ijara munosabati, ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy vositalar, ijaraga olish, ijaraga majburiyatlari, foydalanish huquqi, investitsiya faoliyat, lizing, mulkdor, lizing munosabatlari.*

АРЕНДНЫЕ (ЛИЗИНГОВЫЕ) ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ПРЕДПРИЯТИЯМИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Кудбиев Нодир Тохирович

*Ассистент, кафедры "Бухгалтерский учет и аудит" Ферганского
политехнического института*

nodir.qudbiyev@ferpi.uz

Аннотация: В данной статье мы затронули некоторые аспекты совершенствования арендных (лизинговых) отношений на предприятиях на этапе развития современной экономики. Основная цель статьи - раскрыть экономический потенциал этих отношений. Как неотъемлемая часть современной экономики в целом, изучение арендных (лизинговых) отношений и их совершенствование считаются актуальными вопросами, ведь имущественные отношения и различные механизмы, связанные с ними, являются фактором увеличения прибыли не только для собственника имущества, но и для его арендатора (лизингополучателя).

Ключевые слова: рыночная экономика, финансовые возможности, арендные отношения, производственные мощности, основные средства, аренда, обязательства по аренде, право пользования, инвестиционная деятельность, лизинг, собственник, лизинговые отношения.

RENTAL (LEASING) RELATIONS BETWEEN ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY

Qudbiyev Nodir Tohirovich

Assistant at the Department of Accounting and Audit, Fergana Polytechnic Institute

nodir.qudbiyev@ferpi.uz

Abstract: In this article, we have touched upon some aspects of improving rental (leasing) relations at enterprises at the stage of development of the modern economy. The main purpose of the article is to reveal the economic potential of these relations. As an integral part of the modern economy as a whole, the study of lease (leasing) relations and their improvement are considered relevant issues, because property relations and various mechanisms associated with them are a factor in increasing profits not only for the owner of the property, but also for its tenant (lessee).

Keywords: *market economy, financial opportunities, lease relations, production facilities, fixed assets, lease, lease obligations, right of use, investment activity, leasing, owner, leasing relations, denationalization of property.*

KIRISH

Ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy va samarali mashinalar, uskunalar bilan almashtirish muhim vazifalardan biridir. Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha zamonaviy va yuqori samarali texnologiyalarni sotib olish dunyoda ushbu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. O'z navbatida, ijara munosabatlarining ishonchli hisobi korxonalar tomonidan ijaraga olingan obyektlardan foydalanish natijalarini obyektiv aks ettirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasining barqaror bo'lishini ta'minlash — eng muhim ustuvor vazifamizdir" [1] bundan kelib chiqadiki yurtimiz iqtisodiy yuksalishining bir bo'g'ini sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi ijara munosabatlarini ham ko'rish mumkin. Shuningdek, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" uchinchi yo'nalishida 26-maqсад sifatida "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash

va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish” [2] etib belgilanishini zaminida ham mulk obyektlaridan samarali foydalanish, ijara munosabatlarini takomillashtirish va bu orqali korxonalarda asosiy vositalarni yangilash va mavjudlarini modernizatsiya qilish vazifalari kun tartibiga chiqadi.

Darhaqiqat, iqtisodiyotning evolyutsion rivojlanishi korxonalarda asosiy vositalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilanish zarurligini taqozo etadi. Bu ko‘p jihatdan asosiy vositalarni to‘g‘ri hisobga olish va ularning xo‘jalik yurituvchi subyektlarda eskirishi, shuningdek ular bo‘yicha auditni maqbul tarzda tashkil etishga, bularning ajralmas qismi sifatida ijara munosabatlarini hisobiga bog‘liqdir. Buni shu tarzda tushuntirish mumkinki, bugungi kunda ushbu tizimda milliy standartlarni hisobga olgan xolda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari amaliyotga joriy etish vaqtida, ushbu turdagi munosabatlarni korxonalarda buxgalteriya hisobida aks ettirishning yangi tartiblarini belgilaydi.

Korxonalarda asosiy vositalarni ijaraga olishda ularning qiymati, xizmat muddati, holati, yangilanish darajasi, eskirishini hisoblash, sifati va samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar muhimdir. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xalqaro standartlar asosida ijara haqini hisobga olishni takomillashtirish bugungi kunda juda dolzarbligi masalalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijara obyekti yuridik sohada “iste‘mol qilinmaydigan narsalar” atamasi ostida birlashtirilgan, ish paytida tabiiy xususiyatlarini yo‘qotmaslik xususiyatiga ega bo‘lgan turli xil mulk bo‘lishi mumkin. Ushbu xususiyat asl obyektni mualliflik huquqiy egasiga uning funksional va sifat xususiyatlarini o‘zgartirmasdan qaytarish imkonini beradi. Bu yer uchastkalari, binolar, uskunalar, transport va boshqa shunga o‘xshash obyektlar, qoida tariqasida, tashkilotlarning asosiy vositalari hisoblanadi.

IFRS 16 “Ijara” xalqaro moliyaviy hisobot standarti lizing ma‘lumotlarini tan olish, o‘lchash, taqdim yetish va oshkor qilish tamoyillarini belgilaydi. 2016-yil yanvar oyida Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari Kengashi (IASB) 16-sonli “Ijara” IFRSni yangi tahririni e‘lon qildi. Yangi IFRS 16 “Ijara” standartini ishlab chiqishdan maqsad operatsion va moliyaviy lizingni tan olishdagi farqlarni bartaraf etish edi [12]. Uzoq vaqt davomida ijarachilarning hisobotlari investorlarning ehtiyojlarini qondirmadi. Investorlar baholangan aktivlar va majburiyatlarni tan olish uchun moliyaviy hisobotlarni tuzatishlari kerak edi, shu bilan kompaniyalarning ijara operatsiyalari va ularni moliyalashtirish to‘g‘risida chuqurroq tushuncha ega bo‘lishdi.

IFRS 16 “Ijara” ning joriy yetilishi natijasida IFRS bo‘yicha hisobot beradigan tashkilotlarning buxgalteriya hisobi, baholash va moliyaviy holatidagi tendensiyalarni aniqlash ijarachilarning investorlarga investitsiya samarali boshqaruv qarorlarini qabul

qilish va tashkilotni boshqarish uchun investorlarga aktivlari va majburiyatlari miqdori to'g'risida ishonchli ma'lumot olish imkonini berdi.

Muhim o'zgarishlar ijara oluvchining buxgalteriya hisobiga ta'sir ko'rsatdi. Standart barcha ijara shartnomalarini hisobga olish va hisobot berishning yagona modelini belgilaydi. Har qanday ijara shartnomasi ijara oluvchining balansida foydalanish huquqi va ijara majburiyati ko'rinishidagi aktiv sifatida taqdim etilishi kerak.

Istisno-qisqa muddatli ijara va moddiy qiymati katta bo'lmaga past qiymatli aktivlarni ijara olish kiradi.

Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivni dastlabki baholashga ijara majburiyatini dastlabki baholash summasi, ijara oluvchining shartnoma tuzish bilan bog'liq dastlabki to'g'ridan-to'g'ri xarajatlari, ijara to'lovlari kiradi.

Ijara majburiyatining dastlabki bahosi, agar uni aniqlash mumkin bo'lsa, shartnomadagi foiz stavkasidan foydalangan holda ijara to'lovlarini diskontlash yo'li bilan belgilanadigan ijara to'lovlarining hozirgi qiymatiga teng bo'ladi. Agar uni aniqlashning iloji bo'lmasa, ijara oluvchi tomonidan qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilish stavkasidan foydalaniladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va rivojlantirishda moliyalashtirish manbalarini aniqlash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Albatta, siz yangi uskunani sotib olish va o'rnatish uchun o'zingiz mablag'larni to'lashga harakat qilishingiz mumkin. Ammo shu bilan birga, ma'lum miqdordagi mablag'larni muomaladan olib qo'yish kerak bo'ladi, buni faqat bir nechta korxonalar sotib olishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu mablag'larni asbob-uskunalar sotib olish uchun ajratish uchun soliqlarni to'lash kerak bo'ladi.

Moliyalashtirishning yana bir manbai kreditni jalb qilish bo'lishi mumkin. Ammo bugungi kunda kreditorlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun yirik resurslarga ega emaslar va kredit olish uchun qat'iy talablar qo'yadilar, shu jumladan qarz oluvchi uchun juda qimmat bo'lgan ko'chmas mulk garovi shaklida, bu eng ko'p uchraydigan usuldir.

Ushbu muammoning yechimlaridan biri bu moliyaviy ijara. Bu zamonaviy xalqaro tijorat amaliyotida juda keng tarqalgan ijara turi [4].

Jahon ijara bozori 1,352,88 yilda 2021 milliard dollardan 1,528,03 yilda 2022 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda, bu yillik o'sish sur'ati 12,9% ni tashkil qiladi. O'sish, asosan, kompaniyalar o'z faoliyatini qayta tiklayotgani va COVID-19 ta'sirini kamaygani bilan bog'liq bo'lib, bu ilgari cheklov choralari, shu jumladan ijtimoiy uzoqlashtirish, masofadan ishlash va tijorat faoliyatining yopilishiga olib keldi, bu esa operatsion muammolarga olib keldi. 2026-yilga kelib bozor hajmi 2403,84 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, o'rtacha yillik o'sish 12,0% ni tashkil qiladi [5].

Ijara-bu investitsiya faoliyatining bir turi bo‘lib, unda mulk ijaraga oluvchining ko‘rsatmasi bilan ijaraga kompaniyasi tomonidan sotib olinadi va ijara shartnomasi asosida ma‘lum haq evaziga, ma‘lum muddatga va shartnomada nazarda tutilgan muayyan shartlar asosida ijara oluvchiga egalik qilish va foydalanish huquqiga ega bo‘ladi [6].

Ijara munosabatlari davomida ijara beruvchida qoladigan mulk huquqi va ijaraga oluvchiga — sanoat yoki tijorat korxonasi o‘tadigan mulk huquqi (ya‘ni o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish huquqi) ajratiladi [7].

Zamonaviy O‘zbekiston qonunchiligi ijaraga olingan asbob-uskunalarga va ijara oluvchining ishlab chiqarish tannaxsiga ijara to‘lovlariga tezashtirilgan amortizatsiya muddatlarini qo‘llashga imkon beradi, bu esa soliq imtiyozlarini kamaytiradi, shuning uchun xalqaro talablarda ijara tushunchasi lizing tushunchasi bilan almashtirilgan, zero lizing mulkni sotib olishning eng jozibali usuliga aylantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologiyasi asosi IFRSning konseptual asoslari hisobga olgan holda IFRS 16 “Ijara” munosabatlarini kuzatish, ma‘lumotlarni tavsiflash, natijalarni qayta ishlash, tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish, modellashtirish va umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi. Usullaridan foydalanishda ijara munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va huquqiy shaklini buxgalteriya hisobida aks ettirishdagi yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Korxonada nuqtai nazaridan lizing har qanday ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga keng ko‘lamli kapital qo‘yilmalarga imkon beradigan moliyaviy vositalardan eng foydalisi hisoblanadi. Uskunani sotib olishning boshqa usullari bilan taqqoslaganda (yetkazib berish paytida to‘lov, kechiktirilgan to‘lov bilan sotib olish, bank krediti va boshqalar), lizing bir qator muhim afzalliklarga ega.

Birinchi, lizing oluvchiga ishlab chiqarishni kengaytirish yoki modernizatsiya qilish hamda katta miqdordagi xarajatlarsiz va qarz mablag‘larini jalb qilish zaruratisiz uskunalariga texnik xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Ikkinchi, cheklangan likvidlik muammosi yumshatiladi, asbob-uskunalarini sotib olish xarajatlari shartnomaning butun muddati davomida teng taqsimlanadi, boshqa turdagi aktivlarga sarmoya kiritish uchun mablag‘lar bo‘shatiladi.

Uchinchi, qarzga olingan kapital jalb qilinmaydi va korxonada balansida o‘z va qarz kapitalining maqbul nisbati saqlashga imkon beradi [8].

Shu bilan birgalikda, mulkni yoki boshqa moliyaviy resurslarni ijaraga oluvchi bankdan kredit olish imkoniyatini saqlab qoladi. Yana bir qulayligi, korxonada uchun mulkni sotib olish uchun kredit olishdan ko‘ra lizing uchun olish osonroq, chunki lizing

shartnomasi bo'yicha garov vazifasini o'sha lizinga olingan mulkini o'zi bajaradi. Ijara shartnomasining muddati odatda uch yilgacha bo'lishi mumkin, holbuki bugungi kunda bunday muddatga kredit olish deyarli imkonsiz. Va yana nima muhim: lizing sizga sezilarli darajada va eng muhimi, biznesni soliqqa tortishni qonuniy ravishda minimallashtirishga imkon beradi: lizing to'lovlari tannarx narxiga to'liq bog'liq va daromad solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytiradi [3].

Uskunani lizing shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish sxemasi kredit olishdan ko'ra soddaroqdir. Lizing uchun uskunalar olish uchun batafsil biznes-reja talab qilinmaydi: kompaniya faqat ariza to'ldirishi va unga standart huquqiy hujjatlar to'plamini ilova qilishi kerak. Moliyalashtirish yoki rad etish to'g'risidagi qaror ariza berilgan kundan boshlab 10-14 kun ichida qabul qilinadi hamda buyurtmachiga natija ma'lum qilinadi.

Bugungi kunda asbob-uskunalar lizingi O'zbekiston sanoatining rivojlanishiga hissa qo'shishi, import qilinadigan mahsulotlarni yuqori sifatli mahalliy analoglarga almashtirish, bandlikni oshirish, xususiy biznes va davlat daromadlarini oshirish jarayonini bevosita rag'batlantirayotganini hech kim inkor etmaydi. Birgina misol O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2022- yil yanvar-sentyabr oylari yakuniga ko'ra, avtomobillarni ijaraga berish va lizing xizmatlari bo'yicha eng yuqori hajm Andijon shahrida qayd etilgan – 86 624,2 mln. so'm. Shu bilan birga, yuqori hajmlar Toshkent shahrida, xususan, Yakkasaroy (75 843,0 mln. so'm) va Miroybod tumanlarida (75 286,5 mln. so'm) qayd etildi [14]

Lizing mulki asosiy vositalarning obyektiga ekanligiga asoslanib, uni xo'jalik yurituvchi subyekt balansida hisobga olish metodologiyasi asosiy vositalarni hisobga olishning asosiy tamoyillariga mos keladi. Biroq, lizing operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularni lizing shartnomasi subyektlarining buxgalteriya hisobida aks ettirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Va shu munosabat bilan, ushbu maqolada bunday operatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

Lizing, siz bilganingizdek, ishlab chiqarish vositalarini (mulkni) vaqtincha foydalanish va egalik qilish uchun berishni o'z ichiga oladi. Lizing munosabatlarini amalga oshirishning zaruriy sharti ikki xo'jalik yurituvchi subyekt, lizing beruvchi va lizing oluvchining mavjudligi bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar bir xil mulk obyektiga haqida shakllanadi. Ishlab chiqarish vositalaridan unumli foydalanish uchun lizing oluvchi ularga egalik qilish huquqini olishi kerak, bu unga ijara shartnomasida berilgan. Shunday qilib, ijara egasi uchun mulkni tasarruf etish huquqini saqlab qolgan holda, ijarachiga mulkni boshqarish, egalik qilish, undan foydalanishning iqtisodiy vakolatlarini berishni o'z ichiga oladi, natijada u undan samarali foydalanishda iqtisodiy manfaatlarga ega bo'ladi.

Mulkdor ham, to'g'ridan — to'g'ri ishlab chiqaruvchi (ijarachi) ham ishlab chiqarish natijalari-foйда, moddiy ne'matlarni haqiqiy o'zlashtirishga obyektiv ehtiyojga ega, chunki ular o'zlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirishdan, iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishdan manfaatdor bo'ladi. Biroq, mulkdor har qanday holatda ham o'z manfaatlarini amalga oshiradi (ishlab chiqarish natijalaridan qat'i nazar, u ijara oladi), ijarachi esa o'z iqtisodiy faoliyati samaradorligini maksimal darajada oshirishdan manfaatdor bo'lishga harakat etadi.

Lizing oluvchi tomonidan ijara olingan ishlab chiqarish vositalari, ular allaqachon unga tegishli bo'lgandagina, ya'ni ushbu mablag'larni egasidan sotib olgandan keyin (shartnomada nazarda tutilgan), shuningdek ularning qiymati to'liq qoplangandan keyin uning mulkiga aylanadi. Ijara muddati tugashi va ular hali ham ularning foydali xususiyatlarini saqlang.

Mulkchilik-bu haqiqiy, tugallangan mablag'. Ya'ni, egasi bo'lmagan lizing oluvchiga egasining mulkiga nisbatan foydalanish, egalik qilish, qisman tasarruf etish huquqlari beriladi. Lizinga oluvchiga keng iqtisodiy mustaqillik beriladi, ammo bu uning ishlab chiqarish vositalarining egasi bo'lishini anglatmaydi.

Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va korxonalarnı o'z mehnat jamoalarining mulkiga o'tkazishga kelsak, bizningcha, bunda jiddiy qarama-qarshilik mavjud. Davlat korxonalari davlat mulkini realizatsiya qilish subyektlari hisoblanadi. Agar korxonaga jamoasi uni davlatdan oladigan bo'lsa, unda davlat mulkini realizatsiya qilish jarayoni unga yuklanadi. Bunday holda, foydalanish, egalik qilish, qisman tasarruf etish huquqini amalga oshiradigan korxonaga jamoasi, allaqachon foydalanishda, egalik qilishda va tasarrufida bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini davlatdan lizinga olish uchun xuddi shu jarayonni amalga oshirishi kerak. Korxonaning mehnat jamoasi tomonidan davlat mulkini lizinga olishda quyidagi omilarni hisobga olish kerak:

Davlat mulkining yo'q bo'lib ketishi bilan bir vaqtda jamoaviy mulknı yaratish va kengaytirish zarurati saqlanib qolinadi. Jamoatchilik mulkning mavjudligi har bir aholiga nisbatan, uning mehnati hissasiga qarab, uni yanada shaxsiylashtirishni talab qiladi.

Jamoaga lizinga olingan ishlab chiqarish vositalarini har bir jamoa vakiliga mustaqil ravishda lizing obyektini tasarruf etish va o'z faoliyatida boshqarish tamoyillariga muvofiq tashkil etish huquqini beriladi.

Jamoaga faoliyatining umumiy natijalariga har bir xodimning shaxsiy hissasini aniq hisobga olinib lizing obyektini foydalanishdagi samaradorlik hisob kitob qilinishi kerak bo'ladi.

Maqola mavzusi dolzarbdir, chunki bugungi kundagi mamlakatimizda tadbirkorlikka keng imkoniyatlar berilmoqda, turli imtiyozlar va kreditlar ajratilmoqda, lekin shu bilan birga iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarishning samarali shakllaridan biri lizing yoki uzoq muddatli ijara munosabatlari hali toliq

samarali foydalangani yo‘q, ushbu vositani xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini mustahkamlash usullaridan biri sifatida keng qo‘llanilishi bizningcha eng maqbul yo‘ldir.

XULOSA

Lizing munosabatlarining tashkiliy jihatlarini o‘rganish natijalari bizga quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi, u tomonlarning o‘zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydigan ikki tomonlama bitim bo‘lgan shartnoma tuzilgan paytdan boshlab boshlanadi. Lizing majburiyatlari shartnoma bo‘yicha to‘lanadigan umumiy summa to‘languncha muddatda amalga oshiriladi, lekin lizing olingan mulk bo‘yicha amortizatsiya va turli foizlarini to‘lash uzluksiz amalga oshiriladi, lizing bo‘yicha soliqlarni bundan mustasno.

Lizing oluvchi joriy xarajatlarini shakli va to‘lovdan qat‘i nazar, ular tegishli bo‘lgan hisobot davrida tan oladi va hisoblanadi. Lizing oluvchining moliyaviy hisobotida lizing to‘lovlari yoki ofis ijarasi uchun to‘lovlar, davr xarajatlari va ishlab chiqarish uskunalari uchun ijara to‘lovlarini to‘lashda xarajatlari sifatida tan olinadi.

Shartnoma mexanizmi shundan iboratki, lizing oluvchi ko‘pincha o‘ziga kerakli uskunani ishlab chiqaradigan kompaniyani topadi, u bilan ko‘rsatiladigan xizmat bo‘yicha muhokamalar qiladi, oldingi yetkazib berish shartnomasini tuzadi. Ishlab chiqaruvchi bilan birgalikda ular lizing kompaniyasiga uch tomonlama shartnoma imzolash va uni moliyalashtirish iltimosi bilan murojaat qilinishi mumkin. Bu yerda lizing munosabatlari moliyalashtirilishni shunday tushunish kerak.

Lizing kompaniyasi uskunani ishlab chiqaruvchidan sotib oladi va uni o‘rta muddatli shartnoma doirasida foydalanish uchun iste‘molchiga o‘tkazadi hamda uskunaga egalik huquqi lizing kompaniyasida qoladi. Ushbu sxema moliyaviy operatsiyalar infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlar uchun ko‘proq mos kelishi aniq, bu yerda lizing oluvchi ishlab chiqaruvchilar to‘g‘risida yetarli ma‘lumotga ega va ularning istalgan biriga bevosita murojaat qilishi mumkin.

Rivojlanmagan bozor sharoitida iste‘molchi muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. U uskunani qayerdan olishni bilmasligi mumkin. Shuning uchun, boshidanoq, shaxs lizing kompaniyasiga o‘zi uchun yetkazib beruvchini aniqlash so‘rovi bilan murojaat qilishi kerak va bu allaqachon maslahat, lizing kompaniyasining qo‘shimcha xarajatlari, buning uchun to‘lash kerak.

Lizing kreditlashning bir turi sifatida, bir tomondan, lizing oluvchidan eksklyuziv foydalanish uchun texnik vositalarni topshirishni ta‘minlaydi, boshqa tomondan, avtomobillar, uskunalar va jihozlar lizing muddati davomida lizing oluvchining mulki bo‘lib qoladi. Ushbu shartlarga asoslanib, lizinga oluvchi:

- mashinalar va uskunalar ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan kafolatdan to‘liq foydalanadi;

- o‘z hisobidan sug‘urta qilishi mumkin, ammo lizing beruvchining foydasiga ularning yo‘qotishlari, yo‘q qilinishi va boshqa sabablarga ko‘ra lizinga olingan mablag‘lar ularni yaroqsiz holga keltirishi mumkin;

- butun lizing muddati davomida lizinga olingan aktivlarning to‘g‘ri saqlanishini ta‘minlashi shart.

Shunday qilib, ijara va lizing munosabatlari bugungi kun talabi hamda bu munosabatlar bozor iqtisodiyotining ajralmas qismidir. O‘rganilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdikki yurtimizda bu munosabatlar hali to‘liq rivojlanmagan keyingi rivojlanish bosqichlari uchun islohotlarga muhtoj. Texnik va huquqiy shartlar hamda majburiyatlarni qat‘iy belgilanishi lozim. Bu bizning keyingi o‘rganishlarimizga mavzu bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022-yildagi PF-60-son.

3. Мандрощенко, О. В. (2023). Методика планирования организациями отдельных налоговых платежей. Имущественные отношения в Российской Федерации, (11 (266)), 20-27.

4. Финансы. Курс лекций: учеб.-метод. пособие / А.А. Голубицкая. – Минск: БИП, 2023. – 161 с.

5. Осокина, К. А. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕЙРОСЕТЕЙ В МАРКЕТИНГЕ. ББК 65.9 (2Рос) я43 С56 Рецензенты, 79.

6. Алексеева, Г. И. (2020). Стандартизация бухгалтерского учета договоров аренды в России. ББК 65.052 А43, 124.

7. Anderson, J. L., & Bogart, D. B. (2024). Property Law: Practice, Problems, and Perspectives. Aspen Publishing.

8. Shokiraliyevich G. I. et al. MOLIVAVIY HISOBOTLARNI MHXS BO‘YICHA TRANSFORMATSIIYASINING ZARURATI, MOHIYATI VA DOLZARBLIGI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – С. 339-344.

9. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 328-333.

10. Кудбиев, Д. (2022). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ИХ УЧЕТ. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 57-62.

11. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallari. Scientific progress, 3(4), 1030-1037.

12. Кудбиев, Д., & Кузибаев, У. М. (2022). Особенности Лизинговых Услуг В Узбекистане Как Основа Модернизации Производственных Предприятий. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 150-157.

13. Qudbiyev, N. T. (2023). KORXONALARNING INNOVATSION STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH XUSUSIYATLARI: KORXONALARNING INNOVATSION STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH XUSUSIYATLARI.

14. <https://www.stat.uz> — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

POCHTA ALOQASI KORXONALARIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Kenjabaev Aman Turgunovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
“Marketing va raqamli iqtisodiyot” kafedrası mudiri
amankenja059@gmail.com

Nosirov Sardor Xolmirzayevich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti
nosirov-s@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada, raqamli texnologiyalar asrida tashkil etilgan raqamli iqtisodiyotning takomillashishi, uning tashkil etilishi, pochta aloqalari korxonalarining rivojlanish bosqichlari va hozirda ushbu tashkilotlarda qo‘llanilayotgan raqamli iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va uni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: pochta, pochta aloqasi, kuryer, raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot, raqamli pochta tizimi, O‘zbekiston pochтasi.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПОЧТОВОЙ СВЯЗИ

Кенжабаев Аман Тургунович

Высшая школа бизнеса и предпринимательства, заведующий кафедрой
«Маркетинг и цифровая экономика»
amankenja059@gmail.com

Носиров Сардор Холмирзаевич

Магистрант Высшей школы бизнеса и предпринимательства
nosirov-s@mail.ru

Аннотация: В данной статье рассматривается совершенствование цифровой экономики, сложившейся в век цифровых технологий, ее организация, этапы развития почтовых предприятий, а также меры по повышению

эффективности цифровой экономики и ее совершенствованию, которые в настоящее время используются в эти организация.

Ключевые слова: *почта, почтовая связь, курьер, цифровые технологии, цифровая экономика, цифровая почтовая система, почта Узбекистана.*

INCREASING THE EFFICIENCY OF THE DIGITAL ECONOMY AT POSTAL ENTERPRISES

Kenjabaev Aman Turgunovich

*Head of the "Marketing and Digital Economy" department,
Higher School of Business and Entrepreneurship*

amankenja059@gmail.com

Nosirov Sardor Kholmirezayevich

Graduate student of the Higher School of Business and Entrepreneurship

nosirov-s@mail.ru

Abstract: This article discusses the improvement of the digital economy established in the age of digital technologies, its organization, the stages of development of postal enterprises, and the measures to increase the effectiveness of the digital economy and improve it, which are currently used in these organizations.

Key words: *post, postal communication, courier, digital technology, digital economy, digital postal system, Uzbekistan post.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot texnologiyasi yaqindan buyon mavjud bo‘lib, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida “2020-yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shart. Bu esa o‘shishning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi”. Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi. U ba’zan internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisod deb ataladi. 1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” atamasini kiritdi. Hozirda bu atama siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, ishbiarmonlar - deyarli hamma tomonidan qo‘llaniladi. 2016-yilda Jahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyot holatiga oid birinchi hisobotini (“Raqamli dividendlar”) e’lon qildi.[1]

Hozirgi zamonamizda raqamli texnologiyalar kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar asrida ko‘plab yo‘nalishlardagi axborotlar raqamlashtirilmoqda, sababi raqamli ma‘lumotlarning xavfsizlik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Raqamli texnologiyalarning mohiyati analog darajadagi diskret diapazonlarda ko‘rsatishga asoslanganligidir. Hozirgi kunda iqtisodiyotni ham raqamlashtirishilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlarga egamiz. Raqamli iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyat, shuningdek, ushbu faoliyat natijasida ishlab chiqarilgan va sotiladigan raqamli tovarlar va xizmatlar. U ba‘zan internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisod deb ham ataladi.

Pochta korxonalarida raqamli iqtisodiyot roli ham alohida o‘rin tutadi. “O‘zbekiston pochta” AJ tizimida mamlakatimizning barcha hududini qamrab olgan 2 mingdan ziyod bo‘linma mavjud. 2020-yil 6-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari qo‘mitasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamkorligida tashkil etilgan davra suhbat shu mavzuga bag‘ishlandi.

Ma‘lumki, 2020-yilning 5-oktyabr kuni Prezidentimiz tomonidan milliy pochta tizimini isloh qilish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgan edi. Unda davlatimiz rahbari mazkur yo‘nalish rivoji va barqarorligini ta‘minlash yuzasidan soha mutaxassislari oldiga muhim vazifa va topshiriqlar qo‘ydi. Bundan tashqari, pochta aloqasi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari ham tadbir kun tartibiga kiritildi [2].

Elektron tijorat bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida Toshkent shahri, Andijon viloyatining Asaka tumani, Buxoro viloyatining Vobkent tumani va Xorazm viloyatining Urganch shahrida 4 ta logistika markazi qurilishi boshlandi. Qurilish ishlarini yil oxirigacha yakunlash rejalashtirilgan. Ushbu logistika markazlari, birinchi navbatda, onlayn savdo maydonchalari egalari uchun o‘z mahsulotlarini, ya‘ni omborxonada saqlash muammosini hal etib, onlayn savdo maydonchasi orqali xarid qilingan mahsulotlarni qadoqlab, qisqa vaqt ichida xaridorlarga yetkazib berish imkoniyatini beradi. Shuningdek, “Gibrid pochta” tizimi takomillashtirilib, Yagona milliy tizim joriy etildi. Gibrid pochta xizmatining afzalligi shundaki, davlat organlari va tashkilotlari pochta jo‘natmalarini konvertlarga solib qo‘yish, ularga muhr bosish, qabul qiluvchining manzilini yozish va pochta bo‘limiga olib kelish vazifalaridan ozoddir. Endilikda davlat organlari va tashkilotlari o‘z ish joyidan xatlarni elektron shaklda jo‘natadi, qabul qiluvchining manziliga xizmat ko‘rsatuvchi tuman va shahar pochta aloqasi organlari esa uni qog‘oz shaklida chop etib, manzilga yetkazib beradi. Buning natijasida pochta jo‘natmalarini yetkazib berishni nazorat qilish muddatini qisqartirish mumkin bo‘ldi, ya‘ni pochta jo‘natmalari

eng chekka hududlarda yashovchi aholiga 6-8 kun ichida yetkazilsa, endilikda u 1-2 kun ichida yetkazilmoqda.

Bugungi kunda 100 dan ortiq davlat organi va tashkilotlari ushbu xizmatdan foydalanmoqda. Gibrid pochta jo‘natmalari hajmi 2021-yilda 2020-yilga nisbatan ikki baravar oshdi va 3,5 million donani tashkil etdi.

Pochta almashinuvi uchun foydalaniladigan avtomototransportlar parki yangilandi, buning uchun 110 dan ortiq yirik va kichik yuk tashuvchi avtomobillar xarid qilindi.

Natijada asosiy va hududiy ichki pochta almashinuvi, jumladan, haftada 5 marta o‘tkazilayotgan pochta almashinuvi sonining ko‘payishiga erishildi, endilikda ular haftasiga 6 marta o‘tkazilmoqda.

Tumanlarda joylashgan pochta aloqalari ham qo‘shimcha avtotransport vositalari bilan ta‘minlandi, ayrim ichki yo‘nalishlar tiklandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Universal pochta ittifoqining 2019-yilgi taqdim etgan adabiyotiga ko‘ra raqamli pochta va raqamli iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik, ularni shakllantirish, uning kesimida pochta faoliyatida erishilgan yutuqlar to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan, adabiyotda ilmiy fikrlar bilan birgalikda, kitobga mualliflik qilgan ko‘plab mutaxassislar o‘z fikrlarini bayon etishgan. Ushbu adabiyot pochta tizimidagi raqamli iqtisodiyotga bag‘ishlangan bo‘lib, nomlanishi ham unga bog‘liq : “The digital economy and digital postal activities – a global panorama”. Adabiyotni mana shunday nomlanishining asosiy sabablaridan biri, global miqyosdagi pochta tizmini raqamlashtirish uchun olib borilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni barchasini ochiq namoyon etishidir. Unga ko‘ra global miqyosdagi raqamli iqtisodiyotning tashkil etilishi, regional miqyosdagi raqamli iqtisodiyot va pochta industriyasidagi raqamli eltish tizimlari, raqamli platformani shakllantirish, raqamli pochta xizmatlarga tayyorlash bosqichlari va shu tarzda bilimlar taqdim etilgan. Raqamli pochta tizmini texnologik nuqtai nazardan analiz qilinishi, uning kesimida global va mintaqaviy erishilgan natijalari borasida ham fikr yuritilgan. Pochta tashkiloti uchun yaratilgan raqamli aplikatsiya to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. “Ma‘lumotlar Postlar hukumatlarga raqamli transformatsiyaning xalqaro, mintaqaviy va milliy strategiyalarini amalga oshirishda qanday yordam berishi mumkinligini ko‘rsatadi. Pochta tizimi har bir jamiyat uchun raqamli inklyuzivlikni ta‘minlashning kalitiga aylanmoqda” [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pochta xizmati takomillashayotgani ham hozirgi kunda barchamizga ma‘lum axborotlardan biri. Bir necha yillar ilgari pochta xizmati juda noqulay tarzda qo‘llanilgan, o‘sha yillar mobaynida pochta xizmatidan yuklarni va xatlarni eltib

berishda foydalanilgan, ammo, eltish jarayonlari uzoq muddatni o'z ichiga olgan. Urush davrida askarlarni yozgan maktublari ham yaqinlariga uzoq muddatda yetkazilgan.

Yillar davomida respublikaning belgilangan pochta tashkilotlarida olib borilgan matbuot anjumanlari va davlatning pochta tashkilotlarining rivojlantirish strategiyasi natijasida hozirda pochta tizimi ancha rivojlangan. Ushbu tizimning hozirda elektronlashtirilgan variant ham mavjud bo'lib pochta xizmatiga, kuryerlikga ehtiyojmand fuqarolarimiz uchun qulayliklar yaratib kelmoqda. Foydalanuvchilar UzPOST ning elektron sahifalari orqali ularning elektron xizmatlari bilan tanishishlari mumkin. Ushbu elektron sahifaning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ham sahifaning bir qismida keltirib o'tilgan, unga ko'ra, texnologiya rivojlanishi bilan pochta xizmati ham rivojlanganligi, bugungu kunda MDH davlatlarida 20 yildan ortiq vaqtdan buyon zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali sifatli xizmat ko'rsatib kelayotgan yetakchi pochta operatorlaridan biri ekanligi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. 1991-yilda milliy pochta tizimini va ularning hududiy bo'linmalarini tuzildi. 1992-yilda esa rasman O'zbekiston pochta tashkiloti tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 19-iyuldagi "Pochta aloqasi sohasidagi faoliyatni takomillashtirish to'g'risida"gi qaroridan so'ng "O'zbekiston pochta" davlat aksiyadorlik kompaniyasi Ochiq aksiyadorlik jamiyatiga (OAJ) hududiy aksiyadorlik jamiyatlari esa uning filiallariga aylantirildi. "O'zbekiston pochta" OAJ 2014-yil 6-maydan boshlab "O'zbekiston pochta" AJ aylandi. O'zbekiston pochta pochta jo'natmalarini, davriy bosma nashrlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va yetkazib berish, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qilish va boshqa ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lgan yirik yo'nalishlar va pochta korxonalarini tarmog'idir [4].

Pochta tashkilotlarini raqamlashtirish borasida olib boriladigan tadqiqotlar kesimida, asosiy e'tiborni pochta xizmatini qaysi xizmatlari va jihatlarni elektronlashtirish mumkinligi, uning xizmatini yanada kengaytirish masalalarini eng oldi masalalarga qo'yilishi lozim. Masalan, kuryerlik xizmatini elektronlashtirish borasida ham hozirda ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilgan. Respublikaning ko'plab hududlarida hozirda kuryerlik xizmatlari mavjud bo'lib, uni foydalanuvchi o'zining belgilagan hududlarida ham turib qayerda ekanligini bilishi, kuryer yetib kelganida elektron xabarni qabul qilib olishi, buyurtmani ham o'ziga qulay holda qabul qilish imkoni mavjud. Ushbu xizmatni amalga oshirishda, raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot pochta xizmatiga ehtiyoji bor fuqarolar uchun qulayliklar yaratgan. Ushbu tizimni tashkillashtirishda elektron xaritadan foydalanish, mijoz bilan bog'lanish uchun kuryerga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish, buyurtma berishdan oldin, buyurtmachi to'lovlarni ham turli usullarda amalga oshirishi mumkin. Pochta tizimi tarixdan shakllanib zamon bilan birgalikda rivojlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirda muhokamalarga sabab bo'lgan pochta faoliyatining yana bir jihatlaridan biri tizimni yanada zamonaviylashtirish, unda raqamli iqtisodiyotni qo'llash orqali qulayliklarni yanada kengaytirishdir. Texnikalar rivojlanmoqda ekan u har soxada uchramoqda, ta'limda, savdo-sotiqda, davlatlar o'rtasida aloqalarni mustahkamlashda, hukumatni boshqarishda va eng asosiysi inson omili yordamida, insonlarning o'ziga qulaylik yaratishdir. Raqamli iqtisodiyot orqali hozirda pochta xizmatlariga qo'shimchalar joriy etilmoqda.

2020-yil 5-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida Vazirliklar hamda viloyat, tuman va shahar hokimiyat organlari rahbarlari ishtirokida "Milliy pochta tizimini isloh qilish masalasi" yuzasidan yig'ilish o'tkazilib, Milliy pochta tizimini rivojlantirish, bozorda raqobatbardosh korxonaga aylantirish hamda Umumjahon pochta ittifoqining Pochta rivojlanishi indeksi global reytingida mamlakatimizni yuqori o'rinlarda bo'lishini ta'minlash maqsadida Milliy pochta qo'llab-quvvatlash yuzasidan Vazirliklar hamda viloyat, tuman va shahar hokimiyat organlariga tegishli topshiriqlar berildi.

2020-yil 5-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-dekabrda "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4921-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qaror bilan:

1. Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan, jumladan:

- xat-xabar tashish va kuryerlik xizmatlarini rivojlantirish;
- elektron tijorat bozorida faoliyatni rivojlantirish;
- xizmatlar bozorida pochta aloqasi faoliyatini rivojlantirish.

2. 2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida pochta aloqasi sohasini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda 2021-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida pochta aloqasi sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan.

3. Har bir viloyatdan 3 tadan tumanlar jami 42 ta tuman namuna sifatida tanlab olinib, o'sha tumanlarda pochta aloqasi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan [5].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, pochta soxasida erishilgan har qanday yutuq nafaqat ushbu soxa vakillariga va albatta ushbu xizmatdan foydalanuvchilarga ham juda ko'p foyda keltiradi.

Yillar davomida pochta tizimida turli-tuman yangiliklar bo'lib kelmoqda, esingizda bo'lsa ilk maktublar kabutar va boshqa turli jonzotlar orqali amalga oshirilgan, hozirda esa ushbu xizmat ko'rsatish vositalarini zamonaviy texnikalar va texnologiyalar qurshab olgan.

Zamonamizda yaratilayotgan ko'plab texnikalar yordamida yaqin kelajakda pochta tizimida yanada katta o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini bashorat qila olamiz, balki, ushbu tizimda robototexnikalar ham paydo bo'lishi mumkin, ammo buning oqibatida ishsizlik ko'payishi, inson o'zi yaratgan texnikalarga qaram bo'lib qolishi mumkinligini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim. Ammo nima bo'lganda ham, insonlar doimo o'zlari uchun foydali maxsulot ishlab chiqarishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Daryo (24-yanvar.2020-yil). Qaraldi: 7-aprel 2023-yil.
<https://daryo.uz/2020/01/24/shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-2020-yilni-ilm-marifat-va-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish-yili-deb-elon-qildi/>
2. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda pochta tizimining o'rni qanday?
<https://yuz.uz/uz/news/raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirishda-pochta-tizimining-orni-qanday>
3. Universal postal union. THE DIGITAL ECONOMY AND DIGITAL POSTAL ACTIVITIES – A GLOBAL PANORAMA. Published by the Universal Postal Union (UPU) Berne, Switzerland. 2019. 148 pages.
https://www.upu.int/UPU/media/upu/publications/Digital-economy-and-postal-digital-activities_EN.pdf
4. Pochta xizmati takomillashmoqda. <https://uza.uz/oz/posts/pochta-xizmati-takomillashmoqda-27-05-2015>
5. Pochta tizimini modernizatsiya qilish. <https://uz.post/uz/o-deyatelnosti-ao-uzbekiston-poctasi>
6. Цоколов В.П, Тарасова Н.П, Ливинс В.М. Теоретические средства автоматизации почтовой связи, учебник для ВУЗов. М.- Радио и связь, 1998г.
7. Барсук В.А, Губин Н.М, Батый А.Р. Экономико-математические методы и модели в планировании и управлении в отрасли связи. Учебник для ВУЗов-М.- Радио и связь. 1990г.
8. Kenjabaev A.T., Niyazov M. Sh. Uzbekistan as a new logistics digital ecosystem Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 VOL. 9, ISSUE 12, DEC. (2021).
9. Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Post-pandemic perspectives for the development of digitalization in Uzbekistan. International Journal of Management, IT & Engineering Vol. 12 Issue 9, September 2022, ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119 Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com

Double-Blind Peer Reviewed Refereed Open Access International Journal - Included in the International Serial Directories Indexed & Listed at: Ulrich's Periodicals Directory ©, U.S.A., Open J-Gate as well as in Cabell's Directories of Publishing Opportunities, U.S.A.

10. Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Developing the digital economy impact on the country's economic growth. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS) Available online at: <http://euroasiapub.org> Vol. 12 Issue 09 September- 2022 ISSN: 2249-7382 | Impact Factor: 8.018|

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шадманов Зухриддин Закирходжаевич

Заместитель директора ГУ «Центр исследований цифровой экономики»

z.shadmanov@derc.uz

Ахмедов Бехруз Иброхим угли

PhD соискатель «Военного института информационно-коммуникационных технологий и связи»

b.akhmedov@derc.uz

Исмаилов Хусанбой Махаммадкосим угли

Начальник отдела ГУ «Центр исследований цифровой экономики»

kh.ismailov@derc.uz

Аннотация: В научной статье «Основные направления и проблемы развития цифровой экономики в Узбекистане» рассматривается прогресс цифровизации в Узбекистане, выделяя основные направления этого процесса. Внимание уделяется действиям правительства, таким как внедрение Национальной концепции цифровой экономики и стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030». Также освещаются изменения в сфере телекоммуникаций, уровень доверия общества к цифровым сервисам и усилия по подготовке квалифицированных специалистов в области цифровых технологий. В статье также обсуждаются проблемы, затрудняющие процесс цифровизации, включая неравномерное распределение цифровой инфраструктуры и вызовы в области кибербезопасности. Тем не менее, несмотря на эти сложности, статья подчеркивает потенциал цифровой экономики для улучшения качества жизни, повышения производительности и создания новых возможностей для предпринимательства в Узбекистане. В перспективе предполагается дальнейшее углубление цифровой трансформации в различных секторах и поддержка инноваций для стимулирования устойчивого и динамичного развития страны.

Ключевые слова: *цифровая экономика, цифровая грамотность, инвестиции, цифровые технологии, электронное правительство, электронная коммерция.*

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUAMOLLARI

Shadmanov Zuhridin Zokirxodjeyevich

“Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi direktor o‘rinbosari

z.shadmanov@derc.uz

Axmedov Bexruz Ibroxim o‘g‘li

“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti” PhD izlanuvchi

b.akhmedov@derc.uz

Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o‘g‘li

“Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi bo‘lim boshlig‘i

kh.ismailov@derc.uz

Annotatsiya: “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari” ilmiy maqolasida O‘zbekistonda raqamlashtirishning borishi ko‘rib chiqilib, ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsiyasi va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish kabi hukumatning chora-tadbirlariga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, telekommunikatsiya sohasidagi o‘zgarishlar, aholining raqamli xizmatlarga bo‘lgan ishonchi va malakali raqamli mutaxassislarni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni qamrab oladi. Maqolada, shuningdek, raqamlashtirishga xalaqit beradigan muammolar, jumladan, raqamli infratuzilmaning notekis taqsimlanishi va kiberxavfsizlik muammolari muhokama qilinadi. Maqolada raqamli iqtisodiyotning hayot sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirish va O‘zbekistonda yangi biznes imkoniyatlarini yaratish imkoniyatlari ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, raqamli savodxonlik, investitsiyalar, raqamli texnologiyalar, elektron hukumat, elektron tijorat.*

MAIN DIRECTIONS AND PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Shadmanov Zukhriddin Zokirkhodjeyevich

Deputy Director of the State Institution “Digital economy research center”

z.shadmanov@derc.uz

Akhmedov Bekhruz Ibroxim ugli

PhD candidate of the “Military Institute of Information and Communication Technologies”

b.akhmedov@derc.uz

Ismailov Khusanboy Mahammadkhosim ugli

Head of Department of the state institution “Digital economy research center”

kh.ismailov@derc.uz

Abstract: The scientific article “Main directions and problems of development of the digital economy in Uzbekistan” examines the progress of digitalization in Uzbekistan, highlighting the main directions of this process. Attention is paid to government actions, such as the implementation of the National Concept of the Digital Economy and the “Digital Uzbekistan - 2030” strategy. It also covers changes in the telecommunications industry, public trust in digital services, and efforts to develop skilled digital professionals. The article also discusses the challenges hampering digitalization, including uneven distribution of digital infrastructure and cybersecurity challenges. However, despite these challenges, the article highlights the potential of the digital economy to improve quality of life, increase productivity and create new business opportunities in Uzbekistan. In the future, it is planned to further deepen digital transformation in various sectors and support innovation to stimulate sustainable and dynamic development of the country.

Keywords: *digital economy, digital literacy, investments, digital technologies, e-government, e-commerce.*

ВВЕДЕНИЕ

В эпоху стремительных технологических изменений и глобальных трансформаций цифровая экономика становится неотъемлемой составляющей развития страны, и Узбекистан не остается в стороне от этого глобального тренда. В последние годы, стремясь к модернизации и укреплению своего экономического статуса, Узбекистан взял курс на активное внедрение цифровых технологий в различные сферы своей деятельности. Однако, вместе с обещаниями перспективного развития, столкнувшись с вызовами и препятствиями, Узбекистан сталкивается с необходимостью решения ряда проблем, тормозящих полный расцвет цифровой экономики в стране. В данной статье мы обратим внимание на ключевые аспекты развития цифровой экономики в Узбекистане, выявим препятствия на этом пути и рассмотрим

перспективы, открывающиеся перед страной в контексте цифровой трансформации.

С невероятной стремительностью технологического прогресса, Узбекистан стремится преобразовать свою экономику через цифровые инновации. В 2018 году Президент Шавкат Мирзиёев в своем обращении к Олий Мажлису выделил важность разработки Национальной концепции цифровой экономики, ставя перед страной амбициозные цели модернизации всех секторов экономики с использованием передовых цифровых технологий. Заметным является также запуск стратегической программы "Цифровой Узбекистан – 2030", которая ставит своей целью увеличение доли цифровых услуг в ВВП страны в два раза и обширное развитие цифровой инфраструктуры. Однако, несмотря на явные усилия и решительность в области цифровой модернизации, Узбекистан сталкивается с рядом проблем, замедляющих этот процесс. Неравномерное распределение цифровой инфраструктуры, сохранение цифрового разрыва в сфере телекоммуникаций – эти факторы создают неравенство в доступе к цифровым ресурсам, особенно в региональном контексте. Недостаточный уровень доверия общества к цифровым документам и услугам, а также недостаточное их использование в государственных органах и судебной системе, ставит под вопрос полную эффективность перехода к электронному управлению и обслуживанию. Еще одним значимым барьером является дефицит квалифицированных кадров в области цифровых технологий. Необходимость привлечения и удержания талантливых IT-специалистов, а также предотвращение оттока квалифицированных кадров становится ключевым аспектом успешной цифровой трансформации. Не менее важным является вопрос об эффективном финансировании проектов в сфере цифровых технологий, а также стимулировании привлечения частных инвестиций, особенно в региональном контексте.

МЕТОДЫ И МАТЕРИАЛЫ

Для формирования информационной базы был проведен тщательный анализ научных статей и сборников, посвященных развитию цифровой экономики в Узбекистане, включая работы таких авторов, как «Узбекистан: построение «цифровой экономики»» - Ходиев Б.Ю., «Правовая основа формирования цифровой экономики в Узбекистане» - Кобилов А.У., Тулаев М.С., Ражабов Ш.Б., Маматкодирова Н.У., «Узбекистан на пути развития цифровой экономики» - Лазарева М.В. и Мухаммаджонов С.А., «Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан» - Йулдашева Г.И. и Тешабаева О.Н., «Проблемы цифровизации региональной экономики в Узбекистане» - Шатохина С.Ю., «Деятельность банков Узбекистана в современных условиях

цифровой экономики» - Бобохужаев Ш., Этот этап исследования обеспечил глубокое понимание предмета изучения, опираясь на авторитетные исследования и мнения экспертов в области цифровых технологий. Дополнительно были изучены данные, предоставленные министерством цифровых технологий Республики Узбекистан, для анализа текущего состояния цифровой экономики. Этот этап исследования существенно способствовал обеспечению точности и достоверности информации. Также были изучены стратегические документы, включая стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030», для выявления ключевых направлений и приоритетов развития цифровой экономики. Анализ выступлений президента Республики Узбекистан дал понимание взглядов высшего руководства страны на пути развития и значимость цифровой трансформации для общества.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЯ

Развитие цифровой экономики в Узбекистане требует всестороннего анализа, чтобы понять текущее состояние и предложить пути решения возникающих проблем. Важно обратить внимание на ключевые аспекты этого процесса: такие как инфраструктура и доступность интернета. В период с 2017 по 2022 годы была проведена значительная работа по модернизации телекоммуникационной инфраструктуры, что привело к увеличению доступности интернета и снижению цен на его услуги. Развитие мобильной связи также активно продвигается, с переходом на более современные технологии, такие как 3G/4G и планируемым внедрением 5G. Важным шагом стало создание предприятия Global Optical Communication Uzbekistan в свободной экономической зоне «Джизак» для производства оптоволоконной кабельной продукции. Растущие потребности в телекоммуникационной инфраструктуре подчеркивают важность создания дата-центров для обработки и хранения данных.

Электронное правительство: В Узбекистане активно развивается электронное правительство, признанное ключевым элементом цифровых реформ. Ведущую роль в этом процессе играет Единый портал интерактивных государственных услуг (ЕПИГУ), предоставляющий более 500 видов госуслуг. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030» ставит перед собой амбициозную цель войти в топ-30 Рейтинга электронного правительства ООН. За последние годы Узбекистан поднялся в этом рейтинге на 18 позиций, занимая в настоящее время 69-е место. Развитие электронного правительства способствует улучшению доступа граждан к государственным услугам, снижению бюрократических барьеров и повышению прозрачности деятельности государственных органов.

Цифровая инфраструктура: В последние годы в Узбекистане были разработаны и внедрены несколько программ по созданию цифровых платформ, включая Uzbekistan Research Online для рецензируемых научных журналов, цифровую платформу Huawei Enterprise, и платформу U-Report для привлечения молодежи. Рынок электронной коммерции в стране значительно вырос и достиг показателя в 311 миллионов долларов США в 2022 году, подтверждая позицию Узбекистана как одного из самых быстрорастущих рынков электронной коммерции в Центральной Азии.

Поддержка инноваций и стартапов: Узбекистан активно поддерживает инновационные проекты и стартапы. Объем годовых средств, выделяемых из государственного бюджета на инновации и науку, увеличился в 3 раза с 2018 года и достиг 1,5 триллиона сумов. В рамках стратегии инновационного развития на 2022-2026 годы предусмотрено отчисление госпредприятиями до 10% прибыли на поддержку инновационной деятельности, что будет направлено на разработку и внедрение инноваций.

Образование и подготовка кадров: Одним из ключевых направлений цифрового развития Узбекистана является образование высококвалифицированных ИТ-специалистов. В рамках этого направления реализуется проект "Один миллион программистов" совместно с фондом "Dubai Future Foundation", направленный на дистанционное обучение населения актуальным ИТ-специальностям.

Международное сотрудничество: Узбекистан активно сотрудничает с международными организациями и другими странами для обмена опытом и ресурсами в области цифровой экономики:

- Организация Объединенных Наций (ООН): Узбекистан сотрудничает с различными агентствами ООН, такими как Европейская экономическая комиссия ООН (UNECE) и Программа развития ООН (UNDP), для развития цифровой экономики и технологий.

- Всемирный банк: В рамках проектов Всемирного банка проводятся исследования и разработки в области цифровой экономики, а также внедряются программы по цифровой модернизации экономики и улучшению бизнес-климата.

- Азиатский банк развития (ADB): Узбекистан сотрудничает с Азиатским банком развития для поддержки проектов в области цифровых технологий и развития информационной инфраструктуры.

- Европейский банк реконструкции и развития (EBRD): EBRD предоставляет финансовую и техническую поддержку Узбекистану в различных секторах, включая цифровую экономику.

- Шанхайская организация сотрудничества (ШОС): Узбекистан участвует в сотрудничестве в рамках ШОС по вопросам цифровой экономики и информационной безопасности.

Это сотрудничество помогает Узбекистану развивать свою цифровую экономику, улучшать доступ к цифровым технологиям и содействовать инновациям в стране.

Развитие цифровой экономики в Узбекистане обещает множество положительных изменений, оказывая влияние на различные аспекты общественной жизни. Этот процесс сопряжен с ожидаемым экономическим ростом, стимулируемым увеличением производительности, инновациями и созданием новых рабочих мест, что создает благоприятные условия для устойчивого развития. Цифровая экономика характеризуется высокой интенсивностью технологий и умений, что стимулирует внедрение новых методов работы в различных секторах. Увеличение эффективности производственных процессов, оптимизация логистики и внедрение интеллектуальных систем управления создают благоприятные условия для роста производства и повышения конкурентоспособности страны на мировой арене. Улучшение доступа населения к различным услугам, таким как здравоохранение, образование, финансовые услуги и государственные сервисы, становится более доступным благодаря использованию цифровых технологий.

Внедрение цифровых технологий в государственное управление позволяет сократить бюрократические процедуры, повысить прозрачность и открытость деятельности государственных органов, а также улучшить качество государственных услуг для граждан и бизнеса. Снижение барьеров для предпринимательства достигается за счет упрощения процедур регистрации бизнеса, создания электронных платформ для взаимодействия с государством и внедрения цифровых технологий в бухгалтерии и налоговом учете. Эти изменения создают условия для появления новых предприятий, способствуют росту предпринимательской активности и улучшению бизнес-климата в стране. Увеличение доступности финансовых услуг для всех слоев населения, включая тех, кто ранее оставался в стороне от банковской системы, происходит за счет внедрения цифровых финансовых технологий, таких как мобильные платежи и цифровые кошельки. Это способствует финансовой инклюзии и предоставляет больше возможностей для управления своими финансами. Основной целью развития цифровой экономики в Узбекистане является улучшение качества жизни населения, предоставляя им больше возможностей и удобств. Однако необходимо также учитывать потенциальные вызовы, такие как кибербезопасность, чтобы обеспечить стабильность этого процесса.

Текущее состояние цифровой экономики в Узбекистане имеет значительный потенциал для роста и развития, однако существует ряд серьезных препятствий, замедляющих этот процесс. Среди основных барьеров, мешающих развитию цифровой экономики, можно выделить следующие:

Неравномерное распределение цифровой инфраструктуры: В Узбекистане сохраняется цифровой разрыв в телекоммуникационной сфере, что затрудняет доступ к современным технологиям для населения и бизнеса в регионах. Отсутствие равномерного покрытия высокоскоростным интернетом и современными коммуникационными сетями создает неравные условия для развития цифровых инноваций.

Недостаточный уровень доверия общества к цифровым документам и услугам: Вопросы безопасности данных, прозрачности процессов и защиты личной информации остаются актуальными для большинства граждан и предпринимателей. Развитие механизмов и инфраструктуры для обеспечения безопасности цифровых данных и электронных транзакций становится неотложной задачей для устранения этого барьера.

Недостаток квалифицированных специалистов в области цифровых технологий: Несмотря на значительный интерес к обучению в этой области, отмечается отток квалифицированных кадров из страны. Для привлечения и удержания высококвалифицированных специалистов необходимы меры по стимулированию развития IT-индустрии.

Неэффективное государственное финансирование проектов в области цифровых технологий и отсутствие механизмов стимулирования привлечения частных инвестиций: Недостаточное финансирование венчурных фондов по поддержке инновационных проектов цифровой трансформации экономики в стране создает дополнительные трудности. Государственная поддержка цифровых инноваций должна быть не только достаточной, но и эффективной, с учетом специфики различных регионов страны.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

В заключение, цифровая трансформация Узбекистана представляет собой важное стратегическое направление для будущего страны. Этот процесс направлен на улучшение качества жизни граждан и укрепление конкурентоспособности страны на мировой арене. Одним из ключевых положительных направлений является развитие цифровой инфраструктуры. Однако, помимо достижений, существуют препятствия для полноценной цифровизации экономики. Среди них - киберугрозы, недоверие к цифровым сервисам и недостаток кадров в сфере IT. Для продолжения развития цифровой экономики в Узбекистане необходимо продолжить финансирование в области

кибербезопасности и поддержку молодых IT-специалистов. Планируется увеличение доли электронной коммерции в ВВП, модернизация телекоммуникаций и цифровизация здравоохранения и банковской сферы.

Выбрав путь цифровой трансформации, Узбекистан открывает новые перспективы для своего будущего. Однако для успешного развития цифровой экономики необходим комплексный подход к решению социальных, образовательных и правовых вопросов. От межотраслевого внедрения цифровых технологий зависит будущее Узбекистана как современной, устойчивой и конкурентоспособной страны.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 6 июля 2022 года № УП-165
2. Стратегия “Цифровой Узбекистан – 2030”
3. Стратегия инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы
4. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису 28.12.2018г.
5. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан / www.stat.uz
6. UN E-Government Survey 2022
7. Центр экономических исследований и реформ (Center for Economic Research and Reforms) / www.cer.uz
8. Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан / www.digital.uz

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Saidaxmedova Dilafruz Saidbaxromovna

Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida dotsenti

77.angel.88@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlikni shakllantirish va tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada raqamli tadbirkorlik va raqamli kompetensiya tushunchlarining mohiyati yoritib berilgan

Kalit so‘zlar: *Raqamli iqtisod, raqamli texnologiyalar, raqamli startup, kompetensiya, tadbirkorlik kompetensiyasi, raqamli kompetensiya.*

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Саидахмедова Дилафруз Саидбахромовна.

Джиззакский политехнический институт, доцент кафедры «Экономика и менеджмент»

77.angel.88@inbox.ru

Аннотация: Данная статья посвящена формированию цифрового предпринимательства в Узбекистане и развитию цифровой компетентности субъектов предпринимательства. В статье раскрыта суть понятий цифрового предпринимательства и цифровой компетентности.

Ключевые слова: *Цифровая экономика, цифровые технологии, цифровой старт, компетентность, предпринимательская компетентность, цифровая компетентность.*

DEVELOPMENT OF DIGITAL COMPETENCE OF BUSINESS ENTITIES IN THE DIGITAL ECONOMY

Saidakhmedova Dilafruz Saidbakhromovna

Jizzakh Polytechnic Institute, Associate Professor of the Department of “Economics and Management”

77.angel.88@inbox.ru

Abstract: This article is devoted to the formation of digital entrepreneurship in Uzbekistan and the development of digital competence of business entities. The article reveals the essence of the concepts of digital entrepreneurship and digital competence

Keywords: *Digital economy, digital technologies, digital startup, competence, entrepreneurial competence, digital competence.*

KIRISH

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, xususan, biznes sohasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada jadallashtirish, shuningdek, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutuvchi ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik sohasida joriy etish tovarlar va xizmatlarni tanlash, ularning sifatini yaxshilash, marketing faoliyatini yanada samarali olib borish, shuningdek, biznes yuritish jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. Ushbu sohani raqamlashtirish pudratchi va buyurtmachilar bilan shartnomalar tuzish, xodimlarni jalb qilish va shartnomalarning bajarilishini nazorat qilishni osonlashtiradi. Biroq, O'zbekistonda biznes jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini hozircha yuqori deb bo'lmaydi. Bunda asosiy muammo axborot texnologiyalarining yetishmasligida emas, balki inson omilida, chunki tadbirkorlarimiz raqamli texnologiyalardan foydalanishga hali to'liq tayyor emas. Shuni ta'kidlash joizki, shiddatli o'zgarishlar va islohotlar davrida tadbirkorlarning internet tarmog'iga ulanmasdan, ya'ni raqamli texnologiyalardan foydalanmasdan turib biznesni rivojlantirishi mushkul. Bu o'z navbatida, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zaruriyatini kun tartibiga qo'yimoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni joriy etishning dolzarb masalalari va ijtimoiy-iqtisodiyotga ta'sirini o'lchash bilan bog'liq tadqiqotlar S.S.Gulyamov, K.X.Abdurahmonov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva, O.Umarov va mamlakatimizning boshqa ko'plab yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli tadbirkorlik masalalari V.Yu. Pestov, B.G. Preobrajenskiy, N.A. Serebryakova, T.O. Tolstix kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Biroq, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini oshirish masalalari hali o'z yechimini topmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Osiyo rivojlanish istiqbollari”ning (ORI) (Asian Development Outlook) 2022 yilgi nashriga qo‘shimchada e’lon qilingan Raqamli tadbirkorlik tizimlarining global indeksiga ko‘ra, Singapur dunyodagi eng yaxshi raqamli muhit va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimiga ega. Ro‘yxatdagi 113 ta davlat orasida AQSh ikkinchi va Shvetsiya uchinchi o‘rinni egalladi. Ammo ro‘yxatga kiritilgan 21 ta rivojlanayotgan Osiyo davlatidan 17 tasi reytingning quyi pog‘onasida joylashgan bo‘lib, bu ularning ko‘pchiligi uchun raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish zarurati mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Shu nuqtai nazardan, respublikamizning har bir xududida raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish, xususan taqamli tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida raqamli texnologiyalar va “raqamli” startaplarni rivojlantirish chora tadbirlarida belgilangan ustuvor vazifalar fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi:

- axborot texnologiyalari sohasidagi startap va tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish tizimining muqobil mexanizmlarini joriy etish;
- innovatsion g‘oyalar, startaplar va venchur loyihalarini moliyalashtirish tizimining barqaror zanjirini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- axborot texnologiyalari sohasida yangidan ish boshlagan va kichik korxonalariga startap-loyihalarni amalga oshirishda, innovatsiya faoliyati natijalarini investitsiyalarni jalb qilgan holda ko‘maklashish;
- axborot texnologiyalari sohasida tijoratlashtirish salohiyati baland bo‘lgan yuqori texnologik mahsulotlar yaratilishiga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari ishlab chiqilishini rivojlantirish;
- biznes korxonalari, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan yuqori texnologiyali tadbirkorlik markazlari va klasterlarini yaratishga ko‘maklashish;
- texnoparklar, akseleratorlar va inkubatorlarni xakatonlar, tanlovlar va konferensiyalar orqali tizimli ravishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va grant subsidiyalari berish.[1]

Avvalombor, raqamli tadbirkorlik tushunchasiga oydinlik kiritamiz. Raqamli tadbirkorlik - bu tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy shakli bo‘lib, u o‘z faoliyatida

raqamli texnologiyalardan, ya'ni internet, mobil texnologiyalar va raqamli platformalar kabilardan unumli foydalanishi bilan farq qiladi [5]. Boshqacha qilib aytganda, raqamli tadbirkorlik deganda, jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan yaratadigan va boshqariladigan onlayn biznes demakdir. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlarning raqamli kompetensiyasiga veb-saytlarni ishlab chiqish, biznesni avtomatlashtirish, Internetda reklama qilish kabi ko'nikmalarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishdagi asosiy muammo sifatida tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasining yetishmasligini ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Milliy ensiklopediyasida "Kompetensiya" (lot. *competense* - erishyapman, munosibman, loyiqman) - 1) muayyan davlat tashkiloti (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar majmui" deb ta'rif berilgan.

A.V.Xutorskiy "kompetensiya" tushunchasi bilan birga "kompetentlik" tushunchasiga ham to'xtalib o'tadi va ularni quyidagicha ajratishni taklif qiladi: Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatleri uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lishi demakdir [10].

Umuman olganda, kompetensiya tushunchasiga turlicha yondashish mumkin. Kompetensiya shaxsning biror maqsadiga erishishi uchun o'zining ichki va tashqi resurslardan samarali foydalana olish qobiliyati bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetensiyalar bu - muayyan faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy tajribalar yig'indisidir.

Har bir kasb sohasining o'ziga xos vazifalari va ishbilarmonlik fazilatleri mavjud bo'lgani kabi, har bir mutaxassis uchun alohida kompetensiya darajasi ham mavjud bo'ladi. Jumladan, tadbirkorlik kompetensiyasi deganda, "shaxsning g'oyalarni harakatga aylantira olish qobiliyati"ni tushunish mumkin.

B. Birdning fikricha, tadbirkorlar uchun quyidagi kompetensiyalarning bo'lishi muhim[11]:

- korxonani ishga tushirish yoki biznes g'oyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy yoki tayanch kompetensiyalar;

- biznesni boshlagandan keyin, uni muvaffaqiyatli davom ettirish imkonini beruvchi, tashkilotning omon qolishi va rivojlanishini ta'minlaydigan yuqori darajadagi kompetensiyalar.

Bizning fikrimizcha, shaxsning belgilangan maqsadga erishishda o'zining ijodkorlik, innovatorlik, tavakkalchilik, loyihalarni rejalashtirish va boshqarish kabi

qobiliyatlarini har xil vaziyatlarda namoyon eta olishi tadbirkorlik kompetensiyasining shakllanganligini ko'rsatadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va raqobat bozorida ustunlikka erishishida ularning tadbirkorlik kompetensiyasi bilan bir qatorda raqamli kompetensiyasining rivojlanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitlarda tadbirkorlik kompetensiyasining muhim elementlariga quyidagilar kiritiladi [4]:

- *korporativ kompetensiyalar* korxonada qadriyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanib, xodimlarga munosabati, mijozlarga e'tibor, sodiqlik, kasbiy rivojlanish kabilarda namoyon bo'ladi;

- *boshqaruv kompetensiyalari* strategik fikrlash, yetakchilik, rejalashtirish va tashkil etish kabilarda biznes maqsadlariga erishish uchun zarur hisoblanadi;

- *kasbiy kompetensiyalar* tadbirkorlik faoliyati sohasidagi muammolarni hal etish, kutilmagan vaziyatlarda innovatsion fikrlash imkonini beradi;

- *raqamli kompetensiyalar* har xil turdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda professional, ijtimoiy, shaxsiy xarakterdagi muammolarni samarali hal qilish ko'nikmalarining mavjudligi bilan belgilanadi.

Jahonda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati oshib borayotgan bir davrda tadbirkorlik subyektlarning raqamli kompetensiyasining shakllanganligi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

XULOSA

O'zbekistonda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zaruriy me'yoriy-huquqiy asos yaratilgan bo'lsada, tadbirkorlarning raqamli kompetensiyasini rivojlanishning tashkiliy, iqtisodiy va pedagogik asoslari hali yetarlicha o'rganilmagan. O'zbekiston sharoitida raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun talab qiladigan kompetensiyalarni aniqlab olish va tanlangan kompetensiyalarni rivojlantirishning batafsil tashkiliy-metodik rejasini ishlab chiqish qo'yilgan maqsadga erishishga yordam beradi.

Umuman olganda, kompetensiyalarni minimal darajadan talab qilinadigan darajagacha rivojlantirish oson emas. Kompetensiyalarni rivojlantirishning bir qancha tamoyillari va strategiyalari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Shulardan biri FIRST uzluksiz rivojlanish tamoyili bo'lib, bu tamoyil 1995 yilda taniqli psixolog Devid B. Peterson tomonidan ishlab chiqilgan. FIRST uzluksiz rivojlanish tamoyilining mohiyati quyidagicha [2]:

- F - (ustuvor yo'nalishga e'tibor qaratish) Rivojlanish uchun ma'lum bir sohani tanlang va uni yaxshilash maqsadlarini iloji boricha aniq belgilang.

- I - (muntazam ravishda mashq qilish) o'zingizni rivojlantiruvchi tadbirlar bilan muntazam shug'ullanib, yangi bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llang, iloji

boricha “komfort zonasi” doirasidan tashqariga chiqadigan murakkabroq vazifalarni hal qiling.

- R - (rivojlanishni baholab borish) hatti-harakatlaringizdagi o‘zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib boring, harakatlaringizni va erishilgan natijalarni, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini tahlil qiling.

- S - (qo‘llab-quvvatlash va fikr-mulohazalarni izlang) - tajribali hamkasblar va ekspertlarning fikr-mulohazalarini o‘rganing, ularning tavsiyalarini tinglang va yordamidan foydalaning.

- T - (o‘zingizga yangi maqsadlar qo‘ying) - doimiy ravishda o‘zingiz uchun yangi rivojlanish maqsadlarini belgilang, o‘zingizni takomillashtiring.

Kompetensiyalarni rivojlantirishda FIRST tamoyilidan foydalanish samarali natija beradi. Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularga axborot maslahat ko‘rsatishga xizmat qiluvchi infratuzilmalar mavjud bo‘lib, ular tomonidan har bir viloyat kesimida tadbirkorlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinishi va asosida tegishli o‘quv kurslari tashkil etish chora tadbirini belgilash maqsadga muvofiq. Jumladan, respublikamizda tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Faoliyat jarayonida Microsoft Office dasturlar paketidan erkin foydalanish;
- Biznes boshqaruvida CRM (mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish) va ERP(korxonalar resurslarini rejalashtirish) tizimlarini joriy etish, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- Internet orqali biznes yuritish, biznes saytlarni ishlab chiqish va boshqarish;
- Xaridlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun elektron platformalardan foydalanish;
- Raqamli axborot muhitida dasturiy mahsulotlardan foydalanish va h.o.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish orqali mamlakatimizda raqamli tadbirkorlikni kengaytirish imkoniyati ortadi. Mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari o‘rtasida biznes jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanib amalga oshirilishi boshqaruv xarajatlarini qisqarishiga, shuningdek, o‘zaro muloqotni tez va oson yo‘lga qo‘yilishiga, zamonaviy biznes modellarining innovatsion shakllarini rivojlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni
2. Development First: Strategies for Self-Development Paperback – January 1, 1995.

3. Саидахмедова, Д., & Норбоева, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА СТАРТАП ЭКОТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН МУҲИТНИНГ АҲАМИЯТИ. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.

4. Saidahmedova, D. Management Analysis and Innovation Management Model. *Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd)*, ISSN, 2456-6470.

5. Saidbaxromovna, S. D., & Muhabbat, X. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 124-128.

6. Dilafruz, S., & Shaxnoza, G. O. (2023). O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH-DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 153-157.

7. Saidbaxromovna, S. D. (2023). O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 183-187.

8. Саидахмедова, Д., & Норбоева, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА СТАРТАП ЭКОТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН МУҲИТНИНГ АҲАМИЯТИ. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.

9. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 38-42.

10. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы. // "Народное образование" журналы. – 2003. – № 2. – С. 58-64

11. Bird, B. (2019), "Toward a Theory of Entrepreneurial Competency", Katz, J.A. and Corbet, A.C. (Ed.) *Seminal Ideas for the Next Twenty-Five Years of Advances (Advances in Entrepreneurship, Firm Emergence and Growth, Vol. 21)*, Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 115-131.

SMART TEXNOLOGIYALARNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Umarov Omonjon Muxammad o'g'li

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

omonjonumarov1994@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasida smart texnologiyalarning qo'llanish usullari o'rganiladi. Smart texnologiyalar sayyohlar sayohatlarini rejalashtirish va sayohatni boshqarishda keng qo'llanilmoqda. Shuningdek destinatsiyalarni boshqarish tashkilotlari o'zlarining marketing strategiyalari va tashrif buyuruvchilar oqimini ko'paytirish, sayyohlarning xatti-harakatlari va ularning xoxishlarini inobatga olgan holda ma'lumotlarni to'plash uchun aqlli texnologiyalardan foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: *smart turizm, aqlli shahar, smart texnologiya, Big Data, Iot system, virtual haqiqat, sun'iy intellekt, chatbot.*

ВЛИЯНИЕ УМНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА

Умаров Омонжон Мухаммад угли

Преподаватель кафедры международного туризма и экономики Кокандского университета

omonjonumarov1994@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы использования смарт-технологий в сфере туризма. Смарт-технологии широко используются при планировании и управлении туристическими поездками. Организации по управлению дестинациями также могут использовать интеллектуальные технологии для улучшения своих маркетинговых стратегий и увеличения трафика посетителей, а также для сбора данных о поведении и предпочтениях туристов.

Ключевые слова: *умный туризм, умный город, умные технологии, большие данные, система IoT, виртуальная реальность, искусственный интеллект, чат-бот.*

IMPACT OF SMART TECHNOLOGIES ON TOURISM DEVELOPMENT

Umarov Omonjon Mukhammad ugli

Teacher of the Department of International Tourism and Economy of Kokand University

omonjonumarov1994@gmail.com

Abstract: This article examines the ways of using smart technologies in the field of tourism. Smart technologies are widely used in tourist travel planning and travel management. Destination management organizations can also use smart technologies to improve their marketing strategies and increase visitor traffic, and collect data on tourist behavior and preferences.

Keywords: *smart tourism, smart city, smart technology, Big Data, IoT system, virtual reality, artificial intelligence, chatbot.*

KIRISH

Turizm - bu iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Aqlli texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan turizm sanoati rivojlanishi sezilarli darajada tezlashdi. Aqlli texnologiyalar sayohatchilarning sayohat qilishi, yangi yo'nalishlarni kashf qilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizm industriyasida aqlli texnologiyalardan foydalanish sayyohlik tajribasini va turizm biznesi daromadlarini oshirishning muhim vositasiga aylandi.

So'nggi yillarda turizmni rivojlantirishda aqlli texnologiyalar tobora muhim rol o'ynamoqda. Ushbu texnologiyalar sayyohlarning sayohatlarini rejalashtirish, bron qilish va tajribasini o'zgartirish usullarini inqilob qildi va turizm biznesiga o'z operatsiyalari va marketing strategiyalarini yaxshilashga yordam berdi. Ushbu maqola sayyohlik sanoatida aqlli texnologiyalardan foydalanishning turli usullarini, ularni amalga oshirish bilan bog'liq foyda va muammolarni o'rganishga qaratilgan.

Aqlli texnologiyalar qo'llaniladigan asosiy yo'nalishlardan biri bu destinatsiyalarni boshqarishdir. Sayyohlar endi mobil ilovalar, veb-saytlar va ijtimoiy media platformalari orqali o'z manzillari haqidagi ko'plab ma'lumotlarga kirishlari mumkin. Bu ularga o'z sayohatlarini yanada samarali rejalashtirish va ular bilmagan bo'lishi mumkin bo'lgan yangi va yo'ldan tashqari diqqatga sazovor joylarni kashf qilish imkonini berdi. Destinatsiyalarni boshqarish tashkilotlari, shuningdek, sayyohlik xatti-harakatlari va imtiyozlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash uchun aqlli texnologiyalardan foydalanishlari mumkin, bu ularga marketing strategiyalarini moslashtirishga va tashrif buyuruvchilarning umumiy tajribasini yaxshilashga yordam beradi.

Smart texnologiyalar turizm sanoatining ajralmas qismiga aylandi. Ular sayyohlarga o'zlarining sayohat joylari haqida ma'lumot olishlari, sayohatlarini rejalashtirishlari, turar joyni bron qilishlari va transport vositalarini osongina olishlariga imkon berdi. Sayyohlar endi o'z smartfonlari, planshetlari va noutbuklari

orqali sayohat joylari, jumladan, xaritalar, ob-havo ma'lumotlari, mahalliy diqqatga sazovor joylar va tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni bilib olishlari mumkin bo'ladi.

Aqlli turizm tushunchasi Yevropa Ittifoqining "Aqlli turizm" direktivasi natijasida paydo bo'lib, u "Yevropa Ittifoqida aqlli turizmni targ'ib qilish, yo'nalishlarni tarmoqlash va mustahkamlash"ga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm sanoatida aqlli texnologiyalardan foydalanish adabiyotlarda keng o'rganilgan. Olimlar aqlli texnologiyalarning turizm industriyasining turli jabhalariga, jumladan, sayyohlik tajribasi, marketing, xavfsizlik hamda daromad olish kabi sohalarga ta'siri haqida izlanishlar olib borgan.

Turizm sanoatida aqlli texnologiyalarning asosiy afzalliklaridan biri bu sayyohlik tajribasini oshirishdir. Tadqiqotchilar Buhalis va Law (2008) "Progress in Information Technology and Tourism Management: 20 Years on and 10 Years After the Internet - The State of eTourism Research" nomli maqolasida aqlli texnologiyalar sayyohlarga sayohat qilish joylari haqida ma'lumot olish, sayohatlarini rejalashtirish, turar joy va transportni osongina band qilish imkonini berishi, bu sayohatni rejalashtirish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqt va kuchni kamaytirish orqali umumiy turistik tajribani yaxshilashini aytib o'tgan [1].

Aqlli texnologiyalar sayyohlarning xavfsizligini ham yaxshiladi. Gretzel va Yoo (2008) "Trust in Travel-related Consumer Generated Media" nomli ilmiy maqolasidagi ma'lumotlarga ko'ra, aqlli texnologiyalar sayyohlarga favqulodda xizmatlarga kirish, hodisalar haqida xabar berish va sayohat qilish joylarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar haqida ogohlantirishlar olish imkonini beradi. Bu sayyohlarga real vaqt rejimida potentsial tahdidlar haqida ma'lumot berish orqali ularning xavfsizligini oshiradi [2].

Bundan tashqari, aqlli texnologiyalar sayyohlik korxonalariga sayyohlarga shaxsiy xizmatlarni taqdim etish imkonini berdi. Masalan, mehmonxonalar mehmonlarga o'z xohishlariga ko'ra moslashtirilgan xizmatlarni taklif qilish uchun aqlli texnologiyalardan foydalanishi mumkin (Xiang va boshq., 2015). Bu alohida turistlarning ehtiyojlarini qondiradigan moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish orqali umumiy turistik tajribani oshiradi [3].

Bundan tashqari, aqlli texnologiyalar sayyohlik korxonalariga maqsadli marketing xizmatlarini taqdim etish orqali daromadlarni oshirish imkonini berdi. Turizm korxonalari turistlarning xatti-harakatlari va afzalliklarini kuzatish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanishlari mumkin (Xiang va boshq., 2015). Ushbu ma'lumotlardan turistlarning qiziqishlari va afzalliklaridan kelib chiqqan holda muayyan guruhlariga mo'ljallangan shaxsiylashtirilgan marketing kampaniyalarini yaratish uchun foydalanish mumkin [4].

Shu bilan birga, ba'zi olimlar turizm sanoatida aqlli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq muammolarni ham keltirib o'tgan. Masalan, Vang va boshqalar. (2017) aqlli texnologiyalardan foydalanish sayyohlar uchun axborotning haddan tashqari ko'p yuklanishiga olib kelishi va bu ularning sayohatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, turizm biznesi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish bilan bog'liq maxfiylik muammolari yuzaga kelishi mumkinligi aytilgan (Gretzel va Yoo, 2008) [2].

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganish uchun tahlilning mantiqiy va taqqoslash usullari, analiz va sintez, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, tanlanma kuzatish hamda tajriba kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Aqlli turizm - inson sayohatining aqlli texnologiyalar bilan dinamik bog'lanishidir. U Aqlli shaharlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Smart turizmning rivojlanishini Sun'iy intellekt, IoT, Big Data yoki 5G kabi texnologiyalarning takomillashishi bilan bog'liqdir.

Aqlli turizmning maqsadi innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali resurslarni samaradorlik, raqobatbardoshlik va barqarorlikni oshirishdan iborat. Shu sababli, to'lov usullaridan tortib turli interaktiv tadbirlargacha bo'lgan jarayonlar turistik mahsulotlar sifatida belgilanib modernizatsiya qilinmoqda.

Smart shaharlarda smart turizm aspektlari. Yuqorida aytib o'tilganidek aqlli turizmning rivojlanishi aqlli shaharlar rivojlanishi bilan birgalikda kechadi. Ko'p mamlakatlarda turizm strategik iqtisodiy faoliyat sifatida muhim ahamiyati tufayli shaharlar bo'ylab sayohat qilishning yangi usuli paydo bo'lmoqda. Aqlli shaharda aqlli turizmni birlashtirish uchun ba'zi muhim nuqtalar ishlab chiqilgan:

- Eng zamonaviy infratuzilma barqaror rivojlanishni kafolatlaydi va teng huquqli foydalanishga yordam beradi.
- Ya'ni sayyohlar tashrif buyuradigan destinatsiyalarda zamonaviy texnologiyalar qo'llanilishi hudud turizm salohiyatini nafaqat barqaror saqlash balki rivojlantirishga ham hissa qo'shadi.
- Ko'chada va jamoat joylarida bepul Wi-Fi tarmog'iga kirish.
- Bu tizim orqali hududga tashrif buyurgan xorijlik sayyoh sayohati davomida yuzaga keladigan internet bilan bog'liq muammolarga yechim bo'ladi.
- An'anaviy transport tizimida elektr harakatchanligini oshirish.
- Bu orqali tabiatga avtomobillardan chiqayotgan zaharli is gazi kamayishiga va ekologiyani barqaror saqlash imkoniyatiga erishiladi.

- Barqaror turizmni rivojlantirish.
 - Sayyohlar oqimini barqarorlashtirish va mavsumiylikda yuzaga keladigan muammolarni oldini olish mumkin.
 - Transport oqimi yoki jamoat transporti ma'lumotlarini real vaqtda berilishi.
 - Bu tizim orqali sayyohlar vaqtini tirbandlikda o'tishiga yo'l qo'yilmaydi
- Smart destinatsiyalar tomonidan qo'llaniladigan aqlli yechimlar:

1. Sayohat bozorini raqamlashtirish

Sayohat bozori - bu barcha diqqatga sazovor joylar, sayohatlar, turistik va borar joyning ma'lumotlarini to'playdigan platforma. G'oya tashrif buyuruvchilarni provayderlar bilan bog'lashdir. Bu xizmatlar, diqqatga sazovor joylar, turar joy, restoranlarni to'g'ridan-to'g'ri band qilish imkonini berishi kerak.

2. O'z-o'zidan boshqariladigan yo'nalishlar

O'z-o'zidan boshqariladigan turni tanlagan sayyohlar turli tillar va jo'nash vaqtlarini tanlashlari mumkin, shuningdek, sayohatni o'z qiziqishlariga qarab to'g'irlashlari mumkin. Bu moslashuvchanlik barchasi arzon narxda moslashtirilgan yangi sayohatchilarni jalb qiladi. O'z shahar dasturiga ega bo'lgan yo'nalishlar o'z-o'zidan boshqariladigan marshrutlarni yaratish uchun turoperatorlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

3. Kengaytirilgan reallik (*Augmented Reality, AR*)

Kengaytirilgan reallik ilmiy-fantastik filmdagi hodisalarga o'xshaydi. Asosan, ushbu texnologiya smartfon orqali ko'rilganda, odamning jismoniy atrofdagi idrokini o'zgartiradi. Fantaziyani haqiqatga qo'shish orqali sodir bo'ladi. Ushbu texnologiya smart yo'nalishlar uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Ular undan sayohatchilarning biror joyga tashrif buyurish tajribasini yaxshilash uchun foydalanishlari mumkin.

4. Chatbot

Chatbot - bu odamlar bilan suhbatlashish uchun sun'iy intellektdan foydalanadigan xabar almashish dasturi. Boshqacha qilib aytganda, u inson omilisiz foydalanuvchi bilan o'zaro aloqada bo'ladi. O'z portali yoki ilovasiga ega shaharlar mijozlarga xizmat ko'rsatish va turistlarning ma'lumotlarga kirishini yaxshilash uchun ushbu yechimni amalga oshiradi. Bunda diqqatga sazovor joylarga oid tez-tez beriladigan savollarga javob berish uchun chatbotni yuklash kerak bo'ladi. Bundan tashqari, u sayohatchilarga sayohatlarini va hatto xonalarni, parvozlarni bron qilishda yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi.

5. Big Data (*Katta ma'lumotlar*).

Odatda kuniga faqat Facebookni o'zida 500 terabayt ma'lumot aylanadi. Internetda har kuni hosil bo'ladigan bu barcha ma'lumotlar hajmi katta ma'lumotlarning asosidir. Lekin faqat Facebook va Google kabi yirik texnologiyalar bundan o'z foydasiga foydalanishi mumkin. Hozirgi kunda bu texnologiyadan kichik

sayyohlik kompaniyalari va destinatsiyalar foydalanishi mumkin. Ma'lumotlar kimdir mehmonxona xonasini bron qilganda, sayohat qilganda, video tomosha qilganda yoki oddiygina veb-saytga tashrif buyurganida to'planishi mumkin. Ichki va tashqi ma'lumotlar to'plamini birlashtirib, qaror qabul qiluvchilar samaraliroq harakat qilish uchun sayohat talabi va xatti-harakatlarini bashorat qilishlari mumkin.

6. Virtual haqiqat (Virtual reality, VR)

Ushbu texnologiya sayohatchilarning manzilga yetib borishdan oldin va keyin tajribasini oshirish uchun ham qo'llaniladi. VR garnitura deb nomlangan maxsus qurilma orqali amalga oshiriladi. VR sayohat sanoatiga "sotib olishdan oldin sinab ko'ring" tushunchasi bilan kirib keladi. VRning bu jihati turizm uchun ajoyib marketing vositasiga aylantiradi. Ular sayohatchilarga boradigan joy haqida tasavvur berish uchun qiziqarli videolar va mashhur diqqatga sazovor joylarning 360° tasviridan foydalanish mumkin. Shuningdek plyajdagi aqlli yo'nalishlarda virtual ko'zoynak taqib yurish mumkin. Ushbu tizim turpaket sotib olishdagi noaniqliklarni kamaytiradi.

7. IoT system (Internet of things, Internet texnologiyalari)

Ovozli qidiruv qurilmasi orqali topiladigan aqlli manzillar ro'yxatidir. Ushbu rivojlanayotgan texnologiya 5G tarmog'i mavjud hududlarda samara beradi. IoT, Internetga ulangan va avtomatik ravishda harakatlarni amalga oshirish uchun ma'lumotlarni yuborish va qabul qilish qobiliyatiga ega qurilmalarni anglatadi. Ushbu texnologiyaning imkoniyatlarini ko'rsatish uchun keling, ma'lum bir manzilning tarixiy markazida sayr qilayotgan sayyohni tasavvur qilaylik. Ular mashhur attraksionga yaqinlashganda, ularning smartfoniga ish vaqti va undagi odamlar soni ko'rsatilgan bildirishnoma yuboriladi. Bu nafaqat sayohatchilarning vaqtini optimallashtiradi, balki sayyohlarni belgilangan yaxshi joyga taqsimlaydi.

8. Sun'iy intellekt.

Sun'iy intellekt deganda inson aralashuvisiz muammolarni o'rganish, qaror qabul qilish, ma'lumotlar to'plamini tanib olish va izohlash imkoniyatiga ega bo'lgan kompyuterlar va dasturlar tushuniladi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri - bu murakkab muammolarga tezkor javob berish va odamlarga nisbatan kam xatoga yo'l qo'yishi. Harakatlarni o'rganish qobiliyati tufayli sayyohlik xizmatlari ushbu texnologiyadan sayyohlarning xatti-harakatlarini o'rganish. Turizmدا sun'iy intellektning yana bir qo'llanilishi olomoni boshqarishga yordam berishdir. Rasmiylar undan sayyohlarni joy juda gavjum bo'lishidan oldin ma'lum bir joyga qayta taqsimlash uchun foydalanishi mumkin.

Aqlli texnologiyalar, shuningdek, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etish orqali sayyohlik tajribasini oshirdi. Masalan, mehmonxonalar endi mehmonlarga moslashtirilgan xizmatlarni taklif qilish uchun aqlli texnologiyalardan foydalanishi mumkin. Mehmonlar o'z smartfonlari yordamida xonalaridagi haroratni nazorat

qilishlari, xonalarga xizmat ko'rsatishga buyurtma berishlari va hatto uy-ro'zg'or xizmatlarini rejalashtirishlari mumkin.

Aqlli texnologiyalardan foydalanish sayyohlarning xavfsizligini ham oshirdi. Sayyohlar endi o'z smartfonlaridan favqulodda xizmatlarga kirish, hodisalar haqida xabar berish va sayohat joylarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar haqida ogohlantirish olishlari mumkin. Shuningdek yuzni tanish, kontaktsiz ro'yxatdan o'tish va sun'iy intellekt yordamida boshqariladigan kuzatuv tizimlari kabi texnologiyalar turizm sanoatida xavfsizlik choralari kuchaytirishga yordam beradi. Ushbu innovatsiyalar sayohat bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga yordam beradi.

Aqlli texnologiyalar sayyohlik korxonalariga maqsadli marketing xizmatlarini taqdim etish orqali daromadlarni oshirish imkonini ham beradi. Turizm korxonalarini endi sayyohlarning xatti-harakatlari va afzalliklarini kuzatish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanishlari mumkin. Ushbu ma'lumotlardan sayyohlarning qiziqishlari va tanlovlaridan kelib chiqqan holda muayyan guruhlariga mo'ljallangan shaxsiylashtirilgan marketing kompaniyalarini yaratish uchun foydalanish mumkin.

1. Saytning qancha ko'p sahifasi indekslashgan bo'lsa, saytdagi qidiruv trafigi ham shunchalik ko'p bo'ladi. Chunki indeksatsiya foydalanuvchilarga sayt sahifalarini ko'rish imkonini beradi. Indeksatsiyani oshirish uchun saytni axtaruv tizimlari kataloglarida registratsiya qilish kerak bo'ladi.

2. Saytda ilovalar joylashtirish va yuqori indeksatsiyani ta'minlab beradigan internet resurslarga o'tishni tashkillashtirib berish ham juda yaxshi konversiyani ta'minlaydi va indeksatsiyani ancha oshiradi. Bu usulni amalda „*ilovalar almashinish*“ deb atashadi. Ammo bunda saytda boshqa internet resurslarga o'tishni amalga oshiradigan juda ko'p havolalarni joylashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki bu holda saytga tashrif buyurganlar boshqa begona internet resurslarga o'tib ketadilar.

3. Bannerlarni va pulli ilovalarni ommabop elektron resurslarda joylashtirish konversiyani ancha oshiradi;

4. Yaxshi o'ylab tanlangan snippetlarga ilovalar ham saytga kiruvchilar sonini oshiradi (*snippet – sayt sahifasi matnining qidiruv talabi amalga oshiriladigan qismi, u qidiruv natijalarida ko'rsatiladi*);

5. Saytning yuqori darajadagi unikal va qiziqarli kontentini saytning boshqa qismlariga bo'lgan faol giperilovalar (maqolalarga, taqrizlarga, komentariylar, hisobotlarga kabilar) bilan to'ldirish va uni boshqa resurslarda ham joylashtirish.

6. Sayt matning unikaliligini tekshirish mahsus elektron resurslar yordamida amalga oshirilishi mumkin, shu jumladan, *Advego Plagiats* yordamida. Kontentlarning ommabop birjalari sifatida *TextSale.ru*, *Etxt.ru*, *Advego.ru*, *ContentMonster.ru* larni ko'rsatish mumkin.

7. Saytning yoki saytning alohida sahifasi firmenniy belgisi - Favikonni yaratish va uni brauzer qatorida URL dan oldin joylashtirish;

8. Web-saytni barcha reklama ma'lumotlarida, barcha jo'natmalarda, suvenirlarda, esdalik sovg'alarida, bukletlarda va turli xildagi chop etilgan materiallarda ko'rsatish ham yaxshi natijaga olib keladi;

9. Sayt haqidagi ma'lumotlarning statistikasini asosiy metrikalar bo'yicha yig'ish va tahlil qilish.

Elektron tijorat va elektron biznes saytining ommaviylikini oshirish uchun eng muhim shartlardan biri – ko'rsatilayotgan elektron hizmatlarning sifati yuqori darajada bo'lishi kerakligidir. Saytning yana bir xususiyatlaridan biri undan foydalanish oson bo'lishiligidir (*usability*). Eng asosiysi – resursga kirishning oddiyliigi, qulayligi va tezkorligidir. Bu borada „*Sakkiz soniya qoidasi*“ mavjuddir.

Uning mohiyati shundan iboratki, agarda saytga kiruvchi sakkiz soniya davomida saytdan kerakli ma'lumotlarni topa olmasa, u xolda bu mijoz kompaniya uchun yo'qotilgan hisoblanadi.

Yuqoridagi o'rganib o'tilgan ma'lumotlar asosida elektron tijorat va elektron biznes samaradorligini oshirish uchun eng muhim bo'lgan ko'rsatgichlarini ushbu ilmiy maqolaning asosiy natijalari sifatida keltirib o'tamiz. Bunda elektron tijorat bilan bog'liq reklama va elektron marketingning asosiy ko'rsatgichlarini quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

Birinchi guruh ko'rsatgichlar:

- Brend haqida ma'lumot mavjudligi (*ma'lumot olganlik indeksi –AW*);
- Testlashtirish (*test-drive*), ya'ni, potentsial mijozlarni kompaniya mahsuloti bilan tanishtirish uchun elektron mahsulotning test versiyasi mijozlar uchun tekinga taklif etiladi;
- Mijozlarning qoniqishlilik darajasi (*Customer Satisfaction – CSAT*);
- Saytga kirganlik soni;
- Mijozlarning kamayib qolish darajasi.

Ikkinchi guruh ko'rsatgichlar:

Elektron tijorat samaradorligini oshirishda reklama va elektron marketingning moliyaviy ko'rsatgichlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- O'z-o'zini qoplash ko'rsatgichi;
- Foyda miqdori;
- Ichki daromadlilik darajasi – *IRR - Internal Rate of Return*;
- Sof keltirilgan baho – *NPV – Net Present Value*;
- Mijozning hayoti davomidagi qimmatlilik, ya'ni bir mijozning keltiradigan jami foydasi – *CLTV – Customer Lifetime Value*;

Uchinchi guruh ko'rsatgichlar:

Bunday ko'rsatgichlari quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

- Har bir turtish (klik) ning bahosi – *Cost Per Click – CPC*;
- Tranzaksiyalar bo'yicha konversiya darajasi, ya'ni, sayt adresini bosganlarning qancha qismi tovar sotib olganligi miqdori – *Transaction Conversion Rate – TCR*;
- Rad etishlar darajasi, ya'ni, saytga kirganlarning qanchasi uni yana ko'rib chiqishdan voz kechganligi;
- Virusli marketing (Sarafanli radio), mahsulot haqidagi ma'lumotlarning ist'emolchilarning biridan boshqalariga bildirilishi darajasi kattaligi – *Word of Mouth – WOM*;

Elektron reklama haqidagi ma'lumotlar quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- Saytga kirgalarining diqqatini o‘ziga tortishi kerak;
- Ularda qiziqish uyg‘otishi lozim;
- Keyin esa kiruvchilarda ishtiyoq hosil qilishi zarur;
- Bu ishtiyoq esa keyinchalik tovar yoki hizmatni sotib olishga undashi lozim.

Yuqoridagi to‘rtta talablarni AIDA (*attention, interest, desire, action*) modeli deb nomlanadi. Bitta jalb qilingan mijozning bahosini (*CPA – Cost Per Acquisition*) hisoblash uchun reklama byudjetini haridni amalga oshirgan mijozlar soniga bo‘lish talab etiladi.

Elektron tijorat bilan bog‘liq marketingning byudjetini esa quyidagi harajatlar bo‘yicha bo‘lib chiqish mumkin:

1. Lidogeneratsia, ya‘ni, potentsial mijozlarni elektron tijorat portaliga jalb qilish, sotuvlarni stimulyatsiya qilish, talabni hosil qilish bilan bog‘liq harajatlar;
2. Bozorga kirib borish va bozorda o‘z joyini topishga ketadigan sarf-harajatlar;
3. Kompaniya imidjini amalga oshiradigan reklama va brending, ya‘ni, nafaqat kompaniyaning vizual obrazi, balki uning bozordagi o‘zini tutish holatini, xodimlarning kompaniya ichidagi va tashqarisidagi faoliyatini tashkil qilish harajatlari;
4. Mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar;
5. Iste‘molchilar va raqobatchilar ma‘lumot bazalarini tashkil qilish bo‘yicha sarf-harajatlar;

XULOSA

Yuqorida tavsif etilgan elektron tijorat platformalari va ularning samadorligini oshirish usullarining o‘ziga yarasha kamchiliklari va afzalliklari mavjud bo‘lib, ularning har birining o‘z ishlatilish sohalari ham bor albatta. Shu jumladan, xozirgi davrda jahon miqyosida elektron tijorat platformalarini joylashtirish va ularni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish uchun ommaviy bulutlardan ko‘proq foydalanilayapti. Konvergent tuzilmalarda hosil qilinadigan gibrid bulutlarning rivojlanishi an‘anaviy ilovalarda ko‘proq ishlatilayapti. *Dell EMC* kompaniyasi mutaxassislarining fikriga ko‘ra esa, hozirgi davrda korporativ yechimlarning eng ommabop yo‘nalishi elektron tijoratning tayyor cloud infratuzilmasini sotib olish va uni o‘rnatib ishlatish bo‘lib qoldi. CAGR kompaniyasining bashoratiga ko‘ra, yaqin yillarda konvergent va giperkonvergent infratuzilmalarga bo‘lgan sarf-harajatlar 10% ga oshishi mumkin ekan [8]. Bulut (*Cloud Native*) da ishlatish uchun mo‘ljallangan ilovalarning keng miqyosda ishlatilishi turli xildagi tizimlar, shu jumladan, elektron tijorat tizimlari uchun raqamli transformatsiya talablaridan biridir. Zamonaviy infratuzilmalarga bo‘lgan talablardan boshqalari – flesh-tizimlardan foydalanish, gorizontall masshtablashtirish imkoniyati, ishonchlilik, havfsizlik, chidamlilik va

dasturiy aniqlaniladigan yechimlardan foydalanishdir. Bulutli gibrid arxitektura provayderning ommaviy bulutini hamda mijozning shaxsiy bulutini ishlatishni ko'zda tutadi. Bunda konvergent infratuzilma data markazni tashkil qilishning eng qisqa yo'lidir. Agarda mijozga hozircha kamroq hisoblash quvvatlari kerak bo'lsa, u oldin bir modulda ishlab turadi va keyinchalik talablari oshgan holda o'z infratuzilmasini kengaytira boradi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, yangi dunyo – mobil dunyodir va bu raqamli transformatsiya dunyosida hodimlar doimo bir joydagi ofisda o'tirmaydilar, ammo ular har doim o'zaro aloqada bo'lishlari lozim. Bu mobil dunyo va mobil qurilmalar elektron tijorat va biznes uchun yangidan-yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, havfsizlik bo'yicha ham bir qancha muammolar yaratadi. Havfsizlik siyosatini boshqarish uchun mo'ljallangan tizimlarni MDM (*Mobile Device Management*) deb nomlanadi. Bu muammoni hal qilish uchun Samsung kompaniyasi o'zining barcha planshetlari va smartfonlarini 2017 yildan boshlab *Knox* deb nomlangan korporativ ma'lumotlarni himoya qilishning apparat platformasi bilan ta'minlagan [9]. Bunda mahsus registr operatsion tizimda ruxsat berilmagan o'zgarishlar bo'ldimi yoki yo'qligini aniqlaydi va agar bunday o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, u darhol bunday o'zgarishlarni yo'qqa chiqaradi. Kompaniyaning *Knox Workspace* deb nomlangan alohida mahsuloti esa o'ziga hos ishchi konteyner bo'lib, korporativ ilovalarni shaxsiylaridan ajratib turadi. Bu konteyner xodimning shaxsiy mobil telefoniga o'rnatiladi va faollashtirilib, korporativ MDM vositasida boshqariladi. *Knox Workspace* ning shifrlash kaliti smartfonning apparat vositalaridan alohida izolyatsiyalangan holatda *TrustZone* da saqlanadi. Agarda vositani kimdir buzmoqchi bo'lsa, *Knox Workspace* ga bo'lgan kirish bloklantiriladi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarni kuchaytirilgan xolda autentifikatsiya qilish usullari ham ishlatiladi. Ushbu konteyner ko'pchilik MDM-yechimlar, shu jumladan, *VMware* kompaniyasining *Airwatch* yoki *Citrix* kompaniyasining *XenMobile* tizimlari bilan mos tushadi. *Android* ning oddiy ilovalari ham *Knox Workspace* da hech qanday o'zgarishlarsiz ishlashlari mumkin. Samsung kompaniyasi bulutli *EMM* (*Enterprise Mobility Management*) yechimni amalga oshirib beradigan *Knox Premium* tizimini ham ishlab chiqdi. Bu tizim havfsiz ishchi konveyeri bilan ishlaydi, bir qancha havfsizlik siyosatlarini o'z ichiga oladi, yo'qolgan qurilmalar bilan ishlash imkonini yaratadi, ularni masofaviy blokirovka qila oladi va qurilmaning qayerdaligi haqida hisobot tayyorlay oladi. *Cloud & Digital Transformation* anjumani ishtirokchilarining ta'kidlashlaricha [10], ko'pchilik kompaniyalar elektron tijorat va biznes uchun raqamli strategiya zarurligini tan olsalar ham, ba'zi bir rahbarlar raqamli texnologiyalarga katta ahamiyat berish zarurligiga unchalik ishonmaydi. Ammo tezkorlik bilan rivojlanayotgan va o'zgarayotgan dunyo bunday

skeptiklarning sonini kun sayin kamaytirmoqda. Chunki aks holda raqobatli dunyoda yashab qolish ham juda qiyin bolib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5-октябрдаги ПФ-6079-сонли фармони “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 17.02.2021 г. № ПП-4996 «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта»
3. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 17.11.2021 г. № ПП-14 «О совершенствовании администрирования электронной коммерции и создании благоприятных условий для ее дальнейшего развития»
4. Об утверждении Стратегии развития технологии искусственного интеллекта в Республике Узбекистан на 2022-2030 годы ID-51923 (V-1).
5. Б.А.Бегалов, Н.К. Абдуллаев. Рақамли иқтисодиёт. Дарслик, Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти, 2023 йил. 264 бет
6. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod Molia” nashriyoti, 2019. 386 bet.
7. Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. –М.: ИНФРА-М, 2018. -381 с.
8. Маркова В.Д. Цифровая экономика: Учебник для ВУЗов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. -186 стр.
9. И.А. Хасаншин, А.А. Кудряшов, Е.В. Кузьмин, А.А. Крюкова. Учебник для ВУЗ ов. –М: Горячая линия. –Телеком, 2019. -280 стр.
10. Шнепс-Шнеппе М.А., Намиот Д.Е. Цифровая экономика: телекоммуникации – решающее звено. –М: Горячая линия. –Телеком, 2018. -150 стр.
11. Kadyrov A., Akhmedieva A., Bazarov F., Mamurov B. (2021) Formation of Information Society and Its Influence on Competitiveness of National Economies in the Context of World Economy Globalization. ICFNDS 2021: The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. Pages 672-684. <https://doi.org/10.1145/3508072.3508205>
12. Ахмедиева А.Т., Маъмуров Б.Х. (2022) Мамлакатда трансформациянинг иқтисодий самарадорликка таъсири //Архив научных исследований. Т. 2. – № 1.
13. Любавина Т.В., Мустафина Г.Г., Любавин А.Ю. Цифровая экономика: проблемы и перспективы. Вестник экономики, права и социологии. 2022, №4. стр.143-146. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-problemy-i-perspektivy>

14. Калашникова М.Р. Проблемы и перспективы развития электронной торговли как подсистемы электронной коммерции на российском рынке: сборник трудов конференции. / М.Р. Калашникова, Е.А. Мухамедрахимова, Е.В. Бунова // Экономика и управление: проблемы, тенденции, перспективы развития: Материалы Междунар. науч.–практ. конф. (Чебоксары, 14 нояб. 2015 г.) / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2015. – С. 144-145. – ISBN 978-5-906626-99-8. https://interactive-plus.ru/ru/article/13864/discussion_platform
15. Кадиров, А., Ахмедиева, А., & Маъмуров, Б. (2023). Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўналишлари. *Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil*, 1(3), 183–190. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp183-190>. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/110>
16. Гаврилов, Л. П. Электронная коммерция: учебник и практикум для вузов / Л. П. Гаврилов 3-е изд., доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 477 с.
17. Цифровая экономика: 2023 : краткий статистический сборник / Г. И. Абдрахманова, Ц75 С.А. Васильковский, К.О. Вишневский и др.; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М. : НИУ ВШЭ, 2023. – 120 с. – 300 экз. – ISBN 978-5-7598-2744-3 (в обл.)

XORIJIY DAVLATLARDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xakimdjanoval Dildora Kamilevna

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
“Menejment va marketing” kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda elektron tijoratning hozirgi holatini o‘rganish, tahlil qilish va uni rivojlantirish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilganlini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsion texnologiyalar, raqamli axborot texnologiyalari, e-commerce, marketpleys, tranzaksiya, internet texnologiyalari, B2C, kredit kartalari, onlayn savdolar, veb-saytlar.*

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Хакимджанова Дилдора Камилевна

*ТУИТ имени Мухаммада ал-Хоразмий, старший преподаватель кафедры
«Менеджмент и маркетинг»*

Аннотация: Данной статье подчеркивается, что достигнуты положительные результаты в изучении, анализе и развитии современного состояния электронной коммерции в развитии национальной экономики нашей страны.

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, цифровые информационные технологии, электронная коммерция, рынок, транзакция, интернет-технологии, B2C, кредитные карты, онлайн-продажи, веб-сайты.*

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF E-COMMERCE IN FOREIGN COUNTRIES

Khakimdjanoval Dildora Kamilevna

*TUIT named after Muhammad al-Khwarizmi, senior teacher at
“Management and marketing”*

Abstract: This article emphasizes that positive results have been achieved in the study, analysis and development of the current state of e-commerce in the development of the national economy of our country.

Keywords: *information and communication technologies, digital information technologies, e-commerce, market, transaction, Internet technologies, B2C, credit cards, online sales, websites.*

KIRISH

So‘nggi yillarda axborot xizmatlarining va axborot bozorining faol rivojlanishi kuzatilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda axborot oqimlarining hajmi va intensivligi, masofadan ma'lumotlarni tezkor uzatishning yangi imkoniyatlari, shuningdek axborotni saqlash va qayta ishlash usullari kengayib bormoqda. Buning eng asosiy sababi bu global Internet bo‘lib, u dunyo bo‘ylab elektron shaklda ish olib borishga vosita bo‘lmoqda. Chunki an'anaviy tarzda rivojlanayotgan biznes va iqtisodiy hamkorlikdan farqli ravishda, yangi imkoniyatlarni, elektron tijorat va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida xo‘jalik faoliyatini yuritish shakllari va usullarining sezilarli o‘zgarishlarini ko‘rib turibmiz. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan Internet - geoiqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Yillar davomida rivojlanib borayotgan elektron jarayonlar har bir sohada o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Qaysi sohani tadqiq qilmaylik, internetning ish quroli sifatida faol ishlayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu jumladan elektron tijorat ham internetning bir mahsuli sifatida takomillashib bormoqda, hozirgi kunga kelib bu soha kirib bormagan hayotning biron jabhasi qolmadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Elektron tijorat va uning mohiyati ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganib chiqilgan bo‘lib, ulardan A.V Yurasov, J.S.Vestland, T.K.Klark, D.Kozelar elektron tijorat va uning mohiyatini, M.Ramzaev, P.Chujanov, V.Tarasovlar elektron tijoratning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi o‘rni, V.V Senkevin, N.I. Geraschenko va boshqalar elektron tijoratni boshqarishda davlatning roli bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish masalalari va istiqbollari bo‘yicha A.N.Aripov, X.A.Muxitdinov, M.M.Maxmudov, T.K.Iminov, N.Yusupova, B.Ergashev, S.Avganbaev, R.I. Isaev, A.R. Valiev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqqanlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ilmiy mushohada, induksiya va deduksiya, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biznesga axborot-kommunikatsion texnologiyalarning (AKT) kirib kelishi korxonalarining bevosita iste'molchilar bilan aloqalarida o'ziga xos inqilobni vujudga keltirdi. Jahonda elektron tijoratni rivojlanishi barcha davlatlarda bu sohani rivojlanishiga olib keldi. Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Hozirgi davrning muhim masalasi, strategik pozitsiyalash, firmalar tomonidan mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda axborot asri va yangi iqtisodiy muhit sharoitida sodda, ishchan va hayotiy e-business strategiyasi asosida, imkoniyatlardan samarali foydalanib eng yuqori foydalilik darajasiga chiqish hisoblanadi. Shu o'rinda e-commerce kichik biznesga yirik biznes subyektlari bilan raqobatlasha olish imkonini berishini alohida ta'kidlash kerak. Uzoq vaqt davomida O'zbekistonda aloqa va axborotlashtirish texnologiyalari bir-biridan ayri holda rivojlanib bordi. Aloqa sohasi o'z xizmat turlarining foydalanilish belgisiga qarab sun'iy ravishda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish shakllarga ajratilib qaraldi, butun axborotni yaratish sohasi esa, aloqa sohasidan alohida holda shakllandi. Shu tariqa, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasi takomillashuvi hamda kengayishi natijasida o'tgan asrning 90-yillari oxiriga kelib, ushbu sohalarda qo'llaniladigan usullar va vositlarning bog'lanib ketish jarayoni boshlandi. Tijorat tushunchalarining klassifikatsiyasini ko'rib chiqadigan bo'lsak birinchi tushunchani AQSH olimlari A. Summer va Gr.Duncan quyidagicha berishgan: Elektron tijorat – bu subyektlar o'rtasidagi munosabat elektron tarzda (Internet texnologiyalarni qo'llagan holda) amalga oshadigan biznes jarayonning ixtiyoriy shaklidir. Bu tushunchaning mohiyatiga ko'ra olimlar tomonidan ta'rif o'sha paytdagi internet tarmog'ini rivojlanish tendentsiyalariga mos keladi. 1999-yillarga kelib internet savdo tushunchasi kirib keldi. AQSH olimlari A. Summer va Gr.Duncan fikricha elektron savdo – biznes tranzaksiyasining butun sikli yoki uning bir qismi elektron tarzda amalga oshadigan tovar yoki xizmatlarni xarid qilish va sotish jarayonidir¹.

Iqtisodiyot tarmoqlariga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi orqali iqtisodiyotni raqamlashtirish, kichik biznes hamda tadbirkorlik sub'ektlariga biznes yuritishda elektron tijoratning raqobat ustunligidan keng foydalanish, yuqori axborot-texnologiyalarga asoslangan innovasion ishlab chiqarishlarni tashkil etishda muhim

¹ Uzbek Scholar Journal Volume- 21, October, 2023 www.uzbekscholar.com. O'zbekistonda elektron tijoratning sohalarda rivojlanishi Usmonova Adiba Azim qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

omil bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy prognozlarning ko‘rsatishicha yaqin kelajakda dunyo yalpi ichki mahsulotining salmoqli ulushini axborot mahsulotlari tashkil etib, mazkur jarayonning o‘zi esa an’anaviy do‘konlar va savdo rastalaridan farqli ravishda turgan joyda har qanday tovarni dunyoning istalgan qismidan sotib olish imkoniyatini beruvchi virtual hududga aylanadi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti to‘xtalib, –“Bugungi kunda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 5,5 % axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 9 foizdan oshadi. Masalan, Janubiy Koreyada 9 %, Yaponiyada 5,5 %, Xitoy va Hindistonda 4,7 %, O‘zbekistonda atigi 2,2 % ni tashkil etadi. Buni axborot - kommunikasiya rivojlanish indeksi reytingidagi 176 mamlakat orasida O‘zbekiston 95-o‘rinda ekani ham isbotlab turibdi”², deb ta’kidladilar.

Dunyoning deyarli barcha davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyati an’anaviy savdo aloqalaridan uzoqqa chiqib ketishga ulgurdi. Elektron tijoratning rivojlanishi va Internetda savdo platformalarining paydo bo‘lishi tufayli yuzma-yuz uchrashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj yo‘qolib bormoqda. Har qanday mahsulotni sotib olish uchun hatto oddiy iste’molchi ham uydan chiqmay turib tovar va xizmatlarni masofadan xarid qilish imkonini yaratadi. Bu nafaqat o‘z shahringiz yoki mamlakatingizda xarid qilish, balki boshqa mamlakatlardan tovarlarga buyurtma berish va yetkazib berish imkoniyati mavjudligini anglatadi. Yangi texnologiyalardan foydalanish ommabopligi tufayli iste’molchilar huquqlarini himoya qilish zarurati ortib bormoqda.

Elektron tijorat hamda marketpleyslardan foydalanish tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi, butun dunyo bo‘ylab yetkazib beruvchilar va xaridorlarni bog‘laydigan savdo kanali bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bugungi kunda biznes uchun elektron tijoratning qiymatini baholab bo‘lmaydi: u kompaniyalarning iste’molchilar ehtiyojlarini tushunishini yaxshilaydi, mahsulot va xizmatlarni jahon bozoriga taqdim etadi. Hozirgi vaqtda jahon iste’mol tovarlari savdosining qariyb 12 % xalqaro elektron tijorat orqali amalga oshirilib kelinmoqda va bu ko‘rsatkich doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Yevropa Komissiyasi o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, onlayn platformalar Yevropa Ittifoqi va butun dunyoning kelajakdagi iqtisodiy o‘rishini ta’minlovchi “raqamli qiymat”ni yaratishda yetakchi rol o‘ynaydi.

Elektron tijoratning xalqaro statistik ma’lumotlari³

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligidagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi”ga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi ma’ruzasi – Toshkent 2018 yil 9 yanvar.

³ INFOCOM.UZ, “Dunyo bo‘ylab elektron tijorat statistikasi va faktlari”. Aprel 11, 2023

- 2023-yilda chakana xaridlarning 20,8 % onlayn tarzda amalga oshirilishi kutilmoqda.

- 2026-yilga kelib, chakana xaridlarning 24 % onlayn tarzda amalga oshirilishi kutilmoqda.

- 2023-yilda elektron tijorat savdosi hajmi 10,4 % ga o'sishi kutilmoqda.

- 2023-yilda global elektron tijorat bozori jami 6,3 trillion dollarni tashkil qilishi kutilmoqda.

- 2026-yilga kelib, elektron tijorat bozori umumiy hajmi 8,1 trillion dollardan oshishi kutilmoqda.

- 2023-yilda AQSh elektron tijorat bozori 1,1 trillion dollardan oshadi.

- AQShda 2023-yilda chakana xaridlarning 16,4 % onlayn tarzda amalga oshirilishi kutilmoqda.

- *Amazon* elektron tijorat sotuvining 37,8 % tashkil qiladi, bu barcha elektron tijorat kompaniyalarining eng yuqori bozor ulushidir.

- Walmart, eBay va AliExpress eng ko'p tashrif buyuriladigan elektron tijorat veb-saytlaridir.

Onlayn xarid qilish xulq-atvori statistikasi

- Onlayn xaridorlarning 57 % xalqaro miqyosda xarid qilishlarini ma'lum qilishdi.

- Onlayn xaridorlarning savatdagi xaridlardan voz kechilishining eng keng tarqalgan sababi yuk tashish, soliqlar va yig'imlar kabi qo'shimcha xarajatlardir (48%).

- Onlayn xaridorlarning 24 % o'z savatlarini tashlab ketishadi, chunki sayt ularni shaxsiy akkaunt yaratishni xohlaydi.

- 22 % onlayn xaridlar yetkazib berish juda sekinligi tufayli xarid jarayonida to'xtatiladi.

- Xaridorlarning 79 % oyiga kamida bir marta onlayn xarid qiladi.

- Mobil qurilmalarda onlayn yuk tashish savatini tark etish darajasi 84% ni tashkil qiladi.

- Shaxsiy kompyuterlar orqali onlayn yuk tashish savatini tark etish darajasi 72% ni tashkil qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda elektron tijorat statistikasi

- 2020-yilda ijtimoiy tarmoqlar savdosiga 992 milliard dollar sarflangan.

- Ijtimoiy tarmoqlar savdosi 2026-yilga borib 2,9 trillion dollarga yetishi kutilmoqda.

- AQShda 96,9 million kishi ijtimoiy tarmoqlarda xarid qiladi.

- *Xitoyda* esa bu ko'rsatgich deyarli 890 million kishiga yetadi.

- *Millenniallar* eng ko'p ijtimoiy tarmoqlarda xarid qiladi – Qo'shma Shtatlardagi 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan odamlarning 55 % ijtimoiy tarmoqlarda xarid qilishgan.

- *Xitoy* ijtimoiy tijorat xaridorlarining eng yuqori ko'rsatkichiga ega – deyarli 50% ijtimoiy tarmoqlardan xarid qilgan.

- Facebook ijtimoiy tijorat operatsiyalari uchun eng mashhur ijtimoiy media platformasidir.

- 40 % ijtimoiy media ta'siri tufayli xarid qiladi.

- Ijtimoiy tijorat xaridorlarining 49 % *influenserlarning* tavsiyasi ularning xaridiga ta'sir qilgan.

Mobil elektron tijorat statistikasi

- 91 % smartfon yordamida onlayn xarid qiladi.

- Mobil tijorat savdosi 2023-yilda barcha chakana savdolarining 6 % ni tashkil qilishi kutilmoqda.

- 2021-yilda mobil elektron tijorat 360 milliard dollardan ortiq savdoni tashkil etdi.

- 2025-yilga kelib mobil tijorat savdosi 710 milliard dollarni tashkil qilishi kutilmoqda.

- *Planshet* elektron tijorat savdosi 2026-yilga kelib 54,01 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

2022-yil ma'lumotiga ko'ra mamlakat aholisi 332 millionga teng bo'lib, aholining 85 % Internetdan uzluksiz foydalanib kelmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'plab elektron tijorat veb-saytlari mavjud: Amazon, Walmart, eBay, Target, Apple, COSTCO va boshqalar. Amazon AQShning eng yirik on-layn platformasi bo'lib, butun dunyo bo'yicha tarqalgan. 2020-yildagi Kovid pandemiyasi AQSh iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, lekin bu elektron tijoratning mamlakatda jadallik bilan o'sishiga hissa qo'shdi va elektron tijoratdan foydalanuvchilar sonini o'rtacha 20 % ga oshirdi. Sehrli diyorda on-layn xaridlar, odatda, kredit kartalari yordamida amalga oshiriladi.

Shuningdek, boshqa to'lov turlari – Pay Pal va Stripe ham keng qo'llaniladi. Amerikadagi on-layn tijoratchilar o'z mahsulotlarini nafaqat mamlakat aholisiga, balki boshqa davlatlarga ham eksport qiladilar. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'plab rivojlangan davlatlar AQShning sifatli tovarlarini on-layn xarid qilishni xush ko'radilar. Ushbu mamlakatda elektron tijorat qaynab ketadigan maxsus kunlar ham mavjud. Xususan, "Black Friday"da qaysikim, "Thanksgiving" bayramidan so'ng savdolar miqdori bir necha barobarga oshib ketadi. Ushbu kunda, xaridorlar katta miqdordagi chegirmalarga ega bo'ladilar va shuning uchun ko'plab amerikaliklar ushbu kunni kutib yashashadi. On-layn veb-saytlarda eng ko'p sotiladigan tovar turi bu kiyim-kechaklar hisoblanadi. Ikkinchi o'rinda esa oziq-ovqat va ichimliklar toifasi

tursa, undan keyingi o‘rinlarda oyoq kiyimlari va elektr texnika jihozlari turadi⁴. 68 % amerikaliklar on-layn savdolarni o‘zlarining smart telefonlaridan foydalangan holda amalga oshiradilar. Amerikalik xaridorlar uchun yetkazib berish tezligi muhim hisoblanadi va shuning uchun tijorat tashkilotlari sotib olingan mahsulotlarni o‘sha kunning o‘zida yoki keyingi kun yetkazib berishadi. Bu esa o‘z navbatida, AQShda transport va logistika, omborxonalar naqadar rivojlanganligini ko‘rsatib beradi. Yetkazib berish xizmati narxlari turlicha bo‘lib, tovarlar qancha tez yetkazilsa shuncha qimmatroq va aksincha, sekin 3-4 kunda yetkazilsa shuncha arzonroq bo‘ladi. Buyuk Britaniyada elektron tijoratning holati. Elektron tijorat buyuk britaniyaliklarning sevimli mashg‘ulotidan biridir.

2020-yilda umumiy chakana savdoning 36 % onlayn savdoga to‘g‘ri kelgan va bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan 20 % ga ko‘p demakdir⁵. Buyuk Britaniyaning jami aholisi soni 68 million bo‘lib, shulardan 65 millionga yaqini Internet foydalanuvchilari hisoblanadi va bu ko‘rsatkich har yili o‘sib bormoqda. 2021-yilga kelib onlayn shopping bilan shug‘ullanuvchi aholi ko‘rsatkichi umumiy aholining 94 % ga tengdir. Xaridorlarning elektron tijorat uchun sevimli to‘lov turi debit va kredit kartalardir. Viza va master kardlar deyarli barcha elektron tijorat kompaniyalari tomondan qabul qilinadi. www.trade.gov saytiga ko‘ra 60 % onlayn savdolar smart telefonlar orqali amalga oshiriladi. 2020-yilda onlayn savdoga bo‘lgan talabning kutilmaganda oshib ketishi Buyuk Britaniya tashkilotlari uchun innovativ yetkazib berish strategiyalarini o‘ylab topishga majbur qildi. Jumladan, ko‘p supermarket va oziqovqat do‘konlari o‘z omborlarini kattalashtirdi va yetkazib berish bo‘yicha o‘z imkoniyatlarini oshirdi. Ushbu davrda ko‘plab yangi yetkazib berish sub’ektlari ham tashkil etildi. Hozirgi vaqtga kelib, o‘rtacha yetkazib berish tezligi o‘rtacha 1,9 kunga to‘g‘ri kelayotgan bo‘lsa, shulardan 57 % tovarlar ko‘pi bilan bir kunda o‘z egalariga yetkazib berilyapti. Britaniyaliklar on-layn savdo orqali asosan quyidagi tovarlarni xarid qiladilar: kiyim-kechaklar, oziq-ovqat va ichimliklar, oyoq kiyimlari, kitoblar, elektron jihozlar, uy jihozlari, atir va kosmetik mahsulotlari va boshqalar. Elektron tijorat dunyosida Amazonning o‘rni nihoyatda katta va buyuk britaniyaliklar ham ushbu platformani sevib ishlatishadi. Xaridorlar Amazon.co.uk sayti orqali 2020-yilda 14,67 million dollarlik mahsulotlarni sotib olishgan va qolgan yirik E-tijorat kompaniyalari quyidagi miqdorda savdo qilishgan:

1. Tesko – 7,59 milliard AQSh dollari;
2. Argos – 5,41 milliard AQSh dollari;
3. Sainsbarus – 4,55 milliard AQSh dollari;
4. Karryus – 4,14 milliard AQSh dollari.

⁴ Jacob wibom westerberg, therése dalebrant, katja kotala. U.s. e-commerce market entry retail playbook.

⁵ <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/united-kingdom-ecommerce>

Yaponiyada elektron tijorat. www.ecommerce-nation.com sayti yirik elektron tijorat bozorlarini tahlil qilar ekan, Yaponiya raqamli savdosiga alohida urg'u berib ketgan. Yaponiya elektron tijorat savdosi bo'yicha Osiyoda Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda tursa, butun jahonda esa ushbu mamlakat to'rtinchi o'rinni egallaydi⁶. Yaponlarning elektron tijoratda o'ziga xos bozori mavjud bo'lib, hozirgi kunda bu bozor jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. 2021-yilga kelib onlayn savdo qiluvchilar soni deyarli 89 millionni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib Yaponiyada elektron tijoratdan foydalanuvchilar soni 113 millionga yetishi taxmin qilinmoqda. Yaponlar odatda on-layn xaridlarni o'z kredit kartalaridan to'lashadi, lekin naqd pul va konbini pul to'lovlari ham bozorda birdek qabul qilinadi. Yaponiyada ko'plab mashhur onlayn tijorat tashkilotlari mavjud bo'lib, ulardan eng yiriklari Amazon, Apple, Yodobashi, Rakuten, Monotaro va Zozotownlardir. Yaponiyada xalqaro on-layn saytlari ham rivojlanayotgan bo'lsa-da, ular asosan tovarlarni mahalliy kompaniyalardan xarid qiladilar va bu Yaponiya bozorining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. On-layn savdo eksporti haqida gapirsak, ular tovarlarni asosan Koreya, Xitoy va Amerikaga sotadilar va bundan ko'rinib turibdiki, savdoning ochiqli-gi transchegaraviy savdolar rivojlanishiga olib kelgan. Yaponiya mamlakati hududi bo'yicha ancha kichkina, lekin transport va logistika infratuzilmasi juda rivojlanganligi tovar yetkazib berish uchun ajoyib imkoniyatni yaratadi. Masalan, Amazon Japan kompaniyasi 80 % aholiga tovar sotib olingandan keyin o'sha kunning o'zida yetkazib berish xizmatini taklif qiladi. Odatda, tovarlar ko'pi bilan bir kunda mijozlar qo'lida bo'ladi.

Mamlakat aholisi onlayn saytlardan sotib oladigan eng ko'p mahsulot bu elektronika va mediatovarlaridir (telefon, soat, tabletlar va TVlar). Yana eng ommabop xaridlardan biri turli xildagi kiyim-kechakdir. Undan so'ng esa, oziq-ovqat mahsulotlari, sayohat paketlari va turli chiptalar mamlakat xaridorlari tomonidan on-layn sotib olinadi. Aholining Internetdan foydalanish darajasi mamlakatda 93,3 % ga teng. Yaponiyada raqamli tijorat rivojlanishining asosiy omillari davlatlar kuchli infratuzilmaning mavjudligi va mijozlarning on-layn savdoni afzal ko'rishidadir (xilma-xil tovarlarning mavjudligi va qulayligi uchun). Janubiy Koreya davlatida raqamli savdo. Ma'lumki, Janubiy Koreya aholisining Internetdan foydalanish darajasi dunyoda birinchi o'rinda turadi va bu ko'rsatkich hozirgi kunga kelib 93 % ga teng yoki bu 47 million aholi demakdir⁷. Aholining 80 %i esa (taxminan 41 million) internet orqali savdoni amalga oshiradi. Elektron savdo taxminan 25 yillarcha avval Korea davlatiga kirib kelgan va shu paytdan beri rivojlanib kelmoqda. Mamlakatda elektron tijorat rivojlanishi uchun barcha huquqiy asosiy sharoitlar yaratilgan,

⁶E-commerce in japan: an island of opportunity for canadian exporters. https://www.asiapacific.ca/sites/default/files/filefield/ecommerce_in_japan_report.pdf

⁷ https://www.statista.com/topics/2230/internet-usage-in-south-korea/#topicHeader__wrapper.

shuningdek, elektron tijorat bir tekis rivojlanishi uchun yaxshi infratuzilma yaratilgan. Logistika sohasining yaxshi rivojlanganligi esa sohaning rivojlanishini tezlashtirgan. Raqamli savdo nafaqat yoshlar tomonidan amalga oshiriladi, balki katta yoshdagi xaridorlar ham muntazam ravishda on-layn savdoni amalga oshiradi. Janubiy koreyaliklar odatda internet orqali kiyim-kechaklar, aksessuarlar, uy-ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqat va ichimliklar, kosmetika jihozlari, kitoblar va sport jihozlari kabi tovarlarni sevib xarid qiladilar. Janubiy koreyaliklar nafaqat mahalliy on-layn savdoni, balki transchegaraviy elektron tijoratni ham amalga oshiradilar.

Ular o'zlari zarur deb topgan tovarlarni Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa, Xitoy, Yaponiya, Avstraliya kabi mamlakatlardan buyurtma berib import qiladilar. Quyidagi xorijiy on-layn platformalar koreyaliklar uchun sevimli hisoblanadi: Amazon UQ, I Herb US, eBay US, Amazon Japan, Taobao China, Rakuten Japan va Walmart US. Nowak & Partner Co. Ltd. 2021 ma'lumotiga ko'ra, Naver platformasi koreyslarning eng ommabop onlayn platformasi hisoblanadi va 2020-yilda jami elektron savdoning 18 % ushbu dastur orqali amalga oshirilgan. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni esa mos ravishda Coupang and eBay Korea platformalari 13 % va 12 % bilan egallashgan. 2020-yil boshida pandemiyaning boshlanishi elektron tijorat foydalanuvchilari sonining oshishiga olib keldi va ushbu davrda bir paytlar faqat offlayn xarid qilingan oziq,ovqat mahsulotlari ham on-layn platformalar orqali sotib olingan.

Elektron tijorat korxonalarini uchun o'rtacha konversiya darajasi 1,53% ni tashkil etdi. Marketpleyslardagi savatchalarning 69,57 % tashlab ketilgan. Yuqori qo'shimcha xarajatlar xaridorlarning aravadan yoki savatchadan voz kechishining asosiy sababidir.

Shopify – bu eng mashhur elektron tijorat saytlarini yaratish texnologiyasi bo'lib, bozor ulushi 15% dan oshadi va undan 4 millionga yaqin sayt foydalanadi. Elektron tijorat ite'molchilari o'rtasida, Internet maydonida nima uchun elektron tijorat saytlari orqali onlayn xarid qilasiz degan so'rov o'tkazilganda, respondentlar bu savolga quyidagicha javob berishdi, iste'molchilarning yarmidan ko'pi (50,7%) bu elektron tijorat do'konlari tomonidan taklif qilinadigan bepul yetkazib berish ekanligini aytishdi. Boshqa asosiy sabablar qatoriga kuponlardan foydalanish va chegirmalarni qo'llash (41%), boshqa xaridorlarning sharhlarini o'qish (35%), tovarlarni osonlik bilan qaytarish (33%) va mahsulotlarni tezda buyurtma berish imkoniyati (30%), iste'molchilar tomonidan javob berildi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda virtual makonda elektron tijoratni samarali yuritishni tashkil qilish hamda elektron tijorat chegaralarini kengaytirish uchun turli xil mavjud muammolarni hisobga olish kerak. So'nggi bir

necha yil ichida elektron tijorat *global chakana savdoning* ajralmas qismiga aylandi. Boshqa ko‘plab sohalar singari, tovarlarni sotib olish va sotish Internet paydo bo‘lishidan keyin jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va zamonaviy hayotning davom etayotgan raqamlashuvi tufayli butun dunyodagi iste‘molchilar endi onlayn tranzaksiyalarning afzalliklaridan foydalanmoqda. Dunyo bo‘ylab Internet orqali buyurtmalar tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotgani sababli, butun jahonda 5 milliarddan ortiq internet foydalanuvchilari onlayn xaridlarni amalga oshirishi kutilmoqda. So‘nggi yillarda *chakana elektron tijorat* savdosi global miqyosda 5,7 trillion AQSh dollaridan oshdi va kelgusi yillarda bu ko‘rsatkich yangi cho‘qqilarga chiqishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Uzbek Scholar Journal Volume- 21, October, 2023 www.uzbekscholar.com. O‘zbekistonda elektron tijoratning sohalarda rivojlanishi Usmonova Adiba Azim qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligidagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi”ga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi ma‘ruzasi – Toshkent 2018 yil 9 yanvar.
3. INFOCOM.UZ, “Dunyo bo‘ylab elektron tijorat statistikasi va faktlari”. Aprel 11, 2023
4. <https://www.eastasiaforum.org/2021/10/13/what-is-driving-chinas-e-commerce-growth/>
5. Jacob wibom westerberg, therése dalebrant, katja kotala. U.s. e-commerce market entry retail playbook.
6. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/united-kingdom-ecommerce>
7. E-commerce in japan: an island of opportunity for canadian exporters
8. https://www.asiapacific.ca/sites/default/files/filefield/ecommerce_in_japan_report.pdf
9. https://www.statista.com/topics/2230/internet-usage-in-south-korea/#topicHeader__wrapper.

MILLIY MAHSULOTLARNING TASHQI BOZORGA CHIQISHIDA TRANSPORT LOGISTIKASI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

Axmedov Zoxid Sobirovich

Jizzax politexnika instituti katta o'qituvchisi

zohidjonaxmedov0588@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasini xalqaro transport magistralariga ulanishi, mamlakatimizning transport mustaqilligini ta'minlash va tashqi aloqalarni diversifikatsiya qilish orqali transport logistikasi xizmatlarini rivojlantirishning ahamiyati tadqiq etilgan. Milliy mahsulotlarni yetkazib berishda umumiy resurslarni o'zaro bog'liq faoliyat bilan taqsimlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llashni soddalashtirish, moddiy va nomoddiy aktivlarni jalb etish tranzaksion xarajatlarni kamaytirish orqali ma'lum bir hududning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanishda klasterlash turlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *transport xizmatlari, xalqaro bozorlar, logistika, logistik ta'minot, transport-logistika infratuzilmasi, logistik klasterlash, logistika jarayonlarini boshqarish, innovatsion tamoyillar.*

РАЗВИТИЕ УСЛУГ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ ПРИ ЭКСПОРТЕ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ НА ВНЕШНИЙ РЫНОК

Ахмедов Зоҳид Собирович

Старший преподаватель Джизакского политехнического института

zohidjonaxmedov0588@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается важность присоединения Республики Узбекистан к международным транспортным магистралям, обеспечения транспортной независимости страны и развития транспортно-логистических услуг путем диверсификации внешних связей. Даны рекомендации по распределению общих ресурсов по поставкам отечественной продукции при взаимосвязанной деятельности, упрощению использования инновационных технологий, привлечению материальных и нематериальных активов, снижению транзакционных издержек и совершенствованию типа кластеризации в использовании конкурентных преимуществ определенного региона.

Ключевые слова: *транспортные услуги, международные рынки, логистика, логистическое обеспечение, транспортно-логистическая инфраструктура, логистическая кластеризация, управление логистическими процессами, инновационные принципы.*

DEVELOPMENT OF TRANSPORT LOGISTICS SERVICES AT THE EXPORT OF NATIONAL PRODUCTS TO THE FOREIGN MARKET

Akhmedov Zokhid Sobirovich

Senior teacher of the Jizzakh polytechnic institute

zohidjonaxmedov0588@gmail.com

Abstract: This article researches the importance of developing Transport logistics services by connecting the Republic of Uzbekistan to international transport highways, ensuring the transport independence of our country and diversifying external relations. Recommendations are given on improving the types of clustering when using the competitive advantages of a particular territory by reducing transaction costs through the allocation of common resources in interrelated activities for the supply of national products, simplifying the use of innovative technologies, attracting material and intangible assets.

Key words: *transport services, international market, logistics, logistic supply, transport-logistic infrastructure, logistic clustering, management of logistic processes, innovative principles.*

KIRISH

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimizning barcha mintaqalarida avtomobil xizmatlariga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi transport xizmatlari sohasida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va mazkur sohani rivojlantirish bo‘yicha bir qancha muvaffaqiyatlarga erishib kelinmoqda.

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 93-maqsadida ko‘rsatilganidek¹ “Mamlakatning xalqaro hamjamiyatda teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish, hamkor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli tarzda muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o‘tkazish, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).

etakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni kelishish" mamlakatimizning xalqaro transport magistrallariga ulanishi, transport mustaqilligini ta'minlash va transport aloqalarini diversifikatsiya qilishga yo'naltirilishida alohida o'rin egallaydi. Milliy mahsulotlarni mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlovchi transport yo'laklari infratuzilmalarini rivojlantirish hamda transport xizmatlari ko'rsatishni talablar darajasida yo'lga qo'yish bevosita transport logistikaga bog'liq.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasini xalqaro transport magistrallariga ulanishi, mamlakatimizning transport mustaqilligini ta'minlash va transport logistikalarini diversifikatsiya qilishga o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, guruhlash usullaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Transport logistika xizmatlarining samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarini o'rganish maqsadga muvofiq. "Ba'zi tadqiqotlarda² logistika keng tushuncha ekanligi e'tirof etilib, mutaxassislar unga turlicha yondashganlar. Qandayligidan qat'iy nazar, uni faqatgina transportda mahsulot tashish, ortish-tushirish, ombordagi kirim-chiqim hisoblarini yuritishdan iborat deb tushunmaslik lozim. Negaki, logistika deganda material oqimini birlamchi manbasidan to oxirgi iste'molchisiga etkazib bergunga qadar tovar harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish asosida boshqarish tushuniladi. Shu bois M.Porter, D.Stok singari mutaxassislar logistika o'z an'anaviy mohiyatidan allaqachon chiqib ketganini, korxonalarni strategik boshqarish va rejalashtirishda katta ahamiyatga egaligini ta'kidlaydilar".

MDH olimlaridan B.G.Galstyanning ko'rsatishicha³, esa "Transport logistikasi - bu sanoat logistikasi muayyan texnologiya, ta'minot zanjiridagi marshrutlar va logistika, texnologik, operatsiyalar, faoliyat va funksiyalardan tashkil topgan transport vositalari tomonidan mahsulotlarni ko'chirishdan iborat bo'lgan tovarlar harakati jarayonida moddiy oqimlarning ishlashi va boshqarilishi va ularga tegishli ta'minot va unga aloqador oqimlarni tashkil etish. Ekspeditorlik, yuklarni qayta ishlash, qadoqlash, mol-mulkka egalik qilish, tahdidlarning oldini olish, xavflarni sug'urtalash, bojxona tartib-qoidalari va boshqalar".

Bu fikrni davom ettirgan D.Bauersoksning fikricha esa⁴, logistika infratuzilmasi ishlab chiqarish obyektlari, axborot vositalari, transport kompaniyalari va ularning

²Kalonov M. Transport logistikaning iqtisodiy ahamiyati. T.: Biznes-ekspert. 2019. №9. -76.

³Галстян Б.Г. Транспортная логистика, ее сущность и задачи // Молодой ученый. – 2018. № 51 С. 224-225.

⁴Бауэрсокс Д. Логистика. Интегрированная цепь поставок. – М.: Олимп-Бизнес, С.75-76.

imkoniyatlari, omborxonalar, yuklarni tashish, qadoqlash, inventarizatsiya qilishni boshqarish, yuklarni yuklash va tushurish terminallari va chakana do'konlarga tegishli deb hisoblagan. Logistika infratuzilmasini tashkil etishda ma'lum geografik joylashuvi bo'lgan obyektlar, ya'ni ombor komplekslari sonini aniqlash va har bir joyda saqlanuvchi mahsulot zaxiralarini hisoblash kerak. Shu bilan birga olim, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalarini o'z ichiga olgan transport logistika infratuzilmasini alohida qayd etib o'tgan.

Mahalliy olimlardan R.G'.Samatovning e'tirof etishicha "Mujassamlashgan logistik ta'minot (LT)ni amalga oshirish logistik jarayon ishtirokchilarining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining qo'yidagi shakl va uslublari orqali amalga oshiriladi⁵: xo'jalik aloqalarining shakllanish faoliyatini uning mahsulotlarga bo'lgan talab va ularni iste'molchilarga etkazib berish faoliyati bilan birgalikda olib borilishi; tashish jarayonida yuk jo'natuvchilarni logistik boshqarishni o'zaro muvofiqlashtirish; turli xo'jalik yuritish subyektlari tasarrufida bo'lgan omborlar va terminallardan birgalikda tizimli foydalanishda kooperatsiyani amalga oshirish; yuk tashish jarayonlarini optimal tashkil etish uchun harakat vositalari, texnik-texnologik elementlar, infratuzilmalar va bu faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar tanlovini amalga oshirish; mahsulotlar harakatini ta'minlashda o'zaro mujassamlangan zanjirga kiruvchi korxonalar faoliyatini iqtisodiy murosaga keltirish orqali birgalikda qilinadigan xarajatlarni optimal kamaytirish va sinergetik samaradorlikka erishish va boshqalar".

"Mamlakatimizda logistik xizmatlar xilma-xilligi bu tarmoq tashkilotlarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini bermoqda. Logistikaning rivojlanishi avvalombor, avtomobil va temir yo'llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarini kamaytirishning muhim sharti va omilidir"⁶. Shu o'rinda hududlarda transport logistika xizmatlarining tashkil etilishi sohada oziq-ovqatlar, xom ashyo etkazib beruvchi subyektlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va investitsion loyihalarni moliyalashtirish o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda raqobat muhitini ta'minlashga erishish lozim.

NATIJALAR MUHOKAMASI

Transport logistikasi sohasida xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish uchun transport infratuzilmasini takomillashtirish va qulay shart-sharoit yaratish maqsadga muvofiq. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, milliy mahsulotlarni mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlashdi transport xizmatlari ko'rsatishning sifatini

⁵Samatov R.G'. "Raqobat muhitida avtomobil transporti logistik tizimi faoliyatini takomillashtirish" mavzusidagi t.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent Avtomobil-yo'llar instituti. 2012.- 44 b.

⁶Nosirova J. O'zbekistonda logistikaning xizmatining rivojlanishi va istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. TDIU. № 4, 2016 yil. www.iqtisodiyot.uz -2 B.

o'shishga transport logistikasida klasterlashni tavsiya qilamiz. "Logistik klaster" tushunchasi ilmiy faoliyatning muayyan turiga nisbatan foydalanishda hisobga olinadi. Bizning fikrimizcha, hududlarda logistik klasterlashtirishni innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshligini oshirish va ularning global raqobatning kuchli ta'siriga qarshi turishdagi milliy va hududiy rivojlanish talablariga to'la javob beradigan yangi iqtisodiy tizim deb qarash mumkin.

Logistik klasterlashtirish o'zaro bog'liq moddiy oqimlarning harakatini ta'minlashga va etkazib beruvchilardan yakuniy foydalanuvchilarga optimallashtirishga qaratilgan logistika funksiyalarini bajaruvchi mustaqil hududiy jihatdan markazlashgan bozor subyektlarining manfaatli hamkorlik munosabatlaridir. Logistika klasterini shakllantirish umumiy resurslarni o'zaro bog'liq faoliyat bilan taqsimlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llashni soddalashtirish, moddiy va nomoddiy aktivlarni jalb etish tranzaksion xarajatlarni kamaytirish orqali ma'lum bir hududning raqobatdosh ustunliklaridan foydalanish bo'lib, hududiy logistik klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Logistik klaster shaklining asosiy xususiyati uning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni o'z-o'zidan bozor asosida emas, balki tashkiliy va rejali ravishda o'zgartirishdir. Logistik klasterlar asosiy yuk oqimlari kesishishida hosil bo'ladi va ko'plab ixtisoslashtirilgan ob'ektlarni birlashtiradi. Logistika klasterlari integratsiyasining iqtisodiy asosi ijtimoiy kapital bo'lib, asosiy ma'muriy resurs ma'muriy manba hisoblanadi. Transport tizimida logistik klasterlashtirish tizimida ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy - uslubiy ishlanmalar ishlab chiqish, ularni sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirishning keng imkoniyatlari paydo bo'ladi, uning turlari va faoliyat mazmuni quyidagi jadvalda keltiriladi (1-jadval).

1-jadval

Xududiy faoliyat turlari bo'yicha logistik klasterlashtirish turlari⁷

Turlari	Faoliyat mazmuni
Transport va logistika klasterlari	Infratuzilma va yuklarni, yo'lovchilarni saqlash, saqlash va etkazib berishga ixtisoslashgan kompaniyalar kiradi
Diskret klasterlar	Yig'uvchi zavodlar va ularning kichik va o'rta etkazib beruvchilari avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik, dvigatel ishlab chiqarish, mashinasozlik majmuasining boshqa tarmoqlari, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati kabilar kiradi.
Jarayonli klasterlari	Metallurgiya, neft-kimyoy, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq korxonalar kiradi.

⁷Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Innovatsion va “ilmiy” klasterlar	Axborot texnologiyalari, biotexnologiya, yangi materiallar, shuningdek ilmiy va ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq turli xizmat sohaslarida tashkil etiladi.
Turistik klasterlar	Hududdagi turistik aktivlar asosida shakllantiriladi va turistik xizmatlar bilan bog‘liq turli sektorlardagi korxonalaridan iborat.

1-jadvalda hududiy faoliyat turlari bo‘yicha logistik klasterlashtirishning turlari bo‘yicha faoliyat mazmuni keltirilgan, uning asosiy maqsadi sifatida infratuzilma va yuklarni, yo‘lovchilarni saqlash, saqlash va etkazib berishga ixtisoslashgan kompaniyalar kiradi.

XULOSA

Milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqishida transport logistikasi tizimida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan turli yangiliklarni qo‘llash orqali logistika jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish va mazkur jarayonlardan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini yuzaga chiqish va mazkur munosabatlarning innovatsion shakllarini tartibga solishining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiylik - innovatsion logistika tizimlari sohasida turli xil jarayonlar o‘rganilgan, amaliy-ilmiy g‘oyalarni qo‘llashni ifodab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar aylanmasining tashkiliy tizimida innovatsiyalar sohasidagi jarayonlarning uzviy bog‘liq zanjirini yaratish imkonini nazariy jihatdan asoslaydi.

2. Muvofiqlashtirish - logistikaning samarali faoliyatini tartibga solishda muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, transport-logistika markazlari faoliyatini isloh qilish uchun uchun bir qator muhim ishlarni amalga oshirish, jumladan transport-logistikasi sohasida “aniq vaqt” va “eshikdan eshikkacha” prinsip asosida ishlovchi, bojxona, transport – ekspeditorlik, omborxon va informatsion logistika sohasida to‘liq kompleks xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyatlariga ega transport-logistika markazlarini tashkil etish, bu borada atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash, xalqaro ekologik normalarga rioya qilish, ekologik xavfsizlik tamoyilidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi va aholining turmush darajasini yaxshilashga hissa qo‘shadi.

3. Axborot bilan ta‘minlanish - transport-logistika sohasini rivojlantirish uchun eng avvalo logistika ekspeditorlik xizmatlarini hamda multimodal logistika markazlarini masofaviy xizmatlar dinamikasi, tarkibi va ko‘lamini ifodalovchi to‘liq axborotlarni yig‘ish hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).

2. Kalonov M. Transport logistikaning iqtisodiy ahamiyati. T.: Biznes-ekspert. 2019. №9. -76.

3. Галстян Б.Г. Транспортная логистика, ее сущность и задачи // Молодой ученый. – 2018. № 51 С. 224-225.

4. Бауерсокс Д. Логистика. Интегрированная сеп поставок. – М.: Олимп-Бизнес, С.75-76.

5. Samatov R.G'. "Raqobat muhitida avtomobil transporti logistik tizimi faoliyatini takomillashtirish" mavzusidagi t.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent Avtomobil-yo'llar instituti. 2012.- 44 b.

6. Nosirova J. O'zbekistonda logistikaning xizmatining rivojlanishi va istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. TDIU. № 4, 2016 yil. www.iqtisodiyot.uz -2 B.

7. Bobanazarova J., Bozorova S. Aholi ish bilan bandligini ta'minlash: O'zbekiston Xitoy hamkorligi O'zbekiston-Xitoy tarixiy-madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar rivoji xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2018 yil. 117 - 121 b.

8. Rahmatullayev Mustafouqul, Axmedov Zoxid Sobirovich. Avtotransport xizmatlari sohasini rivojlantirish maqsadida hududiy transport logistikasi sohasini boshqarishning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish.// «Экономика и социум» №11(114)-2 2023 295-303.

9. Ахмедов Зоҳид Собирович. Развитие транспортной системы обеспечивающего выхода национальной продукции на региональные и международные рынки. //Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2022. 12(105).

TRANSPORT LOGISTIKASIDA “TIR” KARNET KITOBCHASI QO‘LLANILISHINING XALQARO YUK TASHUVLARDAGI AHAMIYATI

Israilov Fazil Ismailovich

Jizzax politexnika instituti “Transport logistikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi

fozil.isroilov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada TIR KARNET kitobchasining qo‘llanilishi bilan bog‘liq ayrim ilmiy va amaliy mulohazalar yuritilgan. Unda bugungi kunda transport-logistika tizimining global miqiyosda raqamlashib borish jarayonini inobatga olgan holda tahlil qilingan. Tahlillar jarayonida kitobchanning qo‘llanilishi bilan bog‘liq jarayonlarning retrospektiv va perspektiv jihatlariga e‘tibor qaratilgan.

Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston manfaatlari nuqtayi nazaridan amaliy asoslangan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *tashqi savdo siyosati, transport-logistika tizimi, TIR KARNET, Yevropa Ittifoqi, e-TIR, IRU, YAIM, chegara va tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona posti, COVID-19 pandemiyasi, xalqaro konvensiya.*

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КНИЖКИ «TIR» В ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКЕ ПРИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ГРУЗОПЕРЕВОЗКАХ

Исраилов Фазил Исмаилович

*старший преподаватель кафедры «Транспортная логистика» Джиззакского
политехнического института*

fozil.isroilov@gmail.com

Аннотация: В данной статье приводятся некоторые научные и практические соображения, связанные с применением буклета книжки МДП. В частности, в статье проведен анализ с учетом процесса цифровизации действующей транспортно-логистической системы в глобальном масштабе. В процессе анализа внимание уделяется ретроспективным и перспективным аспектам процессов, связанных с применением книжки. По результатам анализа даны практические предложения с точки зрения интересов Узбекистана.

Ключевые слова: *внешнеторговая политика, транспортно-логистическая система, ТИР КАРНЕТ, Европейский Союз, e-TIR, IRU — всемирная автотранспортная организация, ВВП, таможенный пост*

приграничный и внешнеэкономической деятельности, пандемия COVID-международная конвенция.

THE SIGNIFICANCE OF THE USE OF "TIR" CARNET BOOKLET IN TRANSPORT LOGISTICS IN INTERNATIONAL CARGO TRANSPORTATION

Israilov Fazil Ismailovich

Jizzakh polytechnic institute, "Transport logistics" department, Senior teacher

fozil.isroilov@gmail.com

Abstract: This article contains some scientific and practical considerations related to the use of the TIR Carnet. In particular, the article analyzes taking into account the process of digitalization of the existing transport and logistics system on a global scale. In the process of analysis, attention is paid to retrospective and prospective aspects of the processes associated with the application of TIR. Ased on the results of the analysis, practical proposals are given from the point of view of the interests of Uzbekistan.

Key words: *foreign trade policy, transport and logistics system, TIR CARNET, European Union, eTIR, IRU - world road transport organization, GDP, customs post border and foreign economic activity, COVID-19 pandemic, international convention.*

KIRISH

O‘zbekiston tovarlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri bu arzon, tezkor hamda xavfsiz transport logistikasini takomillashtirish bo‘lib qolmoqda.

Shundan bilish mumkinki, dastlabki iqtisodiy nazariyalardan boshlab xalqlar o‘rtasidagi savdoni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida transport-logistika tizimiga zarurat borasida bilvosita xulosaga kelish mumkin.

Shu bilan birga, dunyodagi transport logistikasi sohasidagi raqamlar, jahon iqtisodiyotining mazkur tarmog‘idagi salohiyati ancha salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin.

Xususan, 2020-yilga kelib dunyo davlatlarining yalpi ichki mahsulotlarida (YAIM) transport xizmatlarining ulushi 8 foizdan 12 foizgacha tashil qilib, global logistika sanoatining qiymati 9,6 trln. AQSH dollari hamda xalqaro miqyosida yuk tashishlar xizmatlarining narxi esa 4,1 trln. AQSH dollarini tashkil qilmoqda⁸.

⁸ [https:// data. bts. Gov / stories / s / Transportation-Economic-Trends-Contributionof-Tra/pgc3-e7j9](https://data.bts.gov/stories/s/Transportation-Economic-Trends-Contributionof-Tra/pgc3-e7j9) / Contribution of Transportation to the Economy: Final Demand Attributed to Transportation.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan milliy transport tizimini xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topishi borasida ham ko‘plab tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Xususan, o‘tgan yilning 24-26-mart kunlari Davlat rahbari tomonidan Yangi O‘zbekistonda ilk marotaba o‘tkazilgan “1-Toshkent Investitsiyalar forumi”da so‘nggi besh yillikdagi mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar borasida nutq so‘zlab, amaliy tashabbuslar ilgari surildi. Natijada, anjuman yakunlari bo‘yicha dunyoning 56 mamlakatidan 2 mingdan ortiq ishtirokchilar tomonidan 7,8 mlrd. dollarlik aniq shartnomalar va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolanishiga erishildi⁹.

O‘z navbatida, 2022-yilning yilning 15-16-sentyabr kunlari Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Samarqand sammitida mintaqaviy transport-logistikasi tizimini rivojlantirish, bunda asosiy e‘tiborni savdo-iqtisodiy vektoriga nisbat berilishi ahamiyatga molikdir.

Chunonchi, mazkur nufuzli tadbirda tashkilotning “huquqiy bazasi”ni rekord darajada jami 44 ta hujjat bilan to‘ldirilib, uning 10 ga yaqini transport hamda xalqaro savdoga bevosita va bilvosita aloqador ekanligini ko‘rish mumkin¹⁰.

Shulardan kelib chiqqan holda, ayni kunlarda jahon iqtisodiyotining “qon tomiri” hisoblangan transport logistikasida ham raqamlashish sari dadil qadamlar bilan ildamlab bormoqda.

Xususan, xalqaro yuk tashuvlarda o‘zining xavfsizligi, tezkorligi, ixchamligi hamda o‘zining ishonchliligi bilan muhim ahamiyatga ega hamda tashqi savdoda juda keng qo‘llanilib kelinayotgan TIR CARNET hujjatining o‘rni anchayindir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola doirasida asosan avtomobil transportida xalqaro tashuvlarni amalga oshirish jarayonlari tahlil qilinib, mazkur tashuvlar milliy iqtisodiyotga ta‘sirining o‘ziga xos jihatlari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqotning olib borish jarayonida statistic ma‘lumotlar tahlili, qo‘llanilgan atamalarning etimologik jihatlari tarixiy nuqtayi nazardan, shu bilan birga analiz, sintez usullari hamda huquqiy tushunchalarning qiyosiy tahlili bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Shuningdek, xalqaro yuk tashuvlarning bugungi kundagi tendensiyalari rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro yuk tashuvlarda TIR CARNET kitobchasi (*keyingi o‘rinlarda kitobcha deb yuritiladi*) 1975-yildan buyon qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsada, bu borada ilmiy ishlanmalar yetarli darajada emas.

⁹ [https://review.uz/oz/post/o-tashkentskom – mejdunarodnom – investicionnom - forume-komentarii-zarubejnx-ekspertov / Birinchi xalqaro Toshkent investitsiya forumi \(xalqaro ekspertlar fikrlari\).](https://review.uz/oz/post/o-tashkentskom-mejdunarodnom-investicionnom-forume-komentarii-zarubejnx-ekspertov/Birinchi-xalqaro-Toshkent-investitsiya-forumi-(xalqaro-ekspertlar-fikrlari))

¹⁰ <https://president.uz/uz/lists/view/5544> // Samarqand sammiti yakunida salmoqli hujjatlar to‘plami imzolandi.

Bu borada tadqiqot olib borilgan ishlar o'rganilganda, asosan MDH davlatlarida olib borilganligi ko'rish mumkin.

Xususan, tadqiqotchilar K.V.Xolopov hamda O.V.Sokolovalar o'z ishlarida Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqining (*keyingi o'rinlarda YeII deb ketiladi*) yagona transport makonini tashkil qilish hamda savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda kitobchani ahamiyati va o'rni borasida fikr yuritgan¹¹.

Rossiyalik tadqiqotchilar P.V.Kurenkov, A.F.Kotlyarenko, M.V.Buzulukskayalar esa kitobchalarni multimodal tashuvlar bilan bog'liq izlanishlar olib borgan. TIR kitobchalarini ushbu yo'sindagi tashuvlarni boshqa transport vositalari bilan o'zaro bog'liqligini o'rgangan. O'rganish davomida multimodal tashuvlarning bir transport vositasida (*asosan avtotransport tashuvlarda*) uzoq masofali tashuv jarayonlarida xarajat va vaqtni kamayishi natijalari ilmiy asoslab berilgan¹².

Shu bilan birga, rus tadqiqotchilaridan E.N.Fuks va V.A.Vikentevlar ham o'z ishlanmalarini YeII misolida ko'rib chiqqan holda tadqiqotlar olib borishgan bo'lib 2016-2019-yillar oralig'ida xalqaro tashuvlarni matematik-statik tahlil qilishgan. Unga ko'ra avtomobil transportida TIR kitobchalaridan foydalangan holdagi tashuvlar kamayish tendensiyasini qayd etishib, quyidagi omillar ta'sir ko'rsatayotganini qayd etishgan. Xususan,

mamlakat hududida TIR Carnetga o'xshagan milliy kafolat tizimlarini paydo bo'layotganligi;

YeII doirasida tranzit axborot tizimlarini rivojlanib borayotganligi; - bojxona tranzit tizimida rasmiylashtiruv jarayonida qog'ozsiz hujjatlarni joriy qilinayotganligi kabi omillarni sdanab o'tgan¹³.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlaridan TIR kitobchasi o'ziga xos jihatlari ochib berilgan bo'lsada, uni raqamlashtirish natijasida qanday amaliy iqtisodiy samaradorlikka erishish borasida yondasahuvlar aks etmaganini bilish mumkin.

TAHLIL NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tarixdan ma'lumki 1945-yilda ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so'ng bir qator Yevropa mamlakatlarining etakchilari urush natijasida vayronaga aylangan mintaqani qayta qurish hamda mazkur makondagi davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy

¹¹ Холопов К.В., Соколова О.В. "Использование системы МДП во внешней торговле ЕАЭС". Российский внешнеэкономический вестник. №3. 2018 й. 84-96 бетлар.

¹² Холопов К.В., Забоев А.И. Рынок международных автомобильных перевозок в Российской Федерации в 2016 г. и перспективы его развития в 2017 г. // Российский внешнеэкономический вестник. №2, 2017 й. 98-бет.

¹³ Куренков П.В., Котляренко А.Ф., Бузулуцкая М.В. Информационное взаимодействие между субъектами рынка транспортных услуг в системе смешанных сообщений // Информационные технологии на железнодорожном транспорте: Материалы третьей международной научно-практической конференции «ИНФОТРАНС-98». - СПб., 1998.- с. 149, 150.

jihatdan yuksaltirish maqsadida o‘zaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini boshlab yuborishadi. Shunga asosan, 1951-yilda ayrim Yevropa davlatlarining temir va po‘lat birlashmasi asosida birlashib, bugungi kunda iqtisodiy jihatdan qudratli makonga aylangan Yevropa Ittifoqi integratsiyalashgan xalqaro transport tizimiga zarurat yuzaga kelgan edi. Natijada 1975-yil 14-noyabrda ushbu mintaqa mamlakatlari *“Xalqaro yo‘llarda tashish kitobchasidan foydalangan holda yuklarni xalqaro tashish to‘g‘risidagi bojxona konvensiyasi”*ni qabul qilishdi. Ayni kunlarda mazkur hujjat qabul qilinishi bilan TIR CARNET kitobchalari nafaqat Yevropada balki Osiyo va Sharqiy Afrika davlatlarida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Xususan, ushbu bojxona konvensiyasiga bugungi kunda 77 ta davlat a‘zo bo‘lib, mazkur davlatlardagi 31115 ta (*shundan O‘zbekistonda 966 ta*) tan olingan milliy transport operatorlari tomonidan kitobchalar qo‘llanilib kelinmoqda¹⁴.


O‘z o‘rnida esa CARNET so‘zini eski Oksford lug‘atidan o‘rganilganda qiziq tarixiy ma‘lumotlarni ko‘rish mumkin. Mazkur so‘z Britaniya Imperiyasining Osiyo va Uzoq Sharqdagi mustamlaka davlatlari bilan o‘rnatilgan savdo-sotiq munosabatlari natijasida kelib chiqqanligi bilan o‘z ifodasini topgan. Jumladan, ingliz savdogarlari Hindiston hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatidan tovarmoddiy boyliklarini olib kelayotganda Britaniya portlaridan, mamlakat hududidiga kirayotgan paytda alohida bojxona imtiyozlariga ega bo‘lish maqsadida maxsus *“CARNET”* deb yozilgan qog‘ozdan foydalangan holda savdo sotiqni amalga oshirganlar. Boshqa manbalarda esa *“CARNET”* so‘zi etimologik jihatdan fransuz tilidan (*o‘rta asrla foydalanishda bo‘lgan davriga xos*) olingan bo‘lib, *“quernet – to‘rt bog‘lamli yoki varaqli kitobcha”* so‘zi vaqt o‘tgan sari so‘zning shakl o‘zgarishiga uchragan atama hisoblanadi. Bugungi kunda esa, so‘zning morfologik ta‘sirga uchrashi natijasida *“carnet”* shakliga kelib qolgan¹⁵. Bugungi kunga kelib, ushbu konvensiya qoidalarining tadrijiy o‘zgarishlari oqibatida 5 ustun tamoyil asosida xalqaro yuk tashuvlar jarayoniga qo‘llanilib kelinmoqda. Shunga ko‘ra xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra kitobchadan foydalanishda tashqi savdoda ketadigan vaqtning 80% hamda xarajatlarning 38 % ga qisqarishi amaliyotda o‘zining isbotini topgan. Bundan tashqari, jahon logistika bozorida yuk tashish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar yillik 210 dan 250 mlrd. AQSH dollarigacha baholanib, Xalqaro Jahon Bankining prognozlariga ko‘ra esa 2018-2024-yillar oralig‘ida dunyo logistika sanoatining qiymatini doimiy o‘sib borishi bo‘yicha baholamoqda (*2019-2020-yillarda boshlangan COVID-19 pandemiya davrini hisobga olmaganda*)¹⁶.

¹⁴ Е. Н. Фукс, В. А. Викентьев. Система таможенного транзита во внешнеторговой деятельности Евразийского Экономического Союза в современных условиях. Технология и система таможенного контроля. Вестник Российской Таможенной Академии. №1 2020 й. 87-94 бетлар.

¹⁵ Israilov Fazil Ismailovich. Avtomobil transportida yuklarni tashishda zamonaviy tizimlarini joriy etish samaradorligi. Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali, Namangan muhandislik qurilish institute, Maxsus sjn – 2023, № 2 (5) 88-bet.


¹⁶ F.I. Israilov. A.Ya.Norqulov. Yuklarni iste‘molchi manziliga yetkazib berish jarayonini boshqarish modeli. Academic Research in Educational Sciences 2(1), 01.2021. 567- 574.

Shuningdek, o'zining tashqi savdosida jahonda AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi Xitoy Xalq Respublikasining 2016-yilda mazkur konvensiyaga a'zo bo'lishi bilan, Janubiy Yevropa bilan Janubi-Sharqiy Xitoy o'rtasida avtomobil transportida tashuv vaqti 16 kunga qisqarishi, mazkur hujjatni davlatlararo xalqaro integratsiyaga qay darajada o'zining ijobiy ta'sir ko'rsatilishi bilan izohlash mumkin¹⁷.



1-rasm. 2018-2024-yillar jahon transport-logistika tarmog'i xizmatlarining prognoz ko'rsatkichlarining qiymati (trln. AQSH dollari hisobida)

Shu asnoda, mazkur kitobchadan jo'natuvchi bojxona organida och sariq varag'i yirtib olinib qo'yib, qabul qiluvchi bojxona organida och yashil varag'i olib qo'yiladi. Misol tariqasida olinadigan bo'lsa, Tojikistondan "paxta xom ashyosi" tovari avtomobil transportiga Turkiyaga O'zbekiston-Turkmaniston-Eron davlatlari orqali eksport qilinganda TIR kitobchasining qo'llanilishi quyidagicha bo'ladi.



2-rasm. TIR kitobchasidagi rangli varaqlarning rasmiylashtiruv chizmasi

Bunda 1- Tojikiston "paxta xom ashyosi" tovari yuklangan joyda faoliyat olib boruvchi bojxona organi kitobchanning och sariq varag'ini rasmiylashtirib, kitobchadan uni ajratib olib, mamlakatdan chiqib ketish uchun esa yashil varag'i belgilangan joyidan qirqib olinadi. Xuddu shu tartibda tranzit davlatlarning kirishida sariq, chiqishida esa yashil varaqlari qirqib olinib, tashqi savdo yukining oxirgi manzilida qabul qilib oluvchi bojxona organi esa yashil betini olib qolinadi.

O'z navbatida, varaqlar soniga qarab kitobchalar o'zining konvensiyaga a'zo davlatlarining har biri uchun standartlashgan narxlariga ega. Mazkur hujjat 2022-yil 20-sentabr holatida O'zbekiston milliy tashuvchilari uchun 6 varaqlisi 33,21 hamda 14 varaqligisi 66,71 AQSH dollaridan sotilmoqda¹⁸. Shuningdek, olib borilgan izlanishlar

¹⁷ Ilkhom Umirov, Urazov Bekzod, Utkirjon Rakhmatov, Israilov Fazil, Dildora Zukhurova "Analysis of Practical Calculation Methods of External Speed Characteristics of Engine" INTERNATIONAL CONFERENCE PTLICISPWS-2 Scopus & Web of Science indexed May, 2023

¹⁸ <https://www.statista.com/statistics/943517/logistics-industry-global-cagr/> Size of the global logistics industry from

tahlili shuni ko'rsatmoqdaki davlatlarning milliy tashuvchilari tomonidan ishlatilgan TIR CARNETlarning ulushi asosan Yevropa davlatlarining ulushiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra 2001-yildan buyon dunyo mamlakatlari bo'ylab tarqatiladigan kitobchalarning 55-60 foizi Yevropa davlatlarining milliy tashuvchilari tomonidan foydalanib kelinmoqda. Jumladan, IRU ma'lumotlari o'rganilganda 2001-2021-yillar davomida tashkilot tomonidan tarqatilgan 48 787 798 ta TIR kitobchalaridan to'rtinchi qismi ya'ni 36 626 099 tasi Yevropa mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi¹⁹. Mazkur yillar davomida ishlatilgan kitobchalarning asosiy ulushi Turkiya (9 287 999), Polsha (4 368 000), Rossiya (7 135 400), Ukraina (4 815 700) hamda Belorossiya (3 081 849) kabi davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, e'tiborli tomoni shundaki tarqatilyotgan kitobchalarning ko'lami 2012-yildan so'ng keskin tushib ketganligini ko'rish mumkin. Xususan, ishlatilgan kitobchalar soni 2010-2021-yillar oralig'ida raqamlarda ko'riladigan bo'lsa yildan-yilga 15-20 foizga kamayib bormoqda.

1-jadval

2010-2021-yillarda IRU tomonidan O'zbekiston hamda dunyoning ayrim davlatlariga tarqatilgan TIR CARNET kitobchalarining soni


	2012-y	2013-y	2014-y	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y
Turkiya	685000	540500	385500	325100	213900	200000	189000	200000	55000	96999
Rossiya	598000	529700	300400	163900	137800	122600	121000	95200	83200	62000
Eron	85000	105000	90000	85000	118000	115000	165000	85000	120000	100000
Ukraina	376800	434000	95000	154500	140700	143600	106000	103500	71500	109500
O'zbekiston	17500	7500	9000	9000	27000	14000	32400	43000	89000	115000
Jami	3158300	2920150	1945050	1500450	1223400	1154650	1020650	858100	679300	

O'zbekiston Respublikasida mazkur jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF- 6005-sonli Farmonidagi aniq belgilangan tadbirlarda o'z ifodasini topgan.

2018 to 2024. 10. D.Parkinson, J.Noble. Oxford Business English Dictionary. 2006 й. Oxford university press. 644 б. 79- bet.

19 <https://www.iru.org/news-resources/newsroom/tir-trade-corridor-betweenchina-and-spain-ready-business> // TIR trade corridor between China and Spain ready for business.


Xususan, mazkur Farmon asosida “ye-TIR” loyihasi sinov tariqasida ilk bor 2020-yilning noyabr oyida O‘zbekiston va Qozog‘iston, 2021-yilning may oyidan esa, O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi tashuvlarda qo‘llanila boshlandi.



3-rasm. 2010-2021-yillarda ishlatilgan TIR CARNET kitobchalarining soni

Kelgusida O‘zbekiston bilan Pokiston, Eron, Xitoy, Qirg‘iziston o‘rtasidagi tashuvlarda ham ushbu loyiha amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek e‘tiborli tomoni shundaki, oxirgi yillarda O‘zbekiston milliy tashuvchilari tomonidan TIR kitobchalaridan foydalanish sezilarli darajada oshganligini ko‘rish mumkin. Chunonchi, 2001-2021-yillar mobaynida o‘zbek tashuvchilari 415700 ta TIR kitobchalaridan foydalanilgan bo‘lsa, shundan 2021-yilda 115000 ta kitobchadan foydalanib, boshqa davlatlarga nisbatan eng ko‘p TIR KARNETlardan xalqaro tashuvlarda qotashuvlarida o‘z o‘rnini ijobiy tomonga o‘zgarayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan, quyidagi diagramma orqali o‘zbek tashuvchilarining so‘nggi 10 yillikda foydalanilgan kitobchalarning dinamikasini bilish mumkin.

Shu bilan birga kitobchalarning milliy tashuvchilar tomonidan eksport yo‘nalishida xalqaro tashuvlarda qo‘llanilganda tranzit davlatlarida bojxona kuzatuv hamda ba‘zi bojxona tartibotlaridan ozod etilishini nazarda tutish lozim. Jumladan, bugungi kunda O‘zbekiston bilan chegaradosh barcha davlatlarda (*shuningdek O‘zbekistonda ham*) mazkur kitobchani qo‘llagan holda xalqaro yuklar tashilganda bojxona kuzatuv va nazorati shakllaridan ozod etilishi ma‘lum. O‘z navbatida, yuqorida qayd etilganidek TIR KARNET kitobchasining milliy tashuvchilari tomonidan qo‘llanilishi xalqaro yuk tashuvlar vaqtining 80, xarajatlarining esa 38 foizga qisqarishini ta‘kidlash joiz. Tahlillarga kelib chiqib, mazkur kitobchadan qo‘llanilganda xalqaro tashuvlarda mamlakat imidjini va salohiyatini yaxshilash maqsadida muhim huquqiy vosita bo‘lib qolmoqda.



4-rasm. O‘zbekiston milliy tashuvchilari tomonidan amalga oshirilgan xalqaro tashuvlarda TIR KARNET kitobchalarining o‘rni

Raqamli diagrammadan ko‘rish mumkinki, avtomobil transportida milliy tashuvchilar tomonidan umumiy hisobda qo‘llanilgan TIR CARNETlar 2017-yilda 15 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 22 foizli ko‘rsatkichga erishgan²⁰. Boshqacha aytganda, o‘zbek tashuvchilarining har beshta tashuvlaridan faqatgina bittasi mazkur “imtiyozli” kitobchalardan foydalanilayotganini ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rish mumkinki, TIR KARNETsiz harakatlangan milliy tashuvchilar oraliq tranzit davlatlarining bojxona ma‘muriyatchiligining (*ma‘lum bir tarif stavka asosida bodxona kuzatuv, tovarlar tekshirish bilan bog‘liq xarajatlar*) qo‘llanilishiga olib kelib, tashqi savdo yuklarini ortiqcha xarajatlar bilan dunyo bozoriga kirib borishiga olib keladi.

XULOSA

Tahlillardan kelib chiqib xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekistonda xalqaro tashuvlarda qo‘llanilayotgan TIR KARNET kitobchasining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatmoqda. Istiqbolda esa, tashqi savdo yuklarini, ayniqsa milliy eksport mahsulotlarini o‘zbek tashuvchilari tomonidan TIR kitobchalari asosida tashilishida tashish xarajatlarning kamayishi natijasida O‘zbekiston tovarlarining jahon bozorida o‘z o‘rni va raqobatbardoshligini ishonchli mutahkamlashga olib keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar beriladi:

O‘zbekiston eksport yuklarini tashishda “TIR CARNET” kitobchasi bilan bog‘liq xarajatlarni davlat tomonidan kompensatsiya asosida qoplab berish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

ShHT davlatlari makonida “e-TIR” loyahasini ishga tushirish bo‘yicha tashabbusni mintaqaviy tuzilma doirasida o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan xalqaro anjumanlarning kun tartibiga qo‘yish.

Mazkur takliflar amaliyotda o‘z aksini topganda ochiq dengizga chiqishda imkoniyati cheklangan (ikki karra yopiq) O‘zbekiston eksportyorlarini moliyaviy jihatdan rag‘bantlantirish, natijada esa milliy mahsulotlarni dunyo bozorida raqobatbardoshligini oshirishga erishish mumkin.

²⁰ <https://unece.org/tir-carnet-prices> // TIR Carnet Prices.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Contribution of Transportation to the Economy: Final Demand Attributed to Transportation. [https:// data. bts. Gov / stories / s / Transportation-Economic-Trends-Contributionof-Tra/pgc3-e7j9 /](https://data.bts.gov/stories/s/Transportation-Economic-Trends-Contributionof-Tra/pgc3-e7j9/)
2. Birinchi xalqaro Toshkent investitsiya forumi (xalqaro ekspertlar fikrlari) / [https:/ review.uz/oz/post/o-tashkentskom – mejdunarodnom – investicionnom - forume-kommentarii-zarubejnx-ekspertov/](https://review.uz/oz/post/o-tashkentskom – mejdunarodnom – investicionnom - forume-kommentarii-zarubejnx-ekspertov/)
3. Samarqand sammiti yakunida salmoqli hujjatlar to‘plami imzolandi / <https://president.uz/uz/lists/view/5544 //>
4. Холопов К.В., Соколова О.В. “Использование системы МДП во внешней торговле ЕАЭС”. Российский внешнеэкономический вестник. №3. 2018 й. 84-96 бетлар.
5. Холопов К.В., Забоев А.И. Рынок международных автомобильных перевозок в Российской Федерации в 2016 г. и перспективы его развития в 2017 г. // Российский внешнеэкономический вестник. №2, 2017 й. 98-бет.
6. Куренков П.В., Котляренко А.Ф., Бузулуцкая М.В. Информационное взаимодействие между субъектами рынка транспортных услуг в системе смешанных сообщений // Информационные технологии на железнодорожном транспорте: Материалы третьей международной научно-практической конференции «ИНФОТРАНС-98». - СПб., 1998.- с. 149, 150.
7. Е.Н.Фукс, В. А. Викентьев. Система таможенного транзита во внешнеторговой деятельности Евразийского Экономического Союза в современных условиях. Технология и система таможенного контроля. Вестник Российской Таможенной Академии. №1 2020 й. 87-94 бетлар.
8. Israilov Fazil Ismailovich. Avtomobil transportida yuklarni tashishda zamonaviy tizimlarini joriy etish samaradorligi. Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali, Namangan muhandislik qurilish institute, Maxsus sijn – 2023, № 2 (5) 88-bet.
9. F.I. Israilov. A.Ya.Norqulov. Yuklarni iste’molchi manziliga etkazib berish jarayonini boshqarish modeli. Academic Research in Educational Scinces 2(1), 01.2021. 567- 574.
10. Ilkhom Umirov, Urazov Bekzod, Utkirjon Rakhmatov, Israilov Fazil, Dildora Zukhurova “Analysis of Practical Calculation Methods of External Speed Characteristics of Engine” INTERNATIONAL CONFERENCE PTLICISPWS-2 Scopus & Web of Science indexed May, 2023
11. Size of the global logistics industry from 2018 to 2024. 10. D.Parkinson, J.Noble. Oxford Business English Dictionary. 2006 й. Oxford university press. 644 б. 79- bet. / <https://www.statista.com/statistics/943517/logistics-industry-global-cagr/>

12. TIR trade corridor between China and Spain ready for business / <https://www.iru.org/news-resources/newsroom/tir-trade-corridor-betweenchina-and-spain-ready-business> //
13. TIR Carnet Prices / <https://unece.org/tir-carnet-prices> //
14. Total amount of TIR Carnets issued by IRU to National Associations 2001 – 2021 / [https://unece.org/tir-carnets-//](https://unece.org/tir-carnets-/).

DIGITAL LOGISTICS: POSSIBILITIES OF SMART CONTRACTS IN THE ORGANIZATION OF INTELLECTUAL TRANSPORT SYSTEMS

Ekhsonov Jasur Rustamovich

Head of the Department of Quality control of education, Kokand branch of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

ehsonov_j@tdtukokand.uz

Abstract: The article is devoted to the review and analysis of the blockchain technology used in operating systems during the revolutionary transformation of logistics 4.0. It is noted that blockchain technology is the conceptual and technological basis of the Fourth Industrial Revolution; On its basis, many modern technologies are being introduced that determine the vector of transport and logistics development. The main areas of implementation of blockchain in the field of transport logistics are given: asset management, supply chain management, smart contracts, supply chain, data exchange, creating charts and tables, cargo certification. The integration of blockchain technology and smart contracts will be considered. A step-by-step structure of the transition of the transport logistics system to the blockchain is presented. The main principles that must be followed in the introduction of blockchain in the transport 4.0 revolution have been identified.

Keywords: *digital logistics, smart contracts, 7R, blockchain, strategy, transformation, talent for 4IR, Industry 4.0.*

RAQAMLI LOGISTIKA: INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINI TASHKIL QILISHDA AQLLI SHARTNOMALAR IMKONIYATLARI

Exsonov Jasur Rustamovich

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali
“Ta’lim sifatini nazorat qilish” bo‘limi boshlig‘i*

ehsonov_j@tdtukokand.uz

Annotatsiya: Maqola logistikaning to‘rtinchi inqilobiy o‘zgarish davrida operatsion tizimlarda qo‘llaniladigan blokcheyn texnologiyasini ko‘rib chiqish va tahlil qilishga bag‘ishlangan. Qayd etilishicha, blokcheyn texnologiyasi To‘rtinchi sanoat inqilobining kontseptual va texnologik asosi hisoblanadi; Uning asosida transport va logistika rivojlanish vektorini belgilovchi ko‘plab zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Transport logistika sohasida blokcheynni amalga

oshirishning asosiy yoʻnalishlari berilgan: aktivlarni boshqarish, taʼminot zanjiri boshqaruvi, aqlli shartnomalar, taʼminot zanjiri, maʼlumotlar almashinuvi, jadvallar va ularni yaratish, yuklarni sertifikatlash. Blokcheyn texnologiyasi va aqlli shartnomalar integratsiyasi masalalari koʻrib chiqiladi. Transport logistika tizimi blokcheynga oʻtish jarayonining bosqichma-bosqich tuzilishi taqdim etiladi. Transport 4.0 inqilobida blokcheynni joriy etishda amal qilinishi kerak boʻlgan asosiy tamoyillar aniqlandi.

Kalit soʻzlar: raqamli logistika, aqlli shartnomalar, 7R, blokcheyn, strategiya, transformatsiya, isteʼdod, Sanoat 4.0.

ЦИФРОВАЯ ЛОГИСТИКА: ВОЗМОЖНОСТИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СИСТЕМ

Эхсанов Джасур Рустамович

Начальник отдела «Контроль качества за образования» Кокандского филиала Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова

ehsonov_j@tdtukokand.uz

Аннотация: Статья посвящена обзору и анализу технологии блокчейн, используемой в операционных системах в ходе революционной трансформации четвертой революции логистики. Отмечается, что технология блокчейн является концептуальной и технологической основой Четвертой промышленной революции; на его основе внедряются многие современные технологии, определяющие вектор развития транспорта и логистики. Приведены основные направления внедрения блокчейна в сфере транспортной логистики: управление активами, управление цепочками поставок, смарт-контракты, цепочка поставок, обмен данными, создание диаграмм и таблиц, сертификация грузов. Будет рассмотрена интеграция технологии блокчейн и смарт-контрактов. Представлена пошаговая структура перехода системы транспортной логистики на блокчейн. Определены основные принципы, которых необходимо придерживаться при внедрении блокчейна в транспортную революцию 4.0.

Ключевые слова: цифровая логистика, смарт-контракты, 7R, блокчейн, стратегия, трансформация, талант, Индустрия 4.0.

INTRODUCTION

Time is one of the most precious resources available to mankind. Everyone has the same amount of time. It is not possible to aggregate, divide, or transfer it. Time, apart from information, is a driving force for constant changes in humans, organizations and the environment. Thanks to time, the present fate of the world is

shaped by the forces and achievements of technology, which only a few decades ago was just a matter of futurologists' deliberations [1].

Currently, one of the main reasons for the acceleration of the processes of radical transformation of the logistics system is the need for technologies that bring the communication between the manufacturing company and the customer to a modern interface, which is about to step into the 5th industrial revolution in the era of globalization.

When discussing Logistics 4.0, system automation is understood. Operators and devices will communicate with each other, vehicles will move autonomously from one place to another, and the goods selected by the customer will be sorted from the shelves using artificial intelligence technology. Of course, it is natural that such situations seem futuristic in most cases. Digitization increases the efficiency of processes in transport logistics, prevents the shortage of qualified personnel and saves time. However, digitization only supports logistics rather than replacing entire operations. More importantly, changing workloads make it difficult to meet increasing demand with technology alone. In the near future, logistics will play a central role as a continuous source for customers, but skilled employees will always be the most important asset.

LITERATURE REVIEW

The main reason for the appearance of digital logistics is [5].

1. Lack of perfect technical skills. Product innovation is the driving force behind today's national economy, but in order to monetize this product innovation, organizations must exploit the market, which only happens when consumers attach value to these products that are worth buying. Therefore, in today's competitive business environment, organizations need employees who not only have the scientific knowledge to create product innovations, but also understand human nature to help them recognize the needs of consumers. That is, to take advantage of Industry 4.0 and adapt to the changing nature of innovation, organizations need employees who can understand, use and develop new work designs. The latest digital transformation is creating a number of new roles in organizations, which will require new employee skills. Therefore, it is not only about developing a "digital workforce" for the future, but it must be able to develop a future workforce that can see the "big picture", adapt immediately, think and work innovatively [2].

2. Challenges in infrastructure development. In the transport system, business models are management tools that facilitate the creation, expansion and maintenance of its value. In recent years, there has been a great interest in smart and connected business models, especially IoT business models, as they increase competitive advantage. There are many challenges in these business models. For example, connecting different devices and developing standards or ensuring information security

are some of the challenges of smart and connected business models. Business models in the field of transport logistics are a tool to help overcome these challenges [3].

3. Collaboration and team work. The era of Transport 4.0 requires all employees, even those employed in low-skilled jobs, to have a set of ICT skills. However, Transport 4.0 requires key employee skills to include more than basic skills; In fact, for hard skills to be successful, employees must have soft skills such as collaboration, communication, and autonomy to perform their jobs in hybrid operating systems [2].

Today, digitization should create great opportunities for increasing the efficiency of services provided by companies and reducing costs. The first direction of digitalization of transport is computerization of transport companies and automation of processes. Digitization is mainly manifested in transport management systems, customer relationship management, and enterprise resource planning systems that allow for the automation of administrative processes. Robotic process automation is also a growing technology. It is an advanced software-based technology used to automate repetitive activities, such as the preparation of transport documents. About 78% of representatives of global transport and logistics companies plan to take steps to automate tasks and positions to ensure the effective implementation of company goals [3].

MATERIALS AND METHODS

Digital logistics


The field of logistics allows you to manage a company, including a number of activities such as demand analysis, sales planning, supply requirements, inventory management of goods, and distribution of finished goods. The need for technological and strategic development for logistics and the emergence of the fourth industrial revolution have created a number of problems. These can accelerate the integration of technology into all logistics processes. This leads to the emergence of a new concept called "digital logistics" or "logistics 4.0". According to Yassine Issaoui, smart/digital logistics emphasizes that planning and control with smart tools and methods is one of the key factors. He confirmed that the intelligence level will find solutions through applications and methods to identify the products traceability and elements of its environment, until the level of problem identification, selection and resolution is done automatically. On the other hand, Uckelmann builds on the concept of smart product and smart service to define smart/digital logistics. For example, it discusses the use of technology to obtain information about the flow of material, and then process it for monitoring, control and other purposes. With smart asset tracking tools and equipment, entire supply chains are becoming more efficient and profitable by recording various changes. Because significant end-to-end visibility, improved product direction, control and replenishment of inventory and mobile assets, and detailed management of the

marketing experience pave the way for complete system management. It makes the above changes to ensure companies have clear visibility into product information when purchasing, storing, manufacturing and shipping. In most cases, this requires the use of asset tracking tools supported by sensors that provide real-time information [12].

Blockchain

During the fourth industrial revolution, Blockchain technology is included among smart and digital technologies. This technology aims to store and transfer data in a secure, more transparent and decentralized manner. It is a distributed database or public/private ledger of all digital events managed and shared among the agents/agents participating in the blockchain. Technically, Blockchain is a distributed system that stores all the transactions made since its inception in the form of blocks. These consist of information submitted by users. These data transactions are protected by cryptographic algorithms. Blockchains can be generalized and used to enforce an agreed set of rules that cannot be broken by anyone, neither users nor system operators. They rely on a single platform of system architecture for multipart applications that do not require mutual trust. Blockchain technology is characterized by decentralization of data by ensuring a high level of data security. Trust is one of the main results of decentralization, there is no need to evaluate the trustworthiness of an intermediary or other network participant, so the data is easy to use and verifiable. Also, adding a new transaction involves more interactions with other nodes in the chain. As shown in Figure 1, the operation of inserting a new block is characterized by the non-localization of nodes, the consistency of the operation, and the security of the records [10].

Blockchain technology has a significant impact on various systems in the era of globalization. Notably, it is being utilized in the transportation industry for digitizing services and implementing similar operations, leading to positive socio-economic outcomes. This technology aims to achieve mutually beneficial results by minimizing human intervention, which can lead to transparent and unbiased decision-making, minimize errors, and reduce costs.



Picture 1. The sequence of smart contracts in the logistics system through blockchain technology²¹

If we consider the economic aspects, it's important to question the amount of money spent on the traditional method of signing contracts and hiring experts to study the bilateral demands or offers. If an expert is allocated 1.0 million soums in national currency in the traditional method, the costs in the proposed method, including the electronic platform, network, and financial resources allocated to the expert, is about 0.50-0.70 million. In most cases, lawyers are required. Ultimately, this method justifies its economic benefits for 0.3 million soums. For example, the need for logistics services (highway, railway) in the Fergana Valley is significantly increasing, with an average of 60-80 contracts per day on 25.01.2024. If the entire process is covered, it could save 24.0 million soums per day. It is recommended to study the social and economic aspects of the process, analyze the new generation of contracts and deals to avoid corrupt situations, and acknowledge the uniqueness of digital technologies.

RESULTS

Today, visualization technologies are mainly used in industries as diverse as video games, tourism, and recently the topic is starting to be considered in the context of building quality management systems, planning assembly lines, and organizing logistics and supply chain activities for smart factories.

Transport 4.0 is defined as an increasingly autonomous transport because it is strongly based on automation and autonomization, and at the same time, focused on a gradually decreasing negative impact on the environment, the process of movement along with all accompanying activities, taking place in a networked environment. In present world increasingly dependent on safe, economical, and environmentally

²¹ Performed by author

friendly transport, companies have to face many new challenges related to technological progress. According to the results of the PwC “21st CEO Survey,” presented in the report “Transport of the Future” (PwC), “As much as 68% of CEOs of global transport and logistics companies expect changes in key service delivery technologies to have a breakthrough impact on their business” [3].

If we consider smart contracts as a technology that covers the entire process cyclically, it is necessary to analyze the decision-making panels involved in the development of this sequence.

The process starts with the customer sending a signal indicating their need for a product or service. This signal is used to assign a unique order number, and the first block of data is created to reflect the customer's choice. The following steps involve assembling the item, packaging it, and controlling its temperature. The item is then delivered to the warehouse, where it is given another unique identification number and undergoes quality control checks. The item is then packaged again, and its temperature is checked once more before being assigned to the customer's order number, customer ID, and date of receipt. Finally, an invoice number is generated and provided to the customer. Quality control checks are conducted at every third step of the process to ensure that the supplier receives payment as per the prescribed terms.

DISCUSSIONS

If we pay special attention to the fact that the "Digital Logistics" system provides an opportunity to control the execution of contracts, it connects the approaches of intermediate and final events related to the execution of the contract. In addition, it includes processes such as the initiation of transportation, transportation of agreed consignments, dispatch and adherence to the transportation schedule. As a result, the transparency of decisions to fulfill the terms of the contract and close/cancel the contract by the involved participants is ensured. Consumers of services can evaluate the quality of services provided by suppliers by criteria (conditions, quality, price/quality parity) that allow to create a service quality assessment system together with performance indicators through contracts. By suppliers - the ratings of service providers and their consideration when choosing offers are an important factor. The service organizes rating indicators for customers (similarly to Uber, Ebay, AliExpress systems). Ratings make it possible to identify unscrupulous companies and reduce losses due to their activities, without reducing the work efficiency of diligent participants of the "Digital" system. Blockchain is a distributed file store designed to store large volumes of data (documents, contracts, etc.). External information systems (shipping, logistics, unloading - loading terminals, ports, etc. - through which cargo tracking is carried out) ensure the division of the selected microservice architecture space into cooperative sets between microservices [9].

The outcomes obtained from these phases hold significant importance for the reorganization and improvement of logistics processes in the future. In reality, the evolution of the logistics industry does not rely on a single factor. It is influenced by several factors which include human resources, selective adoption of advanced technologies, analysis of market segments, application of an analytical approach, and fostering a positive social environment within the team.

In today's era of globalization, it is the responsibility of every responsible individual to enhance existing systems and explore new strategies. This momentum will eventually create an impact. Additionally, it would be beneficial to define risk management by maintaining a unique statistical and dynamic record.

If we categorize the digitalization of logistics processes influenced by smart contract and blockchain technology into generations, the sequence of advancement is reflected as follows:

Blockchain 1.0 refers to the emergence of cryptocurrencies, which are a type of digital currency used for the creation, confirmation and control of transactions through cryptographic methods. Cryptocurrencies have a high liquidity and up-to-date exchange rate, and can perform all the functions of traditional money. They are also widely used in various applications, money transfer systems, and digital payments.

Blockchain 2.0 refers to the advancement of smart contracts. This technological innovation has led to the emergence of a new class of economic and financial applications that are based on a distributed ledger. This allows for the handling of smart assets and smart contracts in managing bills, stocks, futures, bonds, collateral, and other related areas.

Sun’iy intellekt yordamida binoda insonlarning ruhiyatiga asoslangan rang tanlash uslubini yaratishda tajribali mutaxassislar, psixologlar va dizaynerlar ham ishtirok etishi kerak. Ushbu jamoatchilik faoliyatlarining amaliy qismi shuningdek, insonlar bilan o‘zaro muloqotlar va anketalar o‘tkazishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu, to‘plangan ma’lumotlarni validatsiya qilish va o‘qitish modellarini ta’minlashda yordam beradi.

XULOSA

Sun’iy intellekt ranglarni tanlashda har xil metodlardan foydalanishi mumkin. Bu metodlar o‘quvchilar, o‘qituvchilar va dizaynerlar tomonidan qo‘llanilgan ma’lumotlar bazasidan, algoritmik tasvir va analizlar, va hamma narsani birlashtirish tizimlari (neural networks) kabi texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Quyidagi asosiy asoslar sun’iy intellektning ranglarni tanlashda qo‘llab-quvvatlanishi mumkin:

1. Ma’lumotlar bazasidan foydalanish: Sun’iy intellekt, bir nechta ma’lumotlar bazasidan, masalan, mamlakatlar, kultur va tarixiy ko‘rib chiqishlar, modalar, psixologik o‘tishlar va boshqalar kabi, ma’lumotlarni olish uchun ishlatiladi. Bu ma’lumotlar, ranglarni tanlashda ta’sir qiladigan chizishlar va tendensiyalar haqida keng ma’lumotlar berishi mumkin.

2. Algoritmik analizlar: Sun’iy intellekt, statistik analizlar, ma’lumotlar tahlili va shuningdek boshqa algoritmik usullar orqali, ranglarni tanlashda ta’sir qiladigan

muhim faktorlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu, ranglarni tanlashda tajribiy tahlil va tahmin qilishda yordam beradi.

3. Algoritmilar va masofavi tan olish: Sun'iy intellekt, algoritmilar va masofavi tan olish usullari orqali ranglarni tanlashda foydalanishi mumkin. Masofavi tan olish, bir nechta ranglar orasida ta'sirli aloqalarni aniqlash uchun ishlatiladi va tasviriy san'atda rang kombinatsiyalarini optimallashtirishda muhimdir.

4. Tizimlarning o'rganish qobiliyati: Hamma narsani birlashtirish tizimlari (neural networks) va sun'iy o'qish modellari, tasviriy san'atda ranglarni tanlashda foydalaniladi. Ular, o'quvchilar va dizaynerlar tomonidan qo'llanilgan ma'lumotlar va tajribalarni o'rganish va tahlil qilishda yordam beradi.

Sun'iy intellekt, ranglarni tanlashda aniq va o'qituvchilar, o'quvchilar va dizaynerlar talablariga mos ravishda muhim algoritmilar va analizlarni o'rganishda, shuningdek, yangi va ajoyib dizaynlar yaratishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sultonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 109-115.

2. Muradov Sirojiddin Husan o'g'li, Xakimov Xurshid Hamidulla o'g'li, & Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. (2021). NEW INNOVATIVE ENGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 2, 28-30. Retrieved from <http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/13>

3. Rayimkulov A., Murodov S. Some Issues of Safety in the Use of Tower Cranes Used in Construction Projects //JournalNX. – C. 301-308.

4. СИРОЖИДДИН М. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ БЕЗОПАСНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ГРУЗОПОДЪЕМНЫХ КРАНОВ В СТРОИТЕЛЬНО-МОНТАЖНЫХ РАБОТАХ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 167-177.

5. Muradov S. CONSTRUCTION-INSTALLATION ISHLARIDA KUTARAMA KRANLARDAN USE FUNDAMENTAL SECURITY OF SUPPLY //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 786-792.

6. Muradov, S. (2024). ASSESSMENT OF THE CHEMICAL SITUATION IN AN ACCIDENT IN FACILITIES USING KTZM. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 1142–1152. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10701651>

7. Muradov S., Usmonov H. MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING RIVOJLANISH TARIXIY BOSQICHLARINI O'RGANISH //Interpretation and researches. – 2024.

8. Muradov S. ECONOMIC ANALYSIS OF PROFITS IN THE FIELD OF LABOR PROTECTION //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 1239-1245
9. Xidirova Dildora, Muradov Sirojiddin. O‘zbekiston respublikasi hududida seysmoaktiv hududlar va zilzilaning xavfliligi//Innovative Development in Educational Activities. 2024. 167-172

TARIX FANINI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Userbayeva Feruza Inoyat qizi

Chirchiq davlat pedagogika unversiteti talabasi

feruzauserbayeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda tarix fanini o'qitilish tizimida zamonaviy texnologiyalarni o'rni va qo'llanilishiga qaratilgan fikrlarimiz o'rin olgandir. Hamda zamonaviy ta'lim tizimini barqarorlashtirish bugungi kun zamon talabiga moslashdagi zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ko'zlangan natijalar hususidagi fikrlarga ham alohida urg'u berib o'tiladi. Bu fikrlarni ilmiy tasnifiga aynan tarix o'qitilish zamonaviy uslublari jumlasidan yondoshiladi.

Kalit so'zlar: *texnologiya, amaliyot, fan, uslub, yo'nalish, ta'lim, dastur, tarix.*

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ

Усербаева Феруза Иноят кизи

Студентка Чирчикского государственного педагогического университета

feruzauserbayeva@gmail.com

Аннотация: В данной статье изложены наши размышления о месте и использовании современных технологий в системе исторического образования сегодня. При этом будет подчеркнута роль современных технологий в стабилизации современной системы образования и ожидаемых результатах. К научной классификации этих идей приближаются с позиций современных методов преподавания истории.

Ключевые слова: *технология, практика, наука, метод, направление, образование, программа, история.*

THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE HISTORY TEACHING SYSTEM

Userbayeva Feruza Inoyat kizi

Student at Chirchik State Pedagogical University

feruzauserbayeva@gmail.com

Abstract: This article contains our thoughts on the place and use of modern technologies in the history education system today. At the same time, the role of modern technologies in the stabilization of the modern education system and the expected results will be emphasized. The scientific classification of these ideas is approached from among the modern methods of teaching history.

Key words: *technology, practice, science, method, direction, education, program, history.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining barcha shakl va turlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy-metodik jihatdan to'la ta'minlagan holda erishish mumkin. Tarix ta'limi tizimi sohasiga tashqi tomondan doimo bo'lib turadigan o'zgarishlar amaldagi ta'lim tizimi oldiga fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish madaniyat va kundalik pedagogik amaliyot talabalarining ko'nikuvi muammolarini uzluksiz ravishda ko'ndalang qo'yimoqda. Shu munosabat bilan tarix ta'limi tizimida tarix fanining tadqiqot jarayoni samaradorligini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini zamonaviy o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish, ta'lim mazmunini shakllantirish va uzluksiz ta'lim b'g'inlariga moslab davlatstandartlari tuzib chiqishga kirishilgan va u har fan xususiyatidan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizdagi ta'lim tuzilishi va mohiyati, kadrlar tayyorlash isloh qilish tarix fani oldiga ham aniq vazifalar qo'ydi. Bunday vazifalar qatoridagi

Respublikaning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi, fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi muvoffaqiyatlar istiqbollarini hisobga olgan holda tarbiyalash va ta'lim berishning maqsad, mohiyat, usul, vosita va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash bilan bog'liq muammolarning barcha majmuasi kiradi. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturiga muvofiq tarix fani va amaliyoti oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim tizimida rivojlanishning maqsad, vazifa hamda istiqboli yo'nalishlarini amalga oshirish barkamol, o'zini takomillashtirishga, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarini xal etishga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassisni shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Bulardan tashqari, Respublikamizda tarix fanining asosiy maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bozor islohati, milliy-madaniy va an'anaviy xususiyatlar, ma'naviy-ahloqiy va ilmiy me'rosimiz, umuminsoniy qadriyatlarni hisobga olgan holda ta'lim tizimini tashqil qilish samarali natija beradi [1].

Zamonaviy ta'lim tizimini tashkil etish bugungi kunning asosiy talablaridan biriga aylanmoqdadir. Bugungi kun nuqtaiy nazari bilan qaralsa ham ushbu tizimning barqarorlashtirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Shu jihatdan tarix

fanini o'qitilish tizimida ham zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish natijasida kutilgan natijalarga erishish mumkindir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugun mamlakatimiz istiqlolni sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy Dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda "Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlanadi" [2]. O'zbekistan Respublikasi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati ko'rish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik tushunchaning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz. Gap zamonaviy texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash xususida borar ekan, u maktablarning moddiy texnik ta'minotiga ham o'z talabini qo'ydi.

Mashg'ulotlarni guruhlariga ajratib va individul o'tish uchun o'quvchilarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash, qo'l mehnati, amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni ko'zda tutish muhimdir. Shuningdek, o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishi, kerakli materiallardan foydalana olishi uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop jurnallar, gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishlari uchun boy fondga ega bo'lgan kutubxona, uning ishini yengillashtirish uchun sinf xonalari kompyuter bilan ta'minlanishi ham muhimdir [3]. Albattaki bu maktab tarix fannini o'qitilish tizimidan boshlanganligi aynan maqsadga muvofiqdir. Texnologiyalardan keng foydalanish bilan birga o'quvchi yoshlarni dars jarayoniga jalb qilishga ham erishish samarali natija beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiya masalalarilarni o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchi. muammolarning fikricha pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq. hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan ISO, kompyuter, masofali o'qish fikrimizcha, id texnikalardan farqli deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchi talabanning natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb

hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quv o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Tarix ta'limi tizimida har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'qituvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Respublikamizning o'ziga xos ta'lim tizimida uzviylikni saqlash ta'limning har bir bo'g'inida umumiy va kasb-hunar ta'limi dasturlarini takomillashtirishga istiqbolli yondashuvni talab etadi. Shuningdek, bu talab ilmiy bilimlarning tarix tizimiga moslashgan istiqbolli muvozanati sharoitidagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim va tarix fani sohasida ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, demografik, madaniy-tarixiy va boshqa tarmoqlar taraqqiyotining istiqbolini belgilashda, uning yaxlit rivojlanishida integratsiyalashni ko'zlovchi uzluksiz ta'limning tizimli yondashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda [4].

Ustuvor yo'nalishlardagi ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishdan kutiladigan asosiy natijalar: uzluksiz ta'lim tizimining nazariy-metodologik bazasi, uzluksiz ta'limning yangilangan mazmuni, shaxsni kamol toptirishning ijtimoiy-tarbiyaviy tizimi, shu jumladan, o'quvchilarning maxsus toifa kontingenti; umumiy ta'lim va kasb-hunar dasturlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari; o'quv-metodik majmualarning yangi avlodi (yangi darsliklar, o'quv-metodik va me'yoriy hujjatlar, test materiallari va boshqalar); zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalar; ta'lim sifatini va uzluksiz ta'lim tizimi faoliyati natijalarini baholashning mezonlari va tartiblarini yaratish; hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mehnat qila oladigan mutaxassis kadrlarning yangi avlodini shakllantirish va hokazolar [5]. Ta'lim tizimida qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganilib kelinadi. Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg'or metodikalar texnologiyalar darajasiga ko'tarila olmay asta-sekinlik bilan o'z mavqeini yo'qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqdalar. Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo'lgan "Dasturli ta'lim" yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi "Shatalovchilik harakati"ni eslash kifoya [3]. Gap zamonaviy texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash xususida borar ekan, u maktablarning moddiy texnik ta'minotiga ham o'z talabini qo'ydi. Mashg'ulotlarni guruhlarga ajratib ya'ni individual o'tish uchun o'quvchilarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash, qo'l mehnati,

amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni ko'zda tutish muhimdir.

Shuningdek, o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishi kerakli materiallardan foydalana olishi uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop jurnallar, gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishlari uchun boy fondga ega bo'lgan kutubxona, uning ishini yengillashtirish uchun sinf xonalari kompyuter bilan ta'minlanishi ham muhimdir [6]. Bugun mamlakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'langan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy Dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda 'Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlanadi'[7]. Mamlakatimizda mafkuraviy rejalarning tubdan yangilanishi, milliy istiqlol g'oyasining omma ongiga uzluksiz singdirib borilishi pedagogik tafakkurni ham o'zgartirmoqda.

Mafkuraviy jarayonlar pedagogik voqelikni aks ettiradigan ta'limiy faoliyat loyihalarini asoslaydigan fan sohasi, tasavvurlarni qamrab olmasdan iloji yo'q. Yangi pedagogik bilimlar ko'lami Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kengayib bormoqda, tadqiqot yo'nalishlari erkin shaxsni shakllantirish muammolariga qaratilayapti, bu esa ta'lim- tarbiya tizimida yangicha metodologik yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda.

Texnologik yondashuv ta'lim taraqqiyotining xarakterlantiruvchi kuchi sifatida bugun amaliyotga tezkor tatbiq etilmog'i zarur. Qolaversa, birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida 'Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur har bir fan o'qituvchisi yangi texnologiyalarni loyihalashga ijodiy yondashishi lozim [8] deb ta'kidlagan edi. Mustaqil ishlash metodlarining eng xarakterli xususiyatlaridan biri, bu o'quvchilarning bevosita boshqaruvsiz bajarishidir. Mustaqil ishlash o'quvchilar tomonidan darslarda yangi material matnini o'ganish, mashqlarni bajarish, tajribalar, kuzatishlar, mehnat operatsiyalarini o'kazish va shu kabilar orqali amalga oshirilishi mumkin. Mustaqil ishlashning anchagina keng tarqalgan turi uy vazifalarini bajarish hisoblanadi. Mustaqil ishlash metodlari ayniqsa tarix o'qitishdagi ta'limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshiradi. Mustaqil ishlash tafakkur, ko'nikma va malakalarning rivojlanishiga yordam beradi, shaxsni irodasini chiniqtiradi [9].

Mustaqillik yillarida davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlarni amalga oshirish istiqboli taqdirimizni belgilaydigan va jahon hajamiyatida o'z o'rnimiz bo'lishini ta'minlaydigan jarayoniga

aylandi. Ya'ni, Vatanimiz kelajagining ustuni bo'lgan yosh avlod ongida milliy g'oya tafakkuri, vatanparvarlik va insonparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar, ayniqsa tarix fanining o'rni va roli beqiyos bo'lib, uning yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish metodikasi alohida va muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, bu borada Istiqlolning o'zi bosh tarixiy voqea bo'lib, o'tgan yillar davomida tarixni o'qitish va o'rganish, umuman tarixning dolzarbligi to'g'risida Birinchi Prezident Islom Karimov faoliyati beqiyosdir. Jumladan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" mavzusidagi tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan (1998-yil, 28-iyun) suhbat, "O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'grisida"gi (1998-yil, 27-iyul) Farmoni va boshqa Vatan tarixini rivojlantirish xaqidagi fikrlari tarix ta'limi tizimida va xususan tarix o'qitish metodikasi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Barcha erishilgan muvoffaqiyatlarni mustahkamlash, kelajagi buyuk davlatni barpo qilish, avval bor yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash tarixiy vazifa bo'lib qoldi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalardan biridir" [10] ta'kidlagan edilar. Aynan barcha bilimli jamiyatning tub negizida ta'limning ilg'orligi mujassamlashgandir.

Mamlakatimizda oxirgi yillar davomida harakatlar strategiyasi va uning davomi hisoblanmish taraqqiyot strategiyasi doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Ta'lim sohasida tub burilishlar ko'zga tashlanganligini ko'rishimiz mumkin. Rivojlangan davlatlar kabi to'xtovsiz va samarali ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, ta'lim jarayonlariga texnologiyalar olib kirish sifatli talim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Bundan bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida qaratilayotgan e'tiborni ko'rishimiz mumkindir.

XULOSA

Ta'lim sifatini bugungi kunda oshirish va shu orqali barqaror ta'lim tendekslarini tashkil qilinishiga erishilishi mumkindir. Ta'lim tizimida eng muhim fundamental va amaliy tadqiqotlarning istiqbolini oldindan belgilash va ishlab chiqishdan iboratdir. Ko'rsatilgan maqsadning amalga oshishi jamiyatni rivojlantirish va bosh muammoni yechishga qodir bo'lgan barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan bir, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda

shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalinishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim va tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiya masalalari, muammolari o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha pedagogik texnologiya-bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi talabaning natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsadli tashkil qilish samaradorligini oshirish jarayonlarini [11].

Hozirgi zamonaviylashayotgan dunyoda zamonaviy texnologiyalarning o'rni shu jumladan beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan tarix fanini o'qitilish tizimini takomillashtirish jarayonida ham ushbu texnologiyalarni jalb qilish samarali natija berishini guvohi bo'lishimiz mumkindir. Tarix o'qitilish tizimini barqarorlashtirish orqali ushbu fanning o'qitilish ko'rsatkichini oshganligi, zamonaviy dunyo ta'lim standartlariga moslanganligini ko'ramiz. Ushbu sohaga texnologik bilimlarni keng joriy qilinishiga e'tibor qaratishimiz lozimdir. Albattaki tarix fanining o'qitish tizimini barqarorlashtirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'afforov Y. "Mahsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari" Toshkent-2021, 'Sharof nur fayz' 117-bet.
2. Barkamol avlod 'O'zbekiston taraqqiyotining poydevori', Toshkent. Sharq, 1997-y, 59-bet
3. Yulduz Aminjonova. Metodika va texnologiya bir-biridan qanday farqlanadi? 'Ma'rifat gazetasi', 2003-y.19-mart
4. G'afforov Y "Mahsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari" Toshkent-2021, 'Sharof nur fayz' 2021-yil 4-bet
5. Sh.Kurbonov, E.Seytxalilov. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi: pedagogik ilmiy-tadqiqot muammolari va yo'nalishlari. -Toshkent: Fan, 1999. -B.11
6. N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent:Moliya, 2003.B.8-9

7. Yulduz Amirjonova. Metodika va texnologiya bir-biridan qanday farqlanadi? // Ma'rifat. 2003. 19-mart.
8. Barkamol avlod, O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq.1997.B-59
9. N.Sayidahmedov, Texnologik yondashuv ustuvorligi. // Ma'rifat: 2003. 19-fev.Toshkent:sharq, 1997.B-59
10. Ya.X.G'afforov. Tarix o'qitish metodikasi. Darslik.-Toshkent : 'TURON-IQBOL' 2022-YIL, 60-BET
11. G'afforov Ya. "Mahsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari" Toshkent-2021, 'Sharof nur fayz',116-bet.

ОБЗОР НАУЧНОЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННОСТИ ПО ВОПРОСАМ ЦИФРОВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ В ОБЩЕДОСТУПНЫХ НАУЧНЫХ ПЛАТФОРМАХ

Мурадова Наргиза Улжаевна

*Д.ф.э.н. (PhD), доцент кафедры экономики Самаркандского филиала
Ташкентского международного университета Кимё*

muradova.nargiza@bk.ru

Аннотация: В данной статье изложены результаты запросов по цифровым научным платформам, касающихся вопроса исследования цифровой конкурентоспособности высших учебных заведений (вузов). Особое внимание уделено общедоступным платформам, таким как Академия Google КиберЛенинка, Academia.edu, eLibrary.ru, так как основная фундаментальная база большинства исследователей направлены на них. Вместе с этим, в статье приведен обзор ведущих языков научно-исследовательских работ.

Ключевые слова: конкурентоспособность вуза, цифровая конкурентоспособность вуза, цифровая экосистема вуза, конкурентоспособность и цифровая экосистема вуза, цифровые научные платформы, Академия Google, CyberLeninka, Academia.edu, eLibrary.ru.

OMMAVIY ILMIY PLATFORMALARDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQAMLI RAQOBATBARDOSHLIK MASALALARIGA BAG'ISHLANGAN ILMIY QIZIQISHLARNING SHARHI

Muradova Nargiza Uljaevna

*Toshkent xalqaro Kimyo universitetining Samarqand filiali
Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)*

muradova.nargiza@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv muassasalar (OTM)ning raqamli muhitdagi raqobatbardoshligini o'rganish masalasiga oid raqamli ilmiy platformalar bo'yicha tahlil natijalari berilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor Google Akademiyasi, Cyberleninka, Academia.edu va eLibrary.ru kabi ommabop platformalar olingan. Buning sababi ko'pchilik tadqiqotchilarning asosiy fundamental ilmiy izlanishlari aynan ushbu platformalardan boshlanadi. Shu bilan birga, maqolada OTMning raqamli

muhitdagi raqobatbardoshligiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarining asosan qaysi tillarda olib borilganligi haqida ham umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *OTM raqobatbardoshligi, OTM raqamli raqobatbardoshligi, OTM raqamli ekotizimi, OTM raqobatbardoshligi va raqamli ekotizimi, raqamli ilmiy platformalar, Google Akademiyasi, CyberLeninka, Academia.edu, eLibrary.ru.*

REVIEW OF THE SCIENTIFIC IMPORTANCE OF DIGITAL COMPETITION AMONG HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON PUBLIC SCIENCE PLATFORMS

Muradova Nargiza Uljaevna

PhD, Associate Professor of the Department of Economics, Samarkand branch of Tashkent Kimyo International University

muradova.nargiza@bk.ru

Abstract: This article presents the results of queries on digital scientific platforms related to researching the digital competitiveness of higher education institutions (HEIs). The focus is on publicly available platforms, such as Google Scholar, CyberLeninka, Academia.edu, and eLibrary.ru, as they are the main fundamental base for most researchers. Additionally, the article provides an overview of the leading research languages.

Keywords: *university competitiveness, digital competitiveness of the university, digital ecosystem of the university, competitiveness and digital ecosystem of the university; digital scientific platforms; Google Scholar; CyberLeninka; Academia.edu; eLibrary.ru*

ВВЕДЕНИЕ

Конкуренентоспособность, является основным критерием устойчивого положения на рынке, так тренды, не всегда долговечны и даже поведение потребителей всегда не стабильны. В связи с этим, понятие конкурентоспособности сохраняет свою актуальность в исследовании, как зарубежными, так и отечественными учеными. Помимо этого, установка требуемых критериев конкурентоспособности всегда имеет ведущую необходимость участия в разработке экономического роста страны [1].

Вопросы, связанные с критериями конкурентоспособности рассматриваются, как характеристика, отражающее наличия конкурентных преимуществ, а также уровни сравнительной, динамической и эффективности характеристики [2]. Помимо того, критерии конкурентоспособности имеют

специфику в зависимости от сферы и вида деятельности, что и увеличивает масштабность научного исследования.

Рассматриваемая тема исследования в основном требует изучения конкурентоспособности высших учебных заведений (вузов) в цифровой среде, и здесь следует учитывать подходы оценки конкурентоспособности. Так как Республика Узбекистан берет ответственность совершенствования деятельности вузов по мировым стандартам и с учетом современных тенденций. Согласно указу Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации» основной задачей была установка внедрения современных информационно-коммуникационных технологий во все отрасли и сферы, в том числе в образование [3]. Что в свою очередь явилось усиливающим фактором выполнения задач из концепции развития системы высшего образования Узбекистан до 2030 года [4]. Необходимо заметить, что при цифровой трансформации целесообразно вопросы формирования конкурентоспособности рассматривать на фоне управляемости цифровой экосистемы вузов.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В процессе изучения исследований по вопросам конкурентоспособности вузов с учетом цифровой трансформации, был произведен запрос в поисковой системе по научным публикациям «Академия Google» (Таблица 1).

Таблица 1

Результаты Академии Google по точному словосочетанию при поиске по заголовку документа (на 15.03.2024 г.)¹

Словосочетание для поиска	Результаты запроса с 2014 по 2024 гг.	
	по релевантности	по дате
allintitle: конкурентоспособность вуза	121	6
allintitle: цифровая среда вуза	31	3
allintitle: экосистема вуза	9	2

Результаты запроса по заголовку документа подсказывает о недостаточности внимания к вопросам формирования экосистемы вузов в условиях цифровизации. Понятие «экосистема» первоначально относился к сфере биологии, означавшее единую систему взаимосвязи на основе закономерностей существования. Основоположителем использования данного термина в сфере экономики стал американский ученый Джеймс Ф.Мур, согласно его представлению, экосистема описывает сообщество участников рынка, имеющие единую заинтересованность [5]. В свою очередь, под цифровой

¹ Составлено автором по результатам Академии Google на 15.03.2024 г. <https://scholar.google.ru/schhp?hl=ru>

экосистемой можно описать партнерское взаимодействие в цифровой среде, тем самым, учитываются концепции и ценности используемых цифровых технологий. Во многих работах роль цифровой экосистемы в цифровой системе, обуславливаются перспективными возможностями развития, т.е.: интеграции, индустриализации, роста участия пользователей, устойчивого развития и других новых возможностей бизнеса [6].

В ряду отечественных научных работ, посвященные цифровой экосистеме, фокусированы изучению экосистемы, как составляющая реформирования инфраструктуры соответствующей сферы, например: услуг коммерческих банков, медицинских услуг, цифровых платформ [7].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Автором статьи проанализирована актуальность и степень заинтересованности к научным исследованиям, посвященные обеспечения конкурентоспособности отечественных вузов посредством формирования цифровой экосистемы, а также представлены результаты их деятельности и популяризации в цифровой среде отечественных вузов, через возможные цифровые площадки. По результатам полученных данных, выявлены группы факторов, положительно и отрицательно влияющих на процесс формирования конкурентоспособной экосистемы вуза в цифровой среде.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В ходе сбора данных позволяющих анализировать научную заинтересованность по вопросам конкурентоспособности в цифровой среде, были проведены несколько подходов запроса в цифровых платформах научных базах данных, такие как Академия Google [8], КиберЛенинка [9], Academia.edu [10], eLibrary.ru [11]. В ходе поиска были использованы следующие словосочетания: «конкурентоспособность вуза», «цифровая конкурентоспособность вуза», «цифровая экосистема вуза», «конкурентоспособность и цифровая экосистема вуза» (Таблица 2).

Таблица 2

**Результаты запросов в научных платформах
по точному словосочетанию при поиске документов,
представленных с 2014 по 2024 гг.²**

Запрос на поиск	Количество результатов русскоязычных работ			
	Академия Google	КиберЛенинка	Academia.edu	eLibrary.ru

² Составлено автором, и результаты действительны на 15.03.2024 г.

конкурентоспособность вуза	96 100	27 987	54 973	1 761
цифровая конкурентоспособность вуза	17 100	3 988	1 392	19
цифровая экосистема вуза	14 300	1 159	54 790	40
конкурентоспособность и цифровая экосистема вуза	6 220	723	20 053	-

По данным таблицы 2 среди русскоязычных платформ Академия Google собрала большое количество научных работ, касающихся вопросов конкурентоспособности вузов в цифровой среде. Вместе с этим, были замечены и другие предложения, в которых можно было продолжить литературный обзор касающиеся конкурентоспособности вузов, связывающие следующие понятия, как: ... услуг; ... образования; ... влияние; ... понятия; ... фактор; ... имидж; ... заведения; ... качество образования.

Но наше внимание привлекло платформа Academia.edu, так как помимо того, что она является международной, в ней активно ведутся научные интеграции. Academia.edu – это платформа для обмена научными исследованиями, в котором ученые загружают темы научных исследований и соответственно результаты своих работы.

Следующий этап анализа был проведен на платформе Academia.edu, и в процессе поиска научных работ по исследуемому направлению были получены масштабное количество результатов на всех языках (Таблица 3).

Таблица 3

Результаты Academia.edu по точному словосочетанию при поиске по заголовкам документов, представленных с 2014 по 2024 гг.³

Источники	Словосочетания в запросах			
	конкурентоспособность вуза	цифровая конкурентоспособность вуза	цифровая экосистема вуза	конкурентоспособность и цифровая экосистема вуза
статьи в журналах	176 176	1 930	175 859	86 264
книги	2 006	166	3 941	2 119
тезисы конференций	3 946	55	2 020	643
другое	3 351 401	71 686	3 328 316	1 590 777
ИТОГО	3 533 526	73 837	3 510 136	1 679 803

Данные, представленные в таблице 3, подсказывают что за последние десять лет, заинтересованность научных работ по вопросам

³ Составлено автором по результатам Academia.edu на 15.03.2024 г. <https://www.academia.edu/>

конкурентоспособности вуза и ее экосистемы была высокой, и цифровая экосистема вуза представляется одной из главных инструментов в политике обеспечения конкурентоспособности. Также, по результатам было видно, что в основном эти работы представлены на английском языке, и его доля составило 90,2%; далее работы на испанском (1,6%); русском (1,55%); португальском (0,93%) и других языках (5,72%).

Помимо того, доля заинтересованности в научных исследованиях, касающихся «цифровой конкурентоспособности вуза» является не большой (Рисунок 1).




Рисунок 1. Научные работы, представленные на английском, русском, испанском, португальском и других языках по результатам Academia.edu⁴

Полученные данные, говорят о недостаточном количестве внимания к вопросам цифровой конкурентоспособности вуза, как в узко специализирующем направлении. Здесь следует отметить, что цифровая конкурентоспособность зависит не только от информатора (в лице вуза), но и от потенциала реципиента. А это связано, какому цифровому поколению относится реципиент, является ли он единственным принимающие решение потребителем, или же имеется авторитарное лицо, который влияет на покупательское решение и т.д.

В целом хочется заметить, что цифровая конкурентоспособность вуза, имеет множество факторов, положительного и негативного влияния на формирование самой конкурентоспособности и обеспечению комфортному процессу ее экосистемы.

Один из подходов, которые учитывают вышеизложенные критерии представлены в Webometrics [12]. Он также известный как Ranking Web of Universities, в котором представлена система рейтинга мировых университетов, основанная на комбинированном показателе, учитывающем объём веб-содержимого (количество страниц и файлов). Помимо того, данная система

⁴ Составлено автором по результатам Academia.edu на 15.03.2024 г. <https://www.academia.edu/>

компетентно оценивает и учитывает конкурентоспособность вузов, среди которых имеются такие индикаторы, как видимость, прозрачность (открытость), выдающиеся специалисты (академический уровень).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В этом аспекте исследование показало, что помимо ведущих научных платформ, как Scopus, Web of Science и Springer nature, в общедоступных научных базах внимание к вопросам «цифровой конкурентоспособности вуза» слабо представлено. Это связано с тем, что цифровая индустрия активно развивается, и на сегодняшний день она представляет собой сложную систему измерения и оценки.

Учитывая специфику потребления услуг высшего образования, она становится еще более масштабно сложной системой для оценки с учетом цифровых критериев потребительского предпочтения. Ситуация становится еще более актуальной для научного исследования, если учитывать потребность вывода отечественных вузов на международные арены.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Философова Т.Г., Быков В.А. Конкуренция. Инновации. Конкурентоспособность: учеб. пособие / под ред. Т.Г. Философовой. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – С. 58–59.

2. Колтакова Г.В., Уланов В.С., Рудов А.П. Теоретические аспекты термина «конкурентоспособность» // Научный вестник ГОУ ЛНР «Луганский национальный аграрный университет». - №5., - 2019. – С. 124-131

3. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 05.10.2020 за №УП-6079. <https://lex.uz/docs/5031048> (дата обращения: 15.03.2024 г.)

4. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 08.10.2019 за №УП-5847. <https://lex.uz/ru/docs/4545887> (дата обращения: 15.03.2024 г.)

5. Бусалова А.Д. Управление взаимодействием участников бизнес-экосистемы телекоммуникационной корпорации: дис. ... канд. экон. наук: 5.2.6. Менеджмент. – РГЭУ им. Г.В.Плеханова, Москва, 2022. – 178 с.

6. Сема, П. Н. Цифровая экосистема индустрии 5.0: понятие, проблемы и перспективы развития / П. Н. Сема // Интеллектуальная инженерная экономика и индустрия 5.0 (ЭКОПРОМ) : Сборник трудов Международной научно-

практической конференции, Санкт-Петербург, 17–18 ноября 2023 года. – Санкт-Петербург: ПОЛИТЕХ-ПРЕСС, 2023. – С. 72-75.

7. Базарбаев М.И. Raqamli tibbiy ekotizim: genezisi va rivojlanish istiqbollari //Conferences. – 2022. – С. 28-35.; Qilichov S., Bababekov O. Bank tizimini isloh qilishda raqamli texnologiyalar va raqamli ekotizim //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-4.; Gulyamova A. Bank xizmatlarida raqamli texnologiyalar va raqamli ekotizim //MOLIYA VA BANK ISHI. – 2022. – Т. 8. – №. 3. – С. 91-96.; Djumayev S. N., Raxmanova D. T. Raqamli ekotizimlar tavsifi //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2022. – С. 445-449.

8. Бесплатная поисковая система по научным публикациям Академия Google <https://scholar.google.ru/>

9. Научная электронная библиотека «КиберЛенинка» <https://cyberleninka.ru/>

10. Социальная сеть для сотрудничества учёных Academia.edu <https://www.academia.edu/>

11. Научная электронная библиотека «eLibrary.ru» <https://elibrary.ru/>

12. Webometrics Ranking of World Universities <https://webometrics.info/en>

TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Umarova Fotima Abduraximovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Texnologik ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti p.f.f.d. (PhD)

Mirobidova Nafosat O'ktam qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda texnologiya ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'limni rivojlantirish, mashg'ulotlar samarali va sifatli bo'lishi uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish to'g'risida so'z borgan.

Kalit so'zlar: *texnologiya, o'qituvchi, innovatsiya, faoliyat, tayyorlash, ilmiy-metodik o'quv qo'llanmalar.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Умарова Фатима Абдурахимовна

*Phd, Доцент кафедры «Методики профессионального образования»
Ташкентского государственного педагогического университета имени Низоми*

Миробидова Нафосат Уктам кизи

*Студентка Ташкентского государственного педагогического университета
имени Низами*

Аннотация: В данной статье говорится о развитии инновационных образовательных технологий при преподавании профильных предметов в сфере технологического образования, а также использовании современных технологий для эффективного и качественного обучения.

Ключевые слова: *технология, учитель, инновация, деятельность, обучение, научно-методические учебные пособия.*

INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING SPECIAL SUBJECTS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

Umarova Fatima Abdurakhimovna

Phd, Associate Professor of the Department of "Methods of Vocational Education" of Tashkent State Pedagogical University named after Nizom

Mirobidova Nafosat Uktam kizi

Student at the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract: This article talks about the development of innovative educational technologies in teaching specialized subjects in the field of technological education, as well as the use of modern technologies for effective and high-quality teaching.

Key words: *technology, teacher, innovation, activity, training, scientific and methodological teaching aids.*

KIRISH

Hozirgi kunda axborotlashib ketayotgan texnika asrimizda o'quvchi-talabalarni ananaviy darsga qiziqtirish, ularni axborot o'chog'idan bir muncha chetga olib darsga jalb etish bir muncha mushkul vaziyat hisoblanadi. Bunday muammo texnologik ta'limni o'qitishda ham yo'q emas. Shuning uchun texnologik ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'rni juda katta.

Interaktiv metodlarni, innovatsion metodlarni, axborot texnologiyalarini pedagogik o'quv jarayonida qo'llash kundan kunga rivojlanib kelmoqda. Bu o'z navbatida o'quvchi-talabalarni izlanishga, harakatga, tom ma'noda mehnat qilishga chorlaydi. Ular egallaydigan bilimlarini mustaqil ravishda o'qib o'rganib, amalda sinab ko'rib natija va xulosalarini o'zlari belgilashadi. Pedagog bu jarayonda o'quvchi-talabalarning shaxs sifatida rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bundan ko'rinib turibiki, ta'lim jarayonida ularning o'rni mavjudligiga ishonch ortib boradi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugunki kunda mutaxassislik fanlarini o'rgatishda axborot texnologiyalari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'lim tizimida bilim,

ko'nikma va makalakarni to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash, innovatsion texnologiyalarga asoslanga ma'ruza, baxs-munozara, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda foydalanish kerakligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Tadqiq etilayotgan muammo mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan ilmiy manbalarni o'rganish talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga ko'mak beradigan metodik adabiyotlarini takomillashtirish kerakligini ko'rsatdi. Bu sohadagi manbalar tadqiq etilayotgan muammoning muayyan jihatlarini yoritishga xizmat qilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida innovatsion ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish sohasida B.A.Abdullayev [2], Л.Н.Вашченко [12], О.В.Иншаков [25], Е.Лебедева [33], tadqiqotlar olib borishgan, pedagogika sohasida innovatsion model va metodlarni qo'llash ishlariga О.М.Железнякова [22], М.В.Кларин [28], К.Б.Колбаев [29] kabilar o'z hissalarini qo'shgan.

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o'z-o'zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo'ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch –malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish –innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi [4].

Innovatsiya so'zi inglizcha "innovation"-“yangilik kiritish” degan ma'noni bildirib, yangilikdir. Innovatsion pedagogika so'zi tarixini yodga oladigan bo'lsak. Ha, yana o'sha mashhur yangilik kiritishning sotsial-psixolog aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U "Innovatsion pedagogika" termini va yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa-tiplari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi. Pedagogning innovatsion faoliyati bu ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishni ko'zda tutadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv) ga ega bo'ladi [5,6].

METODOLOGIYA

Pedagogik innovatsiyalar turlari va usullarining turli xili qo'llaniladi. Tanlashda ta'lim muassasasining profil yo'nalishi, uning ananalari va standartlari katta rol o'ynaydi. Texnologik ta'lim mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida eng keng tarqalgan innovatsiyalar:

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT);
- Talabalarga yo'naltirilgan fanning nazariy va amaliy, laboratoriya qismlari;
- Dizayn va tadqiqot faoliyati;
- O'yin texnologiyalari.

TAHLIL NATIJALARI VA MUHOKAMA

Binobarin, ta'lim muassasalarida joriy etilgan pedagogik innovatsiyalar ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga yordam beradi: maktab o'quvchilari va talabalarida vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, ona vatanga sadoqat, muhabbat, xalq an'analariga hurmat tuyg'ularini tarbiyalash. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bolalar bog'chalari, maktablar, akademiyalar va universitetlarda odatiy holga aylandi. Ta'lim muassasalariga ta'sir ko'rsatadigan so'nggi yangiliklar qatorida: yagona davlat imtihonini onlayn tarzda o'tkazish, imtihon hujjatlarini oldindan skanerlash, yuborish. Albatta bu o'z navbatida haqqoniylikni, ishonchliligini bildiradi. O'quv jarayonidagi o'quvchi-talabalarning baholash me'zonlari ham bundan mustasno emas.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, avvalo, mavjud innovatsion texnologiyalarni tahlil etish, o'qitiladigan fanlarning mazmunini e'tiborga olgan holda, ularni qo'llash yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish va ularning samaradorligini aniqlash pedagogikada muhim ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mazkur fan o'qituvchilaridan muayyan tayyorgarlikni talab etadi.

Jamiyatning jadal rivojlanishi ta'lim jarayoning texnologiyalari va usullarini o'zgartirish zarurligini taqazo etmoqda. Ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o'zgaruvchan zamonaviy tendensiyalarga tayyor bo'lishi kerak. Shu bois ta'limda individual yondashuv, harakatchanlik va masofaviylikka yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish zarur va muqarrar ko'rinadi.

Mamlakatimizda innovatsiyalarni joriy etishga extiyojlarni tug'ilishi. Innovatsion jarayonlarning yaratilish bosqichlari:

- Yangi dasturlar, standartlar, darsliklarning innovatsion xarakteri;
- Innovatsiyalarni yaratish, to'plash, tanlash, qo'llash tizimini yaratilishi;

– Fanda o'qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanish bosqichlarini yaratilishi;

- Pedagogik innovatsiyani tatbiq etish tuzilmasi (sxemasi);
- “To'plash”, “tanlash”, “qo'llash” tushunchalari;
- “Yangilash”, “yangilik kiritish” texnologiyasi;
- Innovatsion jarayonlarni boshqarish algoritmi;
- Yangilikni ishlab chiqish, tatbiq etish bosqichlari tuzilishi sxemasi;
- Innovatsion faoliyatda o'qituvchi va o'quvchilarning munosabati;
- Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishning mohiyati bilan bog'liq [7,9].

Darhaqiqat, innovatsiya (yangi) lotin tilida 17-asrning o'rtalarida paydo bo'lgan va ma'lum bir sohaga yangining kirishi, unga implantatsiyasi va bu sohada butun bir qator o'zgarishlarning paydo bo'lishini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, innovatsiya, bir tomondan, yangilik yaratish, amalga oshirish, amalga oshirish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan, u umuman ob'ekt emas, balki yangilikni ma'lum bir ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyatidir.

Innovatsiyaning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.

Favqulodda vaziyatlarda keltiriladigan zararlarni tahlilining yana bir muhim belgisi salbiy omillar ta'siri obyekt egasiga, hayoti va sog'lig'iga va moddiy va ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi da'voni kiritishi hamda oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari xarajatini hisoblash imkonini beradi. Bunda, zararni yuqori baholash xavfli hodisalardan yetkazilgan zarar, xavfli hodisa bo'lishdan oldin mavjud bo'lgan vaziyatni tiklashga ketgan xarajatga teng yoki past bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Umuman olganda, favqulodda vaziyatlar ta'siri quyidagi zanjirga olib kelishi mumkin: "oqibatlar - yo'qotishlar - zarar - kompensatsiya" Zanjir elementlari orasidagi munosabatlari 1-rasmda ko'rsatilgan [5].



1-rasm. Favqulodda vaziyatlar oqibatlari iqtisodiy munosabatlar¹

Shunday qilib, favqulodda vaziyatlar oqibatlari shaxs, jamiyat va davlat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy umumiy olganda barcha tarmoqlarni

¹ Muallif tamonidan yaratilgan

qamrab oladigan xavfli hodisalar natijasida boshlanib, boshqarib bo'lmaydigan o'zgarishlarni birlashtiradi.

Yo'qotishlar- iqtisodiy va ijtimoiy sohasini qamarab oladigan salbiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan oqibatlarining bir qismidir, ya'ni yo'qotishlar - sanitariya va qaytarib bo'lmaydigan - favqulodda vaziyatlar qurbonlarini anglatadi.

Zarar - obyektlar holatidagi ayrim hodisalar, harakatlar natijasida ularning yaxlitligini buzish yoki boshqa xususiyatlari yomonlashishi bilan ifodalangan salbiy o'zgarish natijasi; haqiqiy yoki mumkin bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy yo'qotishlar (odam sog'ligi o'rtacha qiymatdan chetga chiqishi, ya'ni kasallik yoki hatto o'lim; normal iqtisodiy faoliyat jarayoni buzilishi); mulk u yoki bu turini, boshqa moddiy, madaniy, tarixiy yoki tabiiy qadriyatlarini yo'qotish va boshqalar) yoki tabiiy muhit yoki inson muhitining yomonlashishi.

Rus iqtisodchisi A.M. Kuhlman o'zining "Xavfsizlik faniga kirish" asarida zararni (texnologik xavfsizlik nuqtai nazaridan) texnologiyadan foydalanish paytida jismoniy yoki kimyoviy ta'sir natijasida ma'lum bir shaxsga, uning qonun bilan himoyalangan moddiy va nomoddiy ne'matlariga zarar yetkazish deb tushuntiradi. Shunday qilib, bu yerda zarar tushunchasi sanitariya va qaytarib bo'lmaydigan yo'qotishlarni o'z ichiga oladi.

Zarar taxminiy oqibatlardir. Zararni baholash uning qiymatini natura yoki pul ko'rinishida aniqlashni o'z ichiga oladi (zararni iqtisodiy baholash) [3].

Favqulodda vaziyatlardan aholi va atrof-muhitga yetkazilgan haqiqiy zarar nafaqat evakuatsiya, balki, tiklash ishlari uchun respublika va mahalliy byudjetlardan ajratilgan mablag'lardir. Masalan, favqulodda ko'lami, davomiyligi, vaqti, ob-havo sharoiti va boshqalar xolatiga bog'liq xolda, odamlar o'limi, jarohatlari yoki kasalliklari natijasida mehnat qobiliyatini to'liq yoki vaqtincha yo'qotilishi, jabrlanganlar yoki evakuatsiya qilinganlar yashash sharoitlari o'zgarishi, ekotizim nobud bo'lishi, ko'chmas mulklar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar yo'qolishi, korxonalar majburiy to'xtab qolishi natijasida tovar va xizmatlar aylanmasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq ma'naviy zarar.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ma'naviy zarar miqdori ba'zan kasalliklar bilan bog'liq tovon to'lovlaridan ham oshib ketishi mumkin. Ushbu barcha oqibatlar uchun jabrlanuvchilar ta'sir manbai bo'lgan obyekt egasiga yetkazilgan zararni qoplash, oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan avariya-qutqaruv operatsiyalari xarajatlarini (yong'inlarni o'chirish, odamlarni va mulkni evakuatsiya qilish, zararlangan hududda jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish va h.k.).

Zarar tarkibiy qismlari ko'rib chiqilayotgan zarar turiga xos bo'lgan tabiiy birliklarda, ba'zi tarkibiy qismlar esa pul ko'rinishida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, turli xil salbiy hodisalar oqibatlarini solishtirish, zararining turli tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda, oqilona himoya choralarini ishlab chiqish, ko'rilgan

choralar natijasida oldini olingan zararni va xavfsizlik choralarining iqtisodiy samaradorligini hisoblashda maqsadga muvofiqdir.

Mumkin bo'lgan yoki haqiqiy zarar qiymatini baholash ixtisoslashtirilgan baholash tashkilotlari tomonidan ushbu jarayonda ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning qonunlarga va iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydigan kelishilgan usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

Baholash usullari uchun asoslar quyidagilardir [1,2,4]:

- tovar va xizmatlarning joriy narxlari;
- arbitraj amaliyoti;
- keng baholash bazasiga, obyektiv va ko'p qirrali statistikaga ega bo'lgan mulk va shaxsiy sug'urta tajribasi.

Gipotetik va real favqulodda vaziyatlardan yetkazilgan zararni baholash usullari mavjud. Agar gipotetik favqulodda vaziyat ko'rib chiqilsa, bu turdagi zararlar kutilgan deb nomlanadi. Turli favqulodda vaziyatlar senariylari uchun hisoblash usuli turli xil zarar qiymatlarini ishlab chiqaradi.

Muayyan vaqt oralig'ida sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarda yetkazilgan zarar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar ma'lum bir umumiy populyatsiyadan namunani tashkil qiladi va statistik taqsimot funksiyasi bilan tavsiflanadi.

Zarar bo'yicha qayd etilgan statistik ma'lumotlar yetarli darajada bo'lmaganligi sababli, favqulodda vaziyatlar aksariyat turlari uchun taqsimlash funksiyalari turi hali belgilanmagan. Agar biz himoya choralari va himoya xarajatlari samaradorligini baholash haqida gapiradigan bo'lsak, unda barcha turdagi zararlar oldini olish deb ataladi [3,4].

Matematik jihatdan, oldini olingan zarar quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:

$$\Delta W = W_0 - W_1, \quad (1)$$

bunda, W_0 - himoya choralari ko'rishdan oldin zarar; W_1 - himoya choralari ko'rgandan keyin zarar.

Zararni o'lchash uchun universal shkalalar mavjud emas. Amalda, asosan, ikkita shkala qo'llaniladi - tabiiy va subyektiv (mutloq va nisbiy). Odatda miqdoriy bo'lgan tabiiy o'lchovlarda miqdorlarning odatiy qiymatlari qo'llaniladi. Masalan, muayyan turdagi mulkni yo'qotish qiymati pul birliklarida ifodalanadi, baxtsiz hodisalar ularning soni bilan tavsiflanadi va hokazo. Subyektiv (asosan sifatli) o'lchovlar tabiiy shkala bo'lmagan zarar turini miqdoriy aniqlash zarurati mavjud bo'lgan hollarda yaratiladi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini ko'rib chiqishda bevosita, bilvosita, to'liq va umumiy zarar farqlanadi. Birinchi taxminiy (yuqori baho) sifatida favqulodda

vaziyatlardan yetkazilgan zarar ular yuzaga kelgunga qadar mavjud bo'lgan vaziyatni tiklash xarajatlariga teng.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlari bir-biriga bog'langan ketma-ket hodisalar zanjiridir. Ushbu zanjirdagi elementlar soni juda ko'p bo'lishi mumkin. Shunday qilib, favqulodda vaziyatlar natijasida bevosita zarar deganda xavfli tabiiy yoki texnogen hodisalarga zarar yetkazuvchi va zararli omillari hududiga tushib qolgan inson hayoti uchun manfaatdor bo'lgan barcha obyektlar yo'qotishlari va shikastlanishlari tushuniladi.

Favqulodda vaziyatlardan bilvosita zarar - xavfli hodisalar salbiy omillari ta'sir qilish zonasiga kirmaydigan va iqtisodiy munosabatlar, infratuzilmalar mavjud tuzilmasi buzilishi va o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar, zararlar va qo'shimcha xarajatlar; biotsenozlar, shuningdek favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish zarurati bilan bog'liq yo'qotishlar (qo'shimcha xarajatlar) [8,9].

Shuning uchun bilvosita zararni quyidagi qiymat bo'yicha ifodalanadi.

$$W_K = \alpha W_H, \quad (2)$$

bunda, α – bilvosita ekspert bahosi, W_K - batafsil va tahlil qilmasdan alohida tarkibiy qismlari bo'yicha baholanishi.

Ko'pincha, oqibatlari barcha guruhleri bilvosita zararni keltirib chiqaradigan davrlarda paydo bo'ladi. Shtat, mintaqalar va kompaniyalar darajasida zanjirli bilvosita xavf paydo bo'lib, sikllar soni (xavf daraxti) sifatida tasvirlangan. 6-10 sikldan ko'p bo'lmagan davrni hisobga olish amalda tavsiya etiladi.

Favqulodda vaziyatlarda o'zaro bog'liq hodisalar ketma-ketligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular zanjiri bo'ylab harakatlanar ekan, birinchidan, dastlabki hodisalar ta'siri zaiflashadi, ikkinchidan, bilvosita zararni baholashda qiyinchiliklar ortadi. Ushbu fikrlarga asoslanib, ekspert bahosi ko'pincha alohida komponentlarni batafsil va tahlil qilmasdan bevosita zarar ulushi sifatida bilvosita zararni baholash sifatida ishlatiladi.

Davom etayotgan favqulodda vaziyatlar jami bilvosita zararida tabiiy muhitdagi uzoq global o'zgarishlar alohida o'rin tutadi, garchi ularni hozirgi nuqtai nazaridan pul ko'rinishida baholash mumkin bo'lmasa-da, bu mablag'lar (qiymatlar) ular toifasiga kiritiladi.

Bilvosita zarar favqulodda vaziyatlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ham aks ettirishi mumkin - yalpi ichki mahsulot ulishi pasayishi, import-eksport operatsiyalari tarkibi o'zgarishi, ishsizlik darajasi, inflyatsiya va boshqalar.

Umumiy zarar bevosita va bilvosita zararlar yig'indisidir. Umumiy zarar to'liq zararga nisbatan oraliq bo'lib, uzoq muddatli miqdor bilan aniqlanadi. Masalan, AES avariya natijasida yetkazilgan zarar muddati 100 yilga yetishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlar oqibatida yetkazilgan to‘liq zarar bevosita va bilvosita zararlar yig‘indisidir.

$$W_{\text{нол}} = W_{\text{H}} + W_{\text{K}}, \quad ($$

3)

Salbiy omillar ta‘sir qilish obyektiga ko‘ra, quyidagi zarar turlariga ajratish mumkin[7,8]: W_{H} - bevosita zarar, W_{K} - bilvosita zarar.

- muayyan odamlar hayoti va sog‘lig‘i (mediko-biologik)ga tasiri bilan belgilanadi, bu ularning ayrim jamoalari (mamlakat aholisi, jamiyat) uchun ijtimoiy yo‘qotish (pasayish)ga olib keladi;

- jismoniy va yuridik shaxslar, tashkilotlar moddiy, iqtisodiy, ma‘naviy yo‘qotishlar;

- ijtimoiy-iqtisodiy tizim (ijtimoiy-iqtisodiy), u yoki bu turdagi mulkni yo‘qotish, odamlarni ko‘chirish xarajatlari, jabrlanuvchilarga tovon to‘lash, tuzilgan shartnomalar bajarilmasligi, normal iqtisodiy jarayonni buzishdan odamlar turmush sharoiti yomonlashishi va boshqalar;

- davlat (ijtimoiy-siyosiy) ta‘siri;

- tabiiy muhit (ekologik) yomonlashishi yoki uni tiklash xarajatlari, hududlar milliy iqtisodiy qiymatini yo‘qotishi yoki uni qayta tiklash xarajatlari va boshqalar.

Xulosa

Favqulodda vaziyatlarda bevosita iqtisodiy zarar asosiy yoki aylanma mablag‘lar salbiy omillari ta‘siri natijasida zarar yoki yo‘qotish, uchinchi shaxslar mulkiga zarar yetkazish bilan ham oshib borishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlari makroiqtisodiy tahlili bevosita va bilvosita, shu jumladan uzoq muddatli oqibatlarni hisobga olishga asoslangan tizimli yondashuvni nazarda tutadi.

XULOSA

Yuqorida takidlaganlarga asoslanib, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Avvalom bor favqulodda vaziyatlar biz kutmagan vaqtda va kutilmagan joyda sodir bo‘ladi, to‘g‘ri u qisqa vaqt davom etishi mumkin, lekin u shu qisqa vaqt ichida juda ham keng ko‘lamli aholi sog‘lig‘i va hayotiga xavf solishi, iqtisodiyot tarmoqlari va atrof muhitga katta miqdorda zarar yetkazishi mumkin.

Bundan tashqari bunday sharoitda iqtisodiy va ijtimoiy zarar ko‘lamini bashoratlash juda ham mushkil ish, chunki uning oqibatlarini to‘liq bartaraf etish uchun yillab, hattoki 10 yillab vaqt ketishi mumkin. Bunga yoqqol misol, Chernobil AES dagi avariya sodir bo‘lganiga 35 yil bo‘libdiki avariya oqibatlari hamon bartaraf etilmoqda[10,11].

Shu nuqtai nazardan, favqulodda vaziyatlarga qarshi turish xar qanday iqtisodiy jixatdan barqaror bo‘lgan davatlarning ham imkoniyati yo‘q. Chunki bir necha

daqiqada butun bir yirik shaharlarni vayron qilishi, mamlakat iqtisodiyotini butunlay izdan chiqarishi mumkin. Shu sababli ham favqulodda vaziyatlarni baholash, ularning oqibatlarini bartaraf etishda xalqaro tashkilotlar hamjamiyati birgalikdagi harakati muhimdir. Ayniqsa, oziq – ovqat, tibbiyot va boshqa yashash muhiti uchun zarur bo‘lgan birlamchi vositalar bilan ta‘minlashda o‘zaro gumanitar yordam ko‘rsatish alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADADIIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida” qonuni, 2022-yil 17-avgustdagi O‘RQ-790-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgustidagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 242-sonli qarori.
3. Xolbaev B.M., Raximov O.D., Maxmatkulov N.I. Hayot faoliyati xavfsizligi” darslik (2 qismi). – : «Voriz-nashriyot», 2020. 304 s.
4. Maxmatqulov N.I. Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlarni bashoratlashning takomillashgan metodikasi. Monografiya.: «Voriz-nashriyot», 2022, 155 – b.
5. Махматкулов Н.И. Оценка техносферной безопасности на основе математического моделирования// Монография: «Вориз-нашриёт», 2022, 166 – с.
6. Махматкулов Н. И. Пожар как фактор техногенной катастроф// Международный журнал перспективнх исследований в области образования, технологий и менеджмента. Том.2, Впуск 9. 2023. 70-77.
7. Махматкулов Н.И. Правильное поведение населения в чрезвычайных ситуациях//международный журнал перспективных исследований в области образования, технологий и менеджмента. том..2, выпуск 9, 2023.175-182
8. Махматкулов Н. И. Формирование процесса изменений при внедрении системы управления охраной труда в модели «черного ящика» // Цифровые технологии в промышленности Том 1, 2023№ 1 сентябрь
9. Maxmatqulov N.I., Karimov S. X. “Atrof muxit xolati va uni muxofaza qilish”. Fan, muxofaza, xavfsizlik ilmiy amaliy jurnal 2019-yil. 2(3) – sonli. 36-41 b
10. www.ziyo.edu.uz- O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.
11. www.mchs.gov.uz- O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

ISHLAB CHIQARISH BILAN BOG‘LIQ BAXTSIZ XODISALARNING IJTIMOY-IQTISODIY YO‘QOTISHLARNI HISOBLASH USULLARI

Maxmatqulov Nurilla Imomovich

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrasida dosenti

n.mahmatqulov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada, iqtisodiyot tarmoqlarida texnika yoki texnologik jarayonlarda sodir bo‘lgan avariya oqibatida ko‘rilgan ijtimoiy-iqtisodiy zararni ananaviy usullari asosida hisoblash misollar bilan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *avariya, xavf, xavfsizlik, sharohatlanish, jabrlanish, texnologik jarayonlar, sanoat xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, mehnat resurslari.*

МЕТОДЫ РАСЧЕТА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ОТ АВАРИИ НА ПРОИЗВОДСТВЕ

Махматкулов Нурилла Имомович

Доцент кафедры «Охрана труда и техника безопасности»

Каршинского инженерно-экономического института

n.mahmatqulov@mail.ru

Аннотация: в данной статье на примерах описан расчет социально-экономического ущерба традиционными методами в результате аварий в технических или технологических процессах в отраслях экономики.

Ключевые слова: *авария, риск, безопасность, предупреждение, травматизм, технологические процессы, безопасность, чрезвычайные ситуации, трудовые ресурсы.*

METHODS OF CALCULATING SOCIO-ECONOMIC LOSSES OF ACCIDENTS RELATED TO PRODUCTION

Makhmatkulov Nurilla Imomovich

Associate Professor of the Department of “Labor Protection and Technical Safety”,

Karshi Engineering and Economic Institute

n.mahmatqulov@mail.ru

Abstract: This article defines methods for analyzing and assessing economic damage caused to economic sectors, the population and commercial assets as a result of natural and man-made emergencies, as well as measures to minimize damage.

Key words: *emergency situations, economic sectors, damage, direct, indirect damage, total damage, total damage, environment, assessment, magnitude, injuries, accidents.*

KIRISH

Insoniyat paydo bo‘libdiki, o‘zi va oila a‘zolariga biosferaga tegishli bo‘lgan hududlarda mukammal sharoit yaratish uchun texnosfera deb atalmish muxitni rivojlantirib uni kengaytirib bormoqda. Bundan chiqadiki har bir fuqaro o‘zi yashab turgan jamiyatni shakllantirishdagi, rivojlantirishdagi, ishlab chiqarishda va uni boshqarishdagi asosiy kuch hisoblanadi. Bu kuchlar ta‘sirida mamlaktlar rivojlanadi, aholining ijtimoiy - iqtisodiy yashash sharoiti shaklanadi. Shu bilan birga texnosfera elementlari bo‘lmish ishlab chiqarish korxonalarida xavfli va zararli omilar chastotasi ham oshib boradi. Shu nuqtai nazardan “ Inson- mashina- muxit” tizimida avariya va xolakatlar, baxtsiz xodisalar, kasb kasalliklar soni ham turi ham ortib bormoqda.

Tadqiqot dolzarbligi. Hayot faoliyati nazariyasi asoschilaridan biri fransuz faylasufi F. Marshal ta‘kidlaganidek “Insonning xar bir faoliyati xavflidir.....” degan fikr bugungi kunda o‘z isbotini topmoqda [4] . Chunki biz texnosfera muxitida xavfsizligini ta‘minlash, ishlab chiqarish va ijtimoiy muxitda odamlar yaxshi va shinam yashashi uchun avtomatlashgan, mexanizasiyalashgan mexanizmlar, maishiy elektr uskunalari va qurilmalarni ishlab chiqdik, (elektr va gaz plitalari, elekt yoritish tizimlari va h.k) buning oqibatida esa butun bir insoniyat yashash muxitiga va atrof muxitga ta‘sir etuvchi xavfli va zararli omilar mujmuasini ham vujudga keltirdik [5,6].

Shu sababli ham bugungi sharoitda korxonalarda mehnat xavfsizligini ta‘minlash va xodimlar sog‘lig‘ini saqlash jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti yo‘lidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqti nazardan ham bu mazudagi tadqiqot ishlari dolzarbligicha inson sivilizasiyasida dolzabligicha qoladi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari o‘rganilganlik darajasi insoniyat sivilizasiya boshlanish davrdan boshlab mehnat xavfsizligini ta‘minlash, mehnat faoliyati jarayonini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli omillarni o‘rganishni talab etadi. Shu sababli ham inson mehnat faoliyatidagi xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha tadqiqot ishlari eramizdan oldingi 384–322-yillarda ijod qilgan Aristotel, 460–377-yillarda yashagan Gippokrat asarlarida ham uchraydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tiklanish davrining buyuk, taniqli olimi Paratsels (1493–1541-y.) tog‘ ishlarini bajarishda yuzaga keladigan xavfli omillarni o‘rganib chiqqan va o‘z asarlarida: “Barcha moddalar zahardir va barcha moddalar dori-darmon hamdir. Faqat bir me‘yor

ushbu moddani zaharga aylantirsa, ikkinchi me'yor esa uni dori-darmonga aylantiradi", deb yozadi. Nemis olimi Agrikol (1494–1555- u.) o'zining "Tog' ishlari haqida" nomli asarida, shuningdek, italyan olimi Ramatsin (1633–1714 u.), rus olimi M. V. Lomonosov (1711–1765-u.) o'z asarlarida mehnat muhofazasi masalalariga katta e'tibor qaratgan.

XIX asrda sanoatni intensiv rivojlanishi natijasida mehnat muhofazasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qancha olimlar yetishib chiqdi. Jumladan, V.L.Kirpichev (1845–1913 u.), A.A.Bess (1857–1930 u.), D.R.Nikolskiy (1855–1918 u.), V.A.Levitskiy (1867–1936 u.), A.A.Skochinslay (1874–1960 u.), S.I.Kaplun (1897– 1943 u.) shular jumlasidandir [5].

Vatanimiz olimlaridan O.Q. Qudratov yengil sanoat sohasida, T.I. Iskanderov mehnat gigienasi sohasida, O.R. Yo'ldoshev va G'. Yormatov sanoat va qurilish sohasida, H.E. G'oyipov qishloq xo'jaligi sohasida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi masala va muammolarini yechishda chuqur nazariy va samarali amaliy ishlar olib borishgan.

Tadqiqot maqsadi: ishlab chiqarish korxonalarida xafsiz va sog'lom mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlar va texnologik jarayonlar bilan bog'liq avariya oqibatida xodimlar va boshqa shaxslar sharohatlanishi (o'limi) bilan bog'liq ijtimoiy- iqtisodiy zararlarni an'anaviy hisoblash usullarini takomillashtirish.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar hal etiladi:

1) ishlab chiqarish korxonalarida xafsiz va sog'lom mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlar tahlil qilish;

2) texnologik jarayonlar bilan bog'liq avariya oqibatida xodimlar va boshqa shaxslar sharohatlanishi (o'limi) bilan bog'liq ijtimoiy- iqtisodiy zararlarni an'anaviy usullarida hisoblash va uni takomillashtirish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv adabiyotlarini tahlil qilish, qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish, dasturlash va raqamlashtirish modellari kabi usullardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish korxonalarida xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlar va texnologik jarayonlar bilan bog'liq avariya oqibatida xodimlar va boshqa shaxslar sharohatlanishi (o'limi) bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy zararlarni an'anaviy usullarda hisoblash metodologiyasi takomillashtirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlar, ishlab chiqarishda faoliyat olib borayotgan xodimlar o'limi $P_{g,p}$, uchinchi shaxslar o'limi $P_{g,t,l}$ va (yoki) xodimlar shikastlanishi,

$P_{t,p}$ va uchinchi shaxslar, $P_{t,l}$ jarohati tufayli kompensatsiya va faoliyat xarajatlarini o'z ichiga oladi[6]:

$$P_{se} = P_{g,p} + P_{g,t,l} + P_{t,p} + P_{t,l}, \quad (1)$$

Bunday holda, xodimlar o'limi bilan bog'liq xarajatlar iborat [2,3].

$$P_{g,p} = S_{pog} + S_{p,k}, \quad (2)$$

bunda. S_{pog} – o'lganlarni dafn qilish uchun nafaqa to'lash qiymati, so'm; $S_{p,k}$ - boquvchisi vafot etgan taqdirda nafaqa to'lash uchun xarajatlar, so'm.

Jabrlangan xodimlar bilan bog'liq xarajatlar quyidagi formuladan foydalanib hisoblanishi mumkin [2,3].

$$P_{t,p} = S_v + S_{i,p} S_m, \quad (3)$$

bunda. S_v - vaqtinchalik nogironlik bo'yicha nafaqalarni to'lash xarajatlari, so'm; $S_{i,p}$ - nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiya to'lash uchun xarajatlar, so'm; S_m - jabrlanuvchilar sog'lig'iga yetkazilgan zarar, uning tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiyasi uchun xarajatlar, so'm [8,9].

Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlarni aniqlashda P_{SE} , jabrlanuvchilarga ham, ularning qarindoshlariga ham ma'naviy zararni qoplash ham hisobga olinishi mumkin.

Xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya natijasida o'limdan ko'rilgan zarar, $P_{g,t,l}$ va uchinchi shaxslar shikastlanishi, P_{tl} , xuddi shunday aniqlanadi.

O'lganlarni dafn etish uchun nafaqalarni to'lash xarajatlari voqea sodir bo'lgan sanada ushbu hududda mavjud bo'lgan dafn etish xizmatlari uchun o'rtacha xarajatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Boquvchisi vafot etgan taqdirda quyidagi shaxslar nafaqa olish huquqiga ega [2,3]:

– marhum qaramog'ida bo'lgan yoki vafot etgan kuni undan aliment olish huquqiga ega bo'lgan nogironlar;

– marhum vafotidan keyin tug'ilgan bolasi;

– marhum qaramog'idagi farzandlari, nabiralari, aka-uka va opa-singillari 14 yoshga to'lmagan yoki ularda mehnatga layoqatliligidan qat'iy nazar, ishlamaydigan va boqish bilan band bo'lgan ota-onadan biri, turmush o'rtog'i yoki oilaning boshqa a'zosi. belgilangan yoshga to'lgan, lekin davlat tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati muassasasi yoki davlat sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalarining xulosasiga ko'ra sog'lig'i bo'yicha tashqaridan yordamga muhtoj deb topilgan;

– marhum qaramog'ida bo'lgan va vafot etgan kundan boshlab besh yil ichida nogiron bo'lib qolgan shaxslar.

Boquvchisini yo'qotgan taqdirda oylik to'lovlar to'lanadi:

- voyaga etmaganlar uchun - ular 18 yoshga to'lgunga qadar;
- 18 yoshdan oshgan talabalar-kunduzgi ta'lim muassasalarini tugatgunga qadar, lekin 23 yoshdan oshmasligi kerak;
- 55 yoshga to'lgan ayollar va 60 yoshga to'lgan erkaklar
- umrbod nogironlar uchun;
- nogironlik davri uchun;
- marhum qaramog'idagi farzandlari, nabiralari, aka-uka va opa-singillarini boqish bilan shug'ullanuvchi ota-onadan biri, turmush o'rtog'i yoki oilaning boshqa a'zosi ular 14 yoshga to'lgunga qadar yoki nogironligi bo'lgan taqdirda nogironlik davri uchun.

Boquvchisini yo'qotgan taqdirda oylik to'lov miqdorini uning o'rtacha oylik ish haqi, pensiyalar, umrbod nafaqalar va boshqa shunga o'xshash to'lovlardan o'ziga va mehnatga layoqatli shaxslarga hisoblangan ulushlarni olib tashlagan holda hisoblash tavsiya etiladi [7,10].

Jabrlanuvchi sog'lig'iga yetkazilgan zararni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitasiya qilish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash, quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- qo'shimcha tibbiy yordam (majburiy tibbiy sug'urta uchun ko'rsatilganidan ortiq), shu jumladan qo'shimcha oziq-ovqat va dori-darmonlarni sotib olish;
- jabrlanuvchiga, shu jumladan uning oila a'zolari tomonidan ko'rsatilgandan tashqari (maxsus tibbiy va maishiy) yordam ko'rsatish;
- sanatoriy-kurortda davolanish, shu jumladan ta'til uchun to'lov (Respublika qonunchiligida belgilangan yillik haq to'lanadigan ta'tilga qo'shimcha ravishda) davolanishning butun davri va davolanish joyiga va orqaga qaytish, jabrlanuvchining yo'l haqi; zarur hollarda, shuningdek, unga hamroh bo'lgan shaxsning davolanish joyiga va orqaga qaytishi, ularning turar joyi va ovqatlanishi xarajatlari;
- protezlash, shuningdek jabrlanuvchini ish va uyda zarur bo'lgan asboblardan bilan ta'minlash;
- maxsus avtotransport vositalari bilan ta'minlash, ularni joriy va kapital ta'mirlash hamda yoqilg'i-moylash materiallari uchun xarajatlarni to'lash;
- kasbiy tayyorgarlik (qayta tayyorlash).

Vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari jabrlanuvchi tuzalgunga qadar yoki kasbiy mehnat qobiliyatini doimiy yo'qotgunga qadar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi butun davri uchun qonun hujjatlariga muvofiq hisoblangan o'rtacha ish haqining 100 foizi miqdorida to'lanadi.

Doimiy nogironlik holatida oylik to'lov miqdori [2,3] muvofiq belgilanishi mumkin. Jabrlanuvchining kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga muvofiq hisoblangan baxtsiz hodisaga qadar o'rtacha oylik ish haqining ulushi sifatida.

Jabrlanuvchining kasbiy qobiliyatini yo‘qotish darajasi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza muassasasi tomonidan belgilanadi.

Ish haqiga hududiy koeffisientlar va foizli ustamalar belgilangan hududlarda to‘lovlar miqdori ushbu koeffisientlar va mukofotlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Jabrlanuvchining ish haqi miqdori to‘g‘risidagi hujjatni olishning iloji bo‘lmasa, oylik sug‘urta to‘lovi miqdori ushbu kasb bo‘yicha tarmoqda (quyi tarmoqda) belgilangan tarif stavkasi (rasmiiy ish haqi) va shunga o‘xshashlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Uchinchi shaxslar hayoti va sog‘lig‘ga etkazilgan zarar yetkazilgan da‘volar miqdori bo‘yicha yoki xavfli ishlab chiqarish obyektidagi avariya natijasida xodimlarga yetkazilgan zararni aniqlash bilan bir xil prinsiplar asosida aniqlanishi mumkin.

Baxtsiz hodisadan ko‘rilgan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy yo‘qotishlarni aniqlash uchun ma‘lumot manbalari baxtsiz hodisaning texnik sabablarini tekshirish materiallari, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik guvohnomalari, jabrlanganlar yoki vafot etganlar (jabrlanganlar) oila a‘zolari bayonotlari, vrachlik texnik ekspertiza komissiyasiv, kompensasiya va nafaqa to‘lash to‘g‘risidagi buyruqlar, kasaba uyushmalari, sudlar va hududiy boshqarmalar qarorlari, sug‘urta kompaniyalari ma‘lumotlari va boshqalar xulosalari bo‘lishi mumkin..

Ijtimoiy-iqtisodiy zararining bashorat qilingan miqdorini hisoblash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan kelib chiqish mumkin: zarar etkazuvchi omillar ta‘sir zonasiga kiruvchi odamlar soni, korxonada ishlaydigan xodimlarning o‘rtacha yoshi, xodimlarning o‘rtacha ish haqi, korxonada erkaklar va ayollarning ulushi, har bir xodimga qaramog‘idagilarning o‘rtacha soni, shuningdek, ma‘lum bir hudud uchun tibbiy va dafn marosimi o‘rtacha narxi.

Uchinchi shaxslarga bashorat qilingan ijtimoiy-iqtisodiy zararni baholashda zarar ko‘rgan hududga kiruvchi korxonalar (tashkilotlar) uchun (yuridik shaxslar uchun) yoki ma‘lum bir hudud uchun (jismoniy shaxslar uchun) shunga o‘xshash ko‘rsatkichlardan kelib chiqish mumkin.

Misol uchun, ishlab chiqarish texnologik jarayonlar bilan bog‘liq avariya natijasida korxonalar xodimlariga yetkazilgan zarar amaliy hisoblab ko‘ramiz. Dafn marosimi xizmatlarini ko‘rsatishda o‘rtacha narxi, Spog, voqea sodir bo‘lgan hududda 6 mln so‘mni tashkil qiladi. Marhum qaramog‘ida 9 va 13 yoshli ikki farzandi bor edi. Boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiyalarni to‘lash muddatlari mos ravishda:

$$(18-9) \times 12 = 108 \text{ oy};$$

$$(18-13) \times 12 = 60 \text{ oy}.$$

Shunday qilib, boquvchisini yo‘qotganlik uchun nafaqa olishning butun muddati 168 oyni tashkil qiladi.

Marhum o'rtacha oylik daromadi 6 mln so'm tashkil etdi. Marhumning rafiqasi ishlaydi. Shunday qilib, har bir bola uchun oylik to'lov: $6 \times (1 - 2/4) / 2 = 1,5$ mln so'm bo'ladi. Boquvchisini yo'qotgan taqdirda to'lovning umumiy miqdori, Sp.k, quyidagilar bo'ladi:

$$S_{p,k} = 1500 \times 168 = 252\,000 \text{ mln so'm}$$

Jabrlangan xodimlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitasiya qilish xarajatlari, Sm: 2,4 mln so'm.- bitta jabrlanuvchi olti kun davomida kasalxonada bo'lishi uchun xarajatlar;

1,7 mln so'm - zarur dori vositalarini sotib olish xarajatlari; 10 mln so'm. - kurortda davolash; 6 mln so'm. - kasbiy qayta tayyorlash xarajatlari.

Shunday qilib: $S_m = 2,4 + 1,7 + 10,0 + 6,0 = 20,1$ mln so'm

Baxtsiz hodisa natijasida jarohat olgan shaxs doimiy kasbiy qobiliyatni yo'qotganligi sababli, Spp hisoblanadi.

Jabrlangan yoshi 42 yoshda. Shuning uchun oylik tovon to'lash muddati (60-42) $\times 12 = 216$ oy bo'ladi. Daromaddagi yo'qotish oyiga $6,0 - 3,0 = 3,0$ mln so'm tashkil etdi. = oyiga 3 mln so'm. Shunday qilib, $S_{str} = 21,6 \times 3,0 = 64,8$ mln so'm = 64,8 mln. so'm.

Jabrlanuvchiga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini to'lash, SB (o'rtacha oylik ish haqi 6 mln so'm, baxtsiz hodisa sodir bo'lgan oyning 21 ish kuni va baxtsiz hodisa sodir bo'lgan kundan boshlab doimiy nogironlik belgilangunga qadar bo'lgan davr bilan, teng o'n ish kunigacha) $(6,0/21) \times 10 = 28,6$ mln so'm.

Jabrlanuvchilar va ularning qarindoshlaridan ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi da'volar bo'lmagan.

Natijada, korxonada xodimlari o'limi va jarohati natijasida yetkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlar: $6,0 + 25,2 + 20,1 + 64,8 + 28,6 = 928,9$ mln so'm tashkil qiladi.

Hodisa oqibatida o'tkinchi (uchinchi shaxs) engil tan jarohati oldi, u 1,0 mln rubl miqdorida da'vo arizasi bilan chiqdi. (shu jumladan tibbiy xarajatlar va ma'naviy zararni qoplash).

Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy zarar: 929,9 mln so'mni tashkil etdi.

XULOSA

Yuqorida ta'kidlaganlarga asoslanib, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Ishlab chiqarish bilan bog'liq texnologik qurilmalarda avariya nafaqat iqtisodiyot tarmoqlari uning asosiy elementlari, bino va inshootlarni voyron qiladi, balki, xodimlar va atrofdagi fuqarolar xar turdagi sharohatlanish (o'lim) lar olishi oqibatda korxonada va ijtimoiy ta'minot (sug'urta) kompaniyalari tomonidan kompensasiya (tovon puli) lar to'lash natijasida katta miqdorda iqtisodiy zarar ko'riladi.

Shu sababli ham, korxonalarda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi tizimini doimo takomillashtirish ular belgilangan maqsad asosida moliyalashtirish, texnologik jarayonlarni boshqarish va takomillashtirish orqali avariylar sonini kamaytirish, oqibatlarini esa minimalashtirish mumkin. Bu tadbirlarga ajratilgan mablag‘, avariya oqibatlarini bartaraf etish va jarohatlangan (o‘lgan) larga kompensatsiyalar to‘lovi nisbatan ancha kam bo‘lishi tajribalarga asoslangan.

FOYDALANILGAN ADADIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi mehnat kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida’’gi qonuni. 2008-yil 10-sentabrdagi O‘RQ-174-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)
4. Maxmatqulov N.I. Sanoat xavfsizligi. darslik – : ‘‘Vorish-nashriyot’’, 2023. 347 s.
5. Xolbaev B.M., Raximov O.D., Maxmatkulov N.I. Hayot faoliyati xavfsizligi’’ darslik (2 qismi). – : ‘‘Vorish-nashriyot’’, 2020. 304 s.
6. ГОСТ Р 22.10.01-2001. Безопасность в чрезвычайных ситуациях. Оценка ущерба. Термины и определения/.
7. РД 03-496-02/ Методические рекомендации по оценке ущерба от аварий на опасных производственных объектах.
8. Определение экономических потерь от пожаров: Методические рекомендации. М.: ВНИИПО МВД – 2010.
9. Махматкулов Н.И. Оценка техносферной безопасности на основе математического моделирования// Монография: «Vorish-nashriyot», 2022, 166 – с.
10. Махматкулов Н. И. Пожар как фактор техногенной катастроф// Международный журнал перспективных исследований в области образования, технологий и менеджмента. Том.2, Впуск 9. 2023. 70-77.
11. Махматкулов Н.И. Правильное поведение населения в чрезвычайных ситуациях//международный журнал перспективных исследований в области образования, технологий и менеджмента. том..2, выпуск 9, 2023.175-182.
12. Махматкулов Н. И. Формирование процесса изменений при внедрении системы управления охраной труда в модели «черного ящика» // Цифровые технологии в промышленности Том 1, 2023№ 1 сентябрь.
13. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich; Muradov Sirojiddin Husan o‘g‘li. Innovative Technologies in Teachingdirectors and Specialists of Industrial Enterprises

on "Labor Protection"// European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 2021/12/29. 80-85.

14. O.D. Rakhimov, Muradov S.H. Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques. // European journal of life safety and stability (EJLSS). 2022. №24. P.80-86.

15. Muradov Sirojiddin Husan o`g`li, Xakimov Xurshid Hamidulla o`g`li, & Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. (2021). NEW INNOVATIVE NGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 2, 28-30. Retrieved from <http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/13>

BAND BO‘LMAGAN AHOLINI MUNOSIB ISH O‘RINLARIGA JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Maxmatqulov Nurilla Imomovich

*Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti
“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrasida dosenti*

n.mahmatqulov@mail.ru

Maxmatqulova Zarina Nurilla qizi

Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, band bo‘lmagan aholini munosib ish o‘rinlariga joylashtirish, ishsizlik, norasmiy mehnat bilan shug‘ilanishdagi ijobiy va salbiy tomonlari, qambag‘allikni qisqartirish kabi dolzarb masalalar mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir tahlil qilingan, shuningdek aholini munosib ish o‘rinlariga joylashtirish jarayonlari asosiy mexanizmlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *band bo‘lmagan aholi, ishsizlik, norasmiy mehnat, kambag‘allik, ish o‘rinlari, globallashuv, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, aholi turmish darajasi, ish, mehnat, demografik holat.*

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗМЕЩЕНИЯ БЕЗРАБОТНОМУ НАСЕЛЕНИЮ СООТВЕТСТВУЮЩИЕ РАБОЧИЕ МЕСТА

Махматкулов Нурилла Имомович

*Доцент кафедры «Охрана труда и техника безопасности»
Каршинского инженерно-экономического института*

n.mahmatqulov@mail.ru

Махматкулова Зарина Нурилла кизи

Магистрант университет Альфраганус

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные вопросы, такие как трудоустройство безработного населения на подходящие рабочие места, положительные и отрицательные стороны неформальной занятости, сокращения бедности, влияние на социально-экономическое развитие страны, а также

предложения и рекомендации. об основных механизмах процессов трудоустройства населения на подходящие рабочие места.

Ключевые слова: безработное население, безработица, неформальная занятость, бедность, рабочие места, глобализация, социальный, экономический, политический, уровень жизни, работа, труд, демографический ситуация

ECONOMIC MECHANISMS OF PROVIDING APPROPRIATE JOBS TO THE UNEMPLOYED POPULATION

Makhmatkulov Nurilla Imomovich

Associate Professor of the Department of Occupational Health and Safety at the Karshi Institute of Engineering and Economics

n.mahmatqulov@mail.ru

Makhmatkulova Zarina Nurilla kizi

Master's student at Alfraganus University

Abstract: This article analyzes current issues such as employing the unemployed population in suitable jobs, the positive and negative aspects of informal employment, poverty reduction, the impact on the socio-economic development of the country, as well as suggestions and recommendations. about the basic mechanisms of the processes of employing the population in suitable jobs.

Key words: *unemployed population, unemployment, informal employment, poverty, jobs, globalization, social, economic, political, standard of living, work, labor, demographic status.*

KIRISH

Aholi bandligi va ishsizlik tushunchalari bir- biriga qarama qarshi tushuncha bo'lib, aholi bandligini ta'minlash– qonunchiliklarga zid bo'lmagan mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, mehnatiga loyiq daromadi beradigan faoliyat turidir. Bu esa aholi shinam yashash sharoitini ta'minlaydi, mamalakatlar esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish belgilagan rejasi asosida olib beriladi.

Ishsizlik esa butunlay aksi, aholi orasida ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashadi, ayniqsa, yoshlar xulqi yomonlashadi, norkabeznes, spirtli ichimlik, o'g'irlik va jinayatga bog'liq ishlar avjiga chiqadi, jinoiy, terroristik, ekstermistik guruhlar paydo bo'ladi, mehnatga layoqatli aholi qatlama boshqa mamlakatlardan darmod izlab chiqib

ketadi, infeksiyon kasaliklar avj oladi, odamlarda antropometrik xolatida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Umuman olgan mamlakat ijtimoiy- iqtisodiy- siyosiy parakondga uchraydi.

Ishsizlik -mehnat bozorida talabga ega bo'lmagan mehnatga layoqatli ishchi kuchining mavjudligidir[1].

Tadqiqot dolzabligi. Ilmiy manbalarda band bo'lmagan aholi deganda- haq to'lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan shaxslar tushuniladi"[1]. Hozirgi kunda aholi bandligini ta'minlash munosib ish o'rinlariga joylashtirish, migrasiya masalasini xal etish davlat siyosatidagi eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nutqati nazardan ham tadqiqot mavzusi bozor iqtisodiyot sharoitida dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni, qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Qonunning maqsadi aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat (1- moddasi) [1].

2021-2030-yillarda aholini munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining 2021-2030-yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning maqsadi va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi

N.I.Maxmatqulov, G.R.Murtazayeva, I.T.Usmanxodjayeva "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" fanidan ikki qismdan iborat o'quv qo'llanma. «Fan ziyosi» nashriyoti tomonidan nashr qiligan bo'lib, unda ishlab chiqarish sharoitida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi masallari ko'rigan [4].

Saidov A.X, Bakaeva F.X., Arslanova K.Sh. va boshqlar. Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi "O'zbekiston" nomli nashriyatdan chiqarilgan bo'lib, unda inson huquqlari, jumladan, O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlari yoritib berilgan [5].

Tadqiqot maqsadi: Aholi bandligi ta'minlash, ishsizlik, norasmiy mehnat bilan shug'ilanishdagi ijobiy va salbiy tomonlari, qambag'allikni qisqartirish kabi dolzarb masallarini tahlil qilish asosida aholini munosib ish o'rinlariga joylashtirish jarayonlari mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot maqsadiga ko'ra quyidagi vazifalar xal etiladi:

1) Respublikamizda aholi bandligi ta'minlash qaratilgan normativ- huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;

2) globallashtirilgan iqtisodiyot jarayonida ishsizlik va norasmiy mehnat bilan band bo'lish masallarini o'rganish asosida ularning oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "Inson qachon bahtli bo'ladi – qachonki o'ziga munosib ish o'rnida mehnat qilsa va shunga yarasha daromad topsa ana shunda insonlar bahtli bo'ladi. Insonlar bahtli bo'lsa jamiyat ham davlat ham bahtli bo'ladi" deganlar.

Band bo'lmagan aholi hozirgi vaqtda global xususiyat kasb etmoqda va shu bilan birga globallashtiruv ham belgisidir. Globallashtiruv, ma'lumki, xalqlar, mamlakatlar birlashuv jarayoni; xalqlar o'rtasidagi chegaralar yo'q qilinishi, yagona siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy makon vujudga kelishiga olib keladi. Shu sababli ham mualliflar, tadqiqot obyekti sifatida Respublikamiz aholi birligini ta'minlash masalalarini tahlil qildi va tahlil asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Globallashtiruv umumiy tizimga, jahon bozoriga, turli mamlakatlarning iqtisodiy tizimlarini birlashtiradi, bu esa xalqlar madaniyati va turmush tarzini o'zgartirishga yordam beradi.

Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy – iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p insonlar uchun oilaviy turmush holati pasayishi, insonga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy hayotda ishsizlik-ishchi kuchi taklif va talabdan oshib ketishida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha bo'ladi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, bozorlar tovarlarga bo'lgan talabi kamayadi bu esa ishchi kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ishchi kuchi bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi.

Iqtisodiyot rivojlanishi bilan malakali ishchi kuchiga talab oshib, malakasiz ishchilar kerak bo'lmay qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez o'sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bo'lib, ishsizlar ruyxatiga kirib qoladi.

Bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir[1].

Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda yakka tartibdagi tadbirkorlik, o'zini ish bilan mustaqil ta'minlash, shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi ishlash, uy xo'jaligida band bo'lish va bolalarni parvarishlash bilan shug'ullanishni ham o'z ichiga oladi.

Bandlik – bu ikki tomon o'rtasidagi munosabatlar, odatda ish haqi to'lanadigan shartnoma asosida bir tomon foyda olish uchun, notijorat tashkilot, kooperativ yoki

boshqa tashkilot ish beruvchi, ikkinchisi esa xodimdir. Bandlik odatda mehnat sohasidagi me'yoriy huquqiy xujjatlar asosida tartibga solinadi[5].

O'zbekistonda demografik holat keskinligi, aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlar mehnat bozoriga kirib kelishi aholining barqaror ish bilan bandligi masalasini o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda.

2022-yil 1-yanvar holatida O'zbekistondagi mehnat resurslari soni 19,3 mln kishini tashkil etib, 2020 yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga yoki 202,6 ming kishiga oshgan. Mamlakatda 1,5 ml kishi ishga muhtoj bo'lib, ishsizlik darajasi 9,6 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga kamaygan bo'lsa, 2021-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 0,2 foizga ortgan. Yoshlar orasida ishsizlik darajasi 15,1 foizni, ayollar orasida esa 13,3 foizni tashkil etdi va chet elda ishlash uchun ketganlar 1,8 mln. kishini tashkil qildi. Shuningdek, rasmiy sektorda band aholi soni 6,1 mln kishini tashkil qilgan. Bu 2020-yilning shu davriga nisbatan 6,3 foizga yoki 314,8 ming kishiga o'sishni anglatadi. Norasmiy sektorda band bo'lganlar soni 5,9 mln kishini tashkil etib, 2021-yilning 1-oktyabr holatiga nisbatan 1 foiz yoki 58,4 ming kishiga kamaygan 2022-yilning 1-yanvar holatida respublikada iqtisodiy nafaol aholi 4,4mln kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 foizga yoki 19,8 ming kishiga ortishi kuzatilgan [10].

Shu bilan birga o'tgan 5 yil ichida mehnat sohasida ham aksariyat jarayonlarni raqamlashtirish, mehnat statistikasini Xalqaro mehnat tashkiloti standartlariga moslash, uning real ko'rsatkichlarini ta'minlash, ish bilan bandlikning yangi shakllarini rivojlantirish va keng foydalanish, shaffoflikni ta'minlash va mumkin qadar aholiga barcha xizmatlarni elektron platformalar orqali qulay va tezkor amalga oshirishga erishildi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi passiv choralardan (ishsizlik nafaqalarini to'lash) faol bandlik siyosatiga o'tmoqda (ayniqsa, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar) va ishsizlarni kasbga, tadbirkorlikka o'qitish, mikrokreditlar va subsidiyalar ajratish orqali ularning ish bilan bandligiga ko'mak berishni keng yo'lga qo'ydi. Jumladan, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida tuman (shahar) Aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga 879,5 ming nafar fuqaro ish topishga yordam so'rab murojaat qilgan. Murojaat qilgan fuqarolarning 393,8 ming nafari ish bilan ta'minlanganligi (2021-yilda 281,3 ming ishsiz aholini ishga joylashtirish belgilangan bo'lib) ta'kidlangan. Bundan tashqari, 98,8 ming nafar ishsizlarga 87,1 mlrd so'm ishsizlik nafaqasi tayinlangan va to'lab berilgan [9]. 2021-yil davomida 37,3 ming ishsizlar hamda "ayollar daftari", "yoshlar daftari"ga kiritilgan ishsizlarga 83,1 mlrd so'm subsidiya mablag'lari ajratilgan.

Ilk bor mamlakatimizda norasmiy mehnat bilan bandlik va yashirin iqtisodiyot muammolari ochiq muhokama qila boshlandi va davlatimiz tomonidan uning ko'lamini kamaytirish bo'yicha keng chora-tadbirlar qabul qilindi. Aholining norasmiy

mehnat bilan bandligi hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud bo‘lib, u nafaqat salbiy balki ba’zi muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni bajaradi.

Birinchi, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish topa olmagan inson resurslarini ish bilan va natijada daromad olishlarini ta’minlab, ishsizlikni kamaytiradi), kambag‘allikni oldini oladi hamda o‘z daromadlarini rasmiy sektorda sarflab, ichki talabni oshishi va YaIMning o‘shishiga turtki bo‘ladi.

Ikkinchi, norasmiylik ko‘p hollarda biznes boshlashning bir usuli sifatida rasmiy sektorga o‘tishga qadam hisoblanadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotiga ko‘ra, dunyoda 10 ta ishchidan 6 ta (ish bilan bandlarning 61%) va 5 ta korxonadan 4 tasi yashirin iqtisodiyotda norasmiy faoliyat yuritadi [3].

Norasmiy mehnat bilan bandlikning shakllanishini iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy omillarga ega bo‘lgan hamda pirovard maqsadi iqtisodiy foyda olishga qaratilgan va aksariyat hollarda majburiy ko‘rinishdagi iqtisodiy faoliyat hisoblanadi.

Norasmiy mehnat bilan bandlikning yuqori darajasi mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun turli xavflarga sabab bo‘lishi tufayli uni iqtisodiy xavfsizlik tizimi mezonlariga kiritish muhimligi ilmiy asoslandi. Uning yuqori darajasi mamlakat taraqqiyoti, ijtimoiy ziddiyat, teng raqobat muhiti, tengsizlik, tabaqalanish kuchayishi, aholining rasmiy ijtimoiy tizimida to‘liq qamrab olinmasligi, jamiyatda huquq tartibotiga amal qilmaslik, moliyaviy yo‘qotishlar va boshqa ijtimoiy–iqtisodiy oqibatlariga olib keladi.

O‘zbekistonda norasmiy mehnat bilan bandlar ijtimoiy-demografik holatini tahlili ularning 32,1 foizi – umumiy o‘rta, 61,1 foizi – o‘rta–maxsus va 6,8 foizini – oliy ma’lumotli shaxslar tashkil qilishi aholining ma’lumot va malaka darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mehnat bozorida norasmiy mehnat bilan bandlik darajasi mos holda kamayib borishini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4742-son va 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4804-son qarorlari yashirin iqtisodiyot va norasmiy bandlik darajasini kamaytirishga qaratilgan.

Norasmiy mehnat bilan bandlik darajasiga iqtisodiy, huquqiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-demografik omillar ham ta’sir qiladi. Aksariyat hollarda mehnat bozorida aholining huquqiy savodxonligi bo‘lmagan, o‘rta va o‘rta maxsus ma’lumotli,

o‘z kasbi va malakasi bo‘yicha iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish topaolmagan guruhlarini norasmiy mehnat munosabatlariga kirishadilar.

XULOSA

Dunyoda ishsizlik global muammo sanaladi. Xalqaro mehnat tashkiloti “ishsiz insonni baxtsiz inson” deya e‘lon qildi. Shuni o‘zidan ko‘rinib turibdiki inson nafaqat moddiy balki ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishi uchun mehnat qilishi kerak.

Bundan tashqari inson mehnat qilish orqali turmush sharoitini yaxshilaydi. Jamiyatga va davlatga foyda keltiradi. Kelajak avlodni nafaqat ta‘minlaydi balki kelajak avlod uchun muhim poydevor quradi.

Shuningdek, Mehnat kodeksi ham ilg‘or mamlakatlar tajribasi asosida qayta ishlandi va turli muhokamalardan o‘tib, 2024-yil 1-aprelda yangi tahriyati qabul qilindi. Unda mehnat munosabatlarini tartibga solishning zamonaviy usullari, ish beruvchi va yollangan xodim o‘rtasida, ijtimoiy sherikchilik, yakka tartibdagi mehnat munosabatlar va boshqa masalalar o‘z yechimini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi balligi to‘g‘risida”gi qonuni 20.10.2020-yildagi O‘RQ-642-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-366-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2023
4. N.I.Maxmatqulov, G.R.Murtazayeva, I.T.Usmanxodjayeva “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” (I-qism). O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan ziyosi” nashriyoti. 2023. 312 b. o‘
5. A.X Saidov, F.X. Bakaeva, K.Sh. Arslanova va boshqlar. Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi – T.: “O‘zbekiston”, 2010. – 368 b.
6. G Abdurahmonova . Inson resurslarini boshqarish 2020.
7. Н.И. Махматкулов. Оценка техносферной безопасности на основе математического моделирования// Монография: «Ворис-нашприёт», 2022,166 – с.
8. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich; Muradov Sirojiddin Husan o‘g‘li. Innovative Technologies in Teachingdirectors and Specialists of Industrial Enterprises on "Labor Protection"// European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 2021/12/29. 80-85.
9. O.D. Rakhimov, Muradov S.H. Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques. // European journal of life safety and stability (EJLSS). 2022. №24. P.80-86

10. Muradov Sirojiddin Husan o`g`li, Xakimov Xurshid Hamidulla o`g`li, & Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. (2021). NEW INNOVATIVE NGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 2, 28-30. Retrieved from <http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/13>

SANOAT OBYEKTLARIDA SODIR BO‘LGAN AVARIYALAR OQIBATIDA BEVOSITA KO‘RILGAN ZARARNI HISOBLASH USULLARI

Mamatov Nurbek Ziyodullayevich

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”
kafedrasi dosenti*

nurbek.mamatov.1989@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada, iqtisodiyot tarmoqlarida sodir bo‘lgan texnogen favqulodda vaziyatlar ta’sirida obyektgadagi mavjud bino va inshootlar, uskuna va qurilmalar, atrof muhit shuning xodimalar hayoti va sog‘ligida keltirilgan bevosita zararni hisoblash usullari misollar bilan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *bino va inshootlar, uskuna va qurilmalar, obyekt elementlari, bevosita zarar, favqulodda vaziyatlar, texnogen avariya, iqtisodiyot obyektlari, moddiy boyliklar, atrof- muhit.*

МЕТОДЫ РАСЧЕТА ПРЯМОГО УЩЕРБА ПРИ АВАРИЯХ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ОБЪЕКТАХ

Маматов Нурбек Зиёдуллаевич

*Доцент кафедры «Охрана труда и техника безопасность» Каршинского
инженерно-экономического института*

nurbek.mamatov.1989@mail.ru

Аннотация: В данной статье на примерах описаны методы расчета прямого ущерба, причиненного существующим зданиям и сооружениям, оборудованию и приборам, окружающей среде, а также, жизни и здоровью работников, в результате чрезвычайных ситуаций техногенного характера, произошедших на территории предприятия.

Ключевые слова: *здания и сооружения, оборудование и устройства, элементы объектов, прямой ущерб, чрезвычайные ситуации, техногенные аварии, объекты экономики, материальные ценности, окружающая среда.*

METHODS FOR CALCULATING DIRECT DAMAGE IN ACCIDENTS AT INDUSTRIAL FACILITIES

Mamatov Nurbek Ziyodullayevich

Associate Professor, Department of Occupational Health and Safety, Karshi Engineering and Economic Institute

nurbek.mamatov.1989@mail.ru

Abstract: This article describes, using examples, methods for calculating direct damage caused to existing buildings and structures, equipment and devices, the environment, as well as the life and health of workers, as a result of man-made emergencies that occurred on the territory of the enterprise.

Key words: *buildings and structures, equipment and devices, elements of objects, direct damage, emergency situations, man-made accidents, economic objects, material assets, environment.*

KIRISH

Jamiyat uchun texnosfera inson sivilizasiyasida asosiy o‘rin tutsada, u xavfli hisoblanadi, chunki unda ma’lum bir vazifani amalga oshirish uchun har qanday ishlab chiqarish jarayonida zararli va xavfli energiya oqimlaridan himoyalaniшни talab qiladi.

Inson hayot faoliyati-bu kundalik faoliyat yo‘lidir, ya’ni, inson mavjudligini anglatadi. Inson yashashi uchun texnosferadagi fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy va axborot kabi xavfli oqimlarda kamida ikkita vazifani bir vaqtda bajarishga majbur bo‘ladi: birinchidan, hayotiy ehtiyojlarini ta’minlaydi (oziq-ovqat, suv, havo va boshqlar) ikkinchidan, atrof-muhitning o‘ziga xos salbiy ta’sirlardan himoya qilish tizimini yaratadi. Ikkinchi vazifasini bajarishda: insonga “Xavfsizlik” tushunchasi, ya’ni salbiy oqimlardan himoya qilish muammolarini yechishga intiladi[2].

Bu ekotizim to‘liq xavfdan (avariya, xolokat, favqulodda vaziyat) xoli emas. Bundan chiqadiki bu xavflar ta’sirida ko‘riladigan ijtimoiy- iqtisodiy zararlardan ham to‘liq xoli emas, lekin, uning ulchovini minimalashtirish imkoniyati insoniyatda saqlanib qolgan. Buning uchun esa texnosferani ilmiy asoslarda qurish talab etiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi ham aynan muallif tomonidan yuqorida sanab utilgan texnosferadagi salbiy oqimlardan aholi va atrof muhitga yetkaziladigan ijtimoiy-iqtisodiy zararlarni hisoblash va uning ulchovlarini minimalashtirishga qaratilgan imiy-metodik asoslarni tahlil qilish va uni takomillashtirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Insoniyat sivilizasiya boshlanish davrdan boshlab, o‘zini va yaqinlarining xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirib keladi. Bu masalada bir qancha gepotizalar, nazariylar va amaliy ishlar amalga oshirilganki, oxir oqibatda inson o‘z qo‘li bilan yaratgan murakkab texnologik qurilmalar o‘zi uchun xavf manbaiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga xavfsizlik masalasida eramizdan oldingi yillarda ijod qilgan grik faylosiflari Aristotel, Gippokrat, tiklanish davrining buyuk, taniqli

olimi Paratsels (1493–1541 y.) tog‘ ishlarini bajarishda yuzaga keladigan xavfli omillarni o‘rganib chiqib va o‘z asarlarida: «Barcha moddalar zahardir va barcha moddalar dori-darmon hamdir. Faqat bir me‘yor ushbu moddani zaharga aylantirsa, ikkinchi me‘yor esa uni dori-darmonga aylantiradi», deb yozadi. Bundan tashqari Nemis olimi Agrikol, italyan olimi Ramasin (1633–1714u.), Rus olimi D.V. Lomonosovlar, XIX asrda ijod qilgan V.L.Kirpichev (1845–1913 u.), A.A.Bess (1857–1930 u), D.R.Nikolskiy (1855–1918 u.), V.A.Levitskiy (1867–1936 u.), A.A.Skochinslay (1874–1960 u.), S.I. Kaplun (1897–1943 u) shular jumlasidandir.

O‘rta asrlarda yashagan o‘zbek olimlaridan: Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Zaxriddin Muhammad Bobur, Al-Xorezmiy va. Albert Velikiylar inson faoliyatida sog‘ligi va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta‘minlashga qaratilgan ilmiy asarlar yaratgan.

Tadqiqot maqsadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida texnogen favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda uning oqibatida keltirgan zararni hisoblash asosida uni baholash va xavfsizlikni ta‘minlash metodikasi algaritmini ishlab chiqish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** hal qilindi.

1. Iqtisodiyot tarmoqlarida xavfsizlikga tahdid qiluvchi xavfli oqimlardan himoya qilishni baholashda ananaviy metodlarini o‘rganish va tahlil qilish.

2. Favqulodda vaziyatlar ta‘sirida, bevosita zararlarni samarali kamaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha olingan xulosalar va ularning amaliy ahamiyati. Xavfsizlikni boshqarish tizimidagi ananaviy metodini muallif tomonidan taklif etilayotgan algaritimini qo‘llash, barcha darajadagi rahbarlarni “sust” va samarasiz munosabatini o‘zgartiradi, Ya‘ni,

1) xavfsizlikni loyihalashni amalga oshirishda maqsadli va samarali tarzda rejalashtiradi;

2) muhandis-texnik va ishchi xodimlarini texnika xavfsizligi sohasiga rioya etish madaniyati shaklanadi;

3) xodimlar mehnatni muhofaza qilish standartlari va qoidalariga rioya qilish uchun shaxsiy javobgarlik darajasi oshadi;

4) ish beruvchiga xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun samarali iqtisodiy rag‘batlantirish usullarini taklif qiladi;

5) mehnat muhofazasi sohasida maqsadli moliyalashtirishni amalga oshiradi.

METODOLOGIYA

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining ananaviy metodlarini tahlil qilinish asosida ayrim elementlari takomillashtirilib algaritimi yaratiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xavfli ishlab chiqarish obyektida sodir bo'lgan texnogen avariya oqibatida yetkazilgan zarar tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- avariya sodir bo'lgan xavfli ishlab chiqarish obyektini ishlatuvchi tashkilotning umumiy moliyaviy yo'qotishlari[5];
- avariyaning tugatish xarajatlari;
- odamlar shikastlanishi va o'limi (tashkilot xodimlari va uchinchi shaxslar) bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlar;
- tabiiy muhitga etkazilgan zarar;
- mehnat resurslaridan foydalanishdan davlatga bilvosita zarar va yo'qotishlar.

Xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya oqibatida yetkazilgan umumiy zararni quyidagi formula bilan ifodalaniishi mumkin:

$$P_a = P_{p,p} + P_{l,a} + P_{s,e} + P_{n,v} + P_{ekol} + P_{v,t,r}, \quad (1)$$

bunda, P_a - baxtsiz hodisalardan jami zarar, so'm; $P_{p,p}$ - xavfli ishlab chiqarish obyektida ishlaydigan tashkilotning bevosita yo'qotishlari, so'm; $P_{l,a}$ - avariyaning mahalliyashtirish (tugatish) va tergov xarajatlari, so'm; $P_{s,e}$ - ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlar (odamlarning o'limi va shikastlanishi natijasida yetkazilgan xarajatlar), so'm; $P_{n,v}$ - bilvosita zarar, so'm; P_{ekol} - atrof-muhitga zarar (atrof-muhit obyektlariga etkazilgan zarar), so'm; $P_{v,t,r}$ - odamlarning o'limi yoki ularning mehnat qobiliyatini yo'qotishi natijasida mehnat resurslarining pensiyaga chiqishidan yo'qotishlar.

Iqtisodiyot tarmoqlariga avariya oqibatlari keltirilgan bevosita zarar boshqa turdagi zararlarga nisbatan avariya sodir bo'lgan obyektga ko'proq zarar etkazadi. Shu nuqti nazardan tadqiqot obyekti sifatida bevosita zararni hisoblash orqali uni oqibatlari baholanadi.

Avariya oqibatida ko'rilgan bevosita zararni, $P_{p,p}$ -formula bilan aniqlanishi mumkin

$$P_{p,p} = P_{of} + P_{t,m,ts} + P_{im}, \quad (2)$$

bunda, P_{of} - asosiy vositalar yoroqsizlanishi natijasida obyekt ko'rgan zarar miqdori, so'm; $P_{t,m,ts}$ -obyektdagi inventar yoroqsizlanishi natijasida obyekt ko'rgan zarar miqdori, so'm; P_{im} - uchinchi shaxslar mulkini yo'qotish natijasida ko'rilgan zarar miqdori, so'm.

(2) formulada kiritilgan avariya oqibatida bevosita zararining tarkibiy qismlarini mallif quyidagicha aniqlashni tavsiya etadi.

Obyektdagi asosiy vositalar - ishlab chiqarish va noishlab chiqarish vositalari avariya natijasida yoroqsiz xolatga kelishidan ko'rgan zarar, P_{of} , vayron bo'lish natijasidagi zarar $P_{o,f,u}$ va zarar; $P_{o,f,p}$, asosiy vositalar yig'indisi sifatida aniqlanishi mumkin,

$$P_{o,f} = P_{o,f,u} + P_{o,f,p}, \quad (3)$$

bunday holda, $P_{o.f.u}$ ni quydagi formuladan foydalanib hisoblash mumkin:

$$P_{ofy} = \sum_{i=1}^n (S_{oi} - (S_{mi} - S_{yi})), \quad (4)$$

bunda, n - yoroqsizlagan asosiy vositalar turlari soni; S_{oi} - yo‘q qilingan asosiy vositalarning i -turini almashtirish yoki qayta ishlab chiqarish (va aniqlash qiyin bo‘lsa - qoldiq qiymati) qiymati, so‘m; S_{mi} - mos keladigan i -turdagi moddiy boyliklar qiymati keyingi foydalanish uchun sarflanadi qiymat; S_{yi} - yoroqsizlagan asosiy vositalar i -turi, so‘m.

Uskunalar, mexanizmlar, transport vositalari, inventarlarni almashtirish qiymati o‘rniga boshqasini sotib olish uchun zarur bo‘lgan miqdorga qarab, amortizatsiyani, shu jumladan transport va o‘rnatish xarajatlarini, bojxona to‘lovlarini va boshqa to‘lovlarni hisobga olgan holda belgilanishi mumkin.

Bino va inshootlar uchun almashtirish qiymati, uning eskirishi va qurilish materiallari sifati bo‘yicha vayron bo‘lgan obyektga o‘xshash obyektning ma‘lum bir maydoni uchun qurilish loyiha qiymati asosida aniqlanishi mumkin.

Agar vayron qilingan asosiy vositalar ayrim turlarini almashtirish xarajatlarini ularning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra yoki boshqa sabablarga ko‘ra aniqlash qiyin bo‘lsa, S_{oi} qoldiq qiymati bo‘yicha aniqlanishi mumkin.

Mulkg qisman zarar yetkazilgan taqdirda, zarar qiymati, $P_{o.f.p}$, avariya sodir bo‘lishidan oldingi holatga qaytarish uchun xarajatlar miqdorida aniqlash va quyidagilarni hisobga olish tavsiya etiladi.

- ta‘mirlash uchun materiallar va ehtiyot qismlar uchun xarajatlar, so‘m;
- uchinchi tomon ta‘mirlash xizmatlarini to‘lash uchun xarajatlar, so‘m;
- qayta tiklash uchun zarur bo‘lgan elektr va boshqa energiya narxi, so‘m;
- ta‘mirlash joyiga materiallarni yetkazib berish xarajatlari va obyektzni avariya dan oldingi holatga qaytarish uchun zarur bo‘lgan boshqa xarajatlar, so‘m;
- ortiqcha ish, tungi ish va rasmiy bayramlar uchun ish haqiga qo‘shimchalar, so‘m.

Qayta tiklash xarajatlari miqdoridan ta‘mirlash jarayonida almashtirilgan qismlar, agregatlar va boshqa butlovchi qismlar eskirishi uchun ajratmalar amalga oshiriladi.

Qayta tiklash xarajatlari odatda quyidagilarni o‘z ichiga olmaydi:

- zarar ko‘rgan mulkni o‘zgartirish yoki yaxshilash natijasida kelib chiqadigan qo‘shimcha xarajatlar;
- kapital ta‘mirlash, profilaktik ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari, shuningdek, avariya faktidan qat‘i nazar, zarur bo‘lgan boshqa xarajatlar;
- zarur bo‘lganidan ortiq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Avariya natijasida asosiy vositalar yo‘q qilinishi natijasida yo‘qotishlarni baholash uchun mulkni baholashda qo‘llaniladigan usullar qo‘llanilishi mumkin.

$P_{tm,ts}$ avariya natijasida inventar aktivlar yoroqsizlanishi natijasida obyektlardagi aktivlar yo‘qotishlari har bir turi bo‘yicha miqdori quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$P_{mtm} = \sum_{i=1}^n P_{ti} + \sum_{i=1}^m P_{sj}, \quad (5)$$

bunda, n - baxtsiz hodisa natijasida zarar ko‘rgan tovarlar turlari soni; $P_{ti} - P_t$ - obyekt tomonidan ishlab chiqarilgan (tugallanmagan va tayyor) mahsulotning i -turiga yetkazilgan zarar, so‘m; m - avariya natijasida zarar ko‘rgan xom ashyo turlarining soni; P_{sj} – obyekt tomonidan sotib olingan j -navdagi mahsulotga, shuningdek, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarga yetkazilgan zarar, so‘m;

P_{ti} -ularni qayta ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan, lekin bozor qiymatidan yuqori bo‘lmagan ishlab chiqarish xarajatlari asosida aniqlanishi mumkin.

P_j -ni qayta sotib olish uchun zarur bo‘lgan narxlarda, lekin ular voqya sodir bo‘lgan sanada sotilishi mumkin bo‘lgan narxlardan, shuningdek ularni tashish va qadoqlash xarajatlaridan yuqori bo‘lmagan narxlarda aniqlash tavsiya etiladi.

Avariya sodir bo‘lgan paytda mavjud bo‘lgan inventar buyumlar miqdori va qiymati buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida aniqlanishi mumkin.

$P_{tm,ts}$ inventarlar yoroqsizlanishini bashorat qilingan zararni hisoblash uchun zarar ko‘rgan hududga kiruvchi obyektlarda mahsulot va xom ashyoning o‘rtacha yillik saqlash hajmi, shuningdek, ushbu turdagi tovarlar o‘rtacha ulgurji narxlaridan kelib chiqish mumkin[5].

Avariya natijasida uchinchi shaxslar (shu jumladan aholi) mol-mulki nobud bo‘lishi (shikastlanishi) natijasida yetkazilgan zararni obyekt mulkiga yetkazilgan zararni aniqlashga o‘xshash tarzda aniqlash tavsiya etiladi. shuningdek mulkka egalik qilish huquqiga ega bo‘lgan narsalar bozor qiymati asosida yoki sug‘urta kompaniyalari ma’lumotlarini hisobga olgan holda olinadi.

Shartli ravishda quyidagi misolda ob’ektda sodir bo‘lgan avariya oqibatida ko‘rilgan bevosita iqtisodiy zarar miqdorini ko‘rib chiqamiz.

Shurtan neft gazni qayta ishlab chiqarish obyektida sodir bo‘lgan avariya (80% neft bilan to‘ldirilgan ZhBR-10000 rezervor portlash oqibatida neft to‘kilishi va yong‘in sodir bo‘lishi natijasida rezervor butunlay yoroqsiz bo‘lgan, bir nechta binolar. Obyektlar yengil zarar yetgan, ikki nafar 9 va 13 yoshli voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan xodim vafot etgan va ikki nafar (xodim, uchinchi shaxs) jabrlangan.

Yoroqsizlagan rezervor qoldiq qiymati 6,08 mln so‘m tashkil qiladi. Moddiy boyliklarni sotish qiymati 0,08 mln so‘mni tashkil etdi.

Avariya oqibatida a ishlamay qolish muddati 10 kunni tashkil etdi; o'rtacha kunlik foyda- ob'ekt uchun 50 ming so'm; yarim qat'iy xarajatlar bir qismi - kuniga 2 ming so'm.

Ushbu korxonaga uchun texnologik jihatdan ushbu avariya obyekti bilan bog'liq bo'lgan boshqa ishlab chiqarish obyektlari to'xtab qolish xolatlari qayd etilmagan.

Yechish usuli:

P_{pr} , -asosiy ishlab chiqarish fondlari (bino, asbob-uskunalar) avariya holatida yoroqsizlanishi natijasida:

Avariya paytida asosiy ishlab chiqarish fondlari yoroqsizlanishi natijasida obyektga yetkazilgan zarar $P_{o.f.u} = 6\,080\,000 - 80\,000 = 6\text{ mln so'm}$.

Avariya natijasida asosiy ishlab chiqarish fondlariga yetkazilgan zarar natijasida obyekt ko'radigan zarar, $P_{o.f.p}$:

- uskunalar va mexanizmlarni ta'mirlash va tiklash qiymati - 200 mln so'm;
- joriy ta'mirlash qiymati (oynalarni almashtirish, fasad ishlari) - 20 mln so'm;
- joriy ta'mirlash uchun xizmatlar narxi 15 mln so'm;
- transport xarajatlari, ish haqiga qo'shimchalar va qo'shimcha elektr energiyasi uchun xarajatlar 10 mln so'm tashkil etdi.

Shunday qilib, $P_{o.f.p} = 200 + 20 + 15 + 10 = 245\text{ mln so'm}$.

Mahsulotni yo'qotishlari (JBR-10000 tipidagi rezervor, 80% to'ldirilgan, quruqlikka to'kilgan neft – yig'ish darajasi - 60%, avariya vaqtida neftning o'rtacha ulgurji sotish narxi 1362 so'm/t) 3,635 mln so'mni tashkil etdi. Moddiy boyliklarga yetkazilgan zarar unchalik katta emas, uchinchi shaxslar mulkiga zarar yetkazilmagan-bevosita zarar boshqa tarkibiy qismlari hisobga olinmaydi.

Shunday qilib, (2) formulaga muvofiq: $P_{p.p} = 6 + 245 + 3,6 = 254,6\text{ mln so'm}$. zarar bevosita iqtisodiy ko'rilgan zarar hisoblanadi.

XULOSA

Iqtisodiyot tarmoqlarida texnologik jarayonlar bilan bog'liq texnogen avariya sodir bo'lib turishi bu tabiiy xol, lekin bu avariya ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qilmasligi kerak.

Shu nuqti nazardan:

1) favqulodda vaziyatlarda barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida, sanoat binolarini loyihalash, qurish va foydalanishda xavfsizligini ta'minlash, materillar (maxsulotlar) zaxirasini jamlash;

2) zamonaviy va xavfsiz bo'lgan texnologik uskuna va qurilmalarni ishlatish;

3) xavfli va zararli, portlash-yong'in xavfi mavjud maxsulotlarni minimal zaxirasini saqlash;

4) xodimlar favqulodda vaziyatlarda xarakat qilishga tayyorlash va boshqa bir qancha obyektlar ma'muriyatiga ma'suliyatlari turadi.

FOYDALANILGAN ADADIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni 2006 yil 28 sentyabrdagi O‘RQ-57-son
2. Maxmatqulov N.I. Sanoat xavfsizligi. darslik – : «Voris-nashriyot», 2023. 347 s.
3. Xolbaev B.M., Raximov O.D., Maxmatkulov N.I. Hayot faoliyati xavfsizligi” darslik (2 qismi). – : «Voris-nashriyot», 2020. 304 s.
4. ГОСТ Р 22.10.01-2001. Безопасность в чрезвычайных ситуациях. Оценка ущерба. Термины и определения.
5. РД 03-496-02/ Методические рекомендации по оценке ущерба от аварий на опасных производственных объектах. Москва- 2002
6. Определение экономических потерь от пожаров: Методические рекомендации. М.: ВНИИПО МВД – 2010
7. Махматкулов Н.И. Оценка техносферной безопасности на основе математического моделирования// Монография: «Voris-nashriyot», 2022, 166 – с.
8. Махматкулов Н. И. Пожар как фактор техногенной катастроф// Международный журнал перспективных исследований в области образования, технологий и менеджмента. Том.2, Впуск 9. 2023. 70-77.
9. Махматкулов Н.И. Правильное поведение населения в чрезвычайных ситуациях//международный журнал перспективных исследований в области образования, технологий и менеджмента. том..2, выпуск 9, 2023.175-182
10. Махматкулов Н. И. Формирование процесса изменений при внедрении системы управления охраной труда в модели «черного ящика» // Цифровые технологии в промышленности Том 1, 2023№ 1 сентябрь
11. Maxmatqulov N.I., Karimov S. X. “Atrof muxit xolati va uni muxofaza qilish”. Fan, muxofaza, xavfsizlik ilmiy amaliy jurnal 2019 yil. 2(3) – sonli. 36-41 b
12. www.ziyo.edu.uz- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
13. www.mchs.gov.uz- O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi.
14. A.N.Khazratov, O.Sh.Bazarov, A.R.Jumayev, F.F.Bobomurodov, N.Z.Mamatov. Influence of cohesion strength in cohesive soils onchannel bed erosion. E3S Web of Conferences 410, 05018 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202341005018> FORM-2023
15. S. Eshev, N. Linkevich, A. Rahimov, A. Khazratov, N. Mamatov, and E. Sharipov. Calculation of Its Dynamically Stable Cross-section in the Steady Motion of

the Channel Flow. Cite as: AIP Conference Proceedings 2612, 050007 (2023); <https://doi.org/10.1063/5.0113267> Published Online: 15 March 2023

16. Mirzayev O.A., Urakov N.A., Mamatov N.Z. Proceed vibrations of a composite chevron-type feed cylinder with torsional resistance. JMEA journal of modern educational achievements 2023, volume 11

NARX KATEGORIYASIGA BO‘LGAN NAZARIY QARASHLAR**Bababekova Gulchehra Baxtiyarovna***Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Umumiqtisodiyoti” kafedrası katta o‘qituvchisi*

gulchehrabababekova2023@mail.ru

Bababekova Nargiza Baxtiyarovna*Toshkent Amaliy fanlar universiteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası katta o‘qituvchisi*

azmyus0960@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada narxning iqtisodiy kategoriya sifatida mazmuni va shakllanishi hamda unga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Narxni shakllanish jarayonlari mumtoz va yetakchi iqtisodchi olimlarning qarashlari tadqiq qilingan. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan tadqiqot metodlari berilgan. Tahlillar asosida tegishli xulosa va takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bozor, narx, konyuktura, talab, taklif, naflilik, qiymat, raqobat, omil, kategoriya, ishlab chiqarish, harajat.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ О ЦЕНОВОЙ КАТЕГОРИИ**Бабабекова Гулчехра Бахтияровна***Старший преподаватель кафедры “Общэкономика” Ташкентского университета прикладных наук (UTAS)*

gulchehrabababekova2023@mail.ru

Бабабекова Наргиза Бахтияровна*Старший преподаватель кафедры “Экономика отраслей” Ташкентского университета прикладных наук (UTAS)*

azmyus0960@gmail.com

Аннотация: В данной статье изложены сущность и цены как экономической категории, а также факторы, влияющие на нее формирование. Изучены взгляды ведущих экономистов и классиков формирования цены как экономической категория . Приведены методы исследования, используемые в

исследовательском процессе. На основе анализа изложены соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: рынок, цена, конъюнктура, спрос, предложение, полезность, стоимость, конкуренция, фактор, категория, производство, стоимость.

THEORETICAL APPROACHES ABOUT PRICE CATEGORY

Bababekova Gulchehra Bakhtiyarovna

Senior Lecturer at the Department of General Economics, Tashkent University of Applied Sciences (UTAS)

gulchehrabababekova2023@mail.ru

Bababekova Nargiza Bakhtiyarovna

Senior Lecturer at the Department of Economics of Industries, Tashkent University of Applied Sciences (UTAS)

azmyus0960@gmail.com

Abstract: This article outlines the essence and prices as an economic category, as well as the factors influencing its formation. The views of leading economists and classics of price formation as an economic category have been studied. The research methods used in the research process are given. Based on the analysis, relevant conclusions and recommendations are presented.

Key words: market, price, conjuncture, demand, supply, utility, cost, competition, factor, category, production, cost.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotning barqaror ravishda rivojlanishi, uning tarkibiy tuzilmasidagi o‘zaro ichki mutanosiblik va muvozanatning ta’minlanishi ko‘p jihatdan narxga bog‘liq. Narx va narxni shakllanishi iqtisodiyotining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida narxning shakllanish jarayonlari iqtisodiy islohotlar davrida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon narxlarni shakllantirish va unga ta’sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda unda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishni talab etadi. Shu o‘rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Davlat tomonidan 37 turdagi mahsulot va xizmatlar narxining tartibga solinayotgani erkin raqobatga salbiy ta’sir qilmoqda. Shuni hisobga olib, endi asosiy e’tiborni narxlarni

belgilashga emas, balki korxonalar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali narxlarni pasaytirishga va sifatni oshirishga qaratishimiz kerak" [1]. Ushbu nuqtai-nazardan narxlarning iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanishi va unga ta'sir etuvchi omillarni xorijlik va maxalliy iqtisodchi olimlarimiz tomonlaridan bildirilgan nazariy qarashlar asosida tahlil etishni lozim topdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Narxning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni iqtisodiy mohiyatini klassik va hozirgi zamon yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, iqtisodiy tarix sahnasida Aristotel pulning tovar munosabatlari asosida vujudga kelishi, narx esa tovarning pulda ifodalanishi ekanligini ta'kidlagan [2]. Shuningdek, xorijlik iqtisodchi olimlardan S.A.Bartenev "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" nomli darslikda u ayirboshlash shaxsiy ehtiyojlarning oqilona hajmiga muvofiq holdagi "adolatli narx" bo'yicha amalga oshishi lozimligini ta'kidlaydi [3]. Tabiiy narx to'g'risidagi ta'limot asoschisi V.Pettining fikriga ko'ra tabiiy narxni qiymat deb bilganlarini oqlash uchun ishlatildi. [4]

Kembrij maktabi asoschisi A.Marshall narx nazariyasi bo'yicha so'z yuritar ekan, mazkur nazariya uning nazariy mulohazalari markazida turadi.

A.Marshall qiymat va narx kategoriyalarini aynan bir narsa deb ko'rsatib, aslida, qiymatni tenglashtirib qo'ydi va narxni bozor munosabatining eng muhim elementi deb hisobladi. [5]

Fransuz klassik iqtisodchilaridan bo'lmish P.Buagilber ham narx nazariyasiga hissa qo'shgan bo'lib, u o'z e'tiborini narxlarni belgilashda optimal narxning paydo bo'lishiga qaratdi. [6]

Shu o'rinda akademik M.Sh.Sharifxo'jayev, prof. O'lmasovlar narxning shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etishini qayd etganlar: "Qiymat narxning obyektiv asosi bo'lsa-da, uni shakllantiruvchi yagona omil emas, naflilik yuqori bo'lishi baland narxni taqoza etsa, raqobat kurashi uni pasaytiradi "Narxni shakllantiruvchi eng muhim omil talab va taklif nisbati" [7] asosiy omil sifatida yuzaga chiqishini qayd etganlar.

Professor Sh.Sh.Shodmonov, prof. R.H. Alimov, dots. T.T. Jo'rayevlar tomonidan narxni shakllantirishda quyidagi omillar ta'sir etishini qayd etganlar: "Qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari, tovarning naflilik darajasi; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati; davlatning iqtisodiy siyosati va h.k. Bu omillar ichida tovar qiymati va nafliligi uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi" [8].

Len Rodjersning fikriga ko'ra "tovar ishlab chiqaruvchilar narxni belgilanishiga quyidagi omillar ta'sirida qiymat, harajat, raqobat, maishiy rag'batlantirish, jamoat fikri, xizmat ko'rsatish ta'siri kabi omillar asosida yuz beradi" [9] deb qayd etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning metodologiyasi tizimli yondoshuv, ilmiy tadqiqot jarayonida kuzatish solishtirish va hamda tendentsiyalarni tahlil qilish usullari qo'llanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Narxning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni quyidagi jarayonlar orqali namoyon bo'ladi: narxning iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi asosiy tavsifiy belgi va ichki rivojlanish qonuniyatlarini ochib berish; uning iqtisodiy vazifalari hamda amal qilish tamoyillarini aniqlash; narxlarning shakllanishi, ulardan to'g'ri va samarali foydalanish hamda iqtisodiyotni boshqarishda tutgan o'rnini aniqlash; narx tizimini tahlil qilish va ulardan samarali foydalanishning shart-sharoitlarini ko'rib chiqish va hakozo.

Narxning mazmuniga qiziqish, uning obyektiv asoslarini tadqiq etishga urinishlar nisbatan ancha ilgari boshlangan. Jumladan, Aristotel pulning tovar munosabatlari asosida vujudga kelishi, narx esa tovarning pulda ifodalanishi ekanligini qayd etilgan. Shuningdek, u ayirboshlash shaxsiy ehtiyojlarning oqilona hajmiga muvofiq holdagi "adolatli narx" bo'yicha amalga oshishi lozimligi klassik olimlar tomondan ilgari surilgandir. Bu borada o'rta asrlarda "adolatli" narx qanday bo'lishi kerakligi to'g'risida bahslar borilgan bo'lib, "adolatli" narx ikkita talabga javob berishi lozim. Birinchidan, u "mehnat va xarajatlar" miqdoriga muvofiq ayirboshlashning ekvivalentligini ta'minlashi lozim. Ikkinchidan, ayirboshlash ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeiga ko'ra ularning hayot kechirishini ta'minlaydigan narx "adolatli" hisoblanadi. Narx hunarmandga turmush farovonligining ma'lum darajasini, cherkov xodimiga – boshqa bir darajasini, feodalga – yana bir darajasini ta'minlashi lozim [3].

Shu o'rinda narxning iqtisodiy mohiyatini yoritishda tabiiy narx to'g'risidagi ta'limot asoschisi V.Pettining fikriga ko'ra tabiiy narxni qiymat deb bilganlarini oqlash uchun ishlatildi [4]. U mazkur g'oya orqali qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldi. Vaqt va tasodifiy omillar ta'sirida o'zgarib turuvchi bozor narxiga tabiiy narx (qiymat)ni qarama-qarshi qo'ydi. Tabiiy narx mehnat miqdori bilan o'lchanishi sababli ichki bozor narxiga teng bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. U non bilan kumushning narxini solishtirib, ularning narxini sarflangan mehnat miqdori bilan tenglashtiradi. V.Petti iqtisodiyot tarixida qiymatning mehnat nazariyasi kurtaklarini ta'riflaydi. "Mehnat boyligining otasi, yer esa uning onasidir" degan fikrni bildiradi. Qiymatni aynan almashuv qiymati (pul) shaklida tushunadi.

Qiymat miqdori narxga aylanishi bilan u zarur munosabat ma'lum bir tovarning undan tashqaridagi pul tovarga nisbatan almashuv munosabatda yuz berishini ta'kidlaydi. Ko'rib turganingizdek, narx bilan qiymat miqdorining bir-biriga miqdor jihatidan muvofiq kelmay qolishi mumkinligi narxning o'z shaklidayoq mavjud bo'lishini qayd etadi.

Kembrij maktabi asoschisi A.Marshall narx nazariyasi bo'yicha so'z yuritar ekan, mazkur nazariya uning nazariy mulohazalari markazida turadi. Ma'lumki, zamonaviy iqtisodiy nazariyada A.Marshallning narx to'g'risidagi konsepsiyasi keng tarqalgan. A.Marshall narx konsepsiyasini yoritishda A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey, Ye.Bem-Baverk, D.Loderdeyllarning nazariy qarashlariga tayandi. U naflilik, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari, talab va taklif kontsepsiyalarini narx nazariyasida umumlashtirdi. Ammo u qiymatning mavjudligini rad etadi, biroq u "qiymat" va "bozor qiymati" iboralaridan foydalandi. A.Marshall bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni o'rganib, qiymat naflilik yoki ishlab chiqarish sarf-xarajatlari asosida tartibga solinadimi, degan masala xususida qiymat sarf-xarajatlarning naflilikka nisbati ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u narx ayirboshlash qiymatni tashkil etib, boshqacha qilib aytganda, mahsulotni sotib olish qobiliyatini aks ettiradi. Bu yerdan xulosa narx sotib olinadigan tovar uchun mo'ljallangan tegishli pul miqdori sifatida aniqlanadi.

A.Marshall qiymat va narx kategoriyalarini aynan bir narsa deb ko'rsatib, aslida, qiymatni tenglashtirib qo'ydi va narxni bozor munosabatining eng muhim elementi deb hisobladi. Obyektiv qiymat kategoriyasi o'rniga Marshall o'rtacha narxning subyektiv kategoriyasidan foydalandi, bu narsa uning nazariyasida muvozanat narxi rolini bajaradi. Marshallning nazariyasi sintetik nazariya nomini oldi, chunki muallif o'z nazariyasida o'zidan avvalgi mavjud narx nazariyalari – "eng yuqori naflilik", ishlab chiqarish xarajatlari, talab va taklif nazariyalarini birlashtirib, ularning hammasini to'g'ri deb ko'rsatdi. U qiymat va narx kategoriyalarini aynan bir narsa deb ko'rsatadi. Shuningdek, u narx bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi deb hisoblaydi. Marshall obyektiv qiymat kategoriyasi o'rniga narxning subyektiv kategoriyasidan foydalandi. Buning asosida u iqtisodiy jarayonlar muvozanat bozor narxlari atamasi bilan izohladi.

Fransuz klassik iqtisodchilaridan bo'lmish P.Buagilber ham narx nazariyasiga hissa qo'shgan bo'lib, u o'z e'tiborini narxlarni belgilashda optimal narxning paydo bo'lishiga qaratdi. Bu narxlar har bir sohadagi o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashi va ma'lum kirim, sof foyda keltirishi lozim. Shuningdek, uning asosida tovarlarni sotish jarayoni bekamu-ko'st davom etishi va barqaror iste'mol talabi qondirilishi kerak.

Nihoyat P.Baugilberning fikricha, optimal narxlar asosida to'lov muomalasini bajarishi va odamlar ustidan hukmronlik, zo'ravonlik qila olmasligi zarur. Olimning fikricha, bunday narxlar raqobat erkinligi sharoitida stixiyali ravishda vujudga keladi. U, Fransiyadagi erkin raqobat sharoitining buzilishi donga maksimal narxlarning qo'yilganligidir, deydi. Olimning fikricha, donga erkin narxlar belgilansa, narxlar bir

muncha oshadi, bu dehqonlarning daromadini oshiradi va ularning sanoat tovarlariga talabini ko‘taradi, oqibatda bu mahsulotlarni ishlab chiqarish ortadi.

A.Smit qiymatning mehnat nazariyasini chuqur va to‘laroq ishlab chiqdi. U tovarning bozor va tabiiy yoki haqiqiy narxlarini farqlaydi, haqiqiy narxni qiymat bilan aynan bir narsa deb tushunadi. “Qiymat” so‘zi olimning fikriga ko‘ra, ikki xil mazmunga ega. Bir so‘z buyumning nafliligi balki (qiymati) hamda uni boshqa buyumga almashish qobiliyati belgilanadi. Demak, u iste‘mol va almashuv qiymatlarini farqlagan.

Narx tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy tashkiliy vazifani o‘taydi. Tadbirkor va iste‘molchilar tovarning narxiga qarab o‘zlarining ehtiyojlarini qondira oladigan, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqara oladigan mahsulotni tanlash imkoniga ega bo‘ladilar. Mahsulot narxida sotuvchi, xaridor, tadbirkor, jamoa manfaatlari mujasamlanadi.

Bozorda muvozanatlashgan narx asosiy o‘rin egallab, u talab narxi va taklif narxi o‘rtasida vujudga keladi. Bu yerda har bir tovarga bo‘lgan talab narxi – bu ma‘lum bir tovarni belgilangan muddat ichida o‘ziga iste‘molchilarni jalb qilish imkoniga ega bo‘lgan narxdir. Talab narxi tovarga bo‘lgan taklifning ortishi bilan kamaya boradi. Taklif narxi belgilangan narxda konkret bozorga sotish uchun kelib tushgan tovar hisoblanadi. Taklif narxida bozorga kelib tushayotgan mahsulotning kamayishi, qisqarishi natijasida narx pasayishi yoki ortishi mumkin. Shuningdek, bunda boshqa sarf-xarajatlar ham inobatga olinadi.

Mahsulot ishlab chiqarishda turli mehnat va kapital shaklidagi xarajatlar amalga oshiriladi. A.Marshall buni mahsulot ishlab chiqarish real sarf-xarajatlari deb atagan.

Narxlar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar bozorda 5 ta funktsiyani bajaradi.

1. Bozor muvozanatini ta‘minlash;
2. Hisob-kitob, o‘lchov;
3. Iqtisodiy tartiblash funktsiyasi;
4. Raqobat vositasi;
5. Ijtimoiy himoya funktsiyasi [5].

Agar iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishi tarixiy bosqichlarini e‘tiborga olinsa, dastlab narxning mohiyati qiymatning mehnat nazariyasi asosida ochib berilgan. Uning ishlanmasiga A.Smit, D.Rikardo, ahamiyatli hissa qo‘shganlar. Mazkur nazariyaning mohiyati shundan iboratki, narx tovar qiymatining puldagi ifodasi hisoblanadi. Ya‘ni, bu o‘rinda qiymat ushbu tovarni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy jonli va buyumlashgan mehnat sarflari yig‘indisidan iboratdir. Bu esa narxning qiymat paradigmasi hisoblandi. Narxning yana ikkita paradigmasi mavjud: iste‘mol va almashuv.

Iste‘mol yoki subyektiv-psixologik paradigma tovar narxi bilan uning mehnat sarflari o‘rtasidagi aloqani inkor etadi. Bunda ko‘plab tovarlarning narxlari ishlab

chiqarish xarajatlaridan ahamiyatli darajada farq qilishi, iste'mol qilinayotgan ne'matlarning ba'zi birlari esa umuman hech qanday mehnat sarfini taqozo etmasligiga asoslaniladi (masalan, atmosfera havosidagi kislorod). Bu paradigmaga asosan, narxning asosi bo'lib tovarning subyektiv nafliligi, uning iste'mol qiymati xizmat qiladi. Narx faqat sub'ektiv ravishda xaridor va sotuvchi o'rtasida belgilanadi. Narx iste'mol qiymatining puldagi ifodasini aks ettiradi. Mazkur paradigmanning nisbatan taniqli konsepsiyasi sifatida so'nggi qo'shilgan foydalilik nazariyasini keltirish mumkin.


Narxning almashuv paradigmasi qiymat va iste'mol nazariyalarini inkor etadi. Almashuv paradigmasiga ko'ra narx to'laligicha bozordagi talab va taklifning nisbati, ya'ni mazkur tovarning muayyan miqdordagi boshqa tovarga yoki tovarning umumiy ekvivalenti bo'lgan pulga almashina olishi qobiliyati bilan izohlanadi. Talabning ko'payishi hamda taklifning kamayishi bilan narx oshar va aksincha ekan, u faqat bozor konyunkturasini aks ettiradi va mehnat sarfi hamda iste'mol qiymati miqdoriga bog'liq bo'lmaydi. Turli modifikatsiyalarda mazkur paradigma bozor raqobati nazariyalarida uchraydi. Almashuv paradigmasi doirasida narx tovar almashuv qiymatining puldagi ifodasini namoyon etadi.

Hozirgi iqtisodiy islohotlar davrida ham narx va narxlarni shakllanishi masalalarini iqtisodiy jihatdan o'rganish, ularga ta'sir qiluvchi omillarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ba'zan narx va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda go'yo aniq va ravshan qilib berilgandek, ko'rinsa-da, ammo ular to'g'risida bunday fikr yuritish bir muncha munozarali ko'rinadi.

Ma'lumki, narxning iqtisodiy mohiyati va uning shakllanishida turli omillar ta'sir etadi. Ushbu omillarni to'liq tushunish, tahlil etish va to'g'ri talqin qilish narxning vujudga kelish va foydalanish jihatlarini to'g'ri tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Agar ushbu holatlar bo'yicha alohida to'xtaladigan bo'lsak, narxlar bir qator omillar ta'sirida shakllanib boradi. Shu o'rinda akademik M.Sh. Sharifxo'jayev, prof. O'lmasovlar narxning shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etishini aytib o'tganlar [7] (1- rasm.) asosiy omil sifatida yuzaga chiqishini qayd etganlar.



1- rasm. Narxga ta'sir etuvchi omillar [7]

Iqtisodchi olimlarimizdan Shodmonov Sh, Alimov R, Jo'rayev T narxga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha aks ettirganlar (2- rasm.):



2- rasm. Narxga ta'sir etuvchi omillar [8]

Len Rodjersning fikriga ko'ra "tovar ishlab chiqaruvchilar narxni belgilanishiga quyidagi omillar ta'sirida qiymat, harajat, raqobat, maishiy rag'batlantirish, jamoat fikri, xizmat ko'rsatish ta'siri kabi omillar asosida yuz beradi" [9] deb ko'rsatadi.

Shuningdek, xorijlik iqtisodchi olimlardan sanalgan P.Samuelson ilmiy tadqiqotlarida narxlarning muvozanatligi milliy bozorlarga bog'liqligini asoslandi. Unda muallif transport xarajatlari, shuningdek turli bozorlardagi bir vaqtning o'zida

mahsulotning oldi-sotdi operatsiyalari muvozanatli narxlarni o'rnatishga ta'siri hamda uning xalqaro va milliy narx tizimiga ta'siri kabi masalalar tadqiq qilindi [10].

Ta'kidlash o'rinliki, yana bir gurux xorijlik iqtisodchi olimlar T.Takayama va J.Dodja o'z tadqiqotlarida narxlarning bozor muvozanatligiga ta'sirini tizimlashtirish tahlili orqali ochib berishga urinishgan. Xususan, ular tadqiqotlarida turli bozorlarda mahsulot to'yinishi va kamyobligi hamda mahsulot ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetkaziladigan tovarlarning kam yoki ko'p yetkazilishi natijasida buzilishi mumkin. Bunda albatta davlat aralashuvi natijasida muvozanatlik qisman tiklanadi [11].

Zamonaviy qarashlarda xorijlik yana bir iqtisodchi olim M.Kalkuxla iqtisodchi olim P.Samuelsonning narx kategoriyasi bo'lgan yondashuvini takomillashtirishga, uning xalqaro va milliy bozor muvozanatli narxiga ta'sirini tadqiq qilgan. U turli matematik tengliklar orqali uning o'rnatilishi va ta'sir etuvchi omillariga alohida qonuniyatlar orqali tushuntirib berishga harakat qilgan. Xalqaro va milliy bozor muvozanatli narxiga mamlakat zaxirasidagi tovarlar miqdori, mamlakat savdosining rivojlanish darajasi, uning hamkorlik aloqalari hamda iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyati samaradorligi ta'sir etadi deb ko'rsatib o'tadi [12].

XULOSA

Yuqorida narx kategoriyasi bo'yicha nazariy qarashlar evoyutsiyasi taxlilidan kelib chiqib, quyidagi x ulosalarni keltirish mumkin:

Birinchi, taxlillar shuni ko'rsatadiki, narxning muvozanatli darajasining o'rnatilishi har qanday davlatning rivojlanganlik darajasi ta'siri, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat hamda iqtisodiyotning yetakchi kuchi sifatida faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar yaratilgan shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Raqobat muhitining yaratilishi milliy bozorlardagi narxning muvozanatligini ta'minlaydi.

Ikkinchi, korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflayotgan xarajatlarning optimallashtirilishi. Ta'kidlash o'rinliki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi raqamli texnologiyalardan samarali foydalanmaslik ma'lum tarzda mahsulot tannarxini keskin oshishiga hamda narxlarning o'sishiga olib keladi.

Uchinchi, iqlim o'zgarishlari va har bir davlat urf-odatlarini, qadriyatlarini hisobga olish. Agarda iste'molchilik talabi chuqur o'rganilmasa, iqlimning o'zgarishiga ko'ra mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning bozorbop yo'nalishiga o'tmaslik ma'lum davrda ayrim mahsulotlar narxining o'sishi hamda ayrimlarining zaxirada qolib ketishiga olib keladi.

To'rtinchi, davlat tomonidan olib borilayotgan moliya-kredit sohasidagi mexanizmning samaradorligi. Bozordagi narxlarga mamlakatda yoki boshqa

mamlakatlarda olib boriladigan moliya-kredit sohalaridagi o'zgarishlar ham narxlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, moliya bozorlaridagi, valyuta birjalaridagi holatlarni bunga misol qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti <https://www.gov.uz/uz/news/view/26071>

2. Всемирная история экономической мысли. В 6 т. Т1. / МГУ им. М.В.Ломоносова. - М.: Мысль, 1987, с.131.

3. Бартенев С.А. История экономических учений: учебник. – М.: Экономист, 2005, с.33.

4. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma. Islomov A., Egamov E. Toshkent moliya instituti. Toshkent, 2001.

5. Маршал А. Прибыль на капитал и предпринимательские способности. Принципы политической экономии. Т.3. -М.: Наука,1984. 8 – глава.

6. Сариков Э., Маматов М. Иқтисодиёт ва бизнес асослари. Ўқув қўлланма.-Т.: «Шарқ» нашриёти, 1997. - 24-25-б.

7. O'lmasov A, Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi «Noiqtisodiy o'quv yurtlariga darslik – Т.: Mehnat 1995. 295 b.

8. Шодмонов Ш, Алимов Р, Жўраев Т. Иқтисодиёт назарияси –Т.: “Молия” нашриёти, 2002 -168-169 б.

9. Роджерс Л. Маркетинг в малом бизнесе: Пер. С англ./Под ред. Л.Г. Зайцева, М.И. Соколовой –М.: Аудит, ЮНИТИ, 1996 –с. 95-96.

10. Samuelson, P. Spacial price equilibrium and linear programming // American Economic Review. - № 42. - 1952. - P. 283-303.

11. Takayama, T., Judge G. Spatial and temporal price allocation models. – Amsterdam: NorthHolland Pub. Co. 1971. - P. 528.

12. Kalkuhl, M. How Strong Do Global Commodity Prices Influence Domestic Food Prices? A Global Price Transmission Analysis. Selected Paper prepared for presentation at the Agricultural & Applied Economics Association's 2014 AAEA Annual Meeting, Minneapolis, MN, July 27-29, 2014. Available at: http://ageconsearch.umn.edu/bitstream/169798/2/Manuscript%20-%20Global_Transmission_Analysis.pdf. (дата обращения: 3.10.2017). - P. 5.

СУВЕРЕН ФОНДЛАРНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Сатторов Комилжон Орипович

Банк-Молия академияси тингловчиси

Аннотация: Ушбу мақолада давлат суверен фондларини яратишнинг тарихий мазмуни, суверен фондлар фаолияти ва уларни бошқаришнинг ривожланган мамлакатлар тажрибалари, давлатнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, давлат суверен жамғармалари фаолиятининг хорижий тажрибаси кўриб чиқилади. Суверен фондларни иқтисодий ва сиёсий муносабатларнинг субъектлари сифатида кўриб чиқишга, шунингдек, замонавий глобал сиёсат ва иқтисодиёт шароитида фаолият шакллари таҳлил қилишга бағишланган.

Калит сўзлар: *суверен фонд, инвестициялар, молиявий активлар, даромад, акциялар, облигациялар.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СУВЕРЕННЫМИ ФОНДАМИ

Сатторов Комилжон Орипович

Слушатель Банковской и финансовой академии

Аннотация: В данной статье рассматривается историческое содержание создания государственных суверенных фондов, деятельность суверенных фондов и опыт развитых стран в управлении ими, зарубежный опыт деятельности государственных суверенных фондов, основанный на особенностях государства. Посвящен рассмотрению суверенных фондов как субъектов экономических и политических отношений, а также анализу форм деятельности в контексте современной глобальной политики и экономики.

Ключевые слова: *суверенный фонд, инвестиции, финансовые активы, доход, акции, облигации.*

FOREIGN EXPERIENCE IN EFFECTIVE MANAGEMENT OF SOVEREIGN FUNDS

Sattorov Komiljon Oripovich

Student of the Banking and Finance Academy

Abstract: This article examines the historical content of the creation of state sovereign funds, the experience of sovereign funds and their management in developed countries, foreign experience of state sovereign funds, based on the specific characteristics of the state. It is devoted to the consideration of sovereign funds as subjects of economic and political relations, as well as to the analysis of forms of activity in the conditions of modern global politics and economics.

Key words: *sovereign fund, investments, financial assets, income, shares, bonds.*

КИРИШ

Жаҳон иқтисодиётининг бугунги глобал ўзгаришлар шароитида, бир томондан, молиявий захиралар, иккинчи томондан, халқаро молия бозорининг энг йирик иштирокчилари ҳисобланган суверен фондларнинг фаолиятига жиддий эътибор қаратишни тақозо этади. Молия тизимида суверен маблағлардан фойдаланиш инқироз даврида йўқолган бюджет даромадларини қоплаш, молия бозорларини барқарорлаштириш, ҳукуматнинг кредит тизимида мақбул ликвидлик даражасини таъминлаш, истеъмол талаби ва фуқароларнинг ишончини тиклаш учун ягона мумкин бўлган инқирозга қарши восита бўлиб қолмоқда.

Суверен бойлик фондлари давлат инвестиция фондлари ёки давлат органлари томонидан тўлов баланси профицити ёки бюджет профицити ҳисобидан молиялаштирилган компаниялардир.

Суверен фондни яратишда кўплаб мақсадлар мавжуд: барқарор иқтисодий ўсишга эришиш, хорижий валюта оқимини стерилизация қилиш, инвестициялар муаммосиз ва барқарор оқимини таъминлаш, давлат захираларини кўпайтириш.

Суверен фонд молиявий активлари акциялар, облигациялар, мулклар, қимматбаҳо металлар ва бошқа молиявий воситалардан иборат булган давлат инвестиция фондларидир. Кўпгина суверен фондлар мамлакатнинг экспорт операцияларидан тушган тушумлар орқали молиялаштирилади. Энг катта машҳур жамғарма сифатида Норвегия Давлат пенсия жамғармасини эътироф этиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Суверен фонд атамасини илк бора қўллаган А.Розанов суверен фондларни давлат инвестиция фондлари сифатида таърифлаган ва пул-кредит сиёсатини амалга ошириш доирасида фойдаланиладиган олтин-валюта захиралари ва давлат пенсия фондларидан функционал фарқларига эътибор қаратган. Унинг таъкидлашича, -иқтисодиётда суверен фондларни бошқарувчилар, улар хоҳ марказий банклар ёки мамлакатлар ҳукумати бўлсин, давлат захираларини анъанавий бошқарувдан суверен

бойликни бошқаришга ўтиши жараёни кузитилмоқда. Бунда суверен фондларга маълум бир мажбуриятлар юклаб қўйилмайди ва давлат пенсия фондлари ёки олтин-валюта захираларидан фарқли равишда, уларнинг маблағлари рисклилик даражаси юқори бўлган активларга инвестиция қилинмайди [1].

С.Цвирко (2014) фикрича Суверен фонд - бу давлат инвестиция фонди бўлиб, унинг активларида турли хил молиявий воситалар, масалан, акциялар, облигациялар, шунингдек мулк, қимматбаҳо металллар ва бошқалар бўлиши мумкин. Функционал ёндашувга кўра, суверен фонд давлат томонидан ташкил этилган ва бевосита давлатга тегишли бўлган, якуний фойда олувчи бутун мамлакат аҳолиси бўлган алоҳида фонд (активлар жамғармаси) сифатида белгиланади.

С.Ловерс (2007) суверен фондларни чет эл валютасидан шакллантириладиган ва бошқа давлат молиявий захираларидан алоҳида бошқариладиган давлат инвестиция механизмлари сифатида белгилайди [2].

Бундан ташқари, жаҳон амалиётида суверен жамғармаларнинг турли таърифлари мавжуд. Улар орасида: суверен фонд - бу давлатга тегишли бўлган ва назорат қилинадиган ҳамда инвестиция стратегияси хорижий активларни сотиб олишни ўз ичига олган фонд; суверен фонд – давлатга тегишли бўлган, давлат маблағларини тўплайдиган, бошқарадиган ва тасарруф этувчи, ҳар хил турдаги активларнинг кенг доирасига инвестиция қилувчи молиявий восита; суверен фонд – акцияларнинг назорат пакети давлатга тегишли бўлган фонд.

Суверен фонд, қоида тариқасида, маълум бир давлатнинг экспорт операцияларида юқори савдо профицити мавжуд бўлганда шаклланади. Кўпинча бу табиий ресурслар (нефт, газ) ва бошқа (саноат) товарларни экспорт қилишдир. Товарларни ташқи бозорда сотиш давлатнинг катта миқдордаги чет эл валютасини сақлаб қолишига олиб келади.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Рост интереса. Любые значительные скачки на графике могут быть связаны с внешними событиями или маркетинговыми кампаниями, которые способствовали повышению интереса к агротуризму в определенные годы.

Стабильный рост: Постоянный и постоянно растущий интерес к агротуризму подчеркивает его важность как устойчивого туристического направления, которое способствует экономическому и социальному развитию Самарканда.

Этот линейный график является важным инструментом для анализа тенденций и планирования будущей стратегии развития агротуризма в Самарканде. Это позволяет заинтересованным сторонам оценить потенциал рынка и определить области для инвестиций и развития.

На этом диаграммы показан устойчивый рост интереса к агротуризму в Самарканде на протяжении многих лет, измеряемый по шкале от 1 до 100. Несмотря на небольшой спад в 2020 году, возможно, из-за глобальных обстоятельств, наблюдается явная тенденция к росту, указывающая на растущую популярность и растущее значение агротуризма в регионе.

Диаграмма, иллюстрирующей актуальность развития агротуризма в Самарканде в период с 2018 по 2023 год, отражает динамику роста интереса к этой сфере. На основании данных, представленных на графике, можно сделать следующие выводы:




Рисунок 2. Линейная диаграмма, иллюстрирующая актуальность развития агротуризма в Самарканде, демонстрирующая растущий интерес к агротуризму с 2018 по 2023 год ⁵

Примечание-источник: собственная разработка автора на основе данных приложений www.stat.uz и www.uzbektourism.uz.

⁵ www.stat.uz, www.uzbektourism.uz

1. Тенденция роста интереса: С 2018 года интерес потенциальных туристов и участников рынка к агротуризму неуклонно возрастает. Это свидетельствует о растущей популярности агротуризма как формы отдыха и обучения.

2. Влияние внешних факторов: Небольшое снижение интереса в 2020 году связано с глобальными событиями, такими как пандемия COVID-19, которые оказали влияние на туристическую отрасль в целом. Однако последующий сильный восходящий тренд подчеркивает устойчивость сектора и его способность быстро восстанавливаться после кризисных ситуаций.

3. Растущая популярность агротуризма: Растущий интерес к агротуризму в последующие годы показывает его актуальность и потенциал для дальнейшего развития. Это может быть связано с повышением осведомленности о преимуществах агротуризма, таких как: Б. близость к природе, возможность отдохнуть вдали от городской суеты и уникальных культурных впечатлений.

4. Значимость для региона: Для Самарканда с его богатым культурным и историческим наследием развитие агротуризма является важным направлением, которое может привлечь туристов, стимулировать местную экономику и способствовать сохранению культурных и природных ресурсов.

Диаграмма подтверждает, что агротуризм в Самарканде имеет значительный потенциал и является актуальной областью для инвестиций и развития, которая обещает привлечь больше посетителей и повысить интерес к региону в будущем.

SWOT-анализ — это инструмент стратегического планирования для оценки сильных и слабых сторон, возможностей и угроз конкретного проекта, организации или ситуации. Это помогает выявить ключевые факторы, влияющие на достижение целей. В контексте агротуризма в Самарканде SWOT-анализ может выглядеть следующим образом:

Таблица 4

Таблица SWOT-анализа для развития агротуризма в Самарканде ⁶

Категория	Описание
Сильные стороны	Богатое культурное наследие, уникальный агроклимат, развитая сельскохозяйственная база
Слабые стороны	Недостаточно развитая инфраструктура, недостаток профессиональных кадров, ограниченный маркетинг и реклама
Возможности	Растущий интерес к экотуризму, государственная поддержка, развитие инфраструктуры
Угрозы	Экономическая нестабильность, природные и климатические риски, конкуренция

⁶ Авторская разработка

Примечание-источник: собственная разработка автора на основе данных приложений 1, 2, 3 - 1, 2, 3 - 1, 2, 3 - 1, 2, 3.

SWOT-анализ развития агротуризма в Самарканде можно представить следующим образом:

Сильные стороны:

1. Богатое культурное наследие: Самарканд – город с богатой историей и культурой, привлекающий туристов.

2. Уникальный сельскохозяйственный климат: Разнообразие климатических условий позволяет выращивать уникальные культуры.

3. Развитая сельскохозяйственная база: Наличие развитой сельскохозяйственной отрасли для демонстрации сельскохозяйственных технологий и традиционных методов ведения сельского хозяйства.

Слабые стороны:

1. Неразвитая инфраструктура: Ограниченные возможности проживания и питания в сельской местности могут препятствовать развитию агротуризма.

2. Недостаток квалифицированного персонала: Нехватка подготовленных специалистов в сфере агротуризма и гостеприимства.

3. Ограниченный маркетинг и продвижение: Неадекватное продвижение возможностей агротуризма в Самарканде на международном уровне.

Возможности:

1. Растущий интерес к экотуризму: Глобальная тенденция к здоровому образу жизни и экотуризму может способствовать росту интереса к агротуризму.

2. Государственная поддержка: Возможность получения государственной поддержки для развития агротуризма в рамках национальной туристической стратегии.

3. Развитие инфраструктуры: Инвестиции в развитие инфраструктуры и услуг могут улучшить доступность и качество продуктов агротуризма.

Угрозы:

1. Экономическая нестабильность: Экономические колебания могут снизить спрос на туризм, включая агротуризм.

2. Природно-климатические риски: Изменение климата и стихийные бедствия могут оказать негативное влияние на сельскохозяйственное производство и туристическую привлекательность региона.

3. Конкуренция: Растущая конкуренция с другими регионами и странами, активно развивающими агротуризм.

Данный SWOT-анализ помогает выявить ключевые факторы, влияющие на развитие агротуризма в Самарканде, и может служить основой для разработки стратегических инициатив по его стимулированию и развитию.

Схема потока услуг в контексте актуальности развития агротуризма в Самарканде позволяет визуализировать взаимодействие различных участников процесса и основные этапы оказания агротуристических услуг. Эта схема иллюстрирует путь от первоначального интереса потенциального туриста к участию в агротуристической деятельности и последующим отзывам об этом опыте. Вот описание ключевых элементов такой схемы.

Блок-схема услуг подчеркивает важность каждого этапа процесса предоставления услуг агротуризма и подчеркивает необходимость реагирования на потребности и ожидания туристов на каждом из этих этапов.

На этой схеме изображен процесс от поиска туристом информации об агротуризме в Самарканде через бронирование посещения на платформе агротуризма до поддержки и развития местных властей на основе туристических посещений. В нем освещается взаимодействие между туристами, агротуристическими платформами, усадьбами и местными властями, демонстрируя, как эти взаимодействия способствуют развитию агротуризма в регионе.

Схема потока услуг, относящаяся к развитию агротуризма в Самарканде, показывает взаимодействие между туристами, агротуристическими платформами, фермерскими хозяйствами и местными властями. Эта схема иллюстрирует последовательность шагов, которые проходит турист от поиска информации об агротуризме до посещения ферм




Рисунок 3. Схема последовательности, иллюстрирующая поток услуг и актуальность развития агротуризма в Самарканде ⁷

Примечание-источник: собственная разработка автора на основе данных приложений 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8.

⁷ Авторская разработка

Здесь вы найдете описание наиболее важных шагов:

1. Поиск информации об агротуризме. Туристы ищут информацию о возможностях агротуризма в Самарканде через специализированную платформу агротуризма.

2. Предоставление информации туристу. Платформа агротуризма предоставляет туристам подробную информацию о различных фермах, услугах и программах.

3. Бронирование визита. Турист выбирает и бронирует посещение фермы через платформу агротуризма.

4. Уведомление фермерского хозяйства о бронировании. Платформа агротуризма уведомляет ферму о новой резервации, чтобы она могла подготовиться к приему туристов.

5. Подтверждение бронирования туристу. После подтверждения фермой платформа агротуризма отправляет туристу подтверждение бронирования.

6. Подготовка к приему туристов. Ферма готовится к приему туристов, организуя необходимые услуги и мероприятия.

7. Посещение фермерского хозяйства. Турист посещает ферму, участвует в различных мероприятиях и узнает о местной культуре и образе жизни.

8. Отчет о туристах местным властям. Хозяйство предоставляет отчет о количестве и активности туристов местным органам власти для анализа и планирования поддержки и развития агротуризма.

9. Поддержка и развитие агротуризма местными властями. Местные власти используют предоставленные данные для формулирования стратегии дальнейшей поддержки и развития агротуризма в регионе.

Этот процесс подчеркивает важность взаимодействия всех заинтересованных сторон для успешного развития агротуризма в Самарканде, включая создание благоприятных условий для туристов и поддержку местного сельскохозяйственного производства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В рамках изучения актуальности развития агротуризма в Самарканде проведен анализ литературы, изучение материалов и методов, а также оценка современного состояния и перспектив агротуризма в регионе. Основные выводы можно сформулировать следующим образом:

1. Важность агротуризма для Самарканда: Агротуризм представляет собой значительный потенциал для экономического и социального развития Самарканда, помогая расширить туристические предложения и укрепить местное сообщество.

2. Сильные стороны и возможности: Самарканд обладает уникальными природными, историческими и культурными ресурсами, которые можно использовать для развития агротуризма. Инновационные возможности, образовательные программы и развитие инфраструктуры открывают значительные перспективы для развития устойчивого агротуризма.

3. Проблемы и угрозы. Существуют определенные препятствия и угрозы, такие как: В. Неадекватная инфраструктура, ограниченные маркетинговые усилия и проблемы управления качеством, которые могут препятствовать развитию агротуризма. Важно решать эти проблемы посредством стратегического планирования и инвестиций.

4. Рекомендации: Для ускорения развития агротуризма в Самарканде рекомендуется улучшить инфраструктуру, разработать комплексные маркетинговые стратегии, обучить местных предпринимателей и установить стандарты качества услуг. Сотрудничество между правительством, бизнесом и обществом для создания благоприятной среды также важно.

5. Перспективы развития: Учитывая современные тенденции и потребности туристов, агротуризм в Самарканде имеет все шансы стать одним из основных направлений туризма и способствовать устойчивому развитию региона, сохранению культурных и природных наследств. Наследство.

Таким образом, агротуризм в Самарканде имеет значительный потенциал развития, который может быть реализован посредством целенаправленных усилий всех участников.

На основе анализа развития агротуризма в Самарканде можно предложить следующие рекомендации по его развитию и совершенствованию:

1. Развитие инфраструктуры: Улучшение транспортного сообщения, строительство и модернизация объектов размещения и развитие услуг повысят привлекательность Самарканда для агротуристов.

2. Маркетинг и продвижение: Разработка и реализация комплексных маркетинговых кампаний по продвижению агротуризма как уникального туристического продукта Самарканда, включая использование социальных сетей, туристических порталов и международных выставок.

3. Образовательные программы: Организация образовательных программ для местных жителей и предпринимателей в сфере гостеприимства, управления и маркетинга туристических компаний, что позволит улучшить качество услуг и повысить удовлетворенность туристов.

4. Сотрудничество с местными сообществами: Вовлечение местных сообществ в развитие агротуризма посредством создания кооперативов или ассоциаций, которые помогают максимально эффективно использовать ресурсы и местные знания для создания уникального туристического продукта.

5. Развитие экотуризма и устойчивого туризма. Сосредоточьтесь на экологически чистых и устойчивых методах агротуризма, включая органическое сельское хозяйство, сохранение биоразнообразия и охрану окружающей среды.

6. Государственная поддержка: предоставление финансовой поддержки и стимулов малым и средним предприятиям, работающим в агротуризме, а также упрощение бюрократических процедур для поощрения инвестиций в этот сектор.

7. Интеграция с другими видами туризма: Разработка интегрированных туристических пакетов, сочетающих агротуризм с культурным, историческим и приключенческим туризмом для привлечения широкого круга туристов.

8. Использование цифровых технологий: Разработка и внедрение цифровых платформ для бронирования, навигации и информирования туристов об объектах и мероприятиях агротуризма в Самарканде.

Реализация этих рекомендаций требует скоординированных усилий государства, бизнеса и местного населения, но может существенно способствовать развитию агротуризма в Самарканде, улучшению экономического положения региона и повышению его привлекательности для туристов со всего мира.

В заключение, анализ актуальности развития агротуризма в Самарканде показывает значительный потенциал этой сферы для устойчивого развития региона. Агротуризм представляет собой уникальную возможность привлечь туристов, заинтересованных в подлинном опыте и взаимодействии с местной культурой и природой, что способствует сохранению культурного и природного наследия, а также стимулирует местную экономику.

Реализация предлагаемых рекомендаций требует комплексного подхода, который включает улучшение инфраструктуры, разработку маркетинговых стратегий, обучение и вовлечение местных сообществ, а также поддержку государственных и частных организаций. Также важно придерживаться принципов устойчивости и экологической ответственности при развитии агротуризма.

Самарканд обладает всеми ресурсами и потенциалом, чтобы стать ведущим центром агротуризма, способным привлечь не только отечественных, но и международных туристов. Это не только способствует диверсификации и развитию туристической отрасли, но и играет ключевую роль в сохранении и передаче богатого культурного и природного наследия Самарканда будущим поколениям.

Поэтому агротуризм в Самарканде имеет большое значение не только как экономический ресурс, но и как средство укрепления социальных и культурных

связей между различными сообществами и поколениями, что делает его неотъемлемой частью стратегии устойчивого развития региона.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Мухамеджанова Д.Р. “Агротуризм в Узбекистане: состояние, проблемы и перспективы развития”, Ташкент, 2019.
2. “Агротуризм: международный опыт и практика в Узбекистане”, под редакцией А.Р. Юлдашева, Ташкент: Узбекистан, 2021.
3. “Современные тенденции развития агротуризма”, электронный ресурс, доступ: [веб-сайт Ассоциации агротуризма Узбекистана], последний доступ 2024 г.
4. Barbieri, C. (2012). Case studies in agritourism. Boulder, CO: University Press of Colorado. Описывает разнообразные модели агротуризма и их влияние на местные сообщества.
5. Рахимов, Т. Р. (2018). Агротуризм как инструмент развития сельских территорий Узбекистана. Сельское развитие и агробизнес, 1, 112-120.
6. Мирзоева, Г. Т., и Хасанов, М. Р. (2018). Агротуризм в Узбекистане: состояние и перспективы развития. Туризм и культура, 3(15), 22-31.
7. Шарипова Э.Ф. “Влияние агротуризма на социально-экономическое развитие Самаркандской области”, Самарканд: Вестник Самаркандского университета, 2022.
8. Иванов, С. В., Петрова, Д. П. (2020). Агротуризм как фактор устойчивого развития сельских территорий. Журнал региональных исследований, 1(2), 34-42.
9. Кузнецова, П. А., Михайлова, А. И. (2019). Стратегии развития агротуризма в России: опыт и перспективы. Вестник сельскохозяйственной науки, 4(28), 88-97.
10. Петрова А.В. “Развитие агротуризма в России: проблемы и перспективы”, Журнал “Устойчивое развитие сельских территорий”, №2, 2021, с. 145-152.
11. Flanigan, S. (2014). Agritourism from the perspective of agri-tourism operators in North America. Tourism Management, 37, 55-66. Анализирует агротуризм с точки зрения операторов и предлагает стратегии для устойчивого развития.
12. Кузнецова Т.П., Горбунова Л.С. “Экотуризм и агротуризм: новые направления развития туризма в России”, Санкт-Петербург: Питер, 2020.
13. Николаева, Ю. С., Сергеев, В. М. (2021). Устойчивое развитие туризма в сельских районах: проблемы и решения. Экономика сельского хозяйства России, 2, 76-83.

14. www.lex.uz
15. www.e-qaror.gov.uz
16. www.stat.uz
17. <https://buddha.by/termez-buddiiskoe-nasledie-uzbekistana>
18. <http://uzbek-travel.com/tours/religion/zoroastrian-and-buddhist-heritage-of-uzbekistan/>
19. www.biznes-daily.uz
20. <https://uzbektourism.uz>
21. <https://www.salamstandard.org>
22. <https://sof.uz/news/show/20277>

ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА ЭЛЕКТРОН ХУКУМАТНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети “Фундаментал иқтисодиёт”
кафедраси в.б., профессори и.ф.д. (DSc)*

Аннотация: Ушбу мақолада Рақамли “Ўзбекистон-2030” стратегиясида белгиланган вазифаларини бажариш механизмлари, мамлакатимизда рақамли иқтисодиётни ва электрон ҳукуматни ривожлантиришнинг такомиллаштириш ва IT соҳасига қаратилган жиддий эътибор асосланган. Шу билан бирга ҳозирги замон талабларига жавоб берувчи замонавий рақамли технологияларни амалиётга жорий этишни тезлаштириш таклиф этилган.

Калит сўзлар: *технологиялар, глобаллашув, IT Park, резидент, IT компаниялар, дастурий маҳсулотлар, логистика, роботлаштириш, ERP, MES, SCADA, суний интеллект.*

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович

*и.о., профессор, д.э.н. (DSc) кафедры «Фундаментальная экономика»
Ташкентского государственного экономического университета*

Аннотация: В данной статье анализируется реализация целей, поставленных в стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы и стратегии «УЗБЕКИСТАН-2030». Также анализируется увеличения доходов населения и сокращения бедности, достижения экономического роста за счет оснащения промышленных предприятий современными технологиями.

Ключевые слова: *технологии, глобализация, IT-парк, резидент, IT-компании, программные продукты, логистика, робототехника, ERP, MES, SCADA, искусственный интеллект.*

WAYS TO IMPROVE THE DIGITAL ECONOMY AND ELECTRONIC GOVERNMENT IN UZBEKISTAN

Topildiyev Sohijjon Rahimjonovich

Acting Professor, Doctor of Economics (DSc) of the Department of Fundamental Economics, Tashkent State University of Economics

Abstract: This article analyzes the implementation of the goals set in the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 and the "UZBEKISTAN-2030" strategy. At the same time, analyzes are given about increasing the income of the population and reducing poverty, and achieving economic growth by equipping industrial enterprises with modern technologies.

Keywords: *technologies, globalization, IT park, resident, IT companies, software products, logistics, robotics, ERP, MES, SCADA, artificial intelligence.*

КИРИШ

Жаҳон амалиётида, рақамли иқтисодиётнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши, давлатлардаги ривожланиш кўрсаткичларидан бири бўлиб ҳисобланади. Табиийки, бу кўрсаткич ривожланган мамлакатларда юқори.

Рақамли иқтисодиётнинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши АКШда - 10,9 фоизни, Хитойда - 10 фоизни, Хиндистонда - 5,5 фоизни ташкил этгани ҳолда, Ўзбекистонда 2 фоиздан ҳам ошмайди. Ушбу соҳани ривожлантириш ҳозирги замон талабига айланиб бормоқда.

Мамлақатимизда 2017 йилда бошланган янги иқтисодий сиёсат Ўзбекистондаги барча тармоқ ва соҳаларни рақамлаштириш зарурлигидан дарак берди. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ҳамда келгуси тараққиётини илм-фан, илмий, ижтимоий-гуманитар ва рақамли технологиялар асосида иқтисодиёт бошқаришни ташкил этади. Бу тизим рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши, ахборот соҳасида инқилоб ва иқтисодиётнинг глобаллашув жараёнларини тезлаштириш билан ажралиб туради.

Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М.Мирзиёев “Тармоқ ва ҳудуд раҳбарлари рақамлаштиришсиз натижа, ривожланиш бўлмаслигини тушуниб етиши шарт. Барча даражадаги раҳбарлар буни ўзига кундалик вазифа сифатида белгилаб, рақамлаштириш соҳасини алифбосидан бошлаб чуқур ўрганиши керак”¹ деб таъкидлаб ўтганлар.

Бугунги кунда рақамли технологиялар замонавий жамият ҳаётининг барча соҳаларига, жумладан иқтисодиёт соҳасига ҳам фаол кириб бормоқда. Иқтисодиётни рақамлаштириш глобал иқтисодиётда иқтисодий ўсишнинг муҳим омилига айланмоқда. Ўзбекистонда иқтисодиёт тармоқлари, ижтимоий соҳа ва давлат бошқаруви тизимининг жадал рақамли ривожланишини таъминлаш, шу жумладан электрон давлат хизматларини кўрсатиш

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/3848>

механизмларини янада такомиллаштириш мақсадида "Рақамли Ўзбекистан-2030" стратегияси ишлаб чиқилди. Ушбу стратегияни муваффақиятли амалга ошириш ва кўзланган мақсадларга эришишни таъминлаш таҳлилий ва илмий-услубий тадқиқотларни ва инновацион ўзгаришларни талаб қилади. Бундай ўзгаришлар эса рақамли иқтисодиётнинг моҳияти, таркиби ва ривожланиш хусусиятлари туғрисида назарий ва таҳлилий билимларга эга бўлиш долзарб ҳисобланади.

МУАММОНИ ЎРГАНИЛГАНЛИК ДАРАЖАСИ

Хорижлик олимлардан Нибел (2018) турли даражадаги ривожланиш даражасига ега бўлган мамлакатларда АКТнинг иқтисодий ўсишга таъсирини, Баҳрини ва Қафғас (2019) кенг полосали ва интернетдан фойдаланиш Африкадаги ривожланаётган мамлакатларда иқтисодий ўсишнинг асосий омили ва мобил телекоммуникацияларнинг жорий етилиши Африка мамлакатларида иқтисодий ўсишга ижобий таъсир кўрсатишини, Мёвелла ва бошқалар. (2020) 2006 йилдан 2016 йилгача Саҳрои Кабирнинг 41 та Африка давлати ва 33 ОЕСД давлатида кенг қамровли тадқиқоти давомида рақамлаштириш ва иқтисодий ўсиш ўртасидаги ижобий муносабатларни ўрганган.

Россиялик олимлардан Кокурхаева Радимхан Магомёт-Башировна, Газдиева Елизавета Хасбулатовна (2022) Рақамли иқтисодиёт-Келажак иқтисодиёти, Алексеева Ю.А., Феофилова Т.Ю. (2022) Рақамли иқтисодиёт: назария ва амалиётини, Гусарова О. М., Кондрашов В. М., Ганичева Е. В. (2022) Замонавий жамиятнинг рақамли ўзгаришлари: маҳаллий ва хорижий тажрибасини, Долгих Е.А., Першина Т.А. (2022) Европа мамлакатларида рақамли иқтисодиётнинг ривожланишини таҳлил этишган.

Ўзбекистонлик олимларимиздан Академик Ғуломов С.С. Электрон ва ахборот-телкоммуникацион технологияларни иқтисодиётга кенг жалб этишини (2019), Махмудова Г.Н. (2022) Ўзбекистон иқтисодиётини модернизация қилиш ва рақамлаштириш шароитида таркибий ўзгаришлар, Банк тизимини рақамлаштиришни, Махмудова Г.Н., Ашуров З. А, Разикова Б.С. (2022) Ўзбекистонда рақамли экотизимни ривожлантиришни илмий тадқиқ этишган.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мақоланинг методологияси илмий ва тобора оммалашиб бораётган манбаларни таҳлил қилишдан бошлаб, Республикада бугунги кунда янги иқтисодий сиёсат Ўзбекистондаги барча тармоқ ва соҳаларни рақамлаштириш бўйича комплекс дастурлар ва қўлланмалар, замонавий веб-воситалардан инновация самарадорлигини ошириш воситаларидан фойдаланиш бўйича иқтисодий тажрибани умумлаштириш, ушбу тадқиқот муаммоси бўйича инвесторлар билан суҳбатлар усуллари ҳам қўлланилди.

Мақолани тайёрлаш жараёнида хорижлик, россиялик ва Ўзбекистонлик олимлар ҳамда мутахассисларнинг инновацион ривожланиш шароитида янги иқтисодий сиёсат Ўзбекистондаги барча тармоқ ва соҳаларни рақамлаштиришни зудлик билан амалиётга жорий этиш бўйича олиб борган илмий тадқиқотлардан фойдаланилди.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Юқоридагиларни ҳисобга олиб мазкур соҳадаги ислохотларни амалга ошириш учун 2020 йил 8 апрелда “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” Президент қарори қабул қилинди. Шу билан бирга, қарорда янги лойиҳаларнинг молиявий манбалари ҳам аниқ кўрсатилган. “Электрон ҳукумат” доирасида 1,3 триллион сўмлик 104 та лойиҳа, иқтисодиётнинг реал секторида 5,3 триллион сўмлик 87 та лойиҳа, телекоммуникациялар борасида 15,1 триллион сўмлик 35 та, аграр соҳада 24 та, IT парклар бўйича 18 та лойиҳа амалга оширилиши белгиланган².

Сўнги уч йилда IT соҳасига қаратилган жиддий эътибор натижасида маълум ўзгаришларга эришилди. Жумладан: ўтган йилда IT Park резидентлари 5 триллион сўмлик хизматлар кўрсатган (2021 йилда 2,5 триллион сўм), 140 миллион долларлик хизматларни экспорт қилган (2021 йилда 50 миллион доллар).

Шу билан бирга, мавжуд 715 та давлат хизматида 370 таси рақамли платформага ўтказилиб, бу хизматлардан ўтган йили 12 миллион аҳоли фойдаланилган (2021 йилда 9 миллион бўлган).

Рақамлаштириш натижасида 70 дан ортиқ турдаги маълумот ва ҳужжатлар аҳолидан талаб қилиниши бекор қилинди.

IT хизматлар экспортини келгусида 1 миллиард долларгача ошириш режа қилинган. Жумладан:

- камида 100 минг нафар малакали дастурчи, IT архитекторлари, операторлари ва муҳандислари зарурлиги;
- ҳудудларда юқори тезликдаги интернет ва мутахассислар учун шарт-шароитларни кенгайтириш;
- хорижий IT компаниялар кўпайиши учун янада қулай муҳит яратиш зарурлиги;
- замонавий IT касбларга ўқитиш тизимини яратиш;
- аҳоли ва тадбиркорлар учун энг зарур бўлган камида 200 та янги электрон хизматларни ишга тушириш мақсадга мувофиқ.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 апрелда “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4699 сонли Қарор.

Мамлакатимизда рақамли иқтисодий фаол ривожлантириш, барча тармоқлар ва соҳаларда, энг аввало, давлат бошқаруви, таълим, соғлиқни сақлаш ва қишлоқ хўжалигида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Хусусан, электрон ҳукумат тизимини такомиллаштириш, дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологияларининг маҳаллий бозорини янада ривожлантириш, республиканинг барча ҳудудларида IT-паркларни ташкил этиш, шунингдек, соҳани малакали кадрлар билан таъминлашни кўзда тутувчи 220 дан ортиқ устувор лойиҳаларни амалга ошириш бошланган.

Бундан ташқари, 40 дан ортиқ ахборот тизимлари билан интеграциялашган геопортални ишга тушириш, жамоат транспорти ва коммунал инфратузилмани бошқаришнинг ахборот тизимини яратиш, ижтимоий соҳани рақамлаштириш ва кейинчалик ушбу тажрибани бошқа ҳудудларда жорий қилишни назарда тутувчи «Рақамли Тошкент» комплекс дастури амалга оширилмоқда.

Иқтисодийнинг реал секторида рақамли технологияларни ривожлантириш мақсадида қуйидаги тадбирлар амалга ошириш зарур: Жумладан:

- саноат корхоналарида замонавий ахборот технологияларини жорий қилиш дастурларини ушбу корхоналарни технологик қайта жиҳозлаш дастурлари билан уйғунлаштириш;

- корхона таъминотининг барча босқичларини автоматлаштириш ва бошқаришни таъминлаш, шунингдек, бу орқали логистика ва харид харажатларини қисқартириш;

- замонавий ахборот тизимлари ва дастурий маҳсулотларни жорий этиш ҳисобига маҳсулотлар ва хизматлар сифатини яхшилаш, уларнинг таннархини, ишлаб чиқаришдаги тўхталишларни камайтириш, молиявий-иқтисодий фаолиятнинг шаффофлигини ошириш;

- инновацион автоматлаштирилган бошқарув тизимлари ва дастурий маҳсулотларни жорий этиш бўйича норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш;

- ишчи жойларни босқичма-босқич автоматлаштириш ҳамда ишлаб чиқариш жараёнларини роботлаштириш, шунингдек, сунъий интеллект технологияларини жорий этиш;

- савдо ҳажмини ошириш ва мижозларга хизмат кўрсатишни яхшилаш мақсадида буюртмачилар (мижозлар) билан ўзаро муносабат механизмларини такомиллаштириш;

- бошқарув маълумотларини қабул қилишни қўллаб-қувватлаш тизимини, жумладан, реал вақт режимида бизнес-таҳлил тизимини жорий қилиш орқали такомиллаштириш;

- 2025 йилда корхона ресурсларини бошқариш тизимини (ERP) жорий қилган йирик хўжалик юритувчи субъектларнинг улушини 90 фоизга етказиш;

- саноат корхоналарида жорий этилаётган ишлаб чиқариш ва бошқарув жараёнларини автоматлаштириш (ERP, MES, SCADA ва бошқалар), роботлаштириш, «Интернет буюмлар», «сунъий интеллект» каби технологияларнинг дастурий маҳсулот қисмини 2027 йилга келиб, аппарат қисмини эса 2030 йилга келиб давлат-хусусий шериклик асосида маҳаллийлаштириш;

- коммунал хизматлар бўйича ҳисоб-китобларни бошқариш учун смарт технологияларни жорий қилиш, интеллектуал сервисларни жорий қилиш ва коммунал хизматларни тартибга солиш учун «ақлли уй» тажрибасини жорий этиш;

- 2022 йилда республиканинг барча йирик шаҳарларида жамоат транспортларида йўл ҳақи тўлашнинг автоматлаштирилган тизимини жорий этилди ва нақд пулсиз тўловлар улушини 90 фоизга етказилди;

- ҳар қандай йўловчи транспортда чипта сотиб олиш учун ягона платформани яратиш;

- корхоналар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотлар ва хизматларни интернет жаҳон ахборот тармоғи орқали сотиш бозорларини кенгайтириш;

- транспорт тизимини комплекс ривожлантириш учун дастурий моделлаштириш тизимларидан фойдаланиш механизмларини амалга ошириш;

- суғурта тизимини рақамлаштириш учун давлат-хусусий шериклик асосида рақамли суғуртани амалга ошириш механизмларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;

- логистика тизимини такомиллаштириш ва рақамли технологияларни жорий этиш мақсадида рақамли логистика тизимига босқичма-босқич ўтиш;

- иқтисодийнинг реал секторларида роботлаштирилган саноатни ривожлантириш ва амалга ошириш;

- йирик саноат корхоналари учун робототехника ва муҳандислик ихтисосликларини ташкил этиш;

- ишлаб чиқариш корхоналарида аддиктив (қаватма-қават куриш ва синтез қилиш технологияси, 3D ўлчамда босиб чиқариш) технологияларини кенг жорий этиш зарур.

Электрон тижорат ва электрон тўловлар тизимини ривожлантириш мақсадида қуйидаги тадбирлар амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Жумладан:

- ахборот-коммуникация технологияларини, шу жумладан мижозларни масофадан аниқлаш тизимларини жорий этиш орқали масофавий банк хизматларини ривожлантириш;

- халқаро электрон тижорат стандартлари ва замонавий ахборот хавфсизлиги талабларига риоя қилиш учун электрон тижоратни ривожлантиришнинг ҳуқуқий асосларини, шунингдек, мавжуд стандартлар ва электрон тижорат қоидаларини такомиллаштириш ва янгилаш;

- рақамли инфратузилмани ривожлантириш, мобил ва симли Интернет жаҳон ахборот тармоғи қамрови ва тезлигини янада ошириш орқали электрон тижорат платформаларига шахсий рақамли ускуналардан уланиш имкониятлари ва кўламларини ошириш;

- электрон тижорат ва электрон тўловлар тизимини янада ривожлантириш, шунингдек, электрон ҳукумат хизматларини тақдим этишда тўловларни қабул қилиш ва қайта ишлаш имкониятларини ҳисобга олган ҳолда, иқтисодиёт ва молия соҳасида ахборот инфратузилмасини такомиллаштириш;

- электрон тижоратнинг ривожидида муҳим рол ўйновчи почта ва логистика инфратузилмасини модернизациялаш ва техник янгилашни таъминлаш, логистика марказларини (фулфилмент) яратиш бўйича йирик лойиҳаларни амалга ошириш, ахборот технологияларини ва почта алоқаси объектларида автоматлаштирилган тизимлар жорий этиш, шунингдек, почта ва логистика хизматлари сифатини ошириш;

- жисмоний шахсларга Интернет жаҳон ахборот тармоғи орқали товарлар ва хизматлар учун тўловларни тўлашни ташкил этиш жараёнини осонлаштиришга имкон берадиган тўловлар агрегаторларини ривожлантириш;

- трансчегаравий электрон тижоратни ривожлантириш ва маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг маҳсулотларини қулай ва ўз вақтида экспорт қилишни таъминлаш;

- битта савдо майдончасида кенг кўламли банк ва банкдан ташқари молиявий хизматларни (қимматли қоғозлар билан операциялар, суғурта ва бошқалар) тақдим этишга йўналтирилган молиявий супермаркетларнинг бизнес моделини яратиш;

- тижорат банклари томонидан мижозларга масофавий банк хизматлари (интернет-банкнинг, банк-мижоз, смс-банкнинг ва бошқалар), шу жумладан, мобил иловалар орқали хизмат кўрсатиш кўламини ва сифатини ошириш;

- электрон тижорат соҳасида малакали кадрлар тайёрлаш ўқув жараёнининг даражаси ва сифатини тубдан яхшилаш, мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш, шу жумладан чет элдаги етакчи илмий-

тадқиқот муассасаларида, шунингдек, юқори малакали хорижий мутахассисларни жалб этиш;

- электрон тижорат билан шуғулланувчи субъектларнинг товар ва хизматлар учун тўловларини QR тўловлари технологияси ва NFC технологияларини жорий қилиш, жумладан мобил қурилмалар орқали тўловларни қабул қилиш орқали замонавий ва қулай бўлган масофавий усулларда қабул қилиш имкониятини яратиш;

- давлат сектори, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва хусусий сектор ўртасидаги яқин ҳамкорликда электрон тижорат ва рақамли тўлов платформаларини ривожлантириш ва кенгроқ фойдаланишга кўмаклашиш³ лозим.

Рақамли технологиялар таъсири натижасида дунё жадал ўзгариб бормоқда. Рақамли технологиялар давлат фаолиятининг барча тармоқларига кириб келди ва исталган давлатнинг жаҳон ҳамжамиятидаги тараққиёти ва рақобатбардошлиги ахборот технологияларининг самарали ривожланишига боғлиқ. Айнан замонавий рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши ва бунинг учун барча зарур шароитларнинг яратилиши давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

1-жадвал

Рақамли “Ўзбекистон — 2030” стратегиясининг мақсадли кўрсаткичлари⁴

Т/р	Кўрсаткич номи	Ўлчов бирлиги	Жорий ҳолати	Йиллар кесимидаги мақсадлар		
				2022	2025	2030
1	Республика бўйлаб қурилган оптик толали алоқа тармоғининг узунлиги	минг км	41	70	120	250
2	Республика ҳудудларининг юқори тезликдаги Интернет жаҳон ахборот тармоғи билан қамров даражаси	фоиз	67	74	85	100
3	Ижтимоий объектларнинг юқори тезликдаги Интернет жаҳон ахборот тармоғи билан таъминланганлик даражаси	фоиз	45	100	100	100
4	Уй хўжалиқларининг кенг полосали Интернет жаҳон ахборот тармоғи билан таъминланганлик даражаси	фоиз	67	74	85	100
5	Аҳоли пунктларининг кенг полосали мобил алоқа тармоғи билан қамров даражаси	фоиз	78	100	100	100

³<https://lex.uz/docs/5030957?ONDATE=14.07.2021&ONDATE2=31.10.2020&action=compare>.

“Рақамли

Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида 2020 йил 5 октябрь, ПФ-6079-сонли Фармони.

⁴Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон — 2030”

стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПФ-6079-сонли Фармони.

6	Электрон ҳукуматни ривожлантириш халқаро рейтингда «Электрон ҳукуматни ривожлантириш индекси»нинг самарадорлик кўрсаткичи	балл (0-1 оралиғида)	0,66	0,70	0,75	0,86
7	Давлат хизматлари марказлари томонидан кўрсатиладиган давлат хизматларига нисбатан Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали кўрсатиладиган электрон давлат хизматларининг улуши	фоиз	34	60	70	90
8	Ягона интерактив давлат хизматлари портали электрон давлат хизматларига нисбатан мобил қурилмалар ёрдамида фойдаланиш имкониятига эга электрон давлат хизматлари улуши	фоиз	5	30	42	60
9	Ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали кўрсатиладиган транзакциявий хизматлар улуши	фоиз	25	45	60	75
10	Корхона ресурсларини бошқариш тизимини (ERP) жорий қилган йирик хўжалик юритувчи субъектлар улуши	фоиз	20	40	65	100
11	Онлайн банк хизматлари фойдаланувчилари сони (юридик ва жисмоний шахслар)	млн нафар	10	15	17	20
12	Дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологиялари технологик паркининг инкубация ва акселерация дастурларига киритилган стартап-лойиҳалар сони	дона	50	250	700	2 300
13	Ахборот технологиялари соҳасида кадрларни тайёрлаш бўйича олий таълим ва ўрта махсус таълим муассасаларига қабул квоталар сони	минг	7	12	15	20

Рақамлаштириш бўйича 2023 йилги вазифалар ва режаларни бажарилишида, аҳоли энг кўп мурожаат қиладиган ички ишлар идораларида 34 та, адлия идораларида 32 та, “Ўзстандарт”да 29 та, соғлиқни сақлашда 11 та хизмат электрон шаклга ўтказилмагани аҳолини сарсон бўлишига олиб келмоқда. Мисол учун, ишга ёки ўқишга кириш, ҳайдовчилик гувоҳномасини олишда керак бўладиган “086-шакл” тиббий маълумотномани олиш учун одамлар ҳар сафар поликлиникага мурожаат қилишга мажбур. “086-шакл” тиббий маълумотномани олишни полкининкадаги фуқаронинг касаллик варақасига қараб электрон жойлаштириш лозим ва қаерда бўлса ҳам фуқаролар тиббий маълумотномани электрон шаклда олиб сўралган жойга тақдим этиши мумкин бўлади. Ерларни хусусийлаштириш учун мурожаат онлайн берилади. Аммо коммунал соҳадаги маълумотлар рақамлашмагани боис, кейинги босқичлар барибир “қўлда” инсон омили асосида амалга оширилмоқда. Ёки, йилига 300 мингдан зиёд харидор янги машина сотиб олади. Лекин, рўйхатдан

ўтиш ва давлат рақами олиш учун ҳалигача йўл ҳаракати хавфсизлиги хизматида бориш зарур. Президентимиз қолган вазирликларда ҳам рақамлаштириш бўйича ҳали халқимизни рози қиладиган тизим тўлиқ яратилмаганини таъкидлаб ўтдилар⁵.

Фикримизча “Рақамли иқтисодиёт” давлат, бизнес ва фанни бирлаштириши мумкин. Рақамли иқтисодиётда бошқа халқаро тизимлар ва амалий механизмлар билан интеграцияга эришиш учун «умумий дарча» механизмидаги маълумотлар моделлари ва ҳужжатлар халқаро стандартлари ва тавсиялари асосида ташкил қилиниши лозим. Интеграциялашиши лозим бўлган хабарлар ва ҳужжатларнинг бошланғич маълумотларини қамраб оладиган маълумотлар руйхатини тузишда, шунингдек, миллий маълумотлар моделини шакллантиришда уларни халқаро стандартлар талабларига мувофиқ тавсифлаш ва белгилаш зарур.

ХУЛОСА

Хулоса қиладиган бўлсак Рақамли “Ўзбекистон-2030” стратегияни тўлиқ сифатли бажариш орқали куйдаги натижаларга эришилади. Жумладан:

1. Алоқа ва телекоммуникацияларнинг очиқ ва рақобатбардош барча ижтимоий объектларни Интернет жаҳон ахборот тармоғи билан таъминлаш, республика бўйлаб оптик толали алоқа тармоғининг узунлигини кенгайтириш, аҳоли пунктларини юқори тезликдаги алоқа технологиялари (5G ва бошқалар) билан қамраб олиш даражасини ошириш ҳамда шаҳарлар ва қишлоқлар ўртасидаги рақамли тафовутни камайтириш лозим.

2. Электрон ҳукуматни ривожлантириш халқаро рейтингида энг ривожланган мамлакатлар қаторига кириш, электрон давлат хизматлари улушини ошириш, электрон давлат хизматларига ишончни мустаҳкамлаш, аҳолининг давлат органлари билан хавфсиз ва осон ўзаро ҳамкорлик қилишини таъминлаш, давлат, бизнес ва аҳолининг эҳтиёжларига қараб, ҳисоблаш қувватини самарали тақсимлаш ва ундан фойдаланиш зарур.

3. Республика бўйлаб коммунал соҳада электрон ҳисоблагичлар улушини ошириш, анъанавий қоғоз ёки электрон ҳужжатга нисбатан электрон ёзувнинг устунлиги, дастурий маҳсулотларнинг экспорт ҳажмини кенгайтириш, IT-паркда резидентлари сонини ошириш, инвестиция муҳитини яхшилаш, ахборот технологиялари соҳасида инвестициялар самарадорлигини ошириш мақсадга мувофиқ.

4. Аҳолининг рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукумат воситаларидан фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириш, аҳолининг барча қатламлари учун ахборот технологиялари соҳасида таълим олиш бўйича кенг

⁵ https://uza.uz/uz/posts/raqamlashtirish-boyicha-hali-xalqimizni-rozi-qiladigan-tizim-toliq-yaratilmagan_456682

имкониятларининг яратиш, ахборот технологиялари соҳасидаги профессионал кадрлар захирасини ва бошқарув кадрлари захирасини шакллантириш.

5. Рақамли “Ўзбекистон-2030” стратегиясида белгиланган мақсад ва вазифаларни ўз вақтида сифатли бажариш ҳамда IT-йўналиши бўйича олий таълим муассасалари битирувчилари сонини ошириш, республиканинг барча туманларида (шаҳарларида, қишлоқларида) рақамли технологиялар ўқув марказларини ташкил этиш таклиф этилади.

Рақамли иқтисодиётни янада ривожлантириш мақсадида қуйидаги йўналишларга алоҳида эътибор қаратилиши лозим:

1. Рақамли иқтисодиётга тўлиқ ўтиш учун етарлича шарт-шароитлар яратиб берилиши зарур. Жумладан,

- янги ахборот-коммуникацион технологияларни яратиш;
- мамлакатдаги компьютер саводхонлигини ривожлантириш;
- ушбу соҳада фаолият олиб боровчи малакали кадрлар сонини ошириш;
- рақамли иқтисодиётни республиканинг барча тармоқ ва соҳаларида қўлланилишини таъминлаш;
- интернет тезлигини ошириш ва сифатини яхшилаш;
- мамлакатнинг чекка ҳудудларига ҳам интернет хизматларининг тўлиқ ва сифатли етиб боришини таъминлаш.

2. Рақамли иқтисодиёт нима учун замон талабига айланиб бораётганлиги ва унинг истиқболлари, имкониятлари ҳақида ва фақатгина блокчейн технологиялари ҳамда криптовалюталардан иборат эмаслигини аҳолига тушунтириш ҳам муҳим саналади.

3. Электрон тижорат (онлайн савдо) иштирокчилари ўртасидаги рақобатни қўллаб-қувватлаш, янада ривожлантириш учун рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш лозим.

4. Ёш кадрларни ушбу соҳага жалб этиш, мутахассисларни "Рақамли иқтисодиёт" бўйича ривожланган хорижий давлатларнинг олийгоҳларида ўқитиб, малака оширишларига кўмаклашиш яхши натижаларга эришишга имкон яратиши мумкин.

5. Юқори малакали хорижий мутахассисларни жалб этиш лозим.

Бугунги кунда Ўзбекистан шароитида рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг қонуниятлари, тенденциялари ва имкониятларини, хусусан, ахборот технологияларининг иқтисодиётнинг турли соҳаларига кириб бориш даражаларини илмий асосда ўрганиш ниҳоятда долзарб аҳамият касб этади. Ватанимиз тараққиёти ва истиқболи, мамлакатимизда кенг кўламда амалга оширилаётган ислохотларнинг муваффақияти миллий иқтисодиётимизга янги инновацияларни жорий қилишга бевосита борлиқдир. Шу сабабли рақамли

иктисодиётни ривожлантириш, унинг иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва ҳуқуқий асосларини илмий-амалий жиҳатдан тадқиқ этиш муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. “Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида 2020 йил 5 октябрь, ПФ-6079-сонли Фармони.
<https://lex.uz/docs/5030957?ONDATE=14.07.2021&ONDATE2=31.10.2020&action=compare>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 апрелда “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4699 сонли Қарор.
3. <https://president.uz/uz/lists/view/3848>.
4. https://uza.uz/uz/posts/raqamlashtirish-boyicha-hali-xalqimizni-rozi-qiladigan-tizim-toliq-yaratilmagan_456682.
5. Makhmudova, G. N., Ashurov, Z. A., & Razakova, B. S. Development of digital ecosystem and formation of digital platforms in Uzbekistan, *π-Economy*, 15 (2)(2022) 7–21. *π-ECONOMY*, 15201, 7.
6. Махмудова, Г. Н., & Разакова, Б. С. (2021). Практическое значение цифровой платформы единого портала интерактивных государственных услуг.
7. Махмудова, Г. Н., & Разакова, Б. С. (2021). Развитие цифровой экосистемы в Узбекистане на основе платформенной концепции.
8. Махмудова, Г. Н. (2020). Структурные преобразования в условиях модернизации и цифровизации экономики Узбекистана. In Кластеризация цифровой экономики: теория и практика (pp. 140-165).
9. Махмудова Г.Н. Цифровизация банковской системы Узбекистана // Устойчивое развитие цифровой экономики, промышленности и инновационных систем (ЭКОПРОМ-2020) / Под ред. Д.Г. Родионова, А.В. Бабкина. СПб.: ПОЛИТЕХ-ПРЕСС, 2020. С. 380-383.
10. Гулямов С.С., Аюпов Р.Х, Абдуллаев О.М., БалтабаеваГ.Р. Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялар. - Т.: ТМИ, "Иқтисод-Молия" нашриёти, 2019.
11. Топилдиев С.Р. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.Elektron jurnal*. 2023-7 son. 388–394 b. (<https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/526>)
12. UN E-Government knowledge base 2018
13. The Boston Consulting Group (BSG)

14. <http://mitc.uz/uz/news/view/1186>
15. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>
16. <https://www.xabar.uz/uz/tehnologiya/koreya-ozbekistonda-elektron-huku>
matni-rivojlantirish
17. <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/65417-raqamli-iqtisodiyotning-fzal-liklari-va-istiqbolli-yunalishlari>
18. <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-ga-rovidir>

**O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining №0237 raqamli
guvohnomasi bilan OAV sifatida davlat tomonidan tasdiqlangan**

**Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga
kiritilgan**

RAQAMLI IQTISODIYOT

Ilmiy-elektron jurnali

DIGITAL ECONOMY

Scientific-electronic journal

Telefon: +998 55 501 03 02

E-mail: info@infocom.uz

Website: <https://infocom.uz>

<https://derc.uz>

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mahtumquli ko‘chasi, 1-a uy.

ISSN 2181-4430

“RITM” DM

2024

Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo'yicha
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

RITM! RAQAMLI
IQTISODIYOT
TADQIQOTLARI
MARKAZI



+998 55 5010302

t.me/DiEconomy

www.infocom.uz

info@infocom.uz

2024